Ma’ruza rejasi	<p>1.Paxtani quritish va tozalashning umumiy ta’rifi.</p> <p>2. Quritish rejimi.</p> <p>3. Paxtani tozalash usullari.</p> <p>4.Paxtani quritish-tozalash va ularga qo’yiladigan asosiy talablar.</p> <p>5. Quritishga topshirilgan paxtaning holati. uyumlarining fizik xususiyatlari - zichlik, o’z-o’zidan qizishi, g’ovaklik, namlik va boshqalar.</p>
<i>Mashg’ulotning maqsadi:</i> Paxtani quritish va tozalash haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, Paxtaning fizik xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish	
Pedagogik vazifalar	O’quv faoliyati natijalari:
Paxtani quritish va tozalash to’g’risida umumiy ta’rif beradi	Paxtani quritish va tozalash to’g’risida umumiy tushunchaga ega bo’ladi.
Paxtani quritish rejimlari bilan tanishtiradi	Paxtani quritish rejimlarini bilib oladi.
Paxtani quritish va tozalash mexanizmlari tavsifini keltiradi	Paxta quritadigan va tozalaydigan mexanizmlar to’g’risida tushunchalar shakllanadi
Quritish va tozalashga keltiriladigan paxtaning holati va fizik xususiyatlari to’g’risida asosiy ma’lumotlarni beradi.	Paxtaning holati va fizik xususiyatlarini o’zlashtiradi. Uning quritish va tozalashdagи ahamiyati to’g’risida ko’nikma shakllanadi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, “Klaster”, «Insert texnikasi», baxs-munozara,
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O’qitish shakllari	Jamoa, to’g’ridan-to’g’ri va guruhlarda ishlash
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash


#### Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	O’qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Yozib oladilar
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi	Tanishib chiqadilar
	1.3. Mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining tayanch iboralari va ma’ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so’rov usulida ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi	O’UM ga qaraydilar, yozib oladilar va fikrini aytadilar
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O’quv mashg’ulotining birinchi savoli bo’yicha ma’ruza qiladi. Paxtani quritish va tozalash to’g’risida umumiy tushuncha beradi. Talabalarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi: 1. Paxtani quritish va tozalashdan asosiy maqsad	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.

	<p>nima?</p> <p>2. Qanday namlikdagi paxtani quritishga jo'natish lozim va qanday quritish usullarini bilasiz?</p> <p>3. Sun'iy quritilgan paxtaning sifatida o'zgarish bo'ladimi?</p>	
	2.2. Paxtani quritish va tozalash rejimlarini slaydlar orqali tushuntiradi. (1-ilova)	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi.
	2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda Klaster texnologiyasidan foydalilanadi (2-ilova). Klaster asosida paxtaning kimyoviy tarkibi tushuntirilib uchinchi savolni umumlashtirib, xulosa qiladi	Juft-juft bo'lib, Klaster tuzadilar
	2.4. Paxta saqlanadigan omborlarga qo'yiladigan talablar ma'ruza qilinadi, tushuntiriladi	Tinglaydilar, yozib oladilar
	2.5. Quritish va tozalashga keladigan paxtaning holati va g'aramning fizik xususiyatlarini (3-ilova) slaydlar bilan tushuntiradi. Insert jadvali (4-ilova) vositasida talabalarning fikrini baholaydi	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi. insert jadvalini to'ldiradilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. O'tilgan mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi. Talabalarga savollar berib, babs yuritadi	Erkin fikrini bayon etadi
	3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlanriladi	Eshitadi
	3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalilanadigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi va O'UM ga qaraydilar

### Paxtani quritish usullari

1-slayd




### Paxtani sun'iy quritish rejimlari

2-slayd

- Texnik paxtani - 60-70<sup>0</sup>S
- Urug'lik paxta- 55-60<sup>0</sup>S
- Havo torti yo'li bilan-2-3 kun
- Paxta tolasi -105-110<sup>0</sup>S

## Chigitning kimyoviy tarkibi (klaster sxemasi)

2-ilova




## Paxta uyumining fizik xususiyatlari


3-slayd

### Paxta uyumining fizik xususiyatlari:

- zichlik
- o'z-o'zidan qizish
- g'ovaklik
- issiq-fizik va massa almashinuvi
- namlik
- temperatura ko'tarilishi



UXK rusumli kurama paxta tozalagich



Paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi SCh va  
1 XK tozalagichlari.

### **Paxta g'aramining fizik xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar**

4-slayd

#### **Paxta g'aramining fizik xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar:**

- agrotexnika
- namlik
- harorat
- paxta g'aramiga birlamchi ishlov berish (quritish, aralashmalardan tozalash)
- g'ovaklik
- ifloslanish
- issiq-fizik va massa almashinuvi

4-ilova

#### **«Insert» texnikasining qoidalari:**

1. Tekstni o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotni tizimlashtiring.
3. Har bir qatorga qalam yordamida belgilar qo'ying.

**V** – ma'lumotlar mavzuga oid bilimlarimga to'g'ri keladi.

**Q** – yangi ma'lumotdir.

- – olgan bilimlarimga to'g'ri kelmaydi.

? – meni o'ylantirib qo'ydi, bu masala yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar kerak.

**«INSERT» jadvali**

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	<i>Q</i>	-	?

V – bilaman.

Q - yangi ma'lumot.

- - bilganlarimga zid.

? – meni o'ylantirmoqda.

**1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

Talabalar soni: _____	Vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Informasion – ko'rgazmali ma'ruza
Ma'ruza rejasি	<p>1.Chigitli paxtada uchraydigan nuqsonlar to'g'risida umumiy ta'riflar.</p> <p>2.Paxta tarkibidagi nuqsonlarni bartaraf etish choraları.</p> <p>3.Tola haqida umumiy tushuncha.</p> <p>4.Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari.</p> <p>5.Tola sifat ko'rsatkichlarining to'qimachilik sanoatidagi ahamiyati.</p>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Paxta va tolanning asosiy texnologik xususiyatlari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, Paxtaning fizik xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish	
Pedagogik vazifalar	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Paxta va tolanning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida umumiy ta'rif beradi	Paxta tarkibida uchraydigan nuqsonlar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'ladi.
Paxta va tolanning asosiy xususiyatlari bilan tanishtiradi	Paxta va tolanning nuqsonlari haqida bilib oladi.
Paxta nuqsonlari va tolanning texnologik ko'rsatkichlari tavsifini keltiradi	Paxta va tolanning asosiy sifat ko'rsatkichlari to'g'risida tushunchalar shakllanadi
Paxtaning holati va fiziko-mexanik hamda texnologik xususiyatlari to'g'risida asosiy ma'lumotlarni beradi.	Paxtaning holati va fizik xususiyatlarini o'zlashtiradi. Uning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida ko'nikma shakllanadi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, "Klaster", «Insert texnikasi», baxs-munozara,
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O'qitish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash


**Ma'ruzaning texnologik kartasi**

Ish jarayonlari vaqtி	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Yozib oladilar
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi	Tanishib chiqadilar
	1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi	O'UM ga qaraydilar, yozib oladilar va fikrini aytadilar
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha ma'ruza qiladi. Paxta va tolanning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida umumiy tushuncha beradi. Talabalarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi: 1. Paxtaning asosiy nuqsonlarini bilishdan maqsad	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.

	<p>nima?</p> <p>2. Qanday nuqsonlar mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi?</p> <p>3. Tolaning asosiy texnologik ko'rsatkichlariga qanday ko'rsatkichlar kiradi?</p>	
	<p>2.2. Paxta vatolaning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha slaydlar orqali tushuntiradi. (1-ilova)</p>	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi.
	<p>2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda Klaster texnologiyasidan foydalilaniladi (2-ilova). Klaster asosida paxtaning kimyoviy tarkibi tushuntirilib uchinchi savolni umumlashtirib, xulosa qiladi</p>	Juft-juft bo'lib, Klaster tuzadilar
	<p>2.4. Paxta va tolaning sifat ko'rsatkichlari va ularga qo'yiladigan talablar ma'ruza qilinadi, tushuntiriladi</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar
	<p>2.5. Qabul qilingan paxtalarning holati va g'aramning fizik xususiyatlarini (3-ilova) slaydlar bilan tushuntiradi. Insert jadvali (4-ilova) vositasida talabalarning fikrini baholaydi</p>	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi. insert jadvalini to'ldiradilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	<p>3.1. O'tilgan mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi. Talabalarga savollar berib, babs yuritadi</p> <p>3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiriladi</p> <p>3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi</p>	<p>Erkin fikrini bayon etadi</p> <p>Eshitadi</p> <p>Eshitadi va O'UM ga qaraydilar</p>

### Paxtadan olinadigan asosiy mahsulotlar

1-slayd



### Paxtaning asosiy nuqsonlari

2-slayd

- Chigalliklar
- Jgutiklar
- Pishmagan xom tolalar
- Turli iflos aralashmalar
- Tolali o'lik
- Maydalangan chigit
- Tugunchalar

### Paxta tolasining asosiy sifat ko'rsatkichlari

2-slayd

- Tola chiqishi
- Tolaning pishganligi
- Tolaning buraluvchanligi
- Modal uzunlikdag'i tolalar
- Tolaning uzunligi

### Paxta uyumining fizik xususiyatlari

3-slayd

### Paxta uyumining fizik xususiyatlari:

- zichlik
- o'z-o'zidan qizish
- g'ovaklik
- issiq-fizik va massa almashinuvi
- namlik
- temperatura ko'tarilishi

### Paxta tolasi sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar

4-slayd

### Paxta g'aramining fizik xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar:

- agrotexnika
- namlik
- harorat
- paxta g'aramiga birlamchi ishlov berish (quritish, aralashmalardan tozalash)
- kasalliklar
- ifloslanish
- issia-fizik va massa almashinuvi

1-ilova

### «Insert» texnikasining qoidalari:

1. Teksti o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotni tizimlashtiring.
3. Har bir qatorga qalam yordamida belgilar qo'ying.  
 V – ma'lumotlar mavzuga oid bilimlarimga to'g'ri keladi.  
 Q – yangi ma'lumotdir.  
 - – olgan bilimlarimga to'g'ri kelmaydi.  
 ? – meni o'yantirib qo'ydi, bu masala yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar kerak.

### «INSERT» jadvali

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	<i>Q</i>	-	?

V – bilaman.

Q - yangi ma'lumot.

- - bilganlarimga zid.

? – meni o'yantirmoqda.

<b>7 mavzu</b>	<b>Urug'lik paxtani qabul qilish, saqlash va urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasi.</b>
--------------------	--

### 1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni:</i> ____	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Informasion – ko'rgazmali ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Urug'lik paxtani qabul qilish tartibi</li> <li>2. Urug'lik paxtani jamlash va saqlash tartibi</li> <li>3. Urug'lik paxtani qayta ishlash (jinlash) texnologiyasi</li> <li>4. Urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasi</li> </ol>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Talabaga urug'lik paxtalarni tayyorlash, topshirish, jamlash, saqlash, chigitni linterlash, saralash, kolibrlash, dorilash va qoplarga joylash haqida tushunchalar berish	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Urug'lik paxta haqida ta'rif beradi	Urug'lik paxtalarni qabul qilish va jamlash to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'ladi.
Urug'lik paxtalarni saqlash usullari bilan tanishtiradi	Urug'lik paxtani jarayonini jamlash usullarini bilib oladi.
Urug'lik chigit tayyorlash jarayoni tavsifini keltiradi	Sifatli urug'lik chigit tayyorlash jarayoni to'g'risida tushunchalar shakllanadi
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, "Klaster", «Insert texnikasi», baxsmunozara,
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash


#### Ma'ruzaning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Yozib oladilar
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materialarni tarqatadi	Tanishib chiqadilar
	1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralarini va ma'ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi	O'UM ga qaraydilar, yozib oladilar va fikrini aytadilar
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha ma'ruza qiladi. Urug'lik paxtani qabul qilish, saqlash va urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasi to'g'risida talabalarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi: 1. Urug'lik paxta qanday talabga asosan tayyorlanadi?	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.

	<p>2. Urug'lik paxtani saqlash va qayta ishlash jarayonlariga nimalar kiradi?</p> <p>3. Sifatli urug'lik chigit tayyorlash uchun nimalarga e'tibor berish kerak?</p>	
	<p>2.2. Urug'lik paxta va chigitni tayyorlash ishlarini slaydlar orqali tushuntiradi. (1-ilova)</p>	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi.
	<p>2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda slaydlardan foydalilanadi (2-ilova). Klaster asosida donning tushuntirilib uchinchi savolni umumlashtirib, xulosalaydi</p>	Juft-juft bo'lib, Klaster tuzadilar
	<p>2.4. Urug'lik chigitni tayyorlashni slaydlar bilan tushuntiriladi</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar
	<p>2.5. Tayyorlash jarayonlari (3-ilova) slaydlar bilan tushuntiradi. Insert jadvali (4-ilova) vositasida talabalarning fikrini baholaydi</p>	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi. insert jadvalini to'ldiradilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	<p>3.1. O'tilgan mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi. Talabalarga savollar berib, babs yuritadi</p> <p>3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiriladi</p> <p>3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalilanadigan adabiyotlar ro'yxati beriladi</p>	<p>Erkin fikrini bayon etadi</p> <p>Eshitadi</p> <p>Eshitadi va O'UM ga qaraydilar</p>

### Urug'lik chigit sifati

1-slayd



### Urug'li paxtaning na tozaligi

2-slayd

- Elita
- 1-avlod
- 2-avlod
- 3-avlod
- 4-avlod

## Urug'lik chigitga standart talabi

2-slayd

- Navtozaligi
- Unuvchanligi
- Mexanik shikastlanganligi
- Tuk qoldig'i
- Chigit namligi

## Urug'lik paxta va chigitni saqlash joylari

3-slayd

- G'aramda
- Omborda
- Naves ostida
- Maxsus isitiladigan xonada
- Konteynerda
- Qopda

## Urug'lik paxta va chigitning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar

4-slayd

- Agrotexnika
- namlik
- harorat
- paxta g'aramiga birlamchi ishlov berish (quritish, aralashmalardan tozalash)
- kasalliklar
- ifloslanish

1-ilova

### «Insert» texnikasining qoidalari:

1. Tekstni o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotni tizimlashtiring.
3. Har bir qatorga qalam yordamida belgilar qo'ying.  
V – ma'lumotlar mavzuga oid bilimlarimga to'g'ri keladi.  
Q – yangi ma'lumotdir.  
- – olgan bilimlarimga to'g'ri kelmaydi.  
? – meni o'ylantirib qo'ydi, bu masala yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar kerak.

### «INSERT» jadvali

Javob variantlari	V	Q	-	?

V – bilaman.

Q - yangi ma'lumot.

- - bilganlarimga zid.

? – meni o'ylantirmoqd

<b>8 mavzu</b>	<b>PAXTA TOZALASH ZAVODLARIDA PAXTANI DASTLABKI ISHLASHNING TEKNOLOGIK JARAYONI.</b>
--------------------	--

### 1.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni:</i> _____	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg’ulot shakli</i>	Informasion – ko’rgazmali ma’ruza
<i>Ma’ruza rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Paxta g’aramlarini buzish.</li> <li>2. Paxtani quritish va tozalash.</li> <li>3. Paxtani qayta ishlash (jinlash) texnologiyasi</li> <li>4. Chigitni linterlash texnologiyasi.</li> <li>5. Tolani toylash va toyni joylashtirish.</li> </ol>
<i>Mashg’ulotning maqsadi:</i> Talabaga paxta g’aramini buzish, tozalash, jinlash, linterlash, chigitni saralash, joylash va jo’natish haqida tushunchalar berish	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O’quv faoliyati natijalari:</i>
Paxtani qayta ishlashga jo’natish. Separator va tosh tutkichdan o’tkazish.	Paxta g’aramlarini buzish, yirik aralashmalardan tozalash to’g’risida umumiy tushunchaga ega bo’ladi.
Paxtalarni tozalash va quritish, jinlash usullari bilan tanishtiradi	Paxtani quritish-tozalash jarayonini uni jinlash (tolani chigitdan ajratish) texnologiyasini bilib oladi.
Chigit tayyorlash jarayoni tavsifini keltiradi	Sifatli tola va moy chiqishi yuqori chigit tayyorlash jarayoni to’g’risida tushunchalar shakllanadi
<i>O’qitish usullari va texnika</i>	Ma’ruza, “Klaster”, «Insert texnikasi», baxs-munozara,
<i>O’qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
<i>O’qitish shakllari</i>	Jamoa, to’g’ridan-to’g’ri va guruhlarda ishlash
<i>O’qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta’milangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash


### Ma’ruzaning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o’qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Yozib oladilar
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo’yicha tarqatma materialarni tarqatadi	Tanishib chiqadilar
	1.3. Mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining tayanch iboralari va ma’ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so’rov usulida ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi	O’UM ga qaraydilar, yozib oladilar va fikrini aytadilar
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O’quv mashg’ulotining birinchi savoli bo’yicha ma’ruza qiladi. Paxta g’aramlarini buzish va qayta ishlashga jo’natish texnologiyasi to’g’risida talabalarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi: 1. G’aramni buzish tartibi qanday bo’ladi? 2. Paxtani qayta ishlash uchun uni jinga qanday etkazadi? 3. Paxtani qayta ishlashdan so’ng qanday mahsulotlar olinadi?	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.

	2.2. Paxtani jinlash ishlarini slaydlar orqali tushuntiradi. (1-ilova)	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi.
	2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda slaydlardan foydalaniladi (2-ilova). Klaster asosida donning tushuntirilib uchinchi savolni umumlashtirib, xulosalaydi	Juft-juft bo'lib, Klaster tuzadilar
	2.4. Tolani toyplash va chigitni joylashtirish jarayonini tushuntiriladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
	2.5. Tayyorlash jarayonlari (3-ilova) slaydlar bilan tushuntiradi. Insert jadvali (4-ilova) vositasida talabalarning fikrini baholaydi	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, yozib boradi. insert jadvalini to'ldiradilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. O'tilgan mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi. Talabalarga savollar berib, babs yuritadi 3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiriladi 3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Erkin fikrini bayon etadi Eshitadi Eshitadi va O'UM ga qaraydilar

### Dastlabki qayta ishlashdan so'ng paxtadan olinadigan mahsulotlar

1-slayd



### Paxtani dastlabki qayta ishlashda qanday jarayonlardan o'tadi

2-slayd

- Tozalash
- Quritish
- Separator tosh tutkich
- Jinlash
- Tolani tozalash
- Tolani toyplash
- O'lik tolani toyplash
- Chigitni linterlash va delinterlash
- Chigitni saralash
- Chigitni kolibrash
- Chigitni dorilash
- Chigitni tuksizlantirish
- Chigitni qoplarga joylash
- Texnik chigitni yog'-moy kombinatiga jo'natish

## Texnologik jarayonlarda ishlataladigan mexanizmlar

3-slayd

- G'aram buzgich-
- Jin –
- Linterlar-
- Presslar-
- Saralash mexanizmi-
- Kolibrash mexanizmi
- Dorilash mexanizmi-

### «Insert» texnikasining qoidalari:

1. Tekstni o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotni tizimlashtiring.
3. Har bir qatorga qalam yordamida belgililar qo'ying.
  - V – ma'lumotlar mavzuga oid bilimlarimga to'g'ri keladi.
  - Q – yangi ma'lumotdir.
  - – olgan bilimlarimga to'g'ri kelmaydi.
  - ? – meni o'yantirib qo'ydi, bu masala yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar kerak.

### «INSERT» jadvali

Javob variantlari	V	Q	-	?

V – bilaman.

Q - yangi ma'lumot.

- - bilganlarimga zid.

? – meni o'yantirmoqda

### Nazorat savollari

- 1.Paxta zavodlarida ishlataladigan jin necha arralik bo'ladi?
- 2.Jinning ishlash quvvati qanday aniqlanadi?
- 3.Chigit nima uchun linterlanadi?
- 4.Chigini tuksizlantirishning necha usuli mavjud?
- 5.Toylangan tola vazni qancha bo'ladi?
6. Regenerasiyalangan tola deganda nimani tushunasiz?

### 3.2. Laboratoriya ishlari bo'yicha ta'lim texnologiyalari

1 mavzu	<b>TOPShIRILGAN PAXTADAN NAMUNA OLISH TARTIBI</b>
<b>Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi</b>	
<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Topshiriladigan paxtadan namuna olish ishlari tashkil qilishni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Namuna olish bo'yicha tashkiliy tadbirlar bilan tanishish.</li> <li>2. Namuna turlari va ularning tartibi bilan tanishish.</li> <li>3. Namuna olishda kerakli jihozlar va hujjatlashdirish ishlari.</li> </ol>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Fermer xo'jaliklari tomonidan topshiriladigan paxtadan tahlil uchun namunalar olish tadbirlar tizimi bilan tanishish. Namuna olish uchun kerakli asbob-uskunalar, materiallar va saqlashga bo'lgan talabni o'rganish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>3. Paxtni qabul qilish va undan namuna olish bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishishtiradi.</li> <li>4. Namuna olish usullari va tartibini tushuntirib beradi.</li> <li>5. Namuna olishda kerakli jihozlar va ularni umumlashtirishni o'rgatadi.</li> </ol>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• laboratoriya mashg'ulot rejalar bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Paxtadan namuna olish bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlarni bilib oladi;</li> <li>• Namuna olish usullari va tartibini bilib oladi;</li> <li>• Namuna olishda kerakli jihozlar va ularni belgilangan maxsus joylarga qo'yib, umumlashtirishni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

#### Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vagti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	<p>1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).</p> <p>1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.</p>	<p>Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.</p> <p>Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.</p>
	<p>2.1. Namuna olish bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).</p> <p>2.2. Namuna olish usullari va tartibini tushuntirib</p>	<p>Tanishadilar, yozib oladilar.</p> <p>Yozib olishadi, venna</p>
II-bosqich. Asosiy (60 minut)		

	beradi. Namuna olish bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Paxta namunalari olishda kerakli jihozlarni tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishlash uchun mashq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova.

### Namuna olish bo'yicha joriy qilingan Davlat standartlari

Paxtani qabul qilishda chigitli paxta namunasining sifatini aniqlash uchun tanlab olish O'zbekiston Respublikasining standarti (O'zRST 615-94) – Paxta bo'yicha bajariladi.

Namunani tanlab olish agar u urug'lik paxta bo'ladigan bo'lsa O'zRST 643-95 "Paxta" standarti bo'yicha namunalar tanlab olinadi va tahlil qilinadi

2-ilova


### Guruhlarga topshiriqlar:

#### 1-guruhg'a

#### 2-guruhg'a

**1-vazifa.** Namuna olish usullarining afzalligi va kamchiligini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

#### Venna diagrammasi:



3-ilova

**Vazifa.** Xo'jalikdan kelgan traktor tirkamasidagi chigitli paxtadan namuna olishni bajarish.

#### Ishlash tartibi:

### NAMUNA OLISH USULLARI

Namuna olishni paxta tayyorlash punktlarida chigitli paxtani qabul qilishda va ularni punktlardan paxtani qayta ishlash zavodlariga yuborishda amalga oshiriladi.

Namuna olishni chigitli paxtani tushirish joylaridan ham amalga oshirsa bo'ladi.

Namunani olish uchun shiypon qilish kerak, bu shiyponning ichida namunalarni quyosh nuridan va issig'idan, chang, yog'in-sochindan asrash uchun, hamda chigitli paxtaning namligini va iflosligini aniqlash maqsadida namunalarni idishlarda saqlashga himoyalangan joy ajratish kerak tekshirish uchun olingan bir bo'lak chigitli paxtaning ma'lum bir qismi namuna bo'lib hisoblanadi.

**Bir nuqtadan olingan namuna-** ayni bir paytda uyumning bir joyidan olingan namunaga aytildi.

**Umumlashtirilgan namuna-** nuqtadan olingen namunalar seriyasidan tashkil topgan namunalar hisoblanadi.

**O'rtacha kunlik namuna-** bir qancha birlashtirilgan namunalardan iborat bo'lган namunalar turkumiga aytildi.

Har bir xo'jalikdan bir kun davomida olingen namunalar to'plami umumlashgan namunalar hisoblanadi.

Chigitli paxtani nuqtali namunasining namligi va iflosligi bo'yicha asbobiyl tajriba uchun qopqog'i zinch yopiladigan kichkina idishga joylashtiriladi. Idishga paxta topshirgan xo'jalik nomi, idish ichiga esa ma'lumotnomasi (unda to'plam tartibi (partiyasi), terim turi, sanoat navi, seleksion navi, terilgan sana) yozib qo'yiladi. Mayda idishlarga joylab olingen chigitli paxtaning namunalari 6-8 kg hajmidagi katta idishlarga solinadi (katta idishning taxminiy o'lchami: bo'yi 0,7 m va eni (diametri) 0,4 m).

Katta idishga paxta topshirgan xo'jalik nomi, bo'lim yoki brigada, seleksion va sanoat navi, terim turi, uyum tartibi yorliq (etiketka)ga yozib qo'yiladi, masalan:

Uyum № 9

O'rta – Chirchiq tumani

"Mustaqillik" j/x

S-6524 navi

Qo'l terimi –I/1 navi

Urug'lik paxta-R<sub>1</sub>

25.09.2010 yil

Uyum № 6

O'rta – Chirchiq tumani

"Mustaqillik" j/x

Namangan-77 navi

Qo'l terimi –I/2 navi

05.10.2010 yil

Katta idishlar qizdiruvchi asboblardan uzoqlikda maxsus ajratilgan joylarda yoki laboratoriyalarda joylashtiriladi.

Og'irligi 3-4 kg dan kam bo'lmanagan o'rtacha kunlik namuna qabul qilish kuni bo'yicha yig'iladi, u bo'yicha bir kunda bir marotaba namunaning namligi va iflosligi har bir xo'jalik jamlangan uyumlar qirqimidagi bo'lim yoki brigada uchun laboratoriya tahlillari o'tkaziladi

Namunalarni bunday tahlildan o'tkazish terimning turiga seleksion va sanoat navlariga va boshqa belgilariga qarab aniqlanadi. Bu namuna paxtaning namligini nazorat qilish qilish zarur bo'lganda foydalanish uchun bir sutka mobaynida saqlab turiladi.

Namunalarni namlik va iflosligini bilish maqsadida analiz olishda (ajratish, aralashtirish va boshqalar) hamda og'irligini tortishni iloji boricha tahlildan oldin va keyin iloji boricha o'tkazilishi kerak.

Taftish nazorat qilishda hamma holatda birinchi ko'rsatkichdan (nisbat) prosentlar quyidagi farqlar bo'lismiga ruxsat etilad:

Ifloslanishi bo'yicha-10 % namuna bir qaytarilishda, namligi 5 % namuna esa uch qaytarilishda.

Agar namunaning birinchi va taftish nazorat qilish natijalari bo'yicha olingen ko'rsatkich farqlanish mana shu yuqorida ko'rsatilgan chegaradan baland bo'lmasa, unda birlamchi tahlil to'g'ri deb topiladi.

Munozara, baxs va baholash paytida sifatga bo'lgan va paxtani topshiruvchi ishtirokida paxta punktining laboranti hamma navlar uchun har 2 tonna paxtaning uchta joyidan nuqtali namuna oladi. Hamma olingen namunaning umumiyl og'irligi 1 kg dan kam bo'lmasligi kerak.

Har bir katta idishga o'rtacha kun bo'yicha olingen namunalarga sifatlarga ajratuvchi kishi shakl №2-XL bo'yicha paxtani tahlil qilish natijalari ma'lumotlarini yozib qo'yadi. Bu ma'lumotga namuna olgan sinfga ajratuvchi kishi va xo'jalik paxtasini topshiruvchi kishi imzo qo'yadi.

Laborant paxtani navi, namligi va iflosligini aniqlab, natijalarini shakl №2-XL ma'lumotnomasi va laboratoriya jurnaliga yozib boradi va qo'l qo'yadi.

Ma'lumotnomaning yuza tomoniga sinfga ajratuvchi kishi va topshiruvchi imzo qo'yadi, orqa tomoniga namuna olgan klassifikator va katta klassifikator hamda laboratori mudiri imzo qo'yishadi.

Ma'lumotnomasi to'ldirilgandan keyin uni hisobchiga yuboriladi.

2 mavzu	<b>QO'LDA VA MASHINADA TERILGAN PAXTANING DAVLAT STANDARTLARI BILAN TANISHISH.</b>
------------	--

### **Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Qo'lida va mashinada terilgan paxtaning davlat standartlari bilan tanishish ishlarini tashkil qilishni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<p>1.Qo'lida va mashinada terilgan paxtaning davlat standartlari bilan tanishish.</p> <p>2.Qo'lida terilgan paxtaning standart me'yorlari bilan tanishish.</p> <p>3.Mashinada terilgan paxtaning standart me'yorlari bilan tanishish.</p>
<p><i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Fermer xo'jaliklari tomonidan topshirilgan paxtadan tahlil uchun namunalar olish tadbirlar tizimi bilan tanishish. Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lgan Davlat standartini o'rganish</p>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>1. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</p> <p>2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</p> <p>3. Paxtani sanoat sortini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Paxtani topshirishda mavjud standart me'yorlarni tushuntirib beradi.</p> <p>5. Paxta sortlarini aniqlashda amal qilinadigan me'yorlarni o'rgatadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• laboratoriya mashg'ulot rejalar bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Paxtani nechta sanoat naviga qabul qilishni bilib oladi;</li> <li>• Paxtani nechta tipga bo'lib qabul qilishni bilib oladi;</li> <li>• Paxtani nav va tipga ko'ra amalagi preyskurant bo'yicha umumlashtirishni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### **Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.

II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Paxta sortini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.
	2.2. Paxtaning xususiyatlarini tushuntirib beradi. Navini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Paxta sortini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishslash uchun tpshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova.

### Namuna olish bo'yicha joriy qilingan Davlat standartlari

Paxtani qabul qilishda chigitli paxta namunasining sifatini aniqlash uchun tanlab olish O'zbekiston Respublikasining standarti (O'zRST 615-94) – Paxta bo'yicha bajariladi.

Namunani tanlab olish agar u urug'lik paxta bo'ladigan bo'lsa O'zRST 643-95 "Paxta" standarti bo'yicha namunalar tanlab olinadi va tahlil qilinadi

2-ilova

### Guruhlarga topshiriqlar:


#### 1-guruhg'a

**1-vazifa.** Navni aniqlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi va undagi kamchilikni aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

#### 2-guruhg'a

**1-vazifa.** O'rta va ingichka tolali paxta namunalari bo'yicha navni aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

### Venna diagrammasi:



3-ilova

**Vazifa.** Xo'jalikdan qabul qilib olingan chigitli paxta namunalari bo'yicha navni aniqlashni bajarish.

### Ishlash tartibi: MASHG'ULOT MAZMUNI.

Paxta tolasining fizik-mexanik ko'rsatkichlari: shtapel vazn uzunligi, chiziqli zichlik va solishtirma uzilish kuchiga (1 va 2 nav), ko'ra 1 – jadvaldagi me'yorlarga muvofiq to'qqizta – 1<sup>a</sup>, 1<sup>b</sup>, 1,2,3,4,5,6,7-tiplarga bo'linadi. Bunda paxtadagi paxta tolasining tipi shtapel vazn uzunligi yoki chiziqli zichlikning eng yomon ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi.

1<sup>a</sup>, 1<sup>b</sup>, 1,2,3-tipdagi tolalarga ega bo'lgan paxta uzun (yoki ipak) tolali, 4,5,6,7 –tipdagi tolalarga ega bo'lgan paxta esa o'rta tolali g'o'za navlari toiasi deb hisoblanadi.

Har bir tipdagi paxta rangi, tashqi ko'rinishi, pishib etilganlik koeffisienti bo'yicha jadvaldagi talablarga va belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshti sanoat naviga bo'linadi: I,II,III,IV va V.

Paxta navi rangi va pishib etilganlik koeffisienti eng yomon ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Paxta navi iflos aralashmalarining miqdori va namligiga qarab jadvaldagi ko'rsatilgan talablarga muvofiq sinflarga bo'linadi:

#### 1-sinf-qo'lida terilgan paxta.

#### 2-sinf-mashina terimi paxtasi.

#### 3-sinf-erdan terib olingan (turli aralash, iflos paxtalar).

1-jadval

Paxta navi	Paxta tolasining tiplari bo'yicha pishiqlik koeffisienti, <b>kamida</b>		Tiplar bo'yicha paxta tolasining rangi va tashqi ko'rinishi	
	1 <sup>a</sup> ,1 <sup>b</sup> ,1,2,3	4,5,6,7	1 <sup>a</sup> ,1 <sup>b</sup> ,1,2,3	4,5,6,7
1	2	3	4	5
I	2,0	1,8	Oq yoki tabiiy nimrang tusli oq yoki seleksion navi yoxud o'stirilgan joyiga bog'liq bo'lgan nimrang tusli. Ko'rinishi yaltiroq va ipaksimon.  qo'l bilan ushlanganda egiluvchan va zich. qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi to'lqinsimon, mashina terimidagi paxta esa alohida tolali chigitlardan va qisman yoyilgan jingalak pallachalardan iborat. Ba'zan alohida pallachalardan o'lik tola uchrab turadi.	Oq yoki seleksion navi va o'stirilgan tumaniga bog'liq tabiiy, oq nimrang.
II	1,7	1,6	Yaltiramaydigan oqdan oq sariq tusli va kichik sariq dog'gacha. Yaltiroq va ipaksimonligi 1-navga nisbatan pastroq.  qo'l bilan ushlaganda 1-navga nisbatan kamroq egiluvchan va zichdir. qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi to'lqinsimon, mashina terimidagi esa alohida tolali chigitlardan va qisman yoyilgan jingalak pallachalardan iborat va yaltiroq kichik ko'rinishdagi plastik holda o'luk tolalar uchrashi mumkin.	Yaltiramaydigan oqdan oqish sariq dog'li oqsariq tusgacha.
III	1,4	1,4	Yaltiramaydigan oqdan oqsariq tusgacha yoki sariq notekis tusdagi sariq dog'li	Xira oqdan, oqsariq, sarg'ishroq dog'li yaltiramaydigan

			kulrangroq, qariyb yaltiroqsiz.	kulrangroqqacha.
			qo'l terimdagi kichik to'lqinsimon paxta pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastika o'tuvchi ko'rinishiga, mashina terimidagi esa alohida tolali chigitlardan va cho'zilgan, qisman yoyilgan va alohida cho'zilmagan va pishmagan aralashma pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastiklardan iborat.	
IV	1,2	1,2	Sariq yoki oqish sariq, notejis kulrangroq va qo'ng'ir dog'li tusdagi. Yaltiramaydigan.	Xira oq va oqsariqdan sarg'ish, oqsariq, kulrang va qo'ng'ir dog'li.
			qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zikh emas, asosiy qismi cho'zilgan, qisman aralashmagan pallachalar, shuningdek, cho'zilmagan, pishmaganpallachalar, alohida tolali chigitlar guruhi har xil darajadagi yoyilgan, pallachalardan ko'pchilik qismi yaltiroq plastik ko'rinishdagi o'luk tolalardan iborat.	
V	1,2 dan kamroq	1,2 dan kamroq	qo'ng'ir dog'li sariqqacha. Kulrang.	Xira oq yoki xira oqsariqdan qo'ng'ir dog'li yaqqol sariqqacha. Kulrang.
			qo'l bilan ushlaganda umuman egiluvchan va zikh emas, paxta pallachalarining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi pishmagan va o'luk tolalar yaltiroq plastikni hosil qiladi.	

Paxta navi aralashmalarning miqdoriga va namligiga qarab, jadvalda keltirilgan me'yorlarga binoan quyidagi sinflarga bo'linadi: 1-sinf (qo'lida terilgan), 2-sinf (mashina terimi), 3-sinf (erdan terib olingan paxtalar).

2-jadval

Paxta navi	Paxta sinflari bo'yicha iflos aralashmalarning vazniy ulushi va namlikning vazniy nisbati me'yorlari, %, ko'pi bilan					
	1-sinf		2-sinf		3-sinf	
Iflos aralashmala rning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Iflos aralashmal arning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Iflos aralashmala rning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	
1	3.0	9.0	10.0	12.0	16.0	14.0
2	5.0	10.0	10.0	13.0	16.0	16.0
3	8.0	11.0	12.0	15.0	18.0	18.0
4	12.0	13.0	16.0	17.0	20.0	20.0
5	-	-	-	-	22.0	22.0

<b>3 mavzu</b>	<b>ChIGITLI PAXTANING NAMLIGINI ANIQLASH</b>
--------------------	--

### Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Chigitli paxtaning namligini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<p>1.Qo'lda va mashinada terilgan paxtaning namligini aniqlash standart me'yorlari bilan tanishish.</p> <p>2.Paxta namligini aniqlash uchun namunalar olish va tahlilga tayyorlash..</p> <p>3.Namlikni aniqlash uskunasi bilan tanishish.</p>
<p><i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Fermer xo'jaliklari tomonidan topshirilgan paxtadan namlik darajasini tahlil qilish ishlari tanishish. Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lган Davlat standartini o'rganish</p>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>1. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</p> <p>2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</p> <p>3. Paxtaning namligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Paxtani topshirishda namlik va ifloslik ko'rsatkichlari bo'yicha mavjud standart me'yorlarini tushuntirib beradi.</p> <p>5. Paxta nalgini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Paxtani namligini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>• Paxtani nav va tipga ko'ra amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.</li> <li>• Paxtani quritish, tortish va ularni formula bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishslash uchun, bahsmunoza, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishslash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.

II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Paxta namligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batapsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.
	2.2. Paxtaning xususiyatlarini tushuntirib beradi. Namligini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Paxta namligini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova.

### Namuna olish bo'yicha joriy qilingan Davlat standartlari

Paxtani qabul qilishda chigitli paxta namunasining sifatini aniqlash uchun tanlab olish O'zbekiston Respublikasining standarti (O'zRST 615-94) – Paxta bo'yicha bajariladi.

Namunani tanlab olish agar u urug'lik paxta bo'ladigan bo'lsa O'zRST 643-95 "Paxta" standarti bo'yicha namunalar tanlab olinadi va tahlil qilinadi.

Chigitli paxtani va tolani namligini USX-1, (VSX-M1) apparatida aniqlash.

Namuna tashish bankalari - d-200 mm, h-350 mm.

2-ilova


### Guruhlarga topshiriqlar:

#### 1-guruhg'a

#### 2-guruhg'a

**1-vazifa.** Paxta namligi nima va unga e'tibor berish kerakligi va undagi kamchilikni bo'lishini aniqlab quyidagi venna aniqlab quyidagi venna diagrammasini diagrammasini to'ldiring.

### Venna diagrammasi:



### 3-illova

**Vazifa.** Xo'jalikdan qabul qilib olingan chigitli paxta namunalari bo'yicha namligini aniqlashni bajarish.

#### Ishlash tartibi: MASHG'ULOT MAZMUNI.

Paxta tolasining fizik-mexanik ko'rsatkichlari: shtapel, vazn, paxtaning namligi va iflosligi uning sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Paxtadagi nam miqdorining uning absolyut quruq massasiga bo'lgan foiz hisobidagi nisbati **paxtaning namligi** deb yuritiladi.

Asosan paxtaning namligi hisobiy va chegaralangan namligi bilan farq qiladi.

Hisobiy namlik bu standartda ko'rsatilgan asosiy me'yor, chegaralangan namlik esa namlikning eng yuqori me'yori bo'lib, har bir nav uchun alohida belgilangan namlikdagi paxta qabul qilinadi.

Davlat standartida namlikning hisoblash ko'rsatkichi qo'lda va mashinada terilgan paxta uchun bir hil, chegaralangan namligi esa har bir nav uchun qabul qilingan (jadval).

Qo'lda va mashinada terilgan paxtaning namlik me'yorlari, % .

Umumlashtirilgan namunadan chigitli paxtani namligini aniqlashuchun VXS-M-1 PRIBORIGA 1 ta 40 gr namuna olinadi. Namlik 22%dan ko'p bo'lsa 40 grammdan -2 ta namuna olinadi.

Labaratoriya asboblarida paxtani qabul qilishda har bir olib kelinadigan partiyadan namlik necha % bo'lishidan qa'tiy nazar 1 ta 40 gr namuna olinadi.

Quritish asbobinin yuqorigi va pastki plitalari (quritish) orasidagi issiqlik  $(195 \pm 2)$  S<sup>0</sup> quritish plitalarining orasi  $3,7 \pm 0,1$  mm ish sikli  $5 \text{ min} \pm 10$  \* S quritishda issiqliknini boshqarish avtomatik bajariladi.

Namunani priborga qo'yishdan oldin, priborni ishga tayyorligini tekshirib ko'ramiz. Analizlar boshlanishidan 30-40 min oldin asbob elektr tarmog'iga ularib, «Norma» degan ishchi holatiga kelgan bo'lishi kerak  $(195 \pm 2)$  S<sup>0</sup>.

Olingan namuna bir xil qalinlikda mis plastinkaga yoyib qo'yiladi, priborning qopqog'i dastasidan ehtiyyotkorlik bilan ushslash yo'li bilan yopiladi.

«Quritish» (sushka) tugmasi bosilib, pribor ishga tushiriladi 5 minutdan so'ng «sushka» chirog'i o'chib, signal chalinadi. Priborning dastasi yordamida qopqoq ochilib namuna byuksga solinadi va qopqog'i yopilib tortiladi. Tarozining yo'l qo'yilish xatoligi 0,02 gr oshmasligi kerak.

Namunaninig namligi (W) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$W = \frac{m_h - m_c}{m_c} \cdot 100 - 0,6$$

Bunda:  $m_h$  – namunaning (dastlabki) quritmasidan oldingi vaqtidagi massasi, g;

$m_c$  – namunani quritilgandagi massasi, g. – yoki chigitli paxta va tolaning namligi quyidagi usul bilan aniqlaniladi.

0,6 – namlikni aniqlashdagi to'g'rakash koefisiyenti.

Misol

Qo'lda terilgan paxtani namligini aniqlang

$$m_h = 40 \text{ gr.} \quad W = \frac{m_h - m_c}{m_c} \cdot 100 - 0,6 = \frac{40 - 37,9}{37,9} \cdot 100 - 0,6 = 4,94$$

$$m_c = 37,90.$$

Sutkalik yoki birlashtirilgan namunani ikkitasining tahlil natijalarini tekshirganda, dastlabki namunaning og'irligi sutkalik namuna og'irligidan namlik 10% dan ko'p bo'lganda 5% dan oshmasligi kerak.

**TOPShIRIQ:**

1. Har bir talaba mavzuga oid tushuntirish matnini o'qib chiqib , o'rganib va daftarga asosiy ma'lumotlarni yozib oladi.
2. Laboratoriyyada mavjud bo'lgan qo'lda va mashinada terilgan chigitli paxtani namligini aniqlaydi.

Paxta navi	Paxta sinflari bo'yicha iflos aralashmalarning vazniy ulushi va namlikning vazniy nisbati me'yorlari, %, ko'pi bilan					
1-sinf	2-sinf	3-sinf	1-sinf	2-sinf	3-sinf	1-sinf
Iflos aralashmala rning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Iflos aralashmal arning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Iflos aralashmala rning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Namlikning vazniy nisbati
<b>1</b>	3.0	9.0	10.0	12.0	16.0	14.0
<b>2</b>	5.0	10.0	10.0	13.0	16.0	16.0
<b>3</b>	8.0	11.0	12.0	15.0	18.0	18.0
<b>4</b>	12.0	13.0	16.0	17.0	20.0	20.0
<b>5</b>	-	-	-	-	22.0	22.0

<b>4 mavzu</b>	<b>ChIGITLI PAXTANING IFLOSLIGINI ANIQLASH</b>
--------------------	--

### **Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Chigitli paxtaning iflosligini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasি</i>	<p>1.Qo'lda va mashinada terilgan paxtaning iflosligini aniqlash, standart me'yorlari bilan tanishish.</p> <p>2.Paxta iflosligini aniqlash uchun namunalar olish va tahlilga tayyorlash..</p> <p>3.Ifloslikni aniqlash uskunasi bilan tanishish.</p>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Fermer xo'jaliklari tomonidan topshirilgan paxtadan ifloslik darajasini tahlil qilish ishlari tanishish. Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lgan Davlat standartini o'rganish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>6. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</p> <p>7. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</p> <p>8. Paxtaning iflosligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirdilar bilan tanishtiradi.</p> <p>9. Paxtani topshirishda namlik va ifloslik ko'rsatkichlari bo'yicha mavjud standart me'yorlarini tushuntirib beradi.</p> <p>10. Paxta iflosligini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Paxtani iflosligini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>• Paxtani iflosligini aniqlash zaruratini bilib oladi;</li> <li>• Paxtani nav va tipga ko'ra amalda standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.</li> <li>• Paxtani tozalash, tortish va ularni formula bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### **Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmini</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
<i>I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)</i>	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
<i>II-bosqich.</i>	2.1. Paxta iflosligini aniqlash bilan bog'liq barcha	Tanishadilar, yozib

Asosiy (60 minut)	tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	oladilar.
	2.2. Paxtaning xususiyatlarini tushuntirib beradi. Iflosligini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Paxta iflosligini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova.

### Namuna olish bo'yicha joriy qilingan Davlat standartlari

Paxtani qabul qilishda chigitli paxta namunasining sifatini aniqlash uchun tanlab olish O'zbekiston Respublikasining standarti (O'zRST 615-94) – Paxta bo'yicha bajariladi.

Namunani tanlab olish agar u urug'lik paxta bo'ladi dan bo'lsa O'zRST 643-95 "Paxta" standarti bo'yicha namunalar tanlab olinadi va tahlil qilinadi.

Chigitli paxtani va tolani iflosligi aniqlashda EHM, plastmassa idishlar 30 kishiga -15 ta katta, 15 ta kichik, 15 ta pinsent, LKM-2 qurulmasi, SXL-3 labarotoriya qurutgichi, Namuna tashish bankalari.

2-

ilova


### Guruhlarga topshiriqlar:

#### 1-guruhg'a

#### 2-guruhg'a

**1-vazifa.** Paxta iflosligi nima va unga e'tibor berish kerakligi va undagi kamchilikni bo'lishini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

### Venna diagrammasi:



## Turli iflos jismlar

Paxta xom ashysiga turli xil mineral va organik jismlarning qo'shilishi uning iflosligini belgilaydi va ularning miqdori uning boshlang'ich massasiga nisbatan foiz hisobida aniqlanadi. Mineral iflosliklarga tuproq, toshchalar, qum va toshchalar kiradi. Organik iflosliklarga barg bo'lakchalari, guli, chanoqlari, poyasi, shoxlari va sanoat ahmiyatiga ega bo'limgan tolalar kiradi.

Mashinada terilgan paxta, qo'lda terilgan paxta uchun O'zRST 615-94 da ifloslikning hisoblash va chegaralangan (ruxsat etilgan me'yorlari) ko'rsatilgan

### Paxta namunasini olish tartibi

Laboratoriyada ifloslikni aniqlash uchun namunani tanlashda-umumlashtirilgan namuna oynalik yoki usti yaltiroq qatlamlidir ish stolida yaxshilab aralashtirilib, chang yoki mayda iflosliklarning yo'qolmasligiga e'tibor berish kerak. Namuna bir xil qalinlikda to'g'ri to'rt burchak shaklida yoyilib, diogonaliga teng to'rt qismga bo'lamiz. Ikki qarama-qarshi tomon va ulardan tushib qolgan iflosliklarini ham qo'shib tashlab yuboramiz. Qolgan namunani yana stolga teng qalinlikda yoyib qo'yib yuqoridagi takrorlanadi. Qachonki bunday bo'linish umumlashtirilgan namunani miqdori 1 kg miqdori qolguncha davom etadi.

LKM asbobi uchun o'rtacha kunlik namuna yoki bir vaqtning o'zida umumlashtirilgan namunadan 3ta. 300 gr. dan (bittasi extiyot uchun).

Har bir topshirilayotgan paxta partiyasidan LKM asbobi uchun 1ta 300 gr. dan Qo'lda ifloslikni aniqlash uchun esa 1 ta 100 gr. dan Laboratoriyada tortiladigan namunalarning og'irligi 0.1 gr. aniqlikdan ko'p bo'lmasligi kerak.

### 3-illova

**Vazifa.** Xo'jalikdan qabul qilib olingan chigitli paxta namunalari bo'yicha iflosligini aniqlashni bajarish.

#### Ishlash tartibi: MASHG'ULOT MAZMUNI.

Agarda ikkala o'rtacha namunaning ifloslik darajasi ko'rsatkichlari orasidagi farq 10% gacha bo'lган paxta uchun 0,6% dan ortiq bo'lmasa paxtaning haqiqiy iflosligini topish uchun shu ko'rsatilgan chegaradan yuqori bo'lsa extiyot uchun belgilangan 3 chi namunani ham tekshirib, uchala ko'rsatkichning qiymati aniqlanadi.

Paxta gommoz bilan kasallanganda tolaning sifati pasayib ketadi. Gommoz bilan kasallangan tola sarg'ayadi, bir-biriga va chanoqqa yopishib qoladi. Gommoz bilan kasallangan chigitli paxta miqdorini aniqlashda labaratoriya keltirilgan namunadan 500 gr ajratib olinib, gommoz bilan kasallangan paxta qo'lda terilgan bo'lsa uning ichidan paxta pallalari, mashinada terilgan bo'lsa kasallangan letuchkalar ajratib olinadi va tarozida tortilib kasallangan paxtaning % da ifodalangan miqdori aniqlaniladi.

**Misol:** Mashinada terilgan paxtani iflosligini aniqlash. tarozida tortib olingan 300 gr namunadan mayda kesak qurigan ko'sak chanog'i hamda singan shox bo'laklari va shunga o'xshash aralashmalarini ajratib olib paxta LKM ning 1- bunkeriga solinadi va asbobni ishga tushirish uchun «tugmacha bosiladi» bunkerdagи chigitli paxta qopqoq ochilishi bilan dastlab qoziqli birinchi seksiyaga o'tadi va tezlik bilan qopqoq yopiladi.

Chigitli paxta 1- seksiyada 120 sekund tozalanadi va 1- seksiya chiroq'i yonib turadi. 2 minutdan so'ng birinchi seksiyaning chiroq'i o'chadi. 2- chi seksiyaning chiroq'i yonib avtomatik ravishda qopqoq ochilibr, paxta 2- seksiyaga o'tadi, u erda 45 sekund tozalanadi. Ish tugaganligini bildirib chiroq yonib 2- seksiya o'chadi. 15 sekund ichida ish tugaganligini bildirib chiroq o'chib avtomatik ravishda to'xtab qoladi.

Qurilma to'xtaganidan keyin yirik va mayda iflos to'plangan idishlar qurilmadan olinib, ulardag'i bir chigitli paxta, urug', tola qoldiqlari iflos aralashmalarga kirmaydigan aralashmalar ajratib

olinadi. Tozalangan paxta yig'iladigan kamera olib ko'rilib, u erda yirik iflos aralashmalar (barg bandi, begona o'tlar poyasi, bargi, g'uzo po'chogi) bor yo'qligi tekshirilib agar bo'lsa ular iflos aralashmalarga qo'shiladi.

Yig'ilgan yirik va mayda iflosliklar bilan birga oldin olib qo'yilgan iflosliklar qo'shib tarozida tortilidi. Sinalayotgan ikkita namunani LKM asbobidan o'tkazib chigitli paxtani iflosligini o'rtachasi arifmetik yo'l bilan topiladi. Bunda agar ifloslik darajasi 10% gacha bo'lgandagi namunalar orasidagi farq - 0.6% dan, ifloslik 10% dan yuqori bo'lganda esa farq 1% dan oshmasligi kerak. Aks hollarda esa ifloslik tahlil uchun uchta namunaning o'rtachasidan hisoblab topiladi.

Chigitli paxta namunasining iflosligi (% da) quyidagicha aniqlaniladi.

$$\beta_{\Phi} = \frac{m_c}{m} \cdot 100$$

$\beta_{\Phi}$  - namunadan ajratib olingan iflos aralashmalar yig'indisi, %;

$m_c$  - namunadan ajratib olingan iflos aralashmalar yig'indisi, gr.

$m$  - 300 gr – namunanig tozalanmasdan oldingi massasi gr.

Tozalanmay qolgan iflos aralashmalar, erkin tola qoldiqlari, ulyuk, urug' yadrosi kompensatsiya qilinadi. Tolasi qiyin tozalanadigan seleksion navlarda to'liq kompensatsiya qilish qiyin bo'lgani uchun koeffisient qo'llaniladi. Bunda quyidagi ifodadan foydalaniladi.

$$\beta_{\Phi} = \frac{m_c \cdot 100}{m} \cdot K \quad \beta_{\Phi} = \frac{12,8_c \cdot 100}{300} \cdot 1,15 = \frac{1280}{300} \cdot 1,15 = 4,6$$

G'o'zaning S-6524 va Yulduz navlarining chigitli paxtasidan qoldiq iflosligini hisobga olinadigan navlar qatoriga kiradi va «Paxtasanoati» tavsiya etgan koeffisient qo'llaniladi S-6524 navida  $K = 1$ . agar ifloslik -7% dan kam bo'lsa to'g'rilash koeffisienti  $K = 1$ . ifloslik 7 % dan va undan ko'p bo'lsa  $K = 1.09$ .

**Misol:** mashinada terilgan paxtani iflosligini aniqlash.

### TAHLIL NATIJALARI 1- sanoat navi, S-6524.

1-jadval:

Ko'rsatkichlar	1 -namuna		2-namuna	
	gr	%	gr	%
Boshlang'ich namuna ogirligi	300	100	300	100
Mayda iflosliklar	4,5		4,8	
Yirik iflosliklar	8,25		8,45	
<b>Jami iflosliklar</b>	<b>12,8</b>	<b>4,2</b>	<b>13,2</b>	<b>4,4</b>

$$\beta_{\Phi} = \frac{4,2 + 4,4}{2} = \frac{8,6}{2} = 4,3$$

**Misol -2:** Termiz-31 navining iflosligini aniqlash.

## TAHLIL NATIJALARI 1 – sanoat navi, Termiz-31.

2-jadval:

Misol:	gr	%	gr	%
Boshlang'ich namuna ogirligi	300		300	
Mayda iflosliklar	3,55		3,7	
Yirik iflosliklar	7,35	100	6,95	100
<b>Jami iflosliklar</b>	<b>10,90</b>	<b>3,63</b>	<b>10,65</b>	<b>3,55</b>

$$3_{ypm} = \frac{3,6 + 3,55}{2} \times 1,15 = 3,59 \times 1,15 = 4,13\%$$

### TOPShIRIQ:

1. Har bir talaba mavzuga oid tushuntirish matnini o'qib chiqib , o'rganib va daftarga asosiy ma'lumotlarni yozib oladi.
2. Laboratoriyada mavjud bo'lgan qo'lida va mashinada terilgan chigitli paxtani iflosligini aniqlaydi.

### **Paxtani qabul qilish bo'yicha amaldagi Davlat standarti**

Paxta navi	Paxta sinflari bo'yicha iflos aralashmalarning vazniy ulushi va namlikning vazniy nisbati me'yorlari, %, ko'pi bilan					
	1-sinf		2-sinf		3-sinf	
	Iflos aralashmala rning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Iflos aralashmal arning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati	Iflos aralashmala rning vazniy ulushi	Namlikning vazniy nisbati
<b>1</b>	3.0	9.0	10.0	12.0	16.0	14.0
<b>2</b>	5.0	10.0	10.0	13.0	16.0	16.0
<b>3</b>	8.0	11.0	12.0	15.0	18.0	18.0
<b>4</b>	12.0	13.0	16.0	17.0	20.0	20.0
<b>5</b>	-	-	-	-	22.0	22.0

<b>5 mavzu</b>	<b>ChIGITLI PAXTANI NAVLARGA AJRATISH, ANDOZALAR (ETALONLAR) BILAN TANISHISH VA QO'lda TERILGAN ChIGITLI PAXTANING NAVINI ANIQLASH</b>
--------------------	--

### Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Chigitli paxtani navlarga ajratish, andozalar (Etalonlar) bilan tanishish va qo'lda terilgan chigitli paxtaning navini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<p>1.Qo'lda terilgan paxtaning navini aniqlash, standart me'yorlari bilan tanishish.</p> <p>2.Paxta navini aniqlash uchun namunalar olish va tahlilga tayyorlash..</p> <p>3.Paxta navini aniqlash uskunasi bilan tanishish.</p>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i>	Fermer xo'jaliklari tomonidan topshirilgan chigitli paxtani navlarga ajratish, andozalar (Etalonlar) bilan tanishish va qo'lda terilgan chigitli paxtaning navini aniqlashni tahlil qilish ishlari bilan tanishish. Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lgan Davlat standartini o'rganish
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Laboratoriya mashg'ulot rejalar bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>Paxtaning navini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>Paxta navini aniqlash zaruratini bilib oladi;</li> <li>Paxtani nav va tipga ko'ra amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.</li> <li>Paxtani tozalash, guruhlarga ajratish tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahs-munozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqtி</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalgalashishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
II-bosqich.	2.1. Paxta navini aniqlash bilan bog'liq barcha	Tanishadilar, yozib

Asosiy (60 minut)	tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	oladilar.
	2.2. Paxtaning xususiyatlarini tushuntirib beradi. Paxta navini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Paxta navini aniqlash bo'yicha standart talabalarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova.

### CHIGITLI PAXTANING NAVINI ORGANOLEPTIK USUL BILAN ANIQLASHDA QUYIDAGI JADVALDAN FOYDALANILADI

1-jadval

Namuna og'irligi, g	Sanoat navi guruhlari bo'yicha bo'lakchalar miqdori,g					Chigit va chirigan paxta bo'lakchalari og'irligi, g	Navning yig'indi og'irligi, g	Tekshirish natijasiga ko'ra chigitli paxtaning sanoat navi
	I-nav	II-nav	III-nav	IV-nav	V-nav			
	<b>1-namuna</b>							
500 g	26,1	108,7	265,0	34,8	-	65,0	435,0	III
Foyizda	6,0	25,0	61,0	8,0	-	11,5	100	
<b>2-namuna</b>								
500 g								
Foyizda								

2-ilova

#### Guruhlarga topshiriqlar:

##### 1-guruhg'a


##### 2-guruhg'a

**1-vazifa.** Paxtaning (o'rta tolali

S-6524) navini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

**1-vazifa.** Paxtaning (ingichka tolali Termiz-31) navini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

#### Venna diagrammasi:



### Paxta navini aniqlash uchun namuna olish tartibi

Talaba har bir navning namligi, ifloslik darajasi va ta’rifini albatta bilishi kerak. Hozirgi vaqtida chigitli paxtaga ishlatiladigan standart bo'yicha chigitli paxta ukparlanishi, zichligi, bo'lakchalarning nisbiy kattaligi aniqlanadi.

Chigitli paxta navi namunadagi har bir bo'lakchalarning navlar bo'yicha miqdor (og'irlik) foyizini aniqlash bo'yicha topiladi.

Standartda ko'rsatilgan belgilari bo'yicha namuna gruppalarini tashkil qiluvchi ayrim bo'lakchalarni navlarga ajratish maqsadida chigitli paxtadan tahlil qilish uchun 500 g dan 3 ta namuna olinadi.

Navlar bo'yicha namuna olib uni tekshirib ko'rib bo'lingandan keyin har bir bo'lakcha "tipik" va "notipik" guruhlarga ajratib tortiladi. Notipik guruhlarga chigit, chirigan paxta bo'laklari va hokazolar kiradi. Hamma olingen og'irliklar jamlanadi.

Har bir nav bo'lakchalarini foyiz hisobidagi miqdori guruhlarning yig'indi og'irligiga qo'shiladi, lekin namunani boshlang'ich og'irligiga qo'shilmaydi.

Navni aniqlashda asosiy qilib og'irligi eng katta bo'lgan bo'lakchalar guruhi olinadi. Bu guruhlarning foyiz miqdoriga navga ega bo'lgan guruhlarning foyizi arifmetik tarzda qo'shiladi.

Yuzaga kelgan sonlar summasi ilovada ko'rsatilgan ruxsat berilgan sonlar bilan solishtiriladi.

### 3-ilova

**Vazifa.** Xo'jalikdan qabul qilib olingen chigitli paxta namunalari bo'yicha sanoat navini aniqlashni bajarish.

ILOVA:

Paxta navini aniqlashda shu navga xos guruhlarga ajratish  
O'zRST 615-94 bo'yicha quyidagicha bajariladi.

2-jadval

Nav	Nav bo'laklari							Qurigan, chirigan, pishmagan tolali bo'laklar
	Oliy	I	II	III	IV	V	VI	
Oliy	90 % dan ko'p bo'Imagan	10 % dan ko'p bo'Imagan	-	-	-	-	-	-
I	-	90 % dan	8-10 %	2 % dan	-	-	-	-

		kam bo'l'magan	dan kam bo'l'magan	kam bo'l'magan				
II	-	-	90 % dan kam bo'l'magan	10 % dan kam bo'l'magan 8 % dan kam bo'l'magan	2 % dan kam bo'l'magan	-	-	-
III	-	-	-	90 % dan kam bo'l'magan 90 % dan ko'p bo'l'magan	10 % dan kam bo'l'magan 8 % dan ko'p bo'l'magan	2 % dan kam bo'l'magan	-	-
IV					85 % dan kam bo'l'magan	15 % dan ko'p bo'l'magan		
V	-	-	-	-	-	90 % dan kam bo'l'magan	10 % dan ko'p bo'l'magan	2 % dan kam bo'l'magan
VI	-	-	-	-	-	-	100 %	20 % dan ko'p bo'l'magan

### TOPShIRIQ:

Paxta bo'lakchalarini (navini) organoleptik usulda baholash bo'yicha chigitli paxtaning navini aniqlashni (turli navga xos g'o'za navlari bo'yicha) bajaring.

6 mavzu	PAXTA QABUL QILISH PUNKTLARIGA TOPShIRILAYOTGAN PAXTANING KONDISION (TOZA) HAQ TO'LAYDIGAN OG'IRLIGINI ANIQLASH
<b>Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi</b>	
Talabalar soni:	Vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Paxta qabul qilish punktlariga topshirilayotgan paxtaning kondision (toza) haq to'laydigan og'irligini aniqlashni o'rghanishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>Paxta qabul qilish punktlariga topshirilayotgan paxtaning kondision (toza) haq to'laydigan og'irligini aniqlash uchun tushuncha berish va namuna olish.</li> <li>Paxta kondision og'irligini aniqlash uchun preyskuratnlar bilan tanishish.</li> <li>Paxtaning kondision og'irligini aniqlash.</li> </ol>
Mashg'ulotning maqsadi: Fermer xo'jaliklari tomonidan topshirilgan chigitli paxtaning kondision (toza) haq to'laydigan og'irligini aniqlash.	
Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lgan Davlat standartini o'rghanish	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:.
16. Mavzuni mustaqil o'rghanish uchun asos yaratadi;	<ul style="list-style-type: none"> <li>Laboratoriya mashg'ulot rejali bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> </ul>
17. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;	<ul style="list-style-type: none"> <li>Paxtaning kondision og'irligini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>Paxtang kondision og'irligini aniqlash zaruratinini</li> </ul>

18. Paxtaning navini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.	bilib oladi;
19. Topshirilgan paxtaning kondision (toza) haq to'laydigan og'irligini aniqlashni tushuntirib beradi.	• Paxtani nav va tipiga ko'ra amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.
20. Paxta kondision og'irlikni aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.	• Paxtani tozalash, quritish, guruhlarga ajratish tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

#### **Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Paxtaning kondision og'irligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.
	2.2. Paxtaning xususiyatlarini tushuntirib beradi. Paxtaning kondision og'irligini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Paxtang kondision og'irligini aniqlash bo'yicha standart talabalarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova.

## PAXTANING KONDISION OG'IRLIGINI ANIQLASHDA BAJARILADIGAN ISHLAR

1996 yil paxta hosilidan boshlab topshirilayotgan paxtaga haq to'lash O'ZRST 615-94 "Paxta" Texnik shartlar qo'llanmasi (instruksiya) bo'yicha bajariladi.

Bu qo'llanma bo'yicha topshirilayotgan paxta selekssion va sanoat navi, terim turi (qo'lda yoki mashinada), iflosligi, namligi, tashqi ko'rinishi, tolasining etilganlik darajasi va boshqa belgilarini hisobga olgan holda alohida-alo'hida qabul qilinadi.

Topshirilayotgan paxta tashqi ko'rinishiga va tolasining etilganligiga qarab 5 ta sanoat navi ajaratiladi va qabul qilinadi. Sanoat navi ko'rsatkichi Rim raqami (I, II, III, IV, V) bilan yoziladi.

Qo'lda, mashinada, ko'rak holida terilib dalada (ko'sak chuvish mashinasi-UPX-1,5) da tozalangan bo'lsa, bunday paxtalar qo'l terimi paxtasi sifatida qabul qilinadi.


Paxta qabul qilish zavodlarida va punktlaridan olingan namunalar bo'yicha laboratoriyada namligi va iflosligi aniqlanadi. Paxta kondision (toza) haq to'lanadigan og'irlilikka keltiriladi

2-ilova

### Guruhlarga topshiriqlar:

1-guruhg'a	2-guruhg'a
<b>1-vazifa.</b> Paxtaning S-6524 navini hisobiy vaznni aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.	<b>1-vazifa.</b> Paxtaning kondision vaznni aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

### Venna diagrammasi:



3-ilova

**Vazifa.** Xo'jalikdan qabul qilib olingan chigitli paxta namunalarini bo'yicha kondision og'irligini aniqlashni bajarish.

### Ishlash tartibi:

$$M_k \frac{M_r}{100} \frac{Q_w}{W_f}$$

$$\frac{M_r q M_f \frac{100 Q Z_f}{100 Q Z_r}}{100 Q Z_r}$$

Bunda:  $M_r$ -paxtaning iflos aralashmalari hisobiy me'yoriga keltirilgan vazni, kg.

$M_f$ -qabul qilib olingan paxtaning vazni, kg.

$Z_f$ -paxtadagi iflos aralashmalarning haqiqiy vazni, %.

$Z_r$ -iflos aralashmalarning 2,0 % ga teng bo'lgan hisob vazn ulushi me'yori.

$W_f$ -haqiqiy namlikning vazniy nisbati %.

$W_r$ -namlikning 9,0 % ga teng bo'lgan vazniy nisbatining hisobiy me'yori.

ILOVA:

#### TOPShIRIQ:

**1-misol.** Qo'lda terilgan 3000 kg paxta I-sanoat navining 1-sinfiga topshirildi. Laboratoriya da aniqlanganda haqiqiy iflosligi 10 %, namligi 12 % bo'ldi. Kondisiya og'irligini toping?

**2-misol.** mashinada terilgan 6000 kg paxta II-sanoat navining 2 sinfiga topshirildi. Laboratoriya da iflosligi 5 %, namligi 10 % ekanligi aniqlandi. Bu topshirilgan paxtaning kondisiya og'irligini toping?

**3-misol.** Mashinada terilgan 10 000 kg paxta III-sanoat navining 2-sinfiga topshirilgan. Iflosligi 12 %, namligi 15 % chiqqan. Kondisiya og'irligini toping?

**4-misol.** Mashinada terilgan 1500 kg paxta IV-sanoat navining 2-sinfiga topshirildi. Laboratoriya da iflosligi 20 %, namligi 20 %. Kondisiya og'irligi qancha?



**1-rasm. Paxta g'arami (to'dasi).**

**Eslatma:** Paxtaning iflosligi LKM, LKM-12, 2L-12, 1L-12M apparatlarida aniqlanadi.

Paxta namligi VTS, USX-1, UZ-7M termonamo'lchagich va quritish shkaflarida aniqlanadi.

<b>7 mavzu</b>	<b>PAXTA TOLASINING ChIQISHI, TOLALIK INDEKSI (TOLALIK DARAJASI) VA 1000 DONA URUG'NING OG'IRLIGINI ANIQLASH.</b>
--------------------	---

### **Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i> 21	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Ildizmevalilar uyumi sifatini tahlil qilishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Paxtaning asosiy sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilishni o'rganish.</li> <li>2. Uyumdagи paxtalar sifati va holatini tahlil qilish.</li> <li>3. Paxtadan tola chiqish miqdorini aniqlash.</li> <li>4. Paxtaning tolalik indeksi (tolalik darajasi) ni aniqlash.</li> </ol>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Topshirilgan chigitli paxtadan tola chiqishi, tolalik darajasi va 1000 dona chigitning vaznini aniqlashni o'rgatish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>2. mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>3. paxtaning asosiy sifat ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi;</li> <li>4. paxtaning sifati va holatini aniqlashni o'rgatadi.</li> <li>5. Paxta partiyasidan o'rtacha tola chiqishi, chigitdagi tola miqdori va 1000 ta chigitning vaznini aniqlashni o'rgatadi</li> </ol>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• har bir partiyadagi paxtaning sifati va holatini tahlil qila oladi;</li> <li>• mustaqil ravishda paxtadan tola chiqishi, tolalik darajasiva 1000 ta chigit vaznini amaldagi uslubiyat bo'yicha aniqlay oladi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### **Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Paxta mahsuloti va uning asosiy sifat ko'rsatkichlari to'g'risida tushuncha beradi (1-ilova).	tanishadilar, formulani yozib oladilar.
	2.2. Paxta partiyasining sifati va holatini aniqlash	Yozib olishadi

	tartibini tushuntiradi.	
	2.3. Turli sharoitda saqlanayotgan paxtaning sifat ko'rsatkichlarini amaldagi belgilangan uslubiyat bo'yicha aniqlashni o'rgatadi.	Yozib olishadi
	2.4. Turli sharoitda saqlanayotgan paxtaning sifat ko'rsatkichlarini amaldagi belgilangan uslubiyat bo'yicha aniqlash uchun topshiriq beradi.	Topshiriqni bajarishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova

### Tahlil uchun bajariladigan ishlar

1. Talabalarning mustaqil ish rejalari, O'zRST standartlari kerak bo'ladi.
2. Talabalar jining tuzilishi bilan tanishadilar (Tolani chigitdan tola ajratuvchi mashina (jin) DPV-130 yoki DV-10 kabi mashinalarda ajratiladi), 300 g dan chigitli paxta namunasi 4 ta qaytarilishda olib tortiladi, har bir namuna paxtasi chigitdan tolani ajratuvchi mashina-jindan o'tkaziladi. Bunda hosil bo'lgan har qaysi namuna tolsi tarozida tortiladi va shu navga xos chigitli paxtadan qancha tola chiqqanligi aniqlanadi.
3. Mashg'ulot uchun manba (turli navga xos) chigitli paxta, paxta tolsi va urug' namunalari olinadi.

### MAShG'ULOT MAZMUNI

**Paxta tolasining chiqishi deb**, chigitli paxtadan olinadigan asosiy mahsulot-tolaning miqdoriga aytildi.

**Misol:** 1-namunadagi chigitli paxta og'irligi 100,0 g. Tolaning sof og'irligi 37,0 g, chigit og'irligi esa 63,0 g ga teng.

2-namunadagi chigitli paxta og'irligi ham 100,0 g bo'lib, undagi tolasining og'irligi 36,5 g ga, chigit esa 63,5 g ga teng. Tola chiqishi:

#### *1000 dona chigit vaznini aniqlash.*

Namunalar o'rtasidagi mumkin bo'lgan farq 0,5 %. Har birida 1000 dona chigit bo'lgan, ma'lum g'o'za naviga xos chigit partiyasi umumiylasidan 2 ta katta namuna tayyorlanadi. Bu 2 ta namunaning har qaysisidan 100 tadan chigit namunasi ajratib olinadi. Olingan 100 talik namunalar alohida tortiladi. So'ngra bu namunalar ikkalasi qo'shilib, 10 soniga ko'paytiriladi.

**Masalan:** 1-namunadagi chigitning og'irligi 12,0 g;

2-namunadagi chigit og'irligi esa 12,5 g.

Bularning o'rtacha og'irligi 12,25 g. Tahlil natijalariga ko'ra shu ikkala namunalar o'rtasidagi farq 0,5 g bo'ldi. Bu namunalar to'g'ri olingan. 12,25 g og'irlik o'rtacha 100 ta chigitning og'irligini bildiradi. 1000 ta chigitning og'irligi  $12,25 \times 10 = 122,5$  g bo'ldi. Demak, shu navga xos bo'lgan partiyadagi 1000 ta chigitning og'irligi 122,5 g ekanligi aniqlandi.

#### *Tolalik indeksi (darajasi) ni aniqlash.*

Bu krsatkich urug'ning tuklanish darajasi bo'lib, 100 dona chigitdan olingan gramm hisobidagi tolaning osf og'irligi tushuniladi. Buning uchun namuna paxtasidan 100 ta tolali chigit ajratib olinadi. Har bir tolali chigitli paxta 1 ta bo'lakchadan olinadi. Namunalar bo'lakchaning pastki juftligidan tepaga qarab ikkinchi juftlikdan olinadi. Birinchi juftlik tahlil uchun etarli xususiyatlarga ega emas deb hisoblangan.

Har biri 100 ta chigitli paxtadan iborat 2 ta namuna olib chigitdan tolasi tozalanadi va

tortiladi. Shu namunadagi 100 ta chigitli paxtadan olingen tolaning vazn ko'rsatkichi tolalik indesi deb aytildi.

**Masalan:** 1-namunadagi 100 ta tolali chigitdan olingen tola og'irligi 7,0 g, 2-namunadagi tola esa 7,8 g chiqdi. Ikkita namunaning o'rtacha og'irligi topish uchun shu ikkala namuna natijalari sonini qo'shamiz va ikkiga bo'lamic. Bunda (7,0 Q 7,8) : 2 q 7,4 g bo'ldi. Demak, topshirilgan paxtaning tolalik indeksi 7,4 g ekan.

Tolalik indeksini nazariy jihatdan quyidagicha hisoblanadi.

$$\frac{100 \cdot G}{I_v q \quad n}$$

Bunda: Iv – chigitli paxtaning tolalik darajasi, g.

G- namunadagi tolaning og'irligi, g.

n- namunadagi chigit soni, d.

<b>8 mavzu</b>	<b>ChIGITNING QOLDIQ TOLALIGINI ANIQLASH</b>
--------------------	--

#### **Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Tayyorlangan chigitning qoldiq tolaligini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Paxtani jinlash va linterlashdan keyin olingen chigitning qoldiq tolaligini aniqlash uchun tushuncha berish va namuna olish.</li> <li>2. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash bilan tanishish.</li> <li>3. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash.</li> </ol>

#### *Mashg'ulotning maqsadi:* .

Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lgan Davlat standartini o'rganish

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> <li>21. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>22. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>23. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.</li> <li>24. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlashni tushuntirib beradi.</li> <li>25. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.</li> </ol>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>• Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash zaruratini bilib oladi;</li> <li>• Chigitning qoldiq tolaligini amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.</li> <li>• Chigitni guruhlarga ajratish tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishslash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishslash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lrim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.
	2.2. Chigitning qoldiq tolaligini tushuntirib beradi. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova

#### Ishlash tartibi:

Ikkita namuna bo'yicha 200 dona chigitdan ajratib olingan, uzunligi 6 mm dan oshiq bo'lgan tolalarning gramm hisobidagi og'irligi **chigitning qoldiq tolaligi** deb aytildi.

Bundan tashqari chigit tarkibidagi ozod-birikmagan tolalar bo'lib, tahlil vaqtida ular la ajratiladi. Tahlil uchun faqat butun chigitlar olinadi. Tahlilga olingan namunachalar ganiqlikda analitik tarozida tortiladi. Chigitning qoldiq tolaligini aniqlash uchun 500 g ikdagi chigitning o'rtacha namunasini yupqa qilib yoyib, uning 20 joyidan 20-25 donadan olinadi. Shundan keyin ularni yaxshilab aralashtirib 200 donadan qilib ikkita namunacha ajratilib tortiladi. Olingan chigitlarning har birini alohida ko'rib chiqilib, avvalo nagan tolalari, so'ngra birikkan tolalari qo'l bilan ajratiladi.

Tahlil tugagandan keyin ikki xil qiymat: a) ozod-birikmagan tolalar to'dasi va b) 6 mm dan uzun bo'lgan birikkan tolalar to'dasi qiymati topiladi.


Chigitning qoldiq tolaligini topishda ikki namunachadagi birikkan tolalar qiymatining o'rtachasi olinadi.

2-ilova

#### Guruhlarga topshiriqlar:

1-guruhga	2-guruhga
<b>1-vazifa.</b> Jinlashdan keyin chigitning qoldiq tolaligini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.	<b>1-vazifa.</b> Linterlashdan keyin chigitning qoldiq tolaligini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring

### Venna diagrammasi:



#### Mashg'ulotning mazmuni.

*Ingichka tolali paxta chigitining qoldiq tolaligini aniqlash*-bunday paxta navlari chigitni tuksiz va chala tuksiz bo'lganligi uchun uning chigitida faqat birikkan tolalar bo'lib, ozod-birikkan tolalar bo'lmaydi.

Chigitda qoldiq tola miqdoriga qarab jinlarning ishi tekshiriladi. Chigitning qoldiq tolaligi standart talabida belgilangan normadan oshmasligi kerak.

Standart talabi bo'yicha agar chigit arrali jindan chiqqan bo'lsa, unda 200 dona chigitdagi birikkan tolalarning miqdori, g hisobida: o'rta tolali navlar uchun –I-nav paxtada 0,10-0,11 gacha

II –nav paxtada 0,11-0,12 gacha

III- nav paxtada 0,12-0,14 gacha

IV-nav paxtada 0,14-0,17 gacha va

V-nav paxtada bundan kam ko'rsatkichda bo'lishi kerak.

Xuddi shu tartibda ingichka tolali navlar uchun ham quyidagi ko'rinishdi bo'ladi:

0,13-0,15


0,16-0,19

0,22-0,25

0,23-0,27 gacha.

*Urug'lik chigitning tukliligini aniqlash*-linterdan chiqqan chigitlarda qolgan qisqa tolalar yig'indisining chigit dastlabki og'irligiga nisbatan foyiz ifodasi urug'lik chigitning *tuklili* deb ataladi.

Urug'lik chigitning tukliligini aniqlash uchun o'rtacha namunadan ikkita kichik namunalar olinadi. Buning uchun o'rtacha namunani aralashtirib to'g'ri to'rtburchak shaklida stol ustiga tekis qilib yoyiladi va 20 joyidan 0,5 g (taxminan 5 dona chigitga to'g'ri keladi) dan jami 10 g namuna olish kerak



1-rasm. Namuna olish tartibi.

Namunadagi chigitlar tortilgandan so'ng chigitda qolgan hamma qisqa tolalar qo'l bilan ajratib olinadi. Tolalarni ajratishda chigitdagi tuk va tukchalarga tegmaslik kerak.

Ajratib olingen tolalar 0,01 g aniqlikda va natijani 10 ga ko'paytirib chigitning tukliligi foyiz hisobida topiladi.

Agar ikki namunachadan olingen tolalar og'irligining farqi 0,01 g (0,01 %) dan ortiq bo'lsa, tahlil qaytadan takrorlanadi.

Tuklilik o'rtacha 0,1 % gacha yaxlitlanadi.

Urug'lik chigitning tuklilik darajasi me'yori quyidagicha bo'lishi kerak.

1-jadval

### Davlat standarti bo'yicha qoldiq tolalik darajasi

Urug'lik chigitning tuklilik darajasi	Chigitdagi qolgan tolalar og'irligi, %	
	O'rta tolali g'o'za navi uchun	Ingichka tolali g'o'za navi uchun
Me'yorda	0,8 va undan kam	0,4 va undan kam
Me'yordan ortiq	0,9 va undan ko'p	0,5 va undan ko'p

Chigitning to'la tukliligini xlorid kislota bug'ida ishlash yo'li bilan aniqlash -jinlash va linterdan chiqqan chigitda qolgan tolalar va tuklar yig'indisi chigitning **to'la tukliliqi** deb ataladi.

Chigitning to'la tukliligini aniqlash uchun, chigitdan o'rtacha namuna olib, uni stol ustiga to'kiladi va yaxshilab aralashtirib so'ngra uni to'g'ri to'rburchak (yuqoridagi rasmdagidek) shaklida tekis qilib yoyiladi. Shundan keyin uning 20 joyidan og'irligi 1,5-1,6 g dan chigit olinib, 30 grammdan ikkita o'rtacha namuna tuziladi.

Shundan so'ng sopol idishga xlorid kislota to'latib qo'yiladi va 15-20 daqiqadan (yangi idish bo'lsa 20-30 daqiqadan) keyin, ya'ni sopol idish kislotani shimib bo'lgandan so'ng idish bo'shatiladi. Shundan keyin 5 daqiqadan so'ng, sopol idish qurigandan keyin,unga tayyorlangan namunachalar zich qilinmasdan solinib, idishning og'zini oyna bilan yopib qo'yiladi. So'ngra harorati  $120-130^{\circ}$  S bo'lgan quritish shkafiga chigit eksikatorga solingan holda 30 daqiqa qoldiriladi.

30 daqiqadan so'ng quriitilgan chigit eksikator bilan birga uy harorati darajasigacha quritiladi va pallalari shishadan qilingan tarozida 0,01 g aniqlikda tortiladi.har qaysi chigit namunasini xaltachaga solib, 2-3 daqiqa davomida asta ishqalash yo'li bilan kislota ta'sirida kuygan tolalar va tuklar chigit sirtidan ajratiladi. Shundan so'ng xaltachadagi namunachani toza qog'oz ustiga to'kib, chigitdan va po'stloqlardan ajralgan tola hamda tuklar olinadi, so'ng yana tortiladi.chigitni xlorid kislota bug'i bilan tahlil qilishda havosi tortib olinadigan shkafda ishlash kerak.

Xlorid kislota bilan ishlangan chigit og'irligidan yalang'ochlangan chigit og'irligini ayirsak, tolachalar va tukchalar og'irligi kelib chiqadi. Chigitning tukliligi (U) esa quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$Uq = \frac{(G_{T1} - G_{T2}) \times 100}{G_T} \times 1,06$$

Bunda:  $G_{T1}$  – kislota bilan ishlangan tolali va tukli chigitning og'irligi, g

$G_{T2}$  – tuksizlantirilgan chigitning og'irligi, g.

1,06 – kislota iblan ishlashda tolacha va tukchalar yo'qotgan namlikni hisobga oluvchi koeffisient.

$G_{T2}$  – namunachaning dastlabki og'irligi, gramm hisobida (ikkita namunacha og'irligining o'rtacha qiymati olinadi).

<b>9 mavzu</b>	<b>LPS - 4 ASBOBIDA PAXTA VA TOLANING NAVINI ANIQLASH.</b>				
<b>Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi</b>					
<i>Talabalar soni:</i>		<i>Vaqti:</i> 2 soat			
<i>Mashg'ulot shakli</i>		Tayyorlangan chigitning qoldiq tolaligini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.			
<i>Mashg'ulot rejasi</i>		1. LPS-4 asbobida paxta vatolaning navini aniqlash uchun tushuncha berish va namuna olish. 2. Paxta va tolanning sanoat navini aniqlash bilan tanishish. 3. Paxta va tolanning navini aniqlash.			
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> . Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lган Davlat standartini o'rganish					
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>			
26. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;		• Laboratoriya mashg'ulot rejalar bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;			
27. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;		• Paxta va tolanning navini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;			
28. Paxta va tolanning sanoat navini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.		• Paxta va tolanning navini aniqlash zaruratini bilib oladi;			
29. Paxta va tolanning navini aniqlashni tushuntirib beradi.		• Paxta va tolanning navini aniqlashda amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.			
30. Paxta va tolanning navini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.		• Navni aniqlash uchun namunalar olish, tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.			
<i>O'qitish usullari va texnika</i>		Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.			
<i>O'qitish vositalari:</i>		Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.			
<i>O'qitish shakllari</i>		Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.			
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>		Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.			
<i>Monitoring va baholash</i>		Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.			
<b>Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi</b>					
<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>				
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>			
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.			
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalgalashishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhgaga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhgaga bo'linadi.			
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Paxta va tolanning navini LPS-4 asbobida aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.			
	2.2. LPS-4 asbobida ishlashni ko'rsatadi. Paxta va tolanning navini aniqlash bo'yicha topshiriq berib	Yozib olishadi, venna diagrammasini			

	venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova) 2.3. Paxta va tolaning navini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	to'ldirishadi Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi. 3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Eshitadi. Aniqlaydi. Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova

**Ishlash tartibi:**

LPS-4 asbobi navi laboratoriyada aniqlovchi asbob kichik tola namunasidan havoni o'tkazish usuli bilan chigitli paxta va tolani navini aniqlash uchun belgilangan.

Bu usul havoni o'tkazish ko'rsatgichini tolani zichligi, hamda tolani etilganligi va uzilish og'irligini aniqlashga asoslangan.

Talabalar mustaqil ravishda chigitli paxta va tola namunasini oladigan, tarozida tortadilar va LPS-4 asbobi bilan tanishadilar.

Tavsiya qilingan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Standarti.

Paxta, O'zRST. 615-94.

2.Instruksiya po opredeleniyu xarakteristik xlopkovogo volokna na pribore LPS-4 POX 68-92 1993 g.


PPV markali tola tozalash asbobida laboratoriya jinida chigitli paxtani jinlash yo'li bilan chigitli paxtani tolasini aniqlash, yoki VL-10 markali laboratoriya jinida paxtani aniqlagichi orqali shu asbordan o'tkazib aniqlash.

Oldindan AX sistemasidagi paxta aniqlagichi orqali o'tkazilgan paxta tolasini o'rtacha namunasi yordamida chigitli paxta navi aniqlanadi.

2-ilova

**Guruhlarga topshiriqlar:**

1-guruhg'a	2-guruhg'a
<b>1-vazifa.</b> O'rta tolali g'o'za navi tolasining 4 ta namuna bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.	<b>1-vazifa.</b> Ingichka tolali g'o'za navi tolasining 4 ta namuna bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

**Venna diagrammasi:**

LPS-4 asbobida chigitli paxta sifatini aniqlash uchun ingichka va o'rta tolali g'o'za navlaridagi quyidagi kichik namunalar olishga ruxsat etilgan.

### Seleksion navlari

### Kichik namunlar O'rta tolali

Toshkent-6, Andijon -13	8,0
Toshkent-1, S-4727	
S-2606, AN-402, Buxoro-6, S-9070,	
Andijon-9, Kirgizskiy-3	7,9
An.Uzbekiston-3, Chimbay-3010, ,	
S-6524, Oq-oltin, Namangan-77	
Andijon-510, Namangan-1, Yulduz,	
An-Bayout-2, Samarqand-3, Andijon-2	7,8

### Ingichka tolali navlar uchun:

Termez-24	7,2
6465-V	6,8
S-6037, Termez-14, Termez-16,	
S-6037,	6,6
6249-V, Ashxabad-25, 6249-V	6,5

Xar bir tanlab olingan namuna 0,01 aniqlikda tarozida tortiladi. LPS-4 asbobida chigitli paxtani tahlil qilish.

Asbobni o'rtacha ko'rsatgichlariga asoslanib hisoblanadi, xuddi shunday tartibda paxta tolasining navi ham aniqlanadi.

9-jadval

Suv ustini bo'yicha asbob ko'rsatuvi, mm	Pishib etilganlik koeff.	Nisbiy uzilish kuchi	Chiziqli zichligi M/teks
		Gs-teks	Sn-teks
188-201	194-197	2,0	26,0
202-205	198-201	2,0	25,9
206-208	202-204	2,0	25,8
209-211	205-207	2,0	25,7
212-214	208-210	2,0	25,6
215-217	211-213	2,0	25,5
218-220	214-216	2,0	25,4
			24,9
			183

Jadval va LPS-4 asbobida chigitli paxta va paxta tolasini navini aniqlash bo'yicha qo'llanma yordamida, asbobni o'rtacha ko'rsatgich darajasi bo'yicha paxta tolasining qolgan hamma texnologik ko'rsatgichlari aniqlanadi.

**MISOL:** 108-F seleksiya navini (namunaning massasi 8,1) paxta tolasini navini aniqlashda suv ustuni, mm ko'rsatgichlari quyidagicha bo'lган.

- 1- namuna 220 mm
- 2-namuna 225 mm
- 3-namuna 221 mm
- 4- namuna 216 mm
- o'rtachasi 220 mm

Asbobni shkalasi bo'yicha bu ko'rsatgichga chigitli paxtani tolesi 1-naviga to'g'ri keladi.

2-jadvalda va LPS-4 asbobida chigitli paxta va paxta tolasini navini aniqlash bo'yicha qo'llanmada paxta tolasiga ta'luqli texnologik ko'rsatgichlari bor. Ko'rsatilgan misolda solishtirma uzulish kuchi 25,3 g-s, pishib etilganlik koeffisienti 2,0 chiziqli zichligi 180 m-teks, qizib ketgan paxtadan olingan paxta tolasini navini LPS-4 asbobida aniqlash mumkin emas.

**MASALAN:** Paxta tolasidan 4 ta namuna tayyorlash kerak. Tolani analizatordan o'tkazish kerak, galma-galdan asbob kamerasiga solib, asbobning shkala ko'rsatgichi bo'yicha navini aniqlash kerak. Yulduz va Namangan-77 navining sanoat navini aniqlang?

<b>10 mavzu</b>	<b>TOLANING PISHIB ETILGANLIGINI ANIQLASH USULLARI.</b>
---------------------	---

### **Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Tayyorlangan namuna bo'yicha tolaning pishib etilganligini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<p>1. Tolaning pishib etilganligini aniqlash uchun tushuncha berish va namuna olish.</p> <p>2. Paxta va tolaning pishib etilganligini aniqlash bilan tanishish.</p> <p>3. Tolaning pishib etilganligini aniqlash.</p>

*Mashg'ulotning maqsadi:* .

Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lgan Davlat standartibilan tanishish

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
31. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;	• Laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;
32. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;	• Paxta va tolaning pishib etilganligini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;
33. Tolaning pishib etilganligini aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.	• Tolaning pishib etilganligini aniqlash zaruratini bilib oladi;
34. Tolaning pishib etilganligini aniqlashni tushuntirib beradi.	• Tolaning pishib etilganligini aniqlashda amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.
35. Tolaning pishib etilganligini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.	• Pishib etilganlikni aniqlash uchun namunalar olish, tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### **Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish jarayonlari vagti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lrim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Tolaning pishib etilganligini qutblangan nur yordamida aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.
	2.2. Qutblangan mikrosopli nur asbobida ishlashni ko'rsatadi. Tolaning pishib etilganligini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi

	to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	
	2.3. Tolaning pishib etilganligini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova

#### Ishning ahamiyati:

Paxta tolasidan namuna tanlab olish, namuna piltasini sinashga tayyorlash O'zRST 604 va O'zRST 614 ga muvofiq bajariladi.

Paxta tolsi pishib etilganligi ko'rsatkichi bo'yicha, qabul qilish va etkazib berishda sinash usuli uning havo o'tkazuvchanligi hisoblanadi.

Pishib etilganlikni qutblangan yorug'lik bo'yicha aniqlash usuli asosan standart namunalarni attestasiyalash va graduirovka ishlarida, zarur bo'lganda arbitraj sinashlarda qo'llaniladi.

2-ilova

#### Guruhlarga topshiriqlar:


##### 1-guruhg'a

**1-vazifa.** Tolaning pishib etilganlik darajasini qutblangan nurli mikroskop yordamida namuna bo'yicha tola guruhlarini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

##### 2-guruhg'a


**1-vazifa.** Tolaning pishib etilganligi tolanning havo o'tkazuvchanlik xususiyati bo'yicha tola guruhlarini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

#### Venna diagrammasi:



### Kerakli asboblar

- 2.1. Qutblangan yorug'likda pishib etilganlikni aniqlash usuli:  
 80-120 marotaba kattalashtiradigan har qanday markali mikroskop;  
 25 x 76 yoki 13 x 76 mm o'lchamli oynachalar to'plami;  
 mikroskop uchun qutblantiruvchi uskuna;  
 VT-200 torsion tarozisi yoki shunga o'xshash boshqa markadagi tarozi;  
 Tolalarni taxlash uchun qisqich № 1;  
 Tolalarni predmet oynachalarga taxlashda kerakli duxoba qoplangan taxtacha;  
 Tola joylashgan juft oynachalarni qistirish uchun qisqich;
- 2.2. Namunaning havo o'tkazuvchanligi bo'yicha pishib etilganlikni aniqlash usuli;  
 LPS-4 qurilmasi;  
 Shkalaning oraliq darajasi 10 mg dan ko'p bo'lмаган, eng katta tortish chegarasi 1 kg  
 gacha, GOST 24104 bo'yicha aniqligi 4-sinfga mansub bo'lgan laboratoriya tarozilar;  
 AX yoki FM-30 tipidagi, yoki boshqa o'xshash markadagi paxta analizatorlari.
- 2.3. Pishib etilganlikni aniqlash usullarini tekshirish uchun maxsus tartibda  
 tasdiqlangan paxta tolasining standart (etalon) namunalari.




### O'LChASh USULLARI.

Paxta tolasining pishib etilganligi-devor to'qimalari qalinligining o'zgarishida ro'yobga chiqadigan selyuloza to'planishi va g'o'zaning o'sish davrida tola ichki strukturasini o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Pishib etilganlikni qutblangan yorug'likda aniqlash usuli, qutblangan yorug'likda kesishgan qutblantirgichlarda interferension bo'yalishini tolaning ichki tuzilishi va qalinligiga bog'liqligiga asoslanadi.

Pishib etilganlikni havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli tola qalinligining uni havo o'tkazuvchanligiga bog'liqligiga asoslangan. Bu nisbat seleksion navlar bo'yicha LPS -4 uchun maxsus jadvalda berilgan.



### O'LChASh SHAROITI.

**LPS –4** qurilmasida sinashdan aval namunalar GOST 10681 bo'yicha klimatik sharoitda 2 soat saqlanadi.

Agar paxta tolasining namligi 6 dan 10 % gacha bo'lsa, shuningdek namlik 6 % dan kam 10 % dan ko'p bo'lgan hollarda LPS-4 qurilmasida o'lchash uchun tasdiqlangan qo'llanmaga muvofiq tuzatma kiritilsa, klimatik sharoitda saqlamasdan tajriba o'tkazishga ruxsat etiladi.

**Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Tayyorlangan namuna bo'yicha tolanning uzunligini Velvet taxtachasida aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Tolanning uzunligini aniqlash uchun tushuncha berish va namuna olish. 2. Paxta tolasining uzunligini aniqlash bilan tanishish. 3. Tolanning uzunligini aniqlash.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> . Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lган Davlat standartibidan tanishish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	
36. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; 37. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; 38. Tolanning uzunligini Velvet taxtachasida aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi. 39. Tolanning uzunligini aniqlashni tushuntirib beradi. 40. Tolanning uzunligini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Paxta tolasining uzunligini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>• Tolanning uzunligini aniqlash zaruratini bilib oladi;</li> <li>• Tolanning uzunligini aniqlashda amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.</li> <li>• Velvet taxtachada aniqlash uchun namunalar olish, tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishslash uchun, bahsmunoza, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishslash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

**Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalgaloshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Tolanning uzunligini Velvet taxtacha yordamida aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	Tanishadilar, yozib oladilar.
	2.2. Velvet taxtachada ishslashni ko'rsatadi. Tolanning uzunligini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna	Yozib olishadi, venna diagrammasini

	diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	to'ldirishadi
	2.3. Tolaning uzunligini aniqlash bo'yicha standart talabalarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar

1-ilova

#### Ishni bajarish uchun:

**Chigitli paxta, Velvet taxtasi, cho'tka, ignali taroqcha, kichik masshtabli o'lchagich, lupa.**

Talabalarni mustaqil ish bajarish qismi. Chigitli paxtadan tola uzunligini aniqlash uchun namunalar ajratib olib, o'zлari o'qituvchi yordamida birgalikda tola uzunligini aniqlashlari kerak.

2-ilova


#### Guruhlarga topshiriqlar:

##### 1-guruhgа

##### 2-guruhgа

**1-vazifa.** O'rta tolali g'o'za navi tolasining **1-vazifa.** Ingichka tolali g'o'za navi tolasining namuna bo'yicha tola uzunligini aniqlab uzunligini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring. **1-vazifa.** Ingichka tolali g'o'za navi tolasining namuna bo'yicha tola uzunligini aniqlab uzunligini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

#### Venna diagrammasi:



### Kerakli asboblar

To'g'rilangan tolaning ikki uchi orasidagi masofa (mm hisobida) bir dona paxta tolasining uzunligi deb ataladi

1.Modal uzunlik (L m) – shu tola namunasida eng ko'p uchraydigan tolalar uzunligi.  
2.Shtapel uzunlik (Lsh ) – uzunligi modal uzunlikdan ortiq bo'lgan tolalarning o'rtacha uzunligi.

3.Baza (S) – tolaning uzunlik jihatidan bir tekisligini ta'riflovchi ko'rsakich. Bazaning qiymati qancha yuqori bo'lsa, paxta tolalari uzunligi bo'yicha shuncha tekisroq bo'ladi.

4.Modal uzunligining bazaga ko'paytmasi paxta tolasining bir tekisligi (S) deb ataladi.

Velvet taxtasida tola uzunligini aniqlash uchun-chigitli paxtadan 21ta bo'lakchalar ajratib olinadi.

Har bir bo'lakchada 1donadan chigitli paxta ajratib olish ishlari quyidagicha bajariladi: bo'lakchani yuqori qismi chap qo'l bilan ushlanib, o'ng qo'l bilan bo'lakchaning pastki qismining II - juftlikning o'ng tomonidagi bir dona chigitli paxta ohista uzib olinadi.

Uzib olingan 21ta xuddi shunday namunalar, har birining chigit chokidan ikki tomonga tolalari to'g'ri qilib ajratilib, o'ng tomonidagi tolalar ignali taroqcha bilan ohista taraladi. Bunda taralgan tolalar ham chap qo'l dagi barmoqlar orasiga olinib o'lchami kerak bo'lgan tutami ignali taroq bilan ajratib olinadi. Qolgan tolalar chap qo'l bilan ehtiyyotkorlik bilan yig'ishtirilib, ajratib olingan tolalar taxtagi maxsus joyga joylashib, chigitli tomoni qisqich bilan qisib qo'yiladi. Tola esa tish cho'tkasi bilan avval yuqoriga, so'ngra barxatga yopishtirib taraladi. Shunday tarash kerak taralgan tolalar konussimon shaklga kelsin va o'lchagich chizg'ich bilan

TOPShIRIQ. Berilgan g'o'za navining tola uzunligini aniqlang va o'rtachasini toping.


**Quyidagi jadvalni to'ldiring:**

TOLA UZUNLIGI (namuna).

1-jadval

G'o'za navi yoki duragay kobinasiy alari		etuchka oni	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	su m ma	uzunligi O'rtacha tolal
			11	12	13	14	1 5	1 6	17	18	19	20		
1	S-6524	20	33	32	33	32	3 1	3 3	32	33	32	3 1		
2			32	33	32	31	3 2	3 3	31	32	33	3 1	638	31.9
3														

**Paxta tolasining chiqishi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari  
bo'yicha baliq skeleti organayzerini to'ldiring:**



<b>12 mavzu</b>	<b>PAXTA TOLASINING ChIZIQLI ZICHIGI VA MIKRONEYR KO'RSATKICHLINI ANIQLASH USULI.</b>
---------------------	---

### **Laboratoriya mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqti:</i> 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Paxta tolasining chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlashni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<p>1.Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun tushuncha berish va namuna olish.</p> <p>2. Paxta tolasining chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash bilan tanishish.</p> <p>3.Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash.</p>
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> .	
Ishni bajarish uchun bugungi kunda amalda bo'lган Davlat standartibidan tanishish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>1. Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</p> <p>2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</p> <p>3. Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini LPS-4 apparatida aniqlash bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Tolaning chiziqli zichligini aniqlashni tushuntirib beradi.</p> <p>5. Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlashda amal qilinadigan usullarni o'rgatadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Laboratoriya mashg'ulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Paxta tolasining chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun nima ish qilishni bilib oladi;</li> <li>• Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash zaruratini bilib oladi;</li> <li>• Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlashda amaldagi standart bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi.</li> <li>• Chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun namunalar olish, tortish va ularni xususiyatlari bo'yicha natijani aniqlashni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar – laboratoriya ishlash uchun, bahsmunozara, doska, bo'r.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash, mashqlarni echish, venna diagrammasi.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

### **Laboratoriya mashg'ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
<i>I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)</i>	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni ikki guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadi.
<i>II-bosqich. Asosiy</i>	2.1. Paxta tolasining chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini LPS-4 asbobi yordamida aniqlash	Tanishadilar, yozib oladilar.

(60 minut)	bilan bog'liq barcha tashkiliy tadbirlar bilan batafsil tanishtiradi. (1-ilova).	
	2.2. LPS-4 apparatida ishlashni ko'rsatadi. Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'satkichini aniqlash bo'yicha topshiriq berib venna diagrammasini to'ldirishni topshiradi (2-ilova)	Yozib olishadi, venna diagrammasini to'ldirishadi
	2.3. Tolaning chiziqli zichligi va mikroneyr ko'satkichini aniqlash bo'yicha standart talablarini tushuntirib ko'rsatib beradi va mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. (3-ilova).	Yozib olishadi, mashqni mustaqil echishadi
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beradi:	Topshiriqlarni yozib oladilar


1-ilova

### Ishni bajarish uchun:

- tolaning chiziqli zichligini gravimetrik aniqlash;
  - chiziqli zichlikni namuna havo o'tkazuvchanligi bo'yicha aniqlash usuli;
  - mikroneyr ko'satkichini namuna va havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash;
- Paxta tolasini qabul qilish – etkazib berishda sinash usuli, namuna chiziqli zichligini havo o'tkazuvchanligi bo'yicha aniqlash usuli hisoblanadi.

Chiziqli zichlikni gravimetrik aniqlash usuli graduirovka ishlarida, standart namunalarni attestasiya qilishda va zarur bo'lganda, arbitraj sinashlarda qo'llaniladi.

### Venna diagrammasi:



## O'LChASH TARTIBI.

Parallel namunalarning sinash natijalari (usulning yaqinligi) o'rtasidagi ruxsat etilgan tafovut quyidagilardan oshmasligi kerak:

-ikki namuna bo'yicha chiziqli zichlikni gravimetrik aniqlash usuli, ishonchlilik ehtimoli 0,9 bo'lganda – 6 m teks;

namuna havo o'tkazuvchanligi bo'yicha chiziqli zichlikni aniqlash usuli – 4 mteks;

namuna havo o'tkazuvchanligi bo'yicha mikroneyr ko'satkichini aniqlash usuli – 0,2.

1.2. Ikki turli laboratoriya olingan sinash natijalari o'rtasidagi yoki bir laboratoriya, lekin turli sharoitlarda olingan ikki sinash natijalari (usulning tiklanishi) o'rtasidagi tafovut quyidagilardan oshmasligi kerak:

- ikki namuna bo'yicha chiziqli zichlikni gravimetrik aniqlash usuli, ishonchlilik ehtimolligi 0,9 bo'lganda –6 mteks;

namuna havo o'tkazuvchanligi bo'yicha chiziqli zichlikni aniqlash usuli – 4 mteks;

namuna havo o'tkazuvchanligi bo'yicha mikroneyr ko'satkichini aniqlash usuli – 0,3.

## O'LChASH VOSITALARI, YoRDAMChI QURILMALAR.

Tolaning chiziqli zichligini gravimetrik aniqlash usuli:

Mexanik taram tayyorlagich MShU – 1 va tolalalarni predmet oynachalariga mexanik taxlagich MRV – 1 to'plami (taramni mexanik yo'l bilan tao'yorlash usuli) yoki duxoba bilan qoplangan o'lchami 90 x 185 x 20 mm taxtacha va tolalarni taxlashda kerak bo'ladigan qisqich (taramni qo'l bilan tyyorlash usuli).

VT – 20 markali torzion tarozilar;

Taram o'rta qismidan (10,0( 0,1) mm kesish uchun qisqich. Taramning o'rta qismi uzunligidan (15,0 ( 0,1) mm kesish uchun Presli qisqichlar bloki, ular orasidagi qatlami bilan birgalikda ishlatilishga yo'l qo'yiladi.

Qisqich va Presli qisqichlar bloki belgilangan, ruxsat etilgan ( 0,1 mm kesimni ta'minlamasa, ularning ishlatilishi man qilinadi.

Tola chetlarini kesib olish uchun pichoq;

O'lchamlari 25 x 76 yoki 13 x 76 mmbo'lgan predmet oynachali;

1 sm ga 10 va 20 ta igna to'g'ri keladigan metall taroqlar;

proekcion tola sanagich PSV – 1 yoki tolalarni 120 – 150 marta kattalashtiruvchi turli markadagi mikroskop;

o'lchash chizg'ichi.

Namuna chiziqli zichligini havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli:

LPS – 4 qurilmasi;

Shkalasining oraliq darajasi 10 mg dan ko'p bo'lмаган, eng katta tortish chegarasi 1 kg gacha, 24104 GOST bo'yicha aniqligi 4 – sinfga mansub bo'lган laboratoriya tarozilar.

AX yoki FM 30 tipidagi, yoki shunga o'xhash Paxta analizatori.

Mikroneyr ko'satkichini havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli:

namunaning havo o'tkazuvchanligini aniqlaydigan mikroneyr qurilmasi;

Mikroneyr ko'satkichini HVI o'lchash sistemasi tarkibiga kiradigan asbob yoki LPS – 4 qurilmasida tasdiqlangan usul bo'yicha aniqlash mumkin.

Sinash usullarini nazorat qilish uchun maxsus tartibda tasdiqlangan Paxta tolasining standart (etalon) namunalari kerak bo'ladi.

Paxta tolasining chiziqli zichligi – tola massasini uning uzunligiga nisbatini aniqlaydigan kattalikdir. Bu ko'rsatkich tolaning qalinligini aniqlaydi.

Namunaning chiziqli zichligi havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli, bu

ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga asoslangan. Bu munosabat seleksiya navlarining maxsus jadvallari bo'yicha belgilanadi. Sinash uchun namunaning massasi g'o'zaning seleksiya naviga bog'liq ravishda belgilanadi.

Namunalarni sinashdan avval GOST 10681 bo'yicha klimatik sharoitda, harakatdagi havo oqimi ostida kamida 4 soat, yoki harakatsiz havo oqimi ostida 12 soat davomida, yoki namuna vaznining o'zgarishi 2 soat davomida 0, 25 % dan oshmagan hollarda undan kam vaqt davomida ushlab turiladi.

### O'LChAShNI BAJARISH.

MShU-1 qurilmasida yakuniy piltadan massasi 17-20 mg bo'lgan taram taxlanadi. Taramni taxlash vaqtি avtomat rele yordamida; paxta tolasining uzun tolali navlari uchun –2 min, o'rtalari uchun – 2.5 min qilib o'rnatiladi.

Olingan taram siyrak (10 igna/sm) taroq bilan taraladi, so'ngra 20 mm dan uzun tolalarini predmet oynachalariga taxlaydigan MRV – 1 uskunasining qisqich ushlagichiga joylashtiriladi.

Predmet oynachalaridagi tolalarini PSV-1 uskunasini yoki mikroskop yordamida sanaladi.

Har bir predmet oynachalaridagi sanalgan tolalar 2-3 mm kenglikdagi taramchaga yig'iladi, buning uchun oynachalarni qisib turgan qisqichdan bo'shatilib, tolalarning tekis tomoni bir chiziqda saqlangan holda ustki oynacha ostki oynacha bo'ylab suriladi.

Bir necha taramlar birlashtirilgandan keyin hosil bo'lgan taramchadagi tolalar soni 500 dan kam bo'lmasligi kerak.

Taramcha metall taroqda taraladi. Taraganda chiqqan tolalar sanaladi va umumiy tolalar sonidan ayirib tashlanadi.

Taramcha pinset bilan olinadi va taramning tekis tomoni yuqori qisqichning chap tomonidan plastina ustiga 3-4 mm chiqib turadigan qilib Presli qisqichiga ko'ndalang joylashtiriladi. Taramcha kengligi 2-3 mm bo'lishi kerak.

Richag tushirib, taramchaning tekis tomoni qisiladi. Taramchaning erkin tomoni tolaning egri – bugriligini yo'qotadigan kuch bilan tortiladi va Presli qisqichining traverslari to ilgak avtomat ravishda berkitilguncha tushiriladi.

Kalit bilan ikki qisqichning vinti buraladi. Vertikal o'qda aylanuvchi siqqichning ustunlari nazorat nuqtasi –fiksatorga kelguncha kalit bilan buraladi.

Vint bo'shatilib, richag tepaga ko'tariladi va siqqichdan yuqori hamda pastki qisqich bloki, o'rtadagi qatlam bilan birga bo'shatib olinadi.

Olingan blok stolga shunday qo'yiladiki, bunda pastki qisqich laborantga qarashi kerak, so'ngra chap qo'lning o'rtalari barrog'i bilan stolga mahkam bosib turiladi. Taramchaning qisqichdan chiqib turgan qismi tortiladi va cheti maxsus pichoq bilan qirqib olinadi. Keyin blok qarama-qarshi tomonga burilib, taramchaning chiqib turgan ikkinchi cheti qirqib olinadi. Qirqilgan taramning chetlari tashlab yuboriladi.

Blok yana siqqichga joylashtiriladi.

**3-ilova**

### Guruhlarga topshiriqlar:

1-guruhg'a	2-guruhg'a
<b>1-vazifa.</b> Paxta tolasining namuna bo'yicha chiziqli zichligini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.	<b>1-vazifa.</b> Paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichini aniqlab quyidagi venna diagrammasini to'ldiring.

#### **4. KEYS - STADIYA**

## 5. MEYORIY HUJJATLAR

### 5.1. Ma'ruza matnlari

#### 1-Ma`ruza. Paxtachilik va paxta xom ashyosi to'g`risida ma`lumotlar.

**Reja:**

**1.1. Paxtachilik va paxtani qayta ishlashning tarixi.**

**1.2. Paxtaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.**

**1.3. Paxtachilik to'g`risida ma`lumotlar**

**1.4. XXR va Hindistonda paxta etishtirish to'g`risida ma`lumotlar.**

**1.5. AQSH paxtachiliginining o'ziga xos xususiyatlari.**

**Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16**

**Tayanch iboralar:** g`o'za, paxta, tola, momiq, chigit, kunjara, sheluxa, ko'rak.

**1.1. Paxtachilik va paxtani qayta ishlashning tarixi.** G`o'za o'z vatanida ko'p yillik daraxtsimon o'simlik. Ko'p yillik g`o'zalarning bo'yisi 5-7 m, ba`zan 10-20 m ham bo'ladi. O'zbekistonda etishtiriladigan navlarniki 90-100 sm atrofida bo'ladi. Ko'p yillik g`o'zalar poyasining er betidagi yaqin qismining yug`onligi 15-30 sm va undan ham ortiq bo'ladi. Madaniy g`o'zalarda esa 1-3 sm chamasida bo'ladi.

Ma`lumki, paxta tolasidan gazlama to'qish ishi eng qadimgi davlatlardan biri Hindistonda ilk bor amalgga oshirilgan (5000 yil oldin).

Eron va Arabistonda g`o'za o'stirish bundan 2600-2700 yil ilgari mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda eramizdan avval II asrda paxta etishtirish yo'lga qo'yilgan. Bu xududda eramiz boshida, ya`ni 200-300 yillarda sifatli gazlamalar ishlab chiqarilgan.

G`arb davlatlarida paxta tolasidan gazlamalar ishlab chiqarish faqatgina XVIII asrning ikkinchi yarmida yo'lga qo'yilgan edi. Undan ilgari Evropada g`o'za to'g`risida «meva o'rniga nisbatan sifatli, mayin jun beruvchi» o'simlik (Gerodot, eramizdan avval 450 y.) deb ta`riflangan fantastik afsonalar tarqalgan edi. XVI-XVII asrlarda g`o'zani umrida hech qachon ko'rmagan g`arb sayohlari uni qo'yga o'xshash hayvon sifatida ta`riflanganlar.

Eli Uitn (AKSH) 1873 yilda tola ajratuvchi mashina kashf qilgach, paxtani qayta ishslash sanoati jadal rivojlana boshlandi. SHunga qadar paxta tolesi chigitdan qo'l bilan chig`iriqlar yordamida ajratilar edi (har bir chig`iriq kuniga 8 kg paxta tolasini chigitdan ajratishi mumkin). 1913 yilda hozirgi O'zbekiston xududida 517 ta paxta tozalash zavodi bo'lgan. SHu yili 178,5 ming tonna paxta tolesi ishlab chiqilgan. Hozirda Respublikamizda 102 ta paxta tozalash zavodi, 455 ta tayyorlash punkti ishlab turibdi.

Hozirgi vaqtida dunyoda asosiy paxta etishtiruvchi davlatlar ro'yxatiga quyidagilar kiradi: (Tola yalpi hosili, ming t.) XXR-5472, AQSH-3484, Hindiston-3067,5, Pokiston-2200, O'zbekiston-1049, Turkiya-660, Avstraliya-301,2. Undan tashqari Braziliya, Misr, Meksika, YUnioniston va boshqa mamlakatlarida paxta etishtiriladi.

**1.2. Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.** Paxta mamlakatimiz iqtisodiyotida etakchi o'rinni egallaydi. Paxta va undan tayyorlangan mahsulotlar (yigirligan ip, gazlama, tayyor kiyim-kechaklar va boshqalar) eksportidan olinadigan foyda Respublikamiz yillik valyuta tushumlarini 30-40 % ini tashkil etadi.

Rivojlanishimizning strategik yo'nalişlaridan biri, paxta xom-ashyosini eksport qilish emas, balki undan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va jahon bozoriga sotishdan iborat. Agar bunga to'liq erishilsa, paxtachilikdan olingan yillik valyuta tushumlari hozirgiga nisbatan 6-7 baravar oshishi mumkin.

Paxta tolasining o'ziga xos xususiyati boshqa tabiiy va sun`iy tolalarda uchramaydi. Uni mikroskop ostida ko'rganimizda spiral shaklda bo'ladi. SHuning uchun ham u elastiklik xususiyatiga ega bo'lib, tuqimachilik mashinalari (dastgohlari) da bir-biri bilan yaxshi ulanadi (agar tolani o'zaro burasak).

Paxta tolasidan xilma-xil gazlamalar, ip, arqon, baliq ovlaydigan tur, tasma, transportyor lentalari, avtomobil ballonlari va boshqalar tayyorlanadi.

Bir tonna paxtadan 340-350 kg tola, 50-60 kg momiq (lint) va 600 kg chigit olinadi. Bir tonna chigitdan 170 kg moy, 400 kg kunjara (chigitning moyi olingandan keyin qolgan mahsulot), 50-60 kg sheluxa olinadi. Bundan tashkari margarin, kirsovun, alif moyi, porx, kino va fotoplyonka, shifer va boshqa materiallar olinadi.

SHeluxa deb ataladigan chigitning tashqi pustidan sanoatda texnik spirt, laks, o'rov qog'ozlari, karton va boshqalar olinadi.

CHigit sirtidan ajratib olingen momiq (lint) dan issiq kiyim, ko'rpa-to'shaklar tayyorlashda, sun`iy ipak, sun`iy oyna, linolium, plastmassa, qog'oz, portlovchi modda va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

Jahon bozorida 1 t tolaning narxi 800-1200 dollar, paxta moyining bir tonnasi taxminan 400-500 dollar turadi.

Vatanimizda keyingi yillarda paxta tolasidan tayyor mahsulotlar (gazlamalar, erkaklar va ayollar kiyimlari va h.) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bir kilogramm toladan 5 metr gazlama, yoki 140 ta g`altak ip, yoxud 900 gramm yigirilgan ip tayyorlash mumkin. 5 m gazlamadan 2 ta yuqori sifatli erkaklar sorochkasi tikiladi. SHunday sorochkaning har birini jahon bozorida 15-60 dollarga sotish mumkin.

**1.3. Paxtachilik to'g'risida ma'lumotlar.** O'zbekistonda ekilgan chigit unib chiqqach, taxminan 10 kun o'tgandan so'ng birinchi barg paydo bo'ladi. G'o'za unib chiqqandan keyin 45-50 kun o'tgach shonalash, yana 25-30 kun o'tgach gullash boshlanadi. G'o'zaning ko'sagi esa, shundan yana 45-60 kun o'tgach ochila boshlab, paxtaning umumiyligi etilish davri uning selektsiya naviga qarab 100-160 kun davom etadi. G'o'zaning ko'sagi shar shaklda yoki uzunligi 60 mm va eng katta diametri 50 mm bo'lgan tuxum shaklda bo'lib, ichida o'rta tolalida 5-7 g yoki uzun tolalida 3-5 g paxtasi bo'ladi. Paxtaning har chigitida 5-15 ming dona tola o'sadi.

Paxta tolasining rivojlanishi ikki davrga bo'linadi: birinchi davri 25-30 kun davom etib, bu davrda tola asosan bo'yicha o'sadi, ikkinchi davr esa 15-30 kun, ayrim hollarda 50 kungacha davom etib, bu davrda uning devorlarida tsellyuloza qatlamlari yig`ilib, tola pisha boshlaydi.

G'o'za tupidagi ko'saklar hammasi baravariga pishmaydi. Quyi shoxalardagi ko'saklar oldin pishadi. So'ngra o'rta shoxalardagi ko'saklar sovuq tushguncha pishib ulguradi, shuning uchun ulardan chiqadigan paxta vazmin va sifatli bo'ladi. YUqori shoxalardagi ko'saklar esa sovuq tushgunga qadar etilib ulgurmeydi, natijada ulardan olinadigan paxta engil, sifati past bo'ladi. Quyi va yuqori shoxalardagi ko'saklarning etilishi o'rtasida 1,5-2 oy, ba'zan esa bundan ham ko'proq vaqt o'tadi. SHuning uchun paxta hosili bir necha marta terib olinadi. Ochilgan ko'saklardagi paxta qulda va mashinalarda terib olinadi.

**1.4. XXR va Hindistonda paxta etishtirish to'g'risida ma'lumotlar.** XXR, Hindiston va Pokistonda paxtani etishtirish uni birlamchi qayta ishslash texnologiyasiga oid ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar juda kam. Ma'lumki, bu mamlakatlar juda katta ish kuchi resurslarga ega.

Ayrim risolalarga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, XXR ning ba`zi bir provintsiyalarida yaxshi pishib etilgan ammo ochilmagan ko'saklar qulda terilib olinib ayvonlarda 1,5-2,5 hafta mobaynida quritiladi, so'ngra to'liq ochilgan chanoqlardan paxta qo'lda ajratiladi. Bunday usulda tayyorlangan paxta xom-ashyosidan chiqqan tolada tabiiy rangi tulaligicha saqlanib qoladi, uning sifat ko'rsatgichlari (ifloslik, tolaning texnologik xususiyatlari) jahon standartlariga to'la-to'kis javob beradi.

Hindistonning ayrim shtatlarida g'o'za daraxtsimon o'simlik bo'lib, hosildorligi 5-7 ts/ga dan oshmaydi. Etishtirilgan hosil qo'lda teriladi, uning ancha qismi erga to'kilgan bo'ladi. Tabiiyki, yig`ib-terib olingen hosilda nafaqat qo'rigan barg va begona o'tlar qismalari, balki qum, chang, kesak va boshqalar me'yordan ancha ko'p bo'ladi. SHuning uchun ham paxta sifati juda past bo'ladi.

**1.5. AQSH paxtachiliginining o'ziga xos xususiyatlari.** Paxtachilikni mexanizatsiyalashtirish, paxta xom-ashyosini qayta ishslash texnikasi va texnologiyasining mukammalligi darajasi bo'yicha AQSH jahonda etakchi o'rinni egallaydi.

Paxtachilik AQSH qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biridir. Mamlakatning janubiy-g`arbiy, janubiy-sharqiy va janub-markaziy qismlarini o'z ichiga olgan Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha bo'lган xududlarining tabiiy-iqlim sharoitlari g`o'za parvarishi uchun juda qulaydir. Paxta etishtiriladigan barcha 19 ta shtatning xududlari 37 paraleldan quyida joylashgan. Mavsum davrida havoning harorati deyarli o'zgarmaydi, eng muhim erta sovuqlar tushmaydi. Xususan, sovuqsiz kunlar shimoliy xududlarda 180-200 kecha-kunduz, janubda 235-260 kunni tashkil etadi. Paxta etishtiriladigan joylarda o'rtacha harorat 18-20 °S atrofida bo'ladi.

AQSH da chigit ekish tuproq harorati 18-20 °S tashkil etganda boshlanib, aprel oyining oxiri, may oyning boshlarida tugallanadi. Tuksizlantirilgan urug`lik chigitlarini tayyorlash ilg`or texnologiyasi chigitlarni kam sarf qilingan holda 30 kg/ga atrofida uyalab ekish keng qo'llanilishi asosidadir. SHu sababli paxta etishtirish jarayonida AQSH da g`o'za nihollari odatda yagana qilinmaydi. Hosilni yig`ib-terib olish va uni qayta ishlash muddati chigit ekish muddati va g`o'zaning selektsiya naviga bog`liq. Bu ishlar o'rta tolali navlar uchun oktyabr-dekabr oylari o'rtalarigacha davom etadi, uzun tolali paxta uchun oktyabr oylarida boshlanib fevral oyining o'rtalarigacha chuziladi. Tez pishar navlar ekilgan dalalarda yig`im-terim sentyabr oyida boshlanadi.

Paxtani asosan fermer xo'jaliklari (ularning soni 500000 ga yaqin bo'lib, har biriga taxminan 15 ga er maydoni to'g`ri keladi) etishtiradi, ular kam xarajatlar evaziga yuqori sifatli, jahon standartlari talablariga javob beradigan paxta mahsulotlari ishlab chiqarishdan o'ta manfaatdordirlar. Hozirgi paytda er maydoni 800 get targacha bo'lган yirik xususiy fermer xo'jaliklari tashkil etilmoqda. Ular paxtani etishtirib, o'z paxta zavodlarida qayta ishlab, tayyor mahsulotni o'zaro shartnoma asosida sotadilar.

Bunday yaxlit agrosanoat komplekslarini tuzish, paxta etishtirish, saqlash va uni birlamchi qayta ishlash borasidagi texnologik jarayonlarni bir-biriga uzviy bog`langan holda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Paxtachilik firmalari turli rusumdagи zamonaviy erga ishlov beradigan kam, o'rtacha va katta quvvatga ega bo'lган traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari bilan etarli darajada ta`minlangan.

AQSH da yuqori texnologik xossalarga ega bo'lган, inson va hayvonlar sog`ligiga zararli ta`sir etadigan gossipol moddasi bo'lмаган paxtaning selektsiya navlari yaratilgan va etishtiriladi. SHuningdek, mamlakatning paxta etishtiriladigan ba`zi xududlarining ob-havo sharoitlarini inobatga olinib, hosili kuchli shamol ta`sirida tukilmaydigan g`o'za navlari ekiladi.

Ekish davrida turli mashinalar va osma qurilmalar yordamida bir vaqtning o'zida, urug` ekish, ug`itlash, erga gerbitsid va fungitsid solish jarayonlari amalga oshiriladi.

Urug`lik chigitlarni tayyorlashga juda katta e`tibor beriladi. Urug`lik fondi bilan maxsus firmalar shug`ullanadi. Davlat ilmiy-izlanish tashkilotlari urug`chilik uslublarini ishlab chiqadi. Tuksizlantirilgan urug`lik chigitlarini ishlab chiqaruvchi firmalar katta maydonlarda dehkonchilik qiladilar. Ular eng yangi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan linterlash va chigitni tayyorlash tsexlariiga ega bo'lган paxta zavodlariga ega.

Paxtani terib olish uchun gorizontal shpindelli 2 qatorli mashina (pikkerlar) lar ishlatiladi. Paxtaning iflosligini kamaytirish uchun (45-50%) «pikker»ning takomillashtirilgan variantidan foydalaniladi. Bu mashinalarda paxta xom-ashyosi chanoqlar bilan birga terilib, maxsus nov (jelob) dan shpindelli barabanlarga uzatiladi, u erda paxta chanoqlardan ajratiladi va mashina bunkeriga uzatiladi. Vatanimiz olimlari va mutaxassislar Respublikamiz sharoitida «pikker»lar ko'rak yig`uvchi mashina sifatida foydalanish katta samara berishini ta`kidlamoqdalar.

### Nazorat savollar:

1. Paxtachilikning tarixini bilasizmi?
2. Paxtani qayta ishlashning tarixini bilasizmi?
3. G`o'zaning vatani qaer?
4. Paxta birinchi bulib kanday davlatlarda etishtirilgan?
5. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
6. Paxta xom ashvosining xalq xo'jaligidagi ahamiyati?

## **2-Maruza. Tola tug`risida tushuncha paxta tolasining sifat ko`rsatkichlari.**

**Reja:**

- 2.1. Tola to`g`risida tushuncha.**
- 2.2. Paxta tolasining to`qimachilik sanoatidagi o`rni.**
- 2.3. Paxta tolasining texnologik xususiyatlari.**
- 2.4. Paxta tolasining nuqsonlari.**
- 2.5. Paxta va undan olinadigan mahsulotlar standartlari.**

**Adabiyotlar: 2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15**

**Tayanch iboralar:** tola, o`lik, model uzunlik, shtapel uzunlik, metrik nomer, tolating uzulish kuchi.

**2.1. Tola to`g`risida tushuncha.** Tola deb, uning uzunligiga nisbatan eni juda qisqa bo`lib, mexanik mustahkamlikka ega, yigirilish, ip bo`lish, biror bir material turini tayyorlash xususiyatiga xos bo`lgan mahsulotga aytildi.

Uning o`lchami odatda birliklar sistemasidagi mikrongacha bo`lgan sonda o`rganiladi. Masalan: turli g`o`za navlari o`z xususiyatlariga ko`ra tolasining tuzilishi har xil bo`ladi, ya`ni ularning uzunligi 20 mm dan 50 mm gacha bo`lib, diametri 8 mikrondan 25 mikrongachani tashkil etadi.

Ingichka tolali g`o`za navlari tolasining diametri o`rtacha  $d=8-12$ , o`cta tolali g`o`za navlariniki esa 18-20 mikron, eski dunyo g`o`zasini esa 25 va undan ham ko`p mikrongacha bo`ladi.

Tabiatda tola asosan o`simlik va hayvon mahsulotlaridan tayyorlanadi.

Hozirgi vaqtida kimyoviy usulda sun`iy tolalar ham ishlab chiqarilmoqda va ko`pgina sohalarda foydalanilmoqda.

To`qimachilik tolesi yaxshi mexanik xususiyatga ega bo`lib, elastikligi, mayinligi, birmuncha cho`ziluvchanligi, rangni o`ziga yaxshi olishi va turli ta`sirlarga nisbatan chidamli bo`lishi bilan boshqa turdag'i tolalardan keskin farq kiladi.

Paxta tolesi o`rta hisobda 5-10 % ga, jundan tayyorlangan tolalar esa 40 % gacha dastlabki ko`rsatkichiga nisbatan cho`zilish xususiyatiga ega.

Quruq holda jundan tayyorlangan tolani dastlabki o`lchamiga nisbatan 20 % gacha cho`zish mumkin. Nam holda esa 35-40%, suvda esa 60% gacha cho`zilish xususiyatiga ega, Demak jundan tayyorlangan tola o`ta cho`ziluvchan xususiyatga ega ekan.

Tolalar asosan to`qimachilik sanoatida ip-kalava va turli kiyim-kechak mahsulotlari uchun materiallar tayyorlashda ishlatiladi. SHuningdek harbiy maqsadlarda, ovchilikda ham keng qo'llaniladi.

Tola kelib chiqishi, tayyorlash usuli, kimyoviy tuzilishi va boshqa bir qancha ko`rsatkichlariga qarab ma`lum klassifikatsiyaga bo`linadi.

To`qimachilik tolalarini 2 tipga ajratish mumkin:

**Tabiiy tola** - bunday tolalarga tabiiy jarayonda pishib etiladigan va inson aralashuviziz hosil bo`ladigan tolalar kiradi. Masalan: o`simlikning ba`zi bir turida, hayvon terisida shuningdek erda mineral sifatida hosil bo`ladigan tolalar kiradi.

**Kimyoviy tolalarga** esa insonning aralashuvi asosida turli kimyoviy va fizikaviy usullar ta`sirida hosil bo`lgan tolalar kiradi.

O`z xususiyatiga ko`ra tabiiy tolalar organik va noorganik tolalarga bo`linadi.

Tabiiy organik tolalar ham o`z navbatida 2 ga bo`linadi: 1. o`simlikda hosil bo`lishi; 2. hayvonlarda hosil bo`lishi.

Tola o`simliklarda hosil bo`lishiga qarab bir nechta guruhchalarga bo`linadi: ya`ni o`simlikning qaysi qismida etilgan-urug`, meva, shox, barg;

Kapop-tekstil tolasidan biri bo`lib 40 mikron diametriga ega. Uzilish kuchi 1,5-2 gr. U yigiruvga yaroqsiz. Uni faqat uy jihozlaridan divan va boshqa mebellarning yumshoq qismlarini yopishga ishlatiladi.

SHoxdan olinadigan tolalar-kenafdan, jutdan va boshqa xil texnik o`simliklardan olinadigan tola turlaridir.

Sun`iy tolalar - sun`iy organik tolani tayyorlash uchun har xil xom-ashyolardan foydalaniladi: paxta puxi, daraxtlarning har xil qisimlari, ko'mir smolasi, har xil kimyoviy moddalar, er yong`oq oqsili va boshqa tabiiy gazlar ishlataladi. Sun`iy organik tolalar ichida eng ko'p ishlataladigan viskozli, azotli, atsetat, va boshqalar. Ular tsellyuloza (yuqori uglevodlardan) tayyorlanadilar. Hayvonlardan olinadigan sun`iy tolalarda protein kabi yuqori birikmali kimyoviy moddalar bo'ladi. Sun`iy tolalardan yarim efirlilarni ta`kidlab o'tish joizdir. Ulardan olinadigan mahsulotlar hammaga tanish (lavsan va boshq). Sun`iy noorganik tolalardan ya`ni, kremniydan olinadigan qotishmalar-shisha va kvartsli (kremniy va metallarning qotishmalari).

Bunday tolalardan yana biri «shlak» dir. U metallar qotishmasi bo'lib (mis va alyuminiylar) kiradi.

Tolaning tuzilishi va kimyoviy tarkibi hamma tola ashyolari: tabiiy, sun`iy va boshqalar yuqori molekulali birikmalardir. Ular juda yuqori molekulyar og`irliliklarda tavsiflanadi (10000 dan bir necha milliongacha). Kichik molekulali bu yuqori molekulali birikmalar qiyin eritilib kamdan kam kimyoviy moddalar ularni erita oladi. Eritilgan holda ham ularning yopishqoqlik darajasi juda yuqori bo'ladi.

Ularning ko'plari organik birikmalar bo'lib bir biri bilan molekulyar bog`lanish hosil qilgan. Ular o'z navbatida ketma-ket takrorlanishlardan iboratdir. Bu takrorlar elementar bog`lar deyiladi. Orasidagi bog` ularning valentligiga bog`liq. Agarda har bir takrorni A bilan belgilasak ularning makromolekulalari N=A-A.....A lineyli ip shaklidagi makromolekulani tashkil etadi.

**Paxta tolasining kimyoviy tarkibi** - paxta tolasining tarkibi murakkab birikma bo'lib, yuqori molekulali bog`lamga ega. Molekulyar og`irligi milliongacha. Sadovo ma`lumotlariga qaraganda paxta tolasining tarkibi quyidagicha:

Tola	TSelyuloza	vok yoki yog`	Azotli moddalar	kul	O'rganil magan qismi	Kislota lar
Paxta	94,5	1,2	0,3-0,6	0,4	1,36	2,24

Ba`zi bir paxta tolasidagi kimyoviy moddalar hali to'liq o'rganilganicha yo'q, Paxta tolsi toza holatda 98,5 % gacha tselyulozadan iboratdir. SHuning uchun ham paxta tolasining asosiy qismi tselyuloza hisoblanadi.

Kokon tahlillariga ko'ra o'simlikdan olinadigan tabiiy tola tarkibi quyidagicha.

Asosiy qismlari nomi	Tarkibi, %			
	paxta tolsi	len	Daraxt po'kagi	oq qayin tanasi
TSelyuloza	97,0	80,5	53,3-57,8	45,3
pektin moddalar	1,0	8,4	10,8-12,5	28,7
lignin	-	5,2	27-28	19,6
vosk, yog`	0,3-1,0	2,7	-	-
azot, oqsil	0,2-0,3	1,1	0,3-0,8	-
smola	-	-	2,3	1,8
kul	0,1-0,2	1,1	0,2-0,6	0,2-0,6

Paxta tolasining sanitariya va gigienik xususiyati - paxta tolsi o'ta yuqori nam sig`dirish xususiyatiga ega. Misol uchun paxta tolasining namligi 23 foizgacha qo'l bilan paypaslaganida sezilmaydi. SHu xususiyati natijasida undan kiyim qilinganda odam tanasidagi namni o'ziga singdirib oladi. Unda odam terisi uchun yaxshi nafas olish sharoiti tug`iladi.

Paxta tolsi issiqlikni yomon o'tkazuvchi bo'lib hisoblanadi. Bu xususiyati bo'lsa, odam organizmidan chiqqan issiqlikni yaxshi saqlaydi. Bu esa organizmni tez sovub ketishidan asraydi. Ammo u yomon dazmollanib o'z holatini tekis ushlagmaydi. Bu uning turg`unlik koefitsentining past (5-10%) ekanligi.

Tola ichki pishgan tarkibining xosiyatlari uni ranglaganda rangni uzoq tutib turishidir. Pishmagan tolalarda bu xosiyat kam bo'ladi.

**2.2. Paxta tolasining to'qimachilik sanoatidagi o'rni.** Ma'lumki g`o'za asosan toiasi uchun ekiladi. Dunyo miqyosida bugungi kunga kelib paxta tolasiga bo'lgan talab oshib bormoqda. Fan va texnikaning rivojlanishi tufayli paxta tolasiga o'xhash turli xil tolalar ham ishlab chiqilmoqda. Lekin bunday tolalar sun`iy bo'lganligi sababli undan to'qiladigan kiyim-kechak mahsulotlari inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kiyimda elektr zaryadlari hosil qiladi hamda terining nafas olishini qiyinlashtiriadi. Issiqda isib,sovuvda o'ta sovub organizmga noxushlik keltiradi.

Tabiiy holdagi paxta toiasi esa kiyim-kechak uchun hom-ashyo va boshqa maqsadlar uchun ham bemalol foydalanaverish mumkin bo'lgan gigiena va meditsina tomonidan foydali, shu bilan birga universal mahsulot hisoblanadi. G`o'za o'simligi inson ehtiyojiga xizmat qila boshlagandan buyon undan tayyorlangan mahsulotga talab tobora oshib bormoqda. Tolaning pishiq bo'lishi uning bir qancha texnologik xususiyatlarining sifatli bo'lishiga bog`liq.

Hukumatimiz paxta tolasining qimmatbaho mahsulot ekanligini hisobga olib, respublikamizda paxtachilikni rivojlantirishga katta e'tibor berib kelmoqda. Keyingi yillarda selektsionerlar tomonidan oldingi navlardan ancha farq qiladigan yangi kompleks navlar yaratilmoqda. Ular boshqa ko'rsatgichlari bilan birga tolasining yuqori texnologik xususiyatlarga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Paxtadan to'qilgan gazlamaning sifatli bo'lishi, birinchi navbatdatolaning muayyan darajada moslashgan texnologik xususiyatlariga, ya`ni uning uzunligiga, pishqligiga, ingichkaligiga, nisbiy uzilish uzunligiga bog`liq. Tola qanchalik ingichka, pishiq va uzun bo'lsa, shunchalik qimmatli bo'ladi, undan eng yaxshi gazlamalar to'qiladi.

Paxta tolasidan turli xil mahsulot olinishini ko'zda tutgan holda tekstil sanoati tolaga va undan olinadigan mahsulotga bir qancha talablar qo'ygan. Tekstil sanoati o'z rejasiga binoan tolaga sifat ko'rsatgichlari bo'yicha buyurtma beradi.

Etishtirilayotgan paxta toiasi sifatli jihatdan to'qqizta tipiga ajratiladi. Har bir tip uchun alohida uzilish va shtapel uzunligi ko'rsatkichlari belgilangan. Bu ikki ko'rsatgich tolani tiplarga ajratishtda asosiy belgi hisoblanadi. Bundan tashqari har bir tola tipiga qalinligi (metrik nomeri) va uzulish kuchi ko'rsatkichlari mos kelishi kerak.

Dastlabki 5 ta ( $1^a, 1^v, 1, 2, 3$ ) tipdagisi tola g`o'zaning G. barbadense turidan olinadigan bo'lib, undan etishtiriladigan navlar ingichka tolali g`o'za turiga kiradi. Qolgan 4 ta ( $4, 5, 6, 7$ ) tip tola esa o'rta tolali G.hirsytym g`o'za turiga mansub.

Hozirgi extiyojlarning 60-65% V-tipdagisi tola hisobidan ta`minlanmoqda. Bu to'qimachilik sanoatida foydalandigan aossiy tola tipidir IV- tipdagisi tolaning ishlatalishi hossasi 20-25% ni tashkil etadi.

#### Paxta tolasining fizik-mexanik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich-larning nomi	Paxtadagi tolaning tipiga oid me`yor								
	1 a	1 b	1	2	3	4	5	6	7
SHtapel vazn uzunligi, mm, kamida	40,2	39,2	38,2	37,2	35,2	33,2	31,2	30,2	29,2
CHiziqli zichlik, m teks ko'pi bilan	125	135	144	150	165	180	190	190	200
Solishtirma uzilish kuchi I nav, asosga SN/teks	35,3- 36,3	34,5- 35,3	33,3- 34,3	31,4- 32,4	29,4- 30,4	25,5- 26,5	24,0- 25,0	24,0- 25,0	23,0 24
II nav, kamida; SN/teks (gs/teks)	36,0- 37,0	35,0- 36,0	34,0- 35,0	32,0- 33,0	30,0- 31,0	26,0- 27,0	24,5- 25,5	24,5- 25,5	23,5 24,5
	34,3	33,3	32,4	30,4	28,4	25	23,5	23,0	22,5
	35,0	34,0	33,0	31,0	29,0	25,5	24,0	23,5	23,0

Yangi g`o'za navlari tolasining (1nav) sifatini oldiga to'qimachilik sanoati tomonidan qo'yiladigan talablar va ulardan tayyorlanadigan mahsulot turlari.

Tola-ning tipi	Shtapel massa uzunligi, kamida mm	Liney niy tig`izligi m/g.teks (metrik nomeri)	Uzilish kuchi gs. Kam.	Nis biy uzi lish kuchi, gs.teks	Tola tipiga bo'lgan talab	Tolaning ishlatilishi (kalava nomeri)
I	40-41	127(7900)	4.7	37.0	4.0	№ 200.170.150.134. Parashyut gazlamasi Paxmoq matolar tar-tib, vual, ekstra, yuqori sif-atli kord, 10t.Juda qattiq ip poyafzal tikishda ishlatiladi.
II	38.39	137(7300)	4,7.	34.0	5.5	№135.120.100 Terkal yuqori sifatli ip duxoba, ekstra, namsuk kabi paxmoq material.
III	37-38	147(6800)	4.7	32.0	4.5	№91.85.76.71.Maxsus iplar, olabula ro'mollik ip, duxoba, yuqori sifatli satin va boshqa.
IV	35-36	167(600)	4.7	28.0	kamida 20	№85.60 SHifon, zefir, poplin. trikataj kalavasi va boshqalar.
V	32-33	179(5600)	4.7	26.5	60	№54.40.Eng ko'p tarqalgan tovar-lar litkal, chit, satin, reps, doka, diogonal va boshqalar
VI	32-33	ko'pi bilan 200(500)	4.7	6	25.5	№40.28.20-Melanis va paxmoq matolar va boshqalar.

Paxta tolasi belgilangan tartibga asosan oliy, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi navlarga bo'linadi. Paxta xom ashyosini qabul qilish va komplektlashda 5 ta navga ajratiladi. Uni qayta ishslash (jinlash) da ettita navga bo'linadi.

CHigitli paxtaning navlar bo'yicha pishib etilganlik koeffitsienti

Paxta navi	Tip bo'yicha pishib etilganlik koeffitsienti, kamida		
	1a, 1b, 1, 2. 3,		4, 5, 6, 7.
I.	2		1,8
II.	1,7		1,6
III.	1,4		1,4
IV.	1,2		1,2
V.	1,2 dan kam		1,2 dan kam

YUqoridagi jadvallardan ko'rinish turibdiki,tolaning qimmatliliqi asosan uning fizika-mekanik, texnologik ya`ni qayta ishslash belgilari bilan o'lchanadi. Unga, uzunligi, bo'yicha bir xilliliqi, tortilgandagi qattiqligi (uzulish kuchi), ingich-kaligi va kompleks ko'rsatgichlar - uzulish kuchi, shuningdek kalta tolalar - 16 mm kam, bunda u 10% ko'p bo'lishi kabilar kiradi.

Bu tolaning sifat ko'rsatgichlarini bilishdan maqsad selektsiya urug`chilik tashkilotlari uchun yaratiladigan g`o'za navlarini yo'naltirilgan, ma`lum ravishda ishni olib borish imkonini tug`diradi. Bunda navning ba`zi texnologik xususiyatlarini yaxshilash qulay bo'ladi.

Ma`lumki, uzun tola odatda o'ta ingichka bo'lib, ip tayyorlashda uning eshilishi kam bo'ladi. Bu esa to'qimachilik sanoatida ish unumini oshirish bilan birga ishlatiladigan uskunaning unumdorligini yaxshilaydi. Tola ingichka bo'lsa ma'lum nomerli ip tayyorlash uchun bu tola eshilayotganda undagi tola miqdori ko'p bo'lib ip qattiq va sifatli bo'ladi. Qalin tola bo'lsa ipga kam tola sarflanadi, natijada shu nomerdagi ipning mustaxkamligi kamayadi va dag`al bo'ladi.

Dag`al toladan ingichka va sifatli ip tayyorlash qiyin. Aksincha, ingichka toladan xohlagan qalinlikdagi va yuqori sifatli mahsulot tayyorlash mumkin.

To`qimachilik sanoatining ma`lumotlariga ko`ra tolanning uzulish kuchini 0.1 g/k ga oshirilganda ipning uzulishi 2% ga va yigiruv sanoatining ishlab chiqarish unumdorligini 2,5-3,0% ga oshirishi kuzatildi. Lineyniy tig`izligining 20% oshishi, yuqoridagi uzulish kuchida to`qimachilik sanoatida 1-2% tolani iqtisod qilishga va mahsulot sifatini oshirishga olib kealdi.

Umuman, jahon bozorida raqobatlasha oladigan, yuqori sifatli tola beruvchi g`o`za navlarini yaratish, paxtadan olinadigan mahsulotlar sifatining oshishiga olib keladi bu esa xalq xo`jaligi uchun muhim ahamiyatga egadir.

**2.3 Paxta tolasining texnologik xususiyatlari.** Paxta tolasini qayta ishlashda va to`qimachilik sanoatida foydalanishda uning texnologik xususiyatlari muhim o`rinni egallaydi.

Tolanning texnologik qimmati uning bir qator xususiyatlarining majmuasi bo`lib, ulardan asosiyлari geometrik, mexanik va fizik-kimyoviy xossalari hisoblanadi.

Tolanning uzunligi va ko`ndalang kesim o`lchamlari uning geometrik xossalari, pishiqligi, elastikligi va boshqalar mexanik xossalari, issiqlikka chidamliligi, nam o`tkazish va bir qator kimyoviy moddalarga munosabati uning fizik-kimyoviy xossalari bildiradi.

Paxta tolasining texnologik xususiyatlardan uning uzunligi, ingichkaligi, pishiqligi, buraluvchanligi, elastikligi, uzilish uzunligi va etilishi sanoat hamda ishlab chiqarish ahamiyatiga ega.

**Tolanning uzunligi.** Tolanning o`rtacha uzunligi uning texnologik ko`rsatkichlari orasida tolanning sifatini belgilovchi ko`rsatkich bo`lib xizmat qiladi. Paxta tolasining uzunligi to`qimachilik sanoatida yigirish sistemasini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi. Uzunroq tolalardan ingichka va pishiq ip ishlab chiqariladi.

*Tolanning uzunligi* - to`g`rilangan tolanning ikki uchi orasidagi masofa bo`lib, millimetrdan o`lchanadi. Bir namunada turli xil uzunlikdagi tola bo`lishi mumkin. SHuning uchun tolanning uzunligi tushunchasi bir tola uchun emas, balki umumiylarni namunadagi tolalarning o`rtacha uzunligini ifodalashi lozim. Ekiladigan go`zalarda tolanning uzunligi 18-20 mm dan 45-50, hatto 55-60 mm gacha bo`lishi mumkin.

Mamlakatimizda ekilayotgan o`cta tolali go`zaning ko`pgina navlarida paxta tolasining uzunligi 30-33 mm, ayrimlarida 35-36 mm ga etadi, ingichka tolali navlarda esa 38-42 mm gacha boradi.

Tolanning uzunligini qo`lda aniqlasa ham bo`ladi. Bunda namunadan bir tutam tola olinib, lineykada ularning uzunligi o`lchanadi. Tolanning uzunligini maxsus Jukov asbobida aniqlanadi.

Har bir namuna paxtada ayrim tolalarning uzunligi turlicha bo`lganligi sababli yigirish sistemasini tanlash uchun kerakli tola uzunliklarining o`rtacha ko`rsatkichlarini aniqlash kerak bo`ladi. SHuning uchun tola uzunligini aniqlovchi o`rtacha massa uzunligi, modal va shtapel uzunligi, tola bazasi va uzunligi jihatdan tekisligi kabi tushunchalar kiritilgan.

*Tolanning o`rtacha massa uzunligi* deganda namunadagi tolalarning o`rtacha uzunligini ularning massasiga ko`paytirib, namunaning umumiylarni nisbati tushuniladi.

*Model` uzunligi* tola namunasida eng ko`p uchraydigan tola uzunligidir.

*SHtapel uzunlik* deganda model uzunlikdan katta bo`lgan uzunlik guruhlarining o`rtacha qiymati tushuniladi.

Tolanning bazasi model uzunlikka yaqin tolalarning qanchalik ko`p yigelishini xarakterlaydi, ya`ni olingen paxta tolalarning uzunlik jihatdan tekislik darajasini belgilaydi.

Tolanning uzunlik jihatidan tekisligi har xil tipdagи paxta tolalarning model uzunligining bazaga ko`paytmasi bilan topiladi. Agar tolanning tekislik qiymati 1000 bo`lsa, tola uzunlik jihatdan tekis hisoblanadi.

**Tolanning buraluvchanligi.** Tolanning buraluvchanligi uning bir millimetring buralish darajasi bilan aniqlanadi. Buraluvchan tolalardan ip yigirilganda ular bir-biri bilan o`zaro yaxshi birikib, ipning pishiqligi ortadi.

Mamlakatimizda ekiladigan o`rtacha va ingichka tolali g`o`zalarning har 1 mm tolasi 10-12 marta buraladi. Ingichka tolali g`o`za tolalarining buraluvchanligi o`rtacha tolali go`zalarnikiga

qaraganda bir necha marta ko'p bo'ladi. Tola buralishining tola bo'yiga bir tekisda bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Tolaning buraluvchanligi uning pishganligiga bog`liq. Pishgan tolaning buraluvchanligi pishmagan va yaxshi rivojlanmagan tolalarnikiga qaraganda ziyod bo'ladi.

Tolaning buraluvchanligi namunaga qarab baholash, tolani kattalashtirib chizish, lineykada buralgan tolaning uzunligini o'lchash, kurvimetrik yordamida uning haqiqiy uzunliginn aniqlash yo'llari bilan aniqlanadi. Tolaning necha marta buralganligini sanash ham mumkin.

**Tolaning pishganligi.** Tolaning pishganligi uning sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, tola devorlarida tsellyuloza qavatlarining paydo bo'lish darajasiga qarab aniqlanadi. Tolaning pishganligi tuproq va iqlim sharoitiga, shuningdek, qo'llaniladigan agrotexnikaga va ekiladigan navga qarab ma'lum darajada o'zgaradi.

Tola lentasi kengligining uning kanali kengligiga nisbati tolaning pishganligini xarakterlaydi.

Tolaning pishganligini aniklash uchun tola maxsus mikroskop ostiga qo'yiladi va tola pishish shkalasiga solishtiriladi. SHkalada tolaning pishganligi 0-5 gacha 0,5 tadan qilib bo'lib ko'rsatilgan. SHkalada o'lik tolaning koeffitsienti 0,0, o'ta pishgan tolaniki esa 5,0 deb qabul qilingan. YAxshi rivojlangan tolaning pishganlik koeffitsienti 2-2,5 raqami bilan ko'rsatilgan.

Paxta tolasining pishganligini qutblangan yorug`lik yordamida ham aniqlash mumkin. Buning uchun polyaroid P-2 deb ataladigan maxsus moslama bilan har qanday mikroskopni ishlatalish mumkin.

Tolalar polyaroid orqali qutblangan yorug`likda qaralganda qizil rang ichida ular pishganlik darajasiga qarab turli rangda ko'rindi.

**Tolaning chiziqli zichligi (tolaning ingichkaligi).** Tolaning ingichkaligini tasvirlash uchun chiziqli zichlik tushunchasi kiritilgan. Tolaning chiziqli zichligi deb tolaning uzunlik birligidagi massasi tushuniladi. Halqaro birliklar sistemasida tolaning chiziqli zichligi tekslarda ifodalanadi.

Teks 1 km uzunlidagi tolaning massasi necha gramm ekanligini ko'rsatadi.

Tola ingichkaligi metrik nomeri bilan ham ifodalanadi, metrik nomer 1g tolaning metr hisobidagi yoki 1mg tolaning millimetr hisobidagi umumiy uzunligini bildiradi.

Tolaniig chiziqli zichligini shtapel (bir tutam tola)ni buyum oynalariga qo'yilib, mikroskopda solinadi va tarozida tortilib aniqlanadi.

**Tolaning uzilish kuchi.** Bitta tolani cho'zganda gramm hisobida qancha kuch sarf qilinganligi shu *tolaning uzilish kuchi* deb yuritiladi va gramm kuch yoki nyuton bilan ifodalanadi. Tolaning uzilish kuchi uning pishiqligini va uzunasiga cho'zuvchi ta'siriga chidamliliginibildiradi. SHuning uchun tolaning uzilish kuchi uning devorchalarining qalinligiga bog`liq.

Tolaning uzilish kuchi ko'pgina boshqa texnologik ko'rsatkichlar bilan bog`liq. SHu sababli chigitli paxtaning va tolaning sortini aniqlashda uzilish kuchi asosiy aniqlovchi texnologik ko'rsatkich qilib qabul qilingan.

Odatda pishgan tolaning uzilish kuchi o'rtacha 4-7 g/k ga teng bo'ladi. Mamlakatimizda etishtiriladigan o'rta tolali go'za navlari tolaning uzilish kuchi 4,2,-5,5 g/k gacha, ingichka tolali navlarda esa 4,6-6,0 g/k bo'ladi.

YAxshi etilmagan va ko'sak paxta tolalarida tolaning uzilish kuchi kam bo'ladi.

Tolaning uzilish kuchining uning chiziqli zichligiga nisbati *tolaning nisbiy uzilish kuchi* deb yuritiladi.

Tolaning uzilish kuchi qisqichlari orasi 3 mm li DSH-ZM markali takomillashtirilgan dinamometrda aniqlanadi. Tolaning uzilish kuchini LPS-4 asbobida va polyarizatsion usulda ham aniqlash mumkin.

**CHigitli paxtadan tola chiqishi.** CHigitli paxtadan olinadigan asosiy mahsulot tola hisoblanadi.

Tola massasining chigitli paxta massasiga nisbatan *tolaning chiqishi* deyiladi. Tolaning chiqishi uning massasiga va chigitning to'qligiga qarab o'zgaradi.

Har bir chigitdagi tola miqdori go'zaning turiga va naviga qarab o'zgaradi. SHu bilan birga u tuproq va iqlim sharoitlariga hamda agrotexnik tadbirlarga ham bog`liq.

Ekiladigan g`o`zalarning chigitli paxtasidan 20-50% atrofida tola chidadi. Mamlakatimizda ekiladigan o`rtalari g`o`za navlarida tola chiqishi 32-40%, ingichka tolali go`zalarda esa 29-34% atrofida bo`ladi.

Laboratoriyada chigitli paxtadan tola chiqishini arrali jinda ishlab chiqib topiladi. Paxta ishlangandan keyin lint va tolali chiqindilar hamda iflosliklarni alohida o`lchab ularning chiqishi aniqlanadi.

Tola chiqishini aniqlovchi ko`rsatkich sifatida chigitli paxtaning tolalik darajasi tolalik indeksi xizmat qiladi. *CHigitli paxtaning tolalik darajasi* deb 100 dona chigitdan ajratib olingen tolaning gramm hisobidagi massasiga aytiladi.

**2.4. Paxta tolasining tolasining nuqsonlari.** Paxta tolasiga deyarlik hamma vaqt organik va anorganik jismlar aralashgan bo`ladi, bulardan tashqari paxta tolalarida tabiiy paydo bo`lgan (gajaklik, murakkab gajaklik, pishmagan tolasining yaltiroq parchasi, pishmagan va maydalangan tukli chigit, o`lik tolali va tukli chigit qobig`i, tugunchalar kabi) nuqsonlar ham bo`ladi. Tolada nuqsonlar va begona jismlarning bo`lishi uning yigiruv sifatlarini pasaytiradi, undan yigirilgan iplarning uzilishini ko`paytiradi va nihoyat to`qimaga o`tishi uni sifatini pasaytiradi. Paxtani dastlabki ishlash jarayonida iflosliklarni toladan deyarlik butunlay ajratish, o`likning miqdorini kamaytirish va har xil texnologik nuqsonlarning paydo bo`lishini ancha kamaytirish mumkin.

Tolaning nuqsonlari quyidagi tashqi ko`rinishi bilan bir biridan farq qiladi. Gajaklik - bunda birnecha o`nlab va yuzlab tolalar har xil shaklda buralib - tortilib, bir biridan ajralmaydigan bo`lib qoladi. Gajakliklarning bir qismi yigiruv fabrikalarida ishlaganda taralib, ajralib sifatli tolaga qo`shilsa, bir qismi tugilib, chiqindi va taralgan lentaning chiqish foizini kamaytiradi.

Murakkab gajaklik - bir necha dona gajakliklar birlashib, bir biridan ajralmaydigan bo`lib qoladi, shuning uchun ham yigiruv protsessida taralib yo`q bo`lib ketmay deyarlik hammasi chiqindiga chiqib ketadi.

Pishmagan tolaning yaltiroq parchasi - bu pishmagan tolalar yig`indisidan iborat bo`lib, yorug`likni yaxshi aks ettiradigan sariq lenta shakliga kirib qolgan bo`ladi. YAltiroq parcha ipning pishiqligini kamaytiradi, to`qimaga o`tib qolsa, bo`yoqni qabul qilmay uni brakka chiqaradi.

Xom va maydalangan chigitlar (o`lik) - ustida tola bo`lib pishib etilmagan puch va maydalangan chigit bo`laklaridan iborat. Ular paxtani dastlabki ishlash jarayonida ajralmay, qisman tolaga o`tib ketadi. Toza tolalar orasida tolali o`liklarning bo`lishi yigiruv fabrikalarida ishlangan vaqtida yanada maydalanim tolali chigit qobig`ini ko`paytiradi.

Tuk va tolali chigit qobig`i - har xil uzunlikdagi uzunlikdagi va tukidan ajralmagan chigit parchasidan iborat. Nuqsonlarni ajratishda uning bu turiga faqat mayda (2 mm kv gacha) qismlarigina kiritiladi. Bundan yirik bo`lsa, maydalangan chigit nuqsoniga qo`shiladi. Mayda chigit qobig`ini toladan ajratish qiyin bo`lgani uchun ular ko`pincha ipna va to`qimaga o`tib, pardozlash vaqtida uningsh sirtida bo`yoq qabul qilmay qora nuqta shaklida ko`rinib qoladi.

Tugunaklar bir nechta tolalar chigallanib, bir tugunchak tashkil qilgan bo`ladi. Agar tugunakdagi tolalarni ajratishga intilsa ular uzilib chiqadi. SHuning uchun ham tugunchaklarni toza toladan ajratib olish qiyin bo`ladi va paxtani dastlabki ishlash protsessida ular ajralmaydi va ip hamda to`qimaga o`tib ketib, ularning sifatini pasaytiradi. Tuk va tolali chigit qobig`i hamda tugunchaklar mayda va ularni toza toladan ajratish qiyin bo`lganidan ular to`qimachilik sanoati uchun eng zararli nuqson hisoblanadi. Paxta tozalash zavodlari laboratoriylarida tolaning nuqsonlar va ifloslik yig`indisini aniqlashda qo`l bilan ajdratish va mexanizatsiyalashtirilgan usulda tahlil qilish usullari qullaniladi. Tolaning nuqsonlari va iflosligini qo`l bilan aniqlaganda 0,1 va 2 navlan uchun 50 g va 3,4,5,6 navlar uchun 10 g og`irlidagi o`rtacha namuna 3 marta tahlil qilinadi.

Birinchi tekshirishda yirik iflosliklar, gajakliklar, murakkab gajakliklar, o`lik, maydalangan chigitlar va pishmagan tolaning yaltiroq parchasi ajratib olinadi.

Ikkinci tekshirishda qolgan toza toladan yuqori navlar uchun 1/20 qismini va past navlar uchun 1/10 qismini ajratib, bu namunadan tolali chigit qobig`i va mayda ifloslik ajratiladi. Uchinchi marta tekshirishda ikkinchi tekshirishdan chiqqan toza tolaning yuqori navlari uchun 1/5 qismini va past navlar uchun 1/2 qismini ajratib, bu namunadan faqat tugunchaklar ajratiladi. SHundan keyin

ajratilgan iflosliklar va nuqsonlar alohida tarozida tortilib, boshlang`ich namunaning og`irligiga (50g yoki 10g) nisbatan foizi aniqlanadi.

**2.5. Paxta va undan olinadigan mahsulotlar standartlari.** Mustakil Uzbekistonimizda milliy iqtisodiyotni shakllantirish maboynda paxta va paxtani birlamchi kayta ishlashda olinadigan barcha mahsulotlar uchun Respublika standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi, jumladan quyidagilarni:

- Paxta xom-ashyosi uchun: O'z RST 615–94 «Paxta. Texnikaviy sharoit», O'zRST 643–95 «Paxta. Namuna olish usullari», O'zRST 593–92 «Paxta. Paxta tolasining xarakteristikalarini aniqlash usullari», O'zRST 592–92 «Paxta. Ifloslikni aniqlash usullari», O'zRST 644–95 «Paxta. Namlikning aniklash usullari»;

- Paxta tolasi bo'yicha: O'zRST 604–93 «Paxta tolasi. Texnikaviy sharoit», O'zRST 614–94 «Paxta tolasi. Namuna olish usullari», O'zRST 618–94 «Paxta tolasi. Pishib etilganlikni aniklash usullari», O'zRST 620–94 «Paxta tolasi. CHizikli va mikroneyr ko'rsatgichini aniqlash usullari», O'zRST 629–95 «Paxta tolasi. Rangi va tashqi ko'rinishini aniqlash usullari» va x.

- Paxta momig'i (lint) uchun: O'zRST 645–95 «Paxta momig'i. Texnik sharoit»; O'zRST 657–95 «Paxta momig'i. Namuna olish usullari», va x.

- Texnik va urug`lik chigitlar bo'yicha: O'zRST 598–93 «Texnik chigit. Namuna tanlash va namuna qismini ajratish usullari», O'zRST 597–93 «Nuqsondor chigitni aniqlash usuli», O'zRST 663–96 «Urug`lik chigit. Texnikaviy shartlar» va x. .

O'zRST 615–94 zavodda qayta ishlashgacha bulgan davrda tayyorlov punktlarda paxtani qabul qilish dastlabki klassifikatsiyasi, miqdorining hisobi va saqlash uchun muayyan sharoitni yaratish qismi talablarini belgilaydi.

Paxtaning yakuniy iste'mol xususiyatlari paxta tozalash zavodlarida qayta ishlagandan keyin O'zRST 604 ga muvofiqtolan sifat ko'rsatgichlari bo'yicha aniqlanadi.

Texnik sharoit standartlari turkumiga, asosan ishlab chikarilayotgan mahsulotlar qanday texik shartlarga javob berishi kerakligi bayon etilgan. Sinov usullari bo'yicha standartlarda mahsulotga qo'yilgan texnik shartlarda ko'rsatilgan parametrlarini o'lchash usullari keltirilgan.

Paxtaning sifat ko'rsatgichlarini yuqorida keltirilgan standartlar belgilaydi. Paxta tolasining fizik – mexanik ko'rsatgichlari kuyidagilar xisoblanadi:

- shtapel massa uzunligi, mm;
- chiziqli zichlik, mteks.

Bundan tashqari solishtirma uzilish kuchiga (I va II nav) ko'ra tola quyidagi jadvaldagagi me`yorlariga ko'ra to'qqizta tipiga bo'linadi: 1a, 1b, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7.

1a, 1b, 1, 2 va 3 tipdagisi tolalarga ega bo'lgan paxta uzun tolali paxta navlari hisoblanadi.

4, 5, 6, va 7 tipdagisi tolalarga ega bulgan paxta o'rtalari paxta navlariga kiradi.

Ko'rsatgichlar ning nomi	Paxtadagi tolaning tipiga oid me`yor								
	1a	1b	1	2	3	4	5	6	7
SHTapel massa uzunligi, mm,	40,2	39,2	38,2	37,2	35,2	33,2	31,2	30,2	29,2
CHizikli zichlik, mteks, kipi bilan	125	135	144	150	165	180	190	200	200dan ort.
Solishtirma uzilish kuchi: I nav, asosiy: SN/teks (gs/ teks)	35,3- 36,3 (36,0- 37,0)	34,3- 35,3 (35,0- 36,0)	33,3- 34,3 (34,0- 35,0)	31,4- 32,4 (32,0- 33,0)	29,4- 30,4 (30,0- 31,0)	25,5- 26,5 (26,0- 27,0)	24,0 25,0 (24,5- 25,5)	23,5 25,0 (24,0- 25,0)	23,0 24,5 (23,5- 24,5)
II nav kamida: SN/teks g/teks	34,3 35,0	33,3 34,0	32,4 33,0	30,4 31,0	28,4 29,0	25,0 25,5	23,5 24,0	23,0 23,5	22,5 23,0

Har bir tipdagи paxta rangi, tashqi ko'rinishi, pishib etilganlik koeffitsienti buyicha quyidagi jadvaldagi talablarda belgilangan, tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshta navga bulinadi: I, II, III, IV, V.

Paxta navi	Tip buyicha Pishib etilgan-lik koeffi-tsienti, kamida	Paxtadagi tolaning tiplari buyicha rangi va tashqi ko'rinishlari		
	1a,1b,1, 2,3	4,5,6,7	1a, 1b, 1, 2, 3	4, 5, 6, 7
I	2,0	1,8	Oq yoki tabiiy oqsariq tusli yoki selektsiya navi etishtiril-gan joyiga bog`liq bo`lgan oq sariq tusli. Ko'rinishi yaltiroq va ipaksimon.	Oq yoki selektsion navi va ustirilgan tumaniga bog`liq tabiiy sarg`ish oq.
			qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi to'lqinsimon, mashina terimidagi paxta esa alohida chigitlardan va qisman yoyilgan jingalak pallachalardan iborat. Ba`zan pallachalarda o'lik tola uchraydi.	
II	1,7	1,6	YAltiramaydigan oqdan oq-sariq tusli va kichik sariq dog`cha. YAltiroq va ipaksimonligi I navga nisbatan pastroq.	YAltiramaydigan oqdan oq sariq dog`li oq sariq tusgacha.
			qo'l bilan ushlaganda 1 navga nisbatan kamroq egiluvchan va zichdir. Qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi alohida tolali chigitlardan iborat va yaltiroq kichik ko'rinishdagi plastik holda o'lik tolalar uchrashi mumkin.	
III	1,4	1,4	Sariq yoki oqish-sariq notejis kulrangroq va qo'ng`ir dog`li tusdagi. YAltiramaydigan.	Xira oqdan oqsariq, sarg`ishroq dog`li yaltiramaydigan kulrangroqgacha.
			Qo'l terimidagi kichik to'lqinsimon paxta pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastikka utuvchi ko'rinishiga, mashina terimidagi esa alohida tolali chigitlardan va chuzilgan, qisman yoyilgan va alohida chuzilmagan va pishmagan aralashma pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastiklardan iborat.	
IV	1,2	1,2	Sariq yoki oqish-sariq notejis kulrangroq va qo'ng`ir dog`li tusdagi. YAltiramaydigan.	Xira oq va oqsariqdan sarg`ish-oqsariq kulrang va qo'ng`ir dog`li.
			Qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich emas, asosiy qismi chuzilgan, qisman aralashgan pallachalar, shuningdek chuzil-magan pishmagan pallachalar, alohida tolali chigitlar guruhi har xil darajada yoyilgan, pallachalardan ko'pchilik qismi yaltiroq plastik ko'rinishidagi o'lik tolalardan iborat.	
V	1,2 dan kam	1,2 dan kam	Qo'ng`ir ranglidan sariqqacha. Kulrang.	Xira oq yoki xira oq sariqdan qo'ng`ir dog`li yaqqol sariqgacha. Kulrang
			Qo'l bilan ushlanganda umuman egiluvchan va zich emas, paxta pallachalarining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi pishmagan va o'lik tolalar yaltiroq plastikni hosil qiladi.	

Paxta navi rangi va pishib etilganlik koeffitsientning eng yomon ko'rsatgichlari bo'yicha aniqlanadi. Paxta navi iflos aralashmalarning miqdori (iflos aralashmalarning massaviy nisbati) ga ko'ra jadvalda ko'rsatilgan talablarga muvofiq quyidagi sinflarga bulinadi:

- 1 – sınıf – kulda terilgan paxta;
- 2 – sınıf – mashinada terilgan paxta;

3 – sinf – erdan terib olingan paxta.

YUqorida ko'rsatilgan talablarni nazorat qilish uchun sinov usulari Respublika standartlari 643-95, 592-92, 644-95, 593-92 tomonidan muvofiqlashtirilgan.

Paxta tudasingin konditsion massasini aniqlash uchun iflos aralashmalar hisob me`yoriy massaviy ulushi – 2,0 % va namlikning massaviy nisbati - 9,0 % deb olinadi.

Paxta Navi	Paxtaning sinflari buyicha iflos aralashmalarning massaviy ulushi va namlikning massaviy nisbati me`yorlari, % kipi bilan					
	1- sinf		2 – sinf		3 – sinf	
	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi
I	3,0	9,0	10,0	12,0	16,0	14,0
II	5,0	10,0	10,0	13,0	16,0	16,0
III	8,0	11,0	12,0	15,0	18,0	18,0
IV	12,0	13,0	16,0	17,0	20,0	20,0
V	-	-	-	-	22,0	22,0

Paxta tolasi nuqson va iflos aralashmalarning miqdori bo'yicha jadvalda ko'rsatilgan me`yorlarga muvofiq: oliv, yaxshi, o'rta, oddiy va iflos sinflarga bo'linadi.

Sanoat navi	Nuksonlar va iflos aralashmalar me`yorlari, % kipi bilan				
	oliv	yaxshi	o'rta	oddiy	iflos
1	2,0	2,5	3,0	4,0	5,5
2	2,5	3,5	4,5	5,5	7,0
3	-	4,0	5,5	7,5	10,0
4	-	6,0	8,5	10,5	14,0
5	-	-	10,5	12,5	16,0

Paxta tolasini eksportga jo'natishda quyida keltirilgan ikki tip ko'rsatgichlar qo'llaniladi:

1. Xalqaro standartlar va mikroneyer ko'rsatgichi bo'yicha tola sifatini klasser usulida baholash:

- rangi va ifloslanishi bo'yicha navi va sinfi, jinlash bo'yicha sifati;
- 1/32 dyuymda shtapel uzunligi;
- mikroneyer ko'rsatgichi.

2. Tola sifatini asbob yordamida NVI tipdag'i ulchov tizimlaridan foydalanib baholash:

- rangi va ifloslanishi bo'yicha navi va sinfi;
- yorug'lik qaytarish (oqim darajasi) koeffitsienti (Rd), % va sariqlik darajasi (+b);
- mikroneyer ko'rsatgichi;
- 1/32 dyumda taram uzunlik yoki oliv yarim urta uzunlik, mm (dyuymlar);
- darajalangan HVI da kalibrlanadigan paxtaning solishtirma uzulish kuchi, gk/teks (kN/teks);
- notola materiallar va ifloslanishi, kod.

#### **Nazorat savollar:**

1. Tola to'g'risida tushuncha bering?
2. Sanoat navlari deyilganda nimani tushinasiz va ular orasidagi farqlar?
3. Tola sinfi deyilganda nimani tushunasiz va ular orasidagi farqlar?
4. Paxta tolasidan nimalar olinadi?
5. Paxta tolasining tarkibi nimadan iborat?
6. Tolani qanday o'simliklardan olish mumkin?
7. Har xil o'simliklardan olinadigan tolalar farqi qanday?
8. Hayvonlardan olinadigan tolalar qanday farqlanadi?

### **3-Ma`ruza. Paxta hosini terish, tayyorlash va saqlash texnologiyasi**

**Reja:**

- 3.1. Paxta xosilini terishga tayyorlash.**
- 3.2. Paxtani qo'lida va mashinada terish tartibi.**
- 3.3. Paxtani terish.**
- 3.4. Paxta tayyorlash punktlari.**
- 3.5. Paxtani qabul qilib olish.**
- 3.6. Paxta g`aramlash maydonchalari.**
- 3.7. Paxtani g`aramlashda omborlaridan foydalanish.**
- 3.8. Paxtani g`aramga bosish.**
- 3.9. Paxta g`aramlarini tashkil etish va profilaktik tadbirlar o'tkazish.**
- 3.10. Paxtaning qizishini oldini olish yullari.**

**Adabiyotlar:** 2,3,4,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15

**Tayanch iboralar:** defoliatsiya, desikatsiya, defoliant, desikant, paxta tayyorlash punktlari, klassifikator, to'dalar, g`aram, yopiq ombor, brezent.

**3.1. Paxta xosilini terishga tayyorlash.** G`o'za tupidagi ko'saklar baravariga pishmaganligi sababli uning hosili bir necha marta terib olinadi. Odatda go'za ko'saklari avgustda ochila boshlab, sentyabr va oktyabr oyining boshlarida yoppasiga ochiladi. G`o'zaning pastki va yuqorigi shoxlaridagi ko'saklarning pishishi oralig`ida 1,5-2 oy vaqt o'tadi.

Paxtachilik brigadalarida yig`im-terim ishlarini boshlashdan 10 kun ilgari yo'llar, ko'priklar, tarozi, xirmon, ayvonlar, quritish maydonchalari va terim fartuklari tayyorlab qo'yildi.

Mutaxassislar tomonidan brigadirlar ishtirokida go'za maydonlari oxirgi marta kimyoviy ishslash vaqtি ko'rsatilgan akt tuziladi. Bunda ishlatilgan preparatning nomi, miqdori va ishchi eritmannng gektariga sarfi ko'rsatilgai bo'lishi kerak.

Har bir brigadada go'zaning ochilishini hisobga olgan holda mashinada yoki qo'lida terib olish rejasi va grafigi paykallar bo'yicha tuzib chiqiladi. Dalani mashina yoki qo'lida terishga tayyorlashda go'zani defoliatsiya (barglarni to'ktirish) va desikatsiya (tuplarini quritish) qilish muhim ahamiyatga ega. G`o'za bargini terim oldidan dorilab to'ktirish terim mashinalari ishini engillashtirish va uni yuqori ish unumdorligida ishlashi uchun sharoit yaratish maqsadida o'tkaziladi. O'z muddatida va yuqori sifatlari o'tkazilgan defoliatsiya ko'saklarning etilishi va ochilishiga sezilarli darajada ta`sir ko'rsatib, birinchi sort paxta hosilini kuzgi sovuqlar tushgunicha terib olish imkonini beradi.

Defoliatsiya sifatsiz o'tkazilganda mashinada terilgan paxtaga ho'l barglar qo'shilib ketadi. Natijada paxta ifloslanishdan tashqari unga barg shirasi yuqib yashil-sariq rang bilan bo'yaladi. Ma'lum bo'lishicha bu rang paxtani qayta ishslashda ham ketmaydi, balki tolada saqlanib qoladi, mahsulot sifati pasayadi. Defoliatsiyadan kutilgan natijani olish uchun uni o'tkazish muddatlarini to'g`ri belgilashning ahamiyati kattadir. Defoliatsiyani har bir tup g`o'zada ikkitidan to'rttagacha ko'sak ochilganda va havoning o'rtacha harorati 17S dan past bo'limganda o'tkazish tavsiya etiladi.

Defoliatsiya samaradorligini oshirishning muhim tadbiridan biri g`o'zani fiziologik aktivligini saqlab kolishdir. Buning uchun defoliatsiya o'tkazish oldidan g`o'za sug`oriladi. Defoliatsiya uchun xlorat magniy, xlorat-xlorid kaltsiy va UDM preparatlaridan foydalaniladi. Defoliatsiya qilishda preparatlarning me`yori g`o'zaning o'sganligiga qarab belgilanadi. Xlorat magniy preparati gektariga 8-12 kg, xlorat-xlorid kaltsiy esa 20-25 kg sarflanadi.

Defoliatsiya sifatida UDM sistemasidagi preparat keng qo'llanilmoqda. UDM preparati xlorat-magniyning ammosos, karbamid bilan aralashmasi hisoblanadi, UDM ning ammiak selitrasi bilan aralashmasi (UDM-IV) desikatsiyada qo'llaniladi. UDM preparati markazlashgan tartibda mutaxassislarning ishtirokida tayyorlanadi.

5-8 kg magniy xlorat, bilan 10-12 kg ammososning eritmasi (UDM-1), 6-9 kg magniy xlorat bilan 10-12 kg karbamidning eritmasi (UDM-P) I ga erga defolyatsiya uchun ishlatiladi.

8-15 kg magniy xlorat bilan 15-20 kg ammiak selitrasi eritmasi (UDM-IV) I ga erga desikatsiya uchun ishlatiladi. G`o'zasi kech rivojlangan, defoliatsiya qilish paytigacha bioyaopsns

jihatdan etilmagan shuningdek, tuplari kuchli rivojlangan lekin ko'p ko'sak tugib hali ular ochilmagan maydonlar desikatsiya qilinadi. Bunda o'simliklarning hayot faoliyati batamom to'xtaydi barcha o'suv qismlari, shu jumladan xom, ochilib ulgurmagan ko'saklarning hammasi quriydi. Ko'sak po'stining suvi qochib, chanoqlari yorilib tezda bir-biridan ajraladi.

Desikatsiya uchun magniy xlorat preparatidan gektariga 25-30 kg, xlorat-xlorid kaltsiydan gektariga 45-50 kg yoki UDM-IV desikantidan foydalaniladi.

Defoliant va desikantlar sepishda T-28X-4 va MTZ-50X markali chopiq traktorlariga o'rnatilgan OTN-8-16, OVX-14 markali changlagich purkagichlardan foydalaniladi.

**3.2 Paxtani qo'lida va mashinada terish tartibi.** Xo'jalikda qancha terimchi bor, qancha tashish texnikasi bor, qancha qo'lida, qancha mashinada teriladi. Agar urug`lik paxta etishtiriladigan bo'lsa, dalalar aprobatsiya ko'rigidan o'tgan bo'lishi, bunda komissiya urug`lik paxta terib olish uchun maxsus ruxsatnomaga beradi. Urug`lik paxtalar alohida topshiriladi.

Paxta dasasidan hosil 4 martagacha terib olinadi. Paxtalar tez va qisqa kunda pishib etilishi uchun defoliatsiya va desikatsiya qilinadi. Paxta terimi boshlanishi oldidan g`o'za tuplarida kamida 2-3 tadan to'liq pishgan (sog`lom) ko'sak bo'lishi kerak. Paxtani toza pishgan, ko'saklardan terish, shuningdek sog`lom, turli xas-cho'p aralashmalarisiz terib olish, shu xo'jalikka qo'shimcha iqtisodiy foyda bo'ladi.

I-terim-20-25% (2-3) ko'sak ochilganda.

II- terim qolgan xosilning 35-40% ochilganda teriladi.

III- terim II terimdan 10-15 kun o'tgach teriladi (yoki sovuq tushgandan so'ng).

I va II terim paxtalari I sanoat navaiga topshiriladi.

III- terim yaxshi (sifatli) bo'lsa I sanoat navaiga, pishmagan xom paxtalar bo'lsa II sanoat navaiga olinadi.

To'rtinchini terimda ko'sak va ko'rak paxtaning chiqishiga qarab III yoki IV nava ga qabul qilinadi.

Terim uyushqoqlik bilan o'tkazilsa paxtaning 85-90% ni I nava ga topshirish mumkin.

Urug`chilik xo'jaliklarida urug`lik paxta dalasi aprobatsiya komissiyasining xulosasiga ko'ra yoki urug`likka, yaroqsiz deb topilgan bo'lsak umumiyl paxta hisobida terib topshiriladi. Urug`lik uchastkalarida g`o'za tupida o'rtacha 3-5 tagacha ko'sak ochilganda I terim bajariladi. Urug`lik uchun paxta I-II marta ya`ni 10-15 oktyabrgacha terib olinadi. Qolgani texnik paxtaga topshiriladi Barcha terilgan paxtalari xoh u texnik yoki urug`lik bo'lsin, qabul qilingan Davlat Standarti talabiga javob berishi shart. Qo'lida terilgan paxta ham mashinada terilgan paxtaning o'xhash to'rtta navdan iborat bo'lib, uning belgilari quyidagicha:

I-îââ ïäöðàñè qo'ëä ñèqèä qo'ëéä þáíðèäääïä, ukparlanib àñëè øäkliga qaytadi, tolalari yaxshi etilgan, baquvvat dolka (chanoq) paxtasi ko'pchib turadi. Tolasingning uzulishi kuchi 4.4 g/k va undan ortiq. Rangi g`o'za navaiga va parvarishi sharoitiga qarab oq yoki och novvot rangli bo'ladi. SHudring va yomg`ir ta`sirida tola sifatida mayda sariq dog`lar uchrashi mumkin.

II nav yakka chanoq paxtasi I navnikidan kichikroq, kamroq ukparlanib turadi. Tolasingning uzulish kuchi 3,9-4,3 g/k, suv etishmasligi natijasida tezroq ochilgan yoki etilmagan bo'lsa ham past haroratda sovuq tushgandan keyin ochilgan ko'saklardan terib olinadi. Rangi navaiga va parvarish sharoitiga qarab oq yoki och yovvoyi rangli bo'ladi. SHudring yoki yomg`ir natijasida tola sirtida uncha katta bo'limgan sariq dog`lar hosil bo'ladi.

III nav- yakka chanoq paxtasi II navnikidan kichkinaroq va kam ukparlanib turadi, asosan ochilgan va chala ochilgan ko'saklardan terib olinadi. III nav paxtaning tolosi to'lishib etilmagan, ba`zan xom, rangi och xira rangdan och novvot ranggacha tovlanadi. Tola sirtida sariq dog`lar bo'ladi. Uning uzilish kuchi 3,2-3,8 g/k.

IV nav- Davlat standartiga muvofiq, sovuq urib rivojlanishdan to'xtagan, etilmagan ko'sak va ko'raklardan chuvib olinadi. IV nav paxta tarkibida ko'plab o'lik tolalar bo'ladi. Bu xildagi paxtaning rangi och novvot rangdan novvot ranggacha tovlanadi, qo'ng`ir dog`lari bo'ladi, tolosi uzulish kuchi 2,1 g/k va undan ham kamroq bo'ladi.

Paxta mashina yoki qo'lida terilib, uning namligi va ifloslanishi tosh, shag`al ip gazlama parchalari, ko'm-ko'k ko'sak yirik barg (sathi 4 sm<sup>2</sup> ortiq bo'lgan) ko'm-ko'k begona o'tlar

aralashgan bo'lsa qabul qilinmaydi. Agar topshiruvchi bilan qabul qiluvchi (punkt, zavodning klassifi-katori) o'rtasida ba`zi nav bo'yicha kelishmovchilik bo'lsa, bunday xol-larda maxsus asbob LPS-4 orqali tolaning uzulish kuchiga qarab laboratoriya sharoitida analiz o'tkaziladi va shu asosida nav qabul qilinadi. Har bir xo'jalik paxtasi tayyorlov punktiga topshirilayotgan paxta navi, mashina terimi va qo'l terimi bo'yicha alohida-alohida g`aramlarda saqlanadi.

Standart bo'yicha mashinada paxta terilganda quyidagi qoidalarga rioya qilinishi shart ingichka tolali paxtadan urug`li chigit tayyorlanayotganda va o'rta tolali paxtaning elita va 1 reproduktsiya xosilini terayotganda mashinadan foydalanishga ruxsat etilmaydi

Urug`lik chigit tayyorlanadigan maydonlardagi g`o'zani defoliatsiya qilish uchun faqat o'simlikka yumshoq ta`sir etuvchi preparat ishlataladi. Urug`lik paxta ikki yarusli paxta terish mashinasi bilan faqat bir marotaba teriladi. Bunda g`o'za bargi 80% ortiq to'kilgan va g`o'za tupidagi hosilning o'rta hisobda 70-75% ochilgan bo'lishi kerak. CHigitning mexanik shikastlanishi 1% dan oshmasligi kerak. Paxtani tayyorlov punktiga topshirishda hamma hujjatlarga qo'lda terilgan paxta sifatiga qarab, masalan: áèðéi÷è navga-I, ikkinchi navga-II, va hokazo yoziladi.

#### Qo'lida terilgan paxtaning iflosligi va namligi

Paxta navi	Paxtaning sifatlari bo'yicha iflos aralashmalarning vazniy ulushi va namligi nisbati me`yorlari					
	1-sinf		2-sinf		3-sinf	
	Iflos aralashma larni vazniy ulushi	Namlikni vazniy nisbati	Iflos aralashma larni vazniy ulushi	Namlikni vazniy nisbati	Iflos aralashma larni vazniy ulushi	Namlikni vazniy nisbati
I	3	10	10.0	12.0	16.0	14.0
II	5	10	10.0	13.0	16.0	16.0
III	8	11.0	12.0	15.0	18.0	18.0
IV	12	13.0	16.0	17.0	20.0	20.0
V					22.0	22.0

Agar topshirilayotgan paxta mashinada terilgan bo'lsa yuk xatga «M» harfi yoziladi. To'kilgan paxta qo'lida va mashinada terilgan bo'lsa «P» (podbor) harfi yoziladi. To'kilgan paxta qo'lida terilsa, to'kilgan paxta mashinada terilsa III- nav «IIIP» yoziladi. To'kilgan paxta va ko'rakko'sak qo'lida terilib, dala sharoitida ko'sak chiviydigan mashinada tozalansa tegishli standart nav bo'yicha qo'lida terilgan deb qabul qilinadi.

Mashina terimi paxta navlari bo'yicha qabul qilish shartlari quyidagicha: (o'rta tolali g`o'za navlari uchun).

I-nav paxtasi qo'lida siqib qo'yib yuborilganda ukparlanib asl shakliga qaytadi. G`o'zaning naviga, parvarishlash sharoitiga qarab I-nav paxta oq novvot rangda bo'ladi. Tola uzulish kuchi 4.4 g/k va undan yuqori. SHudring va yomg`irdan so'ng tola ustida sariq dog`lar paydo bo'lishi mumkin. Paxtasi yakka chigit paxta bo'lib, bo'lakchasi (chanoqdagi paxta) bir oz cho'zilgan bo'lib, tolalari salgina buralgan.

II-nav paxtasi I-navga nisbatan kamroq ukparlanadi, asosan to'liq etilgan. Kam suvlikda past haroratda va boshqa noqulay sharoitda ochilgan ko'saklardan terib olinadi. Bu navli paxtaning rangi naviga va parvarishlash sharoitiga qarab oq yoki och novvot rangli (ingichka tolali navlarda xiraroq) bo'ladi. SHudring yoki yomg`irdan keyin tolasida sariq dog`lar bo'lishi mumkin. Tolaning uzulish kuchi 3.9-4.3 g/k. Paxtasi aloxida 1 dona chigitli paxta va bo'lakchasida cho'zilgan tolalar uchrashi mumkin. Bu xildagi tolaning sirti yiltirab, jilolanib turadi.

III-nav ochilgan va chala ochilgan ko'saklardan terib olinadi, paxtasi asosan etilmagan, ichida xomlari ham aralashgan bo'ladi. Bu navga mansub paxta II-navga nisbatan ham kamroq ukparlanadi. Qo'lida siqilganda asl shakliga kam qaytadi. Rangi oqish xiradan och novvot ranggacha bo'lib, tola sirtida to'q sariq dog`lar uchraydi. Bo'lakchasi cho'zilgan, tolalari bo'ralgan. Unda alohida-alohida etilmagan va cho'zilmagan bo'lakchalar aralashgan bo'ladi. Paxtasi yaltiroq, silliq chanoqlardagi har xil kattalikdagi xom paxtani eslatadi. Tolaning uzulish kuchi 3.2-3.8 g/k.

IV-nav xom to'liq etilmagan, chala ochilgan va ochilmagan ko'raklardan terib olinadi. Paxtasi qo'lida siqilganda ko'pchimaydi, ukparlanmaydi, asl holiga qaytmaydi, rangi oq xira yoki och novvot rangdan, to'q novvot ranggacha tovlanadi, tola sirtida qoramtil (ingichka tolali g`o'za navlarida paxtaning rangi och novvot rangdan sariq novvot ranggacha bo'lib, tolasida to'q sariq) dog`lar bo'ladi. Unda o'lik tolalar III-navdagiga nisbatan ko'p bo'lib, yaltirab tovlanib bo'lakchasi deyarli qoplab turadi. Bu xildagi paxta asosan, ko'sak va ko'raklar terib olingandan keyin ko'sak chuviydigan mashinalardan o'tkaziladi va tozalanib chiqariladi. Bu navdatolaning uzulish kuchi 3.1 g/k dan va undan past bo'ladi.

**3.3. Paxtani terish.** Paxtani mashinada va qo'lida terish bo'yicha belgilangan standartlarning o'ziga xos xususiyatlari dalani mashina terimi uchun sifatli tayyorlash hamda paxta terimini maqbul sxema bo'yicha tashkil etish uchun ma'lum sharoit yaratishdan iborat bo'lib, bu namligi va iflosligi kam bo'lgan sifatli paxta etishtirish imkonini beradi.

Standart bo'yicha paxta bir mavsumda to'rt marta qo'lida teriladi. Paxtani qo'lida terishdan ilgari dalani begona o'tlardan tozalash lozim. Qo'lida birinchi marta paxta terishga har qaysi o'simlikda o'rtta hisobda uch-to'rttadan ko'sak ochilgan paytda tushiladi. Usuv davri oxirlarigacha o'tkaziladigan ikkinchi terimda o'simlik tuplarida yaxshi ochilgan ko'saklardagi paxtaning hammasi yig`ib olinadi. SHunday qilib, birinchi va ikkinchi qo'l terimida to'la etilmagan ko'saklardagi paxtani, shuningdek, qalin shudring tushgan paxtani terishga yo'l qo'yilmaydi.

Uchinchi va to'rtinchi qo'l terimida o'simlik tuplarida qolgan paxta hosilining hammasi oxirigacha terib olinadi va shu bilan paxta terimi tugallanadi. Odatda qo'lida terib olinadigan urug`lik paxta yig`im-terimi O'rta Osiyo Respublikalarida 5-10 oktyabrdan kechiktirmay tugallanadi.

Mashina terimiga go'za bargining kamida 75-80% to'kilganda tushiladi va mashina terimi uch marta amalga oshiriladi. SHpindelli mashinalarda birinchi marta ko'saklarning ko'pi bilan 50-60% i ochilganda teriladi. Qo'shimcha ravishda ko'saklarning 20-30% i ochilganda ikkinchi mashina terimi o'tkaziladi. O'simlik tuplarida qolgan hosil oxiriga qadar ko'sak terish mashinalari yordamida yig`ib olinadi. SHpindelli terim mashnalari o'tgandan keyin erga to'kilgan paxta mexanik usulda podborshiklar yordamida teriladi. G`o'za tuplarida qolgan hosil ko'sak terish mashinalarida yig`ib olingenidan keyin dala qoldiq hosildan tozalanadi.

Paxtani mashinada terishda XVA-1,2, 14XV-2,4, 17XV-1,8, XVB-1,8, XNP-TD XN-3,6 kabi paxta terish mashinalaridan, ko'rak terishda esa SKO-4, SKO-3,6 va SKO-5,4 tozalagichli ko'rak terish mashinalaridan, qator oralariga to'kilgan paxtani terishda PX-1,2, PX-2,4, PXP-1,8 va PXS-3,6 markali podborshiklardan foydalaniladi.

Mashinada g`o'za tuplaridan hamda erdan terilgan paxta, shuningdek, qo'lida va mashina bilan terilgan ko'saklar dala sharoitida UPX-1,5B universal paxta tozalagichda tozalanadi va bir yo'la traktor pritseplariga ortilib jo'natiladi.

Ko'sak terish mashinalari va podborshiklar bilan terilgan paxta dalada quritiladi va tozalab, uning namligi hamda ifloslik darajasi ko'pi bilan 22% ga keltiriladi.

Terimni kechiktirish har xil sortlarga oid paxtaning aralashib ketishiga, shuningdek, paxtaning umumiy sorti va undan olinadigan tola sifatining pasayib ketishiga olib keladi.

**3.4. Paxta tayyorlash punktlari.** Xo'jaliklarda ekib etishtirilgan paxta hosilini kontrakt shartnomasiga binoan, davlat yoki fermer xo'jaliklari paxta tozalash zavodiga qarashli paxta tayyorlash punktiga sotadilar.

Paxta tayyorlash punktlari zavodga nisbatan joylashishiga qarab, zavod qoshidagi va zavoddan tashqaridagi punktlarga bo'linadilar.

Zavod qoshidagi tayyorlash punktlari zavodning umumiy xududida joylashgan bo'lib, u erdan 15 km masofa chamasida joylashgan xo'jaliklar paxtasini qabul qiladilar.

Zavoddan tashqaridagi punktlar esa 15 km dan uzoq joylashgan xo'jaliklarning paxtasini qabul qiladilar.

O'rtacha kattalikdagi paxta tayyorlash punktlari har mavsumda 10000 t va undan ortiq paxta qabul qiladilar. Odatda 6000 t dan kam paxta qabul qiladigan kichik tayyorlash punktlarini tashkil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Paxta tayyorlash punktida paxta

tayyorlashni tashkil etish va paxtani saqlashda qo'llaniladigan zamonaviy talablar ko'zda tutilgan. Mashinada terilgan paxtaning hammasi quritish-tozalash tsexida quritiladi va tozalanadi. Nam paxtani vaqtinchalik saqlash uchun yopiq paxta ombori va quritilgan paxtalarni saqlash uchun bunt maydonchalari qurilgan.

Paxta tayyorlash punktining idorasi, laboratoriya va boshqa yordamchi xonalar odatda, bir binoda joylashgan. Quritish-tozalash tsexining utxonasi, suyuq yoqilg'i ombori (gaz yoqilgi ham bo'lishi mumkin), transformator podstantsiyasi, 25 tonnali avtomobil tarozi joylashgan, paxta qabul posti, xududga kirish darvozasi, chegara devorlari, mexanizmlar turadigan maydoncha, o't uchirish deposi, hojatxona, panjarali tusiq, ichki darvoza, kanalizatsiya nasosi, 500 m<sup>3</sup> suv sig`adigan hovuz, oshxona, o't uchirish nasoslari, suv minorasi va projektorlar tegishli tarzda punkt xududida joylashtirilgan.

Paxta xom ashyosini qabul qilish punktida polyarizatorli mikroskoplar, laboratoriya jinlari, vakumli elektr nam o'lchagichlar, ifloslikni aniqlaydigan asboblar, I va II klass texnik tarozilar va boshqa asbob-uskunalar bo'lishi lozim. Bundan tashqari qabul punkti 18 metrli transportyorlar, qabul qilish mexanizmi, narvonlar, bunt buzuvchi va paxta kovlovchi mashinalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Paxta xom ashyosini davlatga topshirishni o'z vaqtida sifatli tashkil qilish uchun paxta tozalash zavodlari va ularga qarashli paxta tayyorlash punktlari quyidagi talablarni bajarishlari lozim: paxtachilik xo'jaliklari bilan har yili butun hosilni davlatga sotish uchun shartnomaga tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish; xo'jaliklarda qo'lda yoki mashinada paxta terimini sifatli tashkil qilish va sortlariga to'gri ajratish to'g`risida tushuntirish o'tkazish; xo'jalikni davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlash; davlat standartining asosiy ko'rsatkichlari va paxta xom ashyosiga bo'lgan xarid narxlari ifodalangan hamda texnika xavfsizligi va yong`indan himoya qilish haqidagi plakatlarni, ko'rindigan joyga ilib qo'yish; davlat standartlarida belgilangan qoida va ko'rsatmalarga qat'iy rivoja kilish ta'minlash; xom ashyoni qabul qilish, tashish, saqlash boshqa mexanizmlardan unumli foydalanishni ta'minlash; transport vositalaridan omborxona, maydonchalardan, tarozi xo'jaligidan, brezent, laboratoriya asbob-uskunalaridan va boshqa xo'jalik materiallaridan unumli va tejamli foydalanishni ta'minlash; paxta xom ashyosini selektsion navi va sanoat sortlari bo'yicha uning terish usuliga va dala guruhlariga qarab alohida partiyalarga, urug`lik paxtalarni ham reproduktsiyasiga qarab partiyalarga ajratish; quritish va tozalash tsekslarini to'xtovsiz va unumli ishlashini ta'minlash; buxgalterlik hisob-kitoblarini to'g'ri tashkil qilish; paxta topshiruvchilar bilan to'gri va o'z vaqtida hisob-kitob qilish; saqlanayotgan paxtaning sifatini ma'lum vaqtarda tekshirib turish va zavod rejasiga ko'ra yuklab jo'natib turish; paxtani tashishda, tozalashda, quritishda va uni saqlashda sifatini buzmaslik va isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlarini ko'rish; paxtani saqlash, quritish, tozalash va tashishda bo'ladigan xarajatlarni kamaytirish tadbirlarini ko'rish; zavodga yuborilayotgan paxta xom ashyosini tayyorlash punktida va zavodda tarozida tortish, uning sifatini aniqlash yo'li bilan tayyorlash punktida saqlanayotgan paxtaning hisobini to'g'ri olib borish; paxta tayyorlashning hamma bosqichlarida yong`indan saqlash va xavfsizlik texnikasi qoidalariغا muvofiq tadbirlarni ko'rish; paxta tayyorlash zavodidan keltirilgan urug`lik uchun ajratilgan chigitni vaqtincha saqlash va ularni o'z vaqtida paxtachilik xo'jaliklariga standart talablariga muvofiq tarqatish vazifasi ham kiradi.

**3.5. Paxtani qabul qilib olish.** Paxta xom-ashyosi dalalardan tayyorlash punktlariga qop-qanorsiz, 2PTS-4-763 va 2PTS-4-793A-01 rusumli traktor tirkamalari (pretsep kuzovi xajmi-16m<sup>3</sup>; paxta kutarish qobiliyati 2t.) da tashiladi. Keltirilgan paxta UzRST 615-94 talablariga rivoja qilingan holda tudalar bo'yicha qabul qilib olinadi. Agar tudada har xil selektsiya va sanoat navli, tipli va sinflari paxtalar aralashtirilgan bo'lsa, ular shu tudada eng past tip, nav yoki sinf bo'yicha qabul qilinadi. Tayyorlash punktida klassifikator paxtaning navini qo'llanilayotgan standart bo'yicha namuna tanlab olib, talablarga muvofiq birlashtirilgan namunaning tashqi kurinishini topshiruvchi ishtirokida belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalar tashqi ko'rinishi bilan solishtirish orqali aniqlaydi.

Paxta topshiruvchi norozi bo'lgan hollarda paxta navi tayyorlash punkti laboratoriyasida asboblar yordamida topshiruvchi ishtirokida qaytadan tanlab olingan birlashtirilgan namuna

yordamida paxtaning rangi va pishib etilganlik koeffitsienti bo'yicha aniqlanadi. Sinash natijasida olingen natija hal qiluvchi hisoblanadi.

Paxtaning iflosligi va namligi paxta tayyorlash punktining laboratoriyasida topshiruvchi ishtirokida tudadan qo'llanilayotgan standart bo'yicha tanlab olingen o'rtacha kunlik yoki birlashtirilgan namuna yordamida aniqlanadi.

Ifloslik yoki namlik me`yorlari 22 % dan oshib ketsa, paxta topshiruvchiga qaytariladi yoki narxi pasaytirilib belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Agar tudada yashillangan paxta bo'lsa topshiruvchi tomonidan umumiy massa tudadan ajratiladi yoki bir navga pasaytirib qabul qilinadi.

Namuna tanlash usullari. Topshirilayotgan paxta tudasining bir joyidan olingen namuna tudaning o'rtacha sifatini belgilay olmaydi. SHu sababli namuna tanlab olishda O'z RST 643-45 ko'rsatmalariga rioya qilinishi shart.

Keltirilgan paxta tudasining har 2 tonasidan kamida uchta joyidan har xil qalinlikdagi joylaridan 100-150 g bo'lган namuna olinadi.

Sig`imi 1 kg bo'lган qopqog'i zich berkitiladigan idishga kichik byuksalarga solingen nuqtaviy namunalarni solib birlashtirilgan namuna hosil qilinadi. Olingen namuna paxtaning namligini aniqlash uchun muljallanmagan bo'lsa, iflosligi tukilmaydigan oddiy idishga solish mumkin.

Umumlashtirilgan namunalarni sig`imi 6-8 kg bo'lган zich berkitiladigan idishlarga solinadi va bir kun davomida har bir jamlangan tudalar uchun alohida o'rtacha bir kunlik namuna kamida 3-4 kg bo'lishi kerak.

Idishga quyidagilar yozib qo'yiladi: paxta topshiruvchi xo'jalik nomi; jamlanayotgan tuda nomeri; selektsiya navi; sanoat navi va sinfi; namuna olingen kun.

Organoleptik yo'l bilan paxta navi, sinfi yoki gommoz kasalligi bor paxta miqdorini aniqlashda kelishmovchilik sodir bo'lsa, har 2 tonna paxtadan 15 ta joyidan nuktaviy namuna olinib, birlashtirilgan namuna hosil qilinadi va tekshirish o'tkaziladi.

Odatda paxta tayyorlash punkti ikki yoki uch zonaga bo'linadi. Birinchi zonada klassifikator paxtaning sortini aniqlab, namligi va iflosligini aniqlash uchun laboratoriya nomi oladi; ikkinchi zonada esa paxta xom ashyosi tarozida tortiladi va katta klassifikator qabul qilish hujjatini yozib beradi; uchinchi zonada esa paxta partiyasiga qarab ochiq yoki yopiq omborlarga joylashtiriladi va klassifikator tomonidan sifati qayta tekshiriladi.

Paxta tayyorlash punktining laboratoriysi har bir qabul qilingan paxta xom ashyosi uchun partiya bo'yicha pasport tuzadi. Bunda paxtaning selektsion navi va sanoat sorti, reproduktsiyasi, ombor raqami, partiyaning boshlang`ich va tugallangan vaqtini, uning ogirligi va qabul qilib olgan klassifikatorning familiyasi ko'rsatiladi.

Paxta tayyorlash punktlarida chigitli paxtani klassifikator qabul qilib oladi. Bir selektsion nav va sanoat sorti, bir xil terimga mansub, urug`lik reproduktsiyasiga va dala guruhiga qarab quritilgan, kasallangan va zararkunandalar bilan zararlanganlari hamda to'kilgan paxtalar alohida qilib topshiriladi. Topshiriladigan chigitli paxta to'g`risidagi hujjatlarda paxta qo'lda terilgan bo'lsa sortlar bo'yicha I, II, III va IV raqamlari qo'yiladi. Agar mashinada terilgan bo'lsa, raqam yoniga «M» harfi qo'yiladi. Masalan, birinchi sort SH deb belgilanadi. Agar to'kilgan paxtalar (podbor) topshirilsa, qo'lda terilgan bo'lsa SH, mashinada terilgani I MP deb belgilanadi.

Qo'lda terilgan to'kilgan paxta va ko'saklar paxta tozalagichda tozalangandan so'ng qo'lda terilgan paxta standarti talablariga muvofiq qabul qilinadi.

Davlat standartiga ko'ra mashinada va qo'lda terilgan paxta xom ashyosi tolanning uzilish kuchi, tolanning pishiqligi va tashqi ko'rinishi, rangi, etilganligi, elastikligi va paxta bo'laklarining zichligiga qarab to'rtta sanoat sortiga bo'linadi. Birinchi sortga uzilish kuchi 4,4 g. kuch bo'lgan, etilgan va normal ochilgan ko'saklardan terilgan, qo'lda siqib ko'rulganda elastikligi va zichligi yaxshi seziladigan paxta xom ashyosi kiritiladi. Ikkinchi sortga uzilish kuchi 3,9 g. kuchga teng bo'lgan, etarli darajada shakllangan va to'la ochilgan ko'saklardan terilgan, qorasovuq tufayli erta ochilgan ko'saklardan terilgan chigitli paxta kiritiladi. Uchinchi sortning uzilish kuchi 3,2 g. kuch bo'lib, ochilgan va chala ochilgan ko'saklardan terilgan, asosan unchalik etilmagan paxta bo'lib,

unga xom paxta ham aralashgan bo'ladi. To'rtinchi sortga uzilish kuchi 3,2 g. kuchdan 2,1 g. kuchgacha bo'lган, chala shakllangan, sust ochilgan va ochilmagan ko'saklardan terilgan chigitli paxta ruxsat etiladi. Paxta terish mashinalaridai keyin erdan terilgan paxta va ko'sak terish mashinalari bilan terilgan paxta ham shu sortga mansubdir.

**3.6. Paxta g`aramlash maydonchalari.** CHigitli paxtani faqat qulay ob-havoda quruq maydonlarda g`aram qilinadi. Paxtaning namligi yuqori bo'lgan erlarda, ayniqsa erosti suvlarini yaqin joylashgan joylarda va juda nam bo'lgan paxtalarni bunt qilish uning sifatinig tez buzilishiga olib keladi. CHigitli paxtani yopiq omborlarda saqlash yaqtida, namligi 11% gacha bo'lgan I va II sort paxta uchun uning o'rtacha zichligi  $150-190 \text{ kg/m}^3$  va namligi 14% gacha bo'lgan III va IV sort paxta uchun  $130-160 \text{ kg/m}^3$  bo'lishi kerak.

CHigitli paxtani ochiq maydonchalarda saqlash uchun paxta tayyorlash punkti hududida er yuzasidan 40 sm ko'tarilgan maxsus buntlash maydonchalari quriladi.

Paxtani saqlash uchun uning sig`imi 750, 1500, 3000, 4500, 6000 t va temir-beton detallardan yigilgan, pishiq yoki xom g`ishtdan qurilgan yopiq omborlardan, to'rt tomoni ochiq shiyponlar yoki butunlay ochiq maydonchalardan foydalaniladi.

Paxta saqlaydigan maydonchalar 50 mm qalinlikda asfalt qilinadi yoki 150 mm qalinlikda yirik tosh terib orasi mayda sharal bilan to'ldiriladi. Buntlash maydonchalarining o'lchami  $25 \times 14$  m bo'ladi. Uning o'rtasi yomgir suvlarining oqib ketishi uchun 5-7 sm ko'tarilgan bo'lishi lozim. Maydonchadan 0,7 m uzoqlikda oqova kanallari qilib qo'yiladi.

**3.7. Paxtani g`aramlashda omborlaridan foydalanish.** Paxtani zavodlarda, tayyorlov punktlarida saqlash uchun yopiq omborlar, bostirmalar va ochiq maydonlarda foydalaniladi. Omborlar, bostirmalar, g`aram maydonlari tartib raqamlariga ega bo'ladi. YOpiq omborlar, birinchi navbatda, urug`lik paxtani saqlashga mo'ljallanadi.

YOpiq binolarda paxta quyidagi zichlikda bosilishi kerak:

- namligi 12 % gacha bo'lgan I-II nav paxta uchun -  $150-190 \text{ kg/m}$ ;
- namligi 18% gacha bo'lgan past navli paxta uchun  $130-160 \text{ kg/m}$ .

Paxta omborlaridan to'g`ri foydalanish tayyorlov punktida punkt mudiri, zavodda katta klassifikator zimmasiga yuklatiladi. Omborxonalar, bostirmalar va g`aram maydonlari loyixalash tashkilotlarining texnik hujjatlari asosida qo'shiladi. G`aram maydonining o'lchami  $14 \times 25$  m bo'lishi kerak, maydon o'rtasining yuzasi yomg`ir suvlarini oqib ketish uchun 5-7 sm balandroq bo'lishi lozim. Boshqa o'lchamdagagi g`aram maydonlarini qo'rish tavsiya etilmaydi.

**3.8. Paxtani g`aramga bosish.** G`aram maydonchalari er sathidan 40 sm baland qilib ko'tarilishi, asfalt yotqizlib, mustahkamlashtirish kerak. G`aram maydonining o'rtasidan tunnelni to'g`ri kovlash uchun maxsus chiziq tortib qo'yiladi.

Buntlarni shakllantirishda paxtani, ayniqsa mashinada terilganini buntning hamma joyiga bir xil joylashtirish va shibbalash muhim. Maydonchaga paxta transportyor yordamida tashlanadi va qo'lda uning yuzasi bo'ylab ma'lum qalinlikda tekislanib turiladi.

Paxta g`aramga havo ochiq kunlarda yoyib bosiladi.

YOg`ingarchilik paytlarida paxtani g`aramga bosish man etiladi.

G`aramga bir tekislikda joylashtirishi lozim.

G`aramlash paytida paxta qo'shimcha iflosligi uchun g`aramning to'rt tomoniga 1.5 m kenglikda eski brezent yoki mato solinadi.

Paxtani g`aramga mexanizm yordamida uzatishda transportning ikki yoniga ham brezent solib qo'yiladi. Buntning qiyshayib ketmasligi, deformatsiyalanmasligi va yoriqlar hosil bo'lmasligi uchun paxtani shibbalashga uning qalinligi  $0,8-1,0$  m bo'lganda kirishiladi. Bir kunda bitta maydonga 80 tonnadan ortiq paxta bosish tavsiya etilmaydi va bitta buntga paxta joylashtirishni 10 kunda amalga oshirish kerak..

G`aramlashda paxtani g`aram chetidan kamida 0,5 m ichkarida 2,5-3 m kenglikda zichlay boshlash kerak. G`aramning o'rtaligi qismi shibbalanmaydi, bu erdag'i paxta o'z vaqtida va u erda ishlayotgan odamlarning og`irligi bilan asta-sekin zichlashaveradi. G`aramning burchaklari alohida e'tibor bilan yaxshilab zichlanadi, chunki uning mustahkamligi bo'rchaklar to'g`ri chiqarilishi va

pishiq zichlanishiga bog`liq. Paxtaning g`aramga to`kilgan qismi yaxshi zichlanmaguncha o`stiga yangi paxta qatlami to`kilmaydi.

Paxtani g`aramlashda g`aramning hamma joyiga bir tekis yoyilishiga va yaxshi shibbalanishiga alohida e`tibor berish kerak. G`aramning zichlangan qismi (chekka qismi) doimo o`rta qismidan pastroq bo`lishi zarur. G`aramlar quyidagi hollarda mustahkam bo`lmaydi va qulaydi. Paxtani pastki qismi va keyingi qatlamlari yaxshi zichlanmaganda; paxta g`aramining tepe qismida bo`lib-bo`lib, bir-biriga kirishtirmay bosilganda.

G`aram bosish uning yuqori qismi 2-2.5 m balandlikka, g`aramning butun uzunligi bo`lib gumbaz shakllantirilgandan so`ng tugallanadi. Paxta g`aramga bosib bo`lingach asta-sekin cho`kadi va 10-15 kunda 1-1.5 metrga pasayadi. G`aram ko`tarib bo`lingach atrofida osilib qolgan, bosh zichlangan paxta terib olinishi kerak.

Paxta quritib tozalangan paxta bir xil qalinlikda g`aramning butun yuzasi bo`ylab yoyiladi. Quritilgan paxta g`aramga yoki omborxonaga bosilgach, laboratoriya xodimi paxta haroratini o`lchaydi. Keyingi tadbirlar va haroratni o`lchash mazkur yo`riqnomaning hamda 11.1.7-bandlarida ko`rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

G`aramlarni brezent bilan yopish. Ochiq maydonlarda saqlanayotgan paxtaning o`stini yopish uchun o`lchami 8.5x7 m li berezentrardan foyodalaniladi. Óðog`lik paxta faqat birinchi darajali brezent bilan yopilishi kerak.

G`aramlar quyidagi tartibda yopiladi. Brezentning o`lchami 5x7 m bo`lsa 25x14 m maydondagi g`aramni yopish uchun o`nta brezent kerak bo`ladi, bunda to`rtta brezentrardan ikkita brezent tikiladi, ikkita brezent alohida qilib kalta 7 metrli tomonidan tikiladi.

SHu tariqa tikilgan brezentrardan o`lchami 17x7 m bo`ladi. Tikilgan brezent 17 m li tomoni bilan taxlanadi. G`aram kengligi 14 m, gumbaz ismi 2.5 m bo`lganda kengligi bo`yicha 2 m li asos qoladi. Bunday holda brezent 0.5 m tomonga tikiladi. G`aram uzunligi bo`ylab esa 5 ta brezent yopiladi. 25x14 m li g`aramni 8 ta brezent bilan yopishda to`rtta brezent 7 m li tomonidan tikiladi. G`aramga 17 m li tomoni bilan yopiladi. Brezent g`aramga arqon bilan tortib yopiladi. Buning uchun uzunligi 15 m li sim ikkiga bo`linadi, uning quyi tomoniga yuk bilan birga erga 40 sm chuqurlikka ko`miladi yoki erni kovlamay yuksiz holda beton quyilmaga bog`lanadi. Ma`lum vaqt o`tishi bilan iplar yana tarang qilib tortiladi.

Bitta brezent bilan yopilgan g`aramda o`rtacha 30 tonna paxta bo`lishi kerak. G`aramni 11.6.2 bandda ko`rsatilgandan ortiq brezent bilan yopish ta`qiqlanadi.

**3.9. Paxta g`aramlarini tashkil etish va profilaktik tadbirlar o`tkazish.** Paxta g`aramlari tashkil etish va profilaktik tadbirlar o`tkazish dastlabki tadbirlardan biri hisoblanadi. Paxtani o`z vaqtida yaxshi holatda saqlash va undan sifatli tola olish uchun paxtaning navi va sifatini hisoblagan tabaqalab to`plash zarur.

Zavod qoshidagi tayyorlov punktida quritish-tozalash tsexining qayta ishslash oqimida ishslashini hisobga olib, namligi 14 foizgacha, bo`lgan paxtani tozalash tsexining qayta olib, namligi 14 foizgacha, bo`lgan paxtani tozalash tsexi zonasiga, namligi 14 foizdan yuqori bo`lgan paxtani esa quritish - tozalash tsexi zonasiga to`kish maqsadida muvofiqdir.

Paxta g`aramlari ko`tarilgach, ularning atrofi o`z vaqtida qo`l yoki mexanizmlar yordamida tarab chiqiladi.

G`aramlardagi paxtani namlanganligini o`z vaqtida aniqlash uchun tayyorlov punkti laboratoriysi saqlanayotgan paxtaning haroratini tekshirib turadi.

I va II nav paxtaning bir kunlik namligi tegishlicha 9-13, III va V nav paxtaning namligi 15-17 foizidan ortmagan to`dalarda har 5 kunda, namligi katta to`dalarda esa har uch kunda tekshiriladi.

G`aramlardagi harorat 8 joyda (4 ta bo`lakchalar tomonidan, 4 tasi esa yon, oldi va orqa tomonlaridan 4 metr chuqurlikda o`lchanadi. Omborlarda saqlagan paxta g`aram ichida kamida 30 minut turishi lozim. O`lchangan harorat paxta saqlash daftarida qayd etiladi. Issiq paytlarda (sentyabr-oktyabr) tayyorlangan paxta uchun normal harorat agar u 2-3 kun ichida bir xil tursa,  $25^{\circ}\text{S}$  ortmasligi kerak.

Paxta navi	Namligi, foiz	CHo'kishi hisobga olinganida yo'l qo'yiladigan g`aram balandligi ko'pi bilan, m.		Bir turdag'i maydonchadagi paxtaning taxminiy vazni, t
		Havo so'rg`ichsiz	Havo so'rg`ich qo'llanib	
I	9 gacha	-	8	400
	9.1-12.0	-	8	350
	12.1-14.0	-	7	300
	14.0 dan ortiq	-	6	250
II	10 gacha	8	-	370
	10.1-13.0	-	8	300
	13-16	-	7	250
	16 dan ortiq	-	6	200
III	11 gacha	7	-	350
	11.1-15.0	-	7	300
	15.1-18.0	-	6	250
	18 dan ortiq	-	6	230
IV	13 gacha	6	-	300
	13.1-17.0	5	-	250
	17.1-20	-	4	200
	22.0 gacha	-	3	150

Saqlanayotgan paxta to'dalaridagi harorat bиринчи о'lчашда  $35^{\circ}\text{S}$  dan ortiq bo'lsa yoki keyingi о'lчашларда bir nuqtaning o'zida 2-3 darajaga ortib ketsa, g`aramdagi issiq va nam havoniso'rib chiqarib tashlash yo'li bilan uni sovitish kerak.

III-V nav paxta saqlanganda.

$13-15^{\circ} 7-10^{\circ} 10^{\circ} 15^{\circ} 75\%$

$15-18^{\circ} 5-8^{\circ} 8^{\circ} 10^{\circ} 85\%$

$18-20^{\circ} 3-5^{\circ} 5^{\circ} 8^{\circ} 95\%$

$22^{\circ}$  dan yuqori  $3-4^{\circ} 5^{\circ} 7^{\circ} 95\%$

Havoning nisbiy namligini tayyorlov punkti laboratoriyasi aniqlaydi.

Havo issiq kunlarda (Harorat  $25-30^{\circ}\text{S}$  dan ortiq bo'lganda) g`aram ichidagi havoni kechasi yoki erta tongda so'rib olish maqsadga muvofiqlidir. Havoning nisbiy namligi yuqori (95 foizdan ortiq) bo'lganda profilaktik tadbirlar o'tkazilmaydi. Bunday paytda saqlanayotgan paxtaning harorati keskin ko'tarilganda havo so'rildi. YUqori namlikdagi paxta haroratini pasaytirish samaradorligi va paxtaning yaxshi saqlanishini ta'minlash, g`aramning to'g`ri ko'tarilganligiga hamda banland-pastligi bir xilligiga bog`liqdir. G`aram balandligi butun uzunligi bo'ylab bir xil bo'lishi lozim.

Paxtani g`aramlashda profilaktika tarzida havoni so'rib olishda bu ish 6-8 soatdan kam davom etmasligi kerak. Paxtani o'z-o'zidan qizigan xollarda havo so'rish jarayoni g`aram harorati o'lchanayotgan sakkizta joyda uning issiqligi atrof havo harorati darajasiga etguncha davom ettiriladi. Paxtaning o'z-o'zidan qizib ketishining oldini olish uchun havo punktlardagi havo so'rvuchi qurilmalar yordamida chiqarib tashlanadi.

G`aram ko'tarilgandan va tegishlichcha cho'kkandan keyin qo'lda yoki mexanizmlar yordamida uning uzunasi bo'ylab eni 0.8-1.0 balandligi esa 1.8-2 metrli tunnel ochiladi. Havo so'rib olinishdan zavod tunnel 2.8-3 m qalinlikda paxta bilan to'siladi va ustiga III va IV darajali brezent bilan 2 qavat qilib yopiladi. Havo so'rish uchun UVU-10 m ventilyatsiya qo'llaniladi. Namligi ortiqcha bo'lgan paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, g`aram qanday holatdaligidan qat'iy nazar, havo so'rib tashlanishi kerak. Quyidagi jadvalda havo so'rishning taxminiy muddatlari ko'rsatilgan.

Havo so'rolganda ilgari o'lchanan joylarda har 6-8 soatda nazorat o'lchovi o'tkazib turilishi kerak. G`aramdagi havoni tunnel orqali chiqarib tashlashda harorat sekinlik bilan pasayganida tunnelning yon va orqa tomonlaridagi atmosfera havosining so'rileyotganligi tekshiriladi. Bunday hol aniqlansa, zaruriy choralar ko'rildi.

Paxta namligi	Profilaktika (havo, so'rish) qaysi kundan boshlanadi.			Havoning nimsibiylarnamligi, % dan ortiq
	To'plash boshlangandan paytidan	birinchi dan keyin shuncha kundan keyin	keyingilari shuncha kundan so'ng	
I - II nav paxta saqlanganda				
12-14	7-10	15	20	75
14-16	5-8	10	15	85
16 dan ortiq	5	8	10	95

Homligi 11% gacha bo'lган birinchi nav paxta va namligi 13% gacha bo'lган past nav paxtani saqlashda tola va chigitning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish tadbirlari o'tkazilmasa ham bo'ladi. Biroq amalda shunday hollar ham bo'ldiki, g`aramlarga namligi juda yuqori paxta ham tushib qoladi. Bu holda g`aramning ayrim joylarida paxtaning o'z-o'zidan qizish hollari yuz beradi.

SHuning uchun namligi 11 foizgacha bo'lган I-II nav, namligi 13 foizgacha bo'lган past navli paxtani uzoq vaqt saqlashda tunnellar ochish va issiq havoni chiqarib tashlash maqsadida muvofiqdir. Paxta zavodi tayyorlov holida texnik nazorat bo'limlari boshliqlari kamida har o'n kunda bir marta g`aramlar to'g'ri bosilayotganligini, omborlardan foydalanishni va zavoddan tashqaridagi tayyorlov punktlarida xom ashyo va tayyor mahsulotni, texnik nazorat bo'limlari boshliqlari esa paxta zavodi qoshidagi tayyorlov punktlarida saqlanayotgan paxta sifatini tekshirib turishlari kerak.

Har bir tekshirish natijasi tayyorlash punktlarining maxsus daftariga yozib qo'yiladi. Paxta holatini tekshirishda quyidagilar aniqlanadi.

- chakka o'tishi va boshqa sabablar tufayli namlik ortib ketmasligi
- o'z-o'zidan qizish jarayoni boshlanmaganligi- brezentlarda qora dog`lar paydo bo'lganmi (paxtaning o'z-o'zidan qizish joyini bildiradi).
- Tunnellar boshqa nam yo'qligi (shu joy yaqinida ho'l paxta borligidan darak beradi).
- g`aramda o'zgarishlar yuz bermaganligi

Paxta zavodi va tayyorlov punkti laboratoriysi 1-11 nav paxta holatini har 10 kunda, III-V navlar holatini esa har 5 kunda tekshirib turadi. Urug`lik paxtaning qanday saqlanayotganligini tekshirishga paxta zavodining katta agronomi va urug`lik laboratoriysi mudiri jaib etiladi.

Har bir to'dadagi paxtaning holatini tekshirishsh yakunlari daftariga yozib qo'yiladi. Paxtaning harorati avvalgi tekshirishdan loaqlal 1 darajaga ortib ketmaganligi aniqlansa uning haroratini har kuni o'lchab turish talabetiladi. Agar keyingi 2-3 o'lchashda haroratning tobora ortib borayotganligi kuzatilsa, bu holda ventilator yordamida havoni so'rib tashlash yo'li bilan paxtaning o'z-o'zidan qizishiga chek qo'yiladi. Tayyorlov punktida paxta qoniqarsiz holatda saqlangan taqdirda tayyorlov punkti mudiri va klassifikator aniqlangan kamchilikni tugatish choralarini ko'radilar va darhol bu haqda paxta zavodi direktoriga xabar beradilar.

Paxta zavodi hamda tayyorlov punkti vakillaridan iborat komissiya bir oyda kamida 2 marta paxta qanday saqlanayotganligini birgalikda tekshiri, tekshirish natijalarini №10-XL forma asosida rasmiylashtiradi. CHakka o'tayotganligi va paxta namlanganligi aniqlangan hollarda nam tortish qalinligini aniqlash maqsadida g`aramni quruqsimon qilib teshish va namlangan paxtani quritish uchun olish lozim.

YOg'ingarchilik bo'lib o'tgandan sung barcha omchorxonha, bostirma va g`aramlardagi paxta holati tekshirib chiqiladi. Brezent yoki tomdan suv o'tgan taqdirda namlangan paxta olinib, quritiladi, toming buzilgan joyi zudlik bilan tuzatiladi. Har bir tayyorlov punkti uzunligi 6-9 m li ko'chma shoti hamda ko'chma metall shotilar bilan ta`minlangan bo'lishi kerak.

**3.10. Paxtaning qizishini oldini olish yullari.** Bunt qilingandan 10-20 kundan so'ng kerak bo'lгanda uning o'rtasidan uzunasiga balandligi 1,8-2,0 m va eni 0,8-1,0 m li tunnel kovlanadi. YOpiq omborlarda saqlanadigan paxta uchun har bir bo'lim o'rtasida bitta quduq kovlanadi va orasi ochib qo'yiladi.

Namligi yuqori bo'lган paxtalar buntlangandan 3-5 kun o'tgach uzunasiga 1 tunnel va kundalangiga har 5 m ga bir tunnel kovlanadi.

Saqlanayotgan paxta harorati termoshchup yordamida laborantlar tomonidan tekshirib turiladi.

Agar paxta harorati sentyabr, oktyabr oylarida  $20^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lsa, bu harorat normal hisoblanadi. Harorat yuqorida keltirilgan qiymat-lardan yuqori bo'lsa, yoki ikkinchi marta ulchanganda oldingi ulchovdan  $2-3^{\circ}\text{S}$  ortiq bo'lsa, uni albatta sovitish choralarini kurish kerak.

Qizigan paxtadan nam havoni surib olish uchun buntdag'i tunnelning bir tomoniga diametri 400 mm va uzunligi 4 m li truba maxkamlangan VTS-10 rusumli ventilyator ulanadi. Tunnelning qolgan tomonlari sholchaga uralgan paxta bilan yaxshilab berkitiladi, so'ngra havo tortib olinadi. Bu esa g`aramlangan paxtani sovishiga olib keladi.

Havoni tortish uchun UVT-10m, VTS-8m, VTS-10 va UVP ventilyatorlari ishlataladi. Paxtaning rangi buzilmasligi va saqlashdan so'ng oq rangda bo'lishi uchun havoni profilaktik tortish muddati 8 soatdan oshmasligi lozim. Saqlanayotgan paxtadan havoni tortish belgilangan muddatlarda o'tkazilib turilsa, bu paxtaning tabiiy sifati 5-6 oygacha buzilmaydi.

Odatda mashinada terilgan paxtani birinchi sortining namligi 11% gacha, uchinchi va to'rtinchi sortalariniki 13% gacha bo'lsa, havoni tortmasdan ham uning tabiiy sifatini buzmasdan saqlash mumkin.

Havo harorati  $25-30^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lgan kunlarda havoni tortish kechasi yoki ertalab o'tkazilgan ma`qul. Havoning nisbiy namligi 85% dan yuqori bo'lganda profilaktik tadbirlar (havoni tortish) o'tkazilmaydi.

Nam paxtani buntlarga joylashtirish va o'z vaqtida havoni tortmaslik oqibatida paxta o'z-o'zidan qiziy boshlaydi. Natijada tolanning rangi o'zgaradi, sorti pasayadi, urug`ning sifati keskin pasayib ketadi.

SHuning uchun saqlanayotgan I va II sort paxtani har 10 kunda, III va IV sort paxtani har 5 kunda tekshirib turish kerak.

Saqlanayotgan paxtaning haroratini aniqlash uchun termoshchup buntning 8 nuqtasida 3 m chuqurlikda, yopiq omchor shiyponlarda esa 4 nuqtada paxta balandligining yarmigacha kiritilib o'lchanadi. Agar paxta harorati issiq kunlarda (sentyabr-oktyabr oylarida)  $25^{\circ}\text{S}$  gacha va boshqa oylarda  $20^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lsa, normal hisoblanadi. Paxtaning harorati keltirilgan chegaradan yuqori bo'lsa yoki ikkinchi marta o'lchanganda oldingi o'lchovga qaraganda  $2-3^{\circ}\text{S}$  ortiq bo'lsa, uni albatta sovitish choralarini ko'rish kerak.

YOmig`irdan so'ng saqlanayotgan paxtaning holati tekshiriladi. Qor ko'p tushganda buntning yuza qismi albatta qordan tozalanishi lozim.

Saqlanayotgan paxtani tezda nazoratdan o'tkazish uchun tayyorlash punktlarining laboragoriyalari kerakli miqdordagi termoshchup TSHM, elektrotermoshchup TM, KT-1 va o'lchagichlar PIP-2 va boshqa asbob-uskunalar bilan to'liq ta`minlangan bo'lishi lozim.

KT-2 ko'chma qurilma esa haroratni aniqlashni ancha engillashtiradi va bunda bo'ladigan issiqlik jarayonlarini nazorat qilishning aniq o'tkazilishini ta`minlaydi.

Paxtaning sifatli saqlanishi tolanning tabiiy xususiyatlarini va chigitning sifat ko'rsatkichlarini birmuncha yaxshilashga olib keladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Dalalarni paxta hosilini terishga tayyorlash va uni terib olish texnologiyasi haqida nimalarini bilasiz?
2. Paxta dalasi hosilni yig`ib olish uchun qanday tayyorlanadi?
3. Mashina terimi uchun dala qanday tayyorlanadi?
4. Paxtani qo'lida va mashinada terish tartini aytинг?
5. Urug`lik paxtani terishning xususiyatlari?
6. Paxta mashinada terilganda uning namlik va ifloslik darajasi qanday bo'lishi kerak?
7. Paxta tayyorlash punktlarining vazifalari haqida nimalarini bilasiz?
8. Paxtani tayyorlash punktlari nechta zonaga bo'linadi, ularning vazifalari?
9. Paxtani g`aramlash maydonchalari qanday erlarda quriladi?
10. YOpiq omborlarda qanday paxta saqlanadi?

#### **4-Ma`ruza. CHigitli paxtani dastlabki qayta ishlash texnologik jarayonlari**

**Reja:**

- 4.1. Paxta tozalash zavodlari.**
- 4.2. Texnologik jarayon va paxta tozalash plani.**
- 4.3. Paxta zavodlarida qo'llaniladigan texnologik jarayonlar sxemalari.**
- 4.4. Oqim-liniyali texnologik jarayon sxemalari.**

**Adabiyotlar:** 2,3,4,9,10,14

**Tayanch iboralar:** jinlash, linterlash, arrali jin, valikli jin, linter, regeniratsiya, toy.

**4.1. Paxta tozalash zavodlari.** Paxta tozalash zavodlarining asosiy vazifasi har yili qabul qilingan chigitli paxtadan uning tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda yuqori sifatli tola, lint va chigit ishlab chiqarishdan iborat. Bundan tashqari, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta tozalab, ular tarkibidagi tolalarni ajratib olish hamda urug`lik chigitlarni kasalliklarga qarshi dorilash bilan ham shug`ullanadi.

Paxta tozalash zavodlarining asosiy texnologik mashinasi ikki xil - arrali jin va valikli jin bo'lib, arrali jinlar o'rnatilgan zavodlarda o'rta tolali paxta va valikli jinlar o'rnatilgan zavodlarda esa ingichka tolali paxta ishlanadi.

Mamlakatimizda 4-5 arrali jinlar o'rnatilgan bir batareyali va ikki batareyali (8-10 jinli) zavodlar bor. Valikli jinlar ham batareya tarzida joylashtirilib, har batareyada 12 donadan mashina bo'ladi.

Paxta zavodining ma`lum bir vaqt ichida ishlab chiqargan asosiy mahsuloti - tolating eng ko'p miqdori zavodning ishlab chiqarish quvvati deyiladi. Zavodlarda o'rnatilgan jinlar soni har xil bo'lgani uchun ularning ishlab chiqarish quvvati ham har xil bo'ladi.

Paxta zavodining yillik tola ishlab chiqarish quvvati (t/y) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G_B = 10^{-3} abqntmk$$

bunda: a - jinlar soni; b - har bir arrali jindagi arralar soni; valikli jinlar o'rnatilgan zavodlar uchun b=1; q - har bir arraning bir soatda ishlab chiqargan tolesi, kg/soat; n - bir sutkadagi smenalar soni; t - har smenadagi ish soati; m - bir yildagi ish kunlari soni; k - mashinalarni ishlatish koeffitsienti.

Zavodning bir yilda qayta ishlab beradigan chigitli paxtasining miqdori (t/y):

$$G_c = \frac{G_B * 100}{B}$$

bunda: V - chigitli paxtadan o'rtacha tola chiqishi, % hisobida.

Bir yilda tayyorlanadigan chigitli paxta 30 ming tonnadan ortiq bo'lganda zavod qoshida joylashgan paxta tayyorlash punkti maydoni etarli bo'lmaydi. Bunday hollarda paxtachilik rayonlarida ham tayyorlash punktlari tashkil etiladi. Tayyorlanadigan paxta miqdori kam bo'lganda zavod qoshidagi tayyorlash punkti etarli bo'lib, hamma paxta shu punktgaga qabul qilinadi.

Texnologik jarayon sxemasini va ob`ektlarni yaxshi joylashtirish uchun har bir zavodning bosh plani quyidagi zonalarga bo'linadi; xom ashyo, ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar va ma`muriy bino zonalari.

Bosh plandagi zonalarni joylashtirishda shamolning ko'pchilik vaqt qaysi tomonga yo'nalishi, kun chiqish kun botish tomonlari, aholi yashaydigan shaharchalarning qaysi tomonda bo'lishiga ahamiyat beriladi; ob`ektlarning joylanishi zavodning normal ishlashiga xalaqit bermasligi va yong`inga qarshi hamda sanitariya-texnika sharoitlariga moslashgan bo'lishi kerak.

YAngi paxta zavodlari loyihasini tuzish vaqtida ajratilgan maydondan ratsional va tejamkorlik bilan foydalanishni, transport uskunalarining qisqa va qurilish ishlarining mumkin qadar kam bo'lishini ko'zda tutish kerak.

**4.2. Texnologik jarayon va paxta tozalash plani.** CHigitli paxtani tayyor mahsulotga aylantirish uchun bajariladigan hamma ishlar yig`indisi paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayoni deb atalib, bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: paxta tayyorlash punktining quritish-tozalash tsexida chigitli paxtani quritish va tozalash; paxta tozalash zavodining tozalash tsexida chigitli paxtani quritish va uni xas-cho'plardan tozalash; paxta tozalash zavodining bosh binosida

chigitli paxtani jinlash va tolani tozalash, chigitni linterlash va lintni, tolali chiqindilarni tozalash, tola, lint va tolali chiqindilarni presslab toylash.

CHigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonini bajarishda paxta tolasi va chigitning tabiiy fizika-mexanikaviy xususiyatlarini saqlash va ularni Davlat standartiga muvofiq bo'lishini ta'minlash kerak. Bu vazifani bajarishda laxtani dastlabki ishlashni to'g'ri tuzish muhim ahamiyatga ega.

Paxta sanoati markaziy ilmiy-tekshirish instituti tavsiya etgan texnologik jarayon sxemasi bo'yicha chigitli paxtani, uning sifatiga qarab uch xil variantda ishlash mumkin. Birinchi variantda namligi 14% dan yuqori bo'lib, mashinada terilgan II-IV sort va qo'lida terilgan III-IV sort paxtalar qayta ishlanadi. Ikkinci variantda namligi 14% dan kam bo'lgan, ham mashinada, ham qo'lida terilgan paxtalar ishlanadi. Uchinchi variantda qo'lida terilgan I va II sort paxta ishlanadi. Bunda texnologik jarayon sxemasidan arrali tozalagichlarning ikkinchi batareyasini ajratib qo'yish ko'zda tutiladi.

Texnologik jarayonning ish sifati texnologik jarayon sxemasiga kiritilgan hamma mashinalarning umumiy tozalash effekti bilan xarakterlanadi. Zavodning umumiy tozalash effekti (%) quyidagi formula bilan topiladi:

$$K = \left\{ 1 - \left[ \left( 1 - \frac{K_1}{100} \right) * \left( 1 - \frac{K_2}{100} \right) * \dots * \left( 1 - \frac{K_N}{100} \right) \right] \right\} * 100\%$$

bunda:  $K_1, K_2, K_N$  —texnologik jarayonga kiritilgan ayrim mashinalarning tozalash effekti.

Ayrim mashinaning tozalash effekti (%) quyidagi formula bilan topiladi:

$$K = 100 \left( 1 - \frac{C_1}{C_c} \right)$$

bunda:  $S_s$ -tozalanmagan paxtadagi xas-cho'plar va o'lik tolalar yig`indisi;  $S_t$ -tozalangan paxtada qolgan xas-cho'plar va o'lik tolalar yig`indisi.

Zavod tsexlaringning umumiy tozalash effekti to'g'risidagi ma'lumotlar 4.1-jadvalda berilgan.

4.1- jadval.

Zavod tsexlari va mashinalarining tozalash effekti, %

TSexlar mashinalar	I-II sort	III-IV sort
	paxta tozalash effekti	
Quritshi-tozalash tsexi		
Quritish gruppasining pnevmotransporti	5-10	10-40
SXN-3 quritish uskunasi	30-35	40-45
2SB-10, 2SBS quritish uskunasi	-	-
SBO-tozalash sektsiyali quritish uskunasi	25-30	30-40
6A-12M shnekli tozalagich	40-50	50-60
TSexning umumiy tozalash effekti	70	80
Tozalash tsexi		
Pnevmotransport	5	5
6A-12M shnekli tozalagich	30-40	40-50
CHX-ZM tozalagichlar	60-70	70-80
CHX-ZM tozalagichlar	50-60	60-70
6A-12M shnekli tozalagich	20-30	30-40
TSexning umumiy tozalash effekti	65	70
Jin tsexi		
Pnemotransport	5	2
Jin ta'minlagachi	15	20
Jin (tola bo'yicha)	15	20
Tola tozalagich 3OVP	40	45

Mashinalarning haqiqiy tozalash effekti faqatgina paxtaning boshlang'ich iflosligiga va uning namligiga bog'liq bo'lmay, ularning ishlab chiqarish unumiga va texnologik jarayon sxemasidagi o'rniiga ham bog'liq (sxemaning boshida mashinalarning tozalash effekti yuqori bo'lib, paxta tozalangan sari kamayib boradi).

Jindan chiqayotgan tolaning iflosligini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$S_V = S_S(100 - K_{ZAV})/V$$

bunda:  $S_V$  - chigitli paxtaning boshlang`ich iflosligi, %;  $K_{ZAV}$  - zavodda o'rnatilgan mashinalarning umumiy tozalash effekti, %;  $V$  - chigitli paxtadan tolanning chiqishi, %.

Bu formula bilan hisoblangan  $S_V$  qiymatini ishlanayotgan tola sorti uchun berilgan ifloslik normasi  $\delta$  bilan taqqoslab ko'rganimizda quyidagi tengsizlik chiqishi kerak:

$$\delta > S_V + n$$

bunda:  $p$  - toladagi nuqsonlar yig`indisi.

Tozalash effektini hisoblash formulalari tolada paydo bo'ladigan nuqsonlar yig`indisini nazarga olmaydi, shuning uchun ham tolada paydo bo'ladigan nuqsonlar va xas-cho'plarning haqiqiy yig`indisini, ya`ni shu ikki ko'rsatkich bo'yicha tolanning sifatini ko'rsata olmaydi. SHuning uchun tozalash planini hisoblashda paxtani qayta ishlash vaqtida tolada nuqsonlar paydo bo'lishini nazarda tutish kerak.

Har bir texnologik jarayon sxemasi va ishlanayotgan chigitli, paxtaning sorti uchun nuqsonlar paydo bo'lish darajasi o'zgarmas miqdor bo'lgani, sababli uni tajriba yo'li bilan har bir sxema uchun oldindan aniqlab qo'yish mumkin.

Demak, ishlab chiqarilayotgan tolanning haqiqiy xas-cho'plar va nuqsonlar yig`indisi quyidagicha bo'ladi:

$$C_B^\phi = \alpha C_C (1 - K_{\text{zae}}) / B$$

$$\text{bunda: } \alpha = C_B^\phi / C_B \geq 1$$

**4.3. Paxta zavodlarida qo'llaniladigan texnologik jarayonlar sxemalari.** Paxta tozalash zavodlarida dastlabki ishlanadigan chigitli paxta tolasining xususiyatlari qarab u ikki gruppaga – o'rta tolali va ingichka tolalilarga bo'linganligi uchun uni qayta ishlash texnologik jarayon sxemasi ham bir-biridan farq qiladi.

9.1-rasmda arrali jin o'rnatilgan zavod texnologik jarayonining sxemasi keltirilgan. Bu sxema bo'yicha chigitli paxta jinlash jarayonigacha uch xil variantda qayta ishlanadi:

birinchi variant. Mashinada terilgan, namligi 14% dan yuqori chigitli paxtaning I-IV sortlari sxemaga kiritilgan mashinalarning hammasidan o'tkaziladi;

ikkinchi variant. Mashinada terilgan, namligi 14% dan kam chigitli paxtaning I-IV sortlari va qo'lida terilgan chigitli paxtaning III, IV sortlari tayyorlash punktida o'rnatilgan texnologik mashinalardan o'tkazilmaydi;

uchinchi variant qo'lida terilgan chigitli paxtaning I va II sortlari yirik xas-cho'plardan tozalaydigan mashinalarning ikkinchi batareyasidan o'tkazilmaydi.

Jinlash jarayonida chiqarilayotgan tolalarning hammasi maxsus tola tozalash mashinalarida oxirgi marta tozalanib, gidravlik presslarda toyланib sim yoki lentalar bilan bog`ланади,

Texnik chigitlar II, III va IV tip lint olish uchun uch martali linterlanadi va har bir tip lint alohida presslanib toy shakliga keltiriladi. Urug`lik chigitlar ikkinchi linterlashdan keyin urug`lik chigitni ishlaydigan mahsus tsexga yuboriladi, u erda saralanadi, tuksizlantiriladi va maxsus kimyoviy dorilar bilan ishlanib, zararsizlantiriladi.

Tolali chiqindilarning hammasi maxsus tsexga yuborilib, iflosliklardan tozalanadi, regeneratsion mashinalarda ishlab, yigirish uchun yaraydigan tolalar ajratib olingach presslab, toy shakliga keltiriladi.

9.2-rasmda valikli jinlar o'rnatilgan zavodning texnologik jarayoni sxemasi keltirilgan. Bunday zavodlarda ingichka tolali paxtaning hamma sortlari ishlanadi. Bu sxemada ham chigitli paxtani jinlash jarayonigacha qayta ishlashda yuqorida berilgan uch variant ko'zda tutilgan bo'lib faqatgina paxtani mayda iflosliklardan tozalaydigan 6A-12M markali mashina o'rniga OXB-YUM markali mashina o'rnatilgan.

**4.4. Oqim-liniyali texnologik jarayon sxemalari.** Paxta tozalash zavodlarida mashinada terilgan paxtani qayta yashlash uchun qabul qilingan texnologik jarayon sxemalari paxtani etarli darajada tozalashga, tolanning sifatini esa davlat standarti talabiga javob beradigan qilib chiqarishga imkon beradigan bo'ldi. Lekin hozirgi zamон to'qimachilik sanoati urchuqsiz yigirish

texnologiyasiga o'tayotganligi uchun tolalarning tozaligi va sifatiga yanada oshirilgan talablar qo'yilmoqda.

Paxta zavodlarida tozalash mashinalarini batareya tarzida o'rnatish va ishlatish tartibi ortiqcha ko'p metall va energiya iste'mol qilish bilan bir qatorda ishlab chiqarish tsexlaring maydoni katta bo'lishini ham talab qiladi. Tozalash mashinalari bu tartibda o'rnatilganda transport-taqsimlash moslamalarining soni ko'p bo'lidan tolada qo'shimcha nuqsonlar paydo bo'lib, uning yigirilish xususiyatlari yomonlashadi. Bundan tashqari, tozalash mashinalari batareyada joylashganda chigitli paxtaning boshlang'ich ifloslik darajasiga qarab kerakli texnologik sxemani belgilash imkoniyatini chegaralab qo'yadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etishning samarali va to'g'ri usullaridan biri ishchi organlarining uzunligi va ishlab chiqarish unumi bir xilda bo'lgan tozalash sektsiyalarini va oraliq transport moslamalarini mumkin qadar qisqa qilib, bir liniyaga o'rnatishdir.

SHu maqsadda paxta tozalash bo'yicha paxta tayyorlash punktlari uchun PLPX-VM-02 markali va paxta zavodlari uchun LX-2 markali oqim-liniyali texnologik jarayon sxemalarini paxta tozalash sanoatida tadbiq qilingan.

*Paxta tayyorlash punktlari uchun PLPX-VM-02 paxtani qayta ishlash oqim-liniyasi.* Ishlab chiqarish unumi 6 t/soat bo'lgan o'rta tolali chigitli paxtani quritib-tozalashga mo'ljallangan PLPX oqim-liniyali texnologik sxemada: 1BRP ta'minlagichli bunker, 2SB-10 markali quritgich, besh dona A23A markali to'sqich (ikkitasasi SS-15 separatorlariga va uchtasi SCH separator-tozalagichlarga mo'ljallangan) SCH markali separator-tozalagichlar, 1 KP pnevmatik tosh tutgichlar, beshta YUX paxta tozalagichlar DP-130 arrali jin, ZOVP tola tozalagich, ZKV kondenseri, D8237 markali gidropress va UVO havo tozalagich joylashtirilgan.

Oddiy texnologik jarayon sxemasida tozalash tsextiga o'rnatilgan mashinalar o'rniga PLPX-VM-02 markali oqim-liniya sxemasida quyidagi mashinalar o'rnatilgan:

SS-15A markali separator, 2SB-10 barabanli quritgich, TXL-6005 markali transporter, SCH-02 separator tozalagich, RX-01 markali tozalagich, TLSB lentali transportyor, RX markali regenerator, SS-15A markali separator, SHX paxta shneki, quritilgan va tozalangan chigitli paxta uchun telejkalar.

Quritilmagan va xas cho'plardan tozalanmagan chigitli paxta oqim-liniyali sxemada ishlaganda tashqi pnevmotransport trubasi bo'ylab birinchi-marta SS-15A markali separatorga beriladi. Separatordan keyin chigitli paxta havo oqimidan ajralib, 1BRP ta'minlagichli bunkerga uzatiladi. Bu bunker butun oqim-liniyasining ish unumini rostlab turadi. CHigitli paxta yana pnevmotransport sistemasiga tushib SS-15A separatori orqali 2SB-YU markali quritgichga uzatilib quritiladi. CHigitli paxta quritgichdan keyin SCH markali separator tozalagichda mayda xas-cho'plardan, uning oxirida esa og'ir jismlardan tozalanadi va 10X markali yirik xas-cho'plardan tozalaydigan tozalagichlarga uzatiladi. Bu tozalagichlarda chigitli paxta havo oqimidan ajralib tozalanadi va qayta havo oqimiga qo'shilib, keyingi tozalagich mashinalarga uzatiladi.

*LX-2 paxtani qayta ishlash oqim-liniyasi.* Mashinada terilgan chigitli paxtani zavodda qayta ishlashga mo'ljallangan LX-2 markali yangi oqim liniyasining texnologik sxemasi quyidagi agregatlardan iborat: SS-15 markali separator, SHR-1 ta'minlagichli bunker, SS-15 markali separator, 2SB-YU markali quritgich, pnevmatik truba, AXK. paxta tozalash agregati, SS-15 markali separator, ta'minlovchi valikli shaxta, arrali jin, tola uzatuvchi truba, tola tozalagich.

AXK paxta tozalash agregati chigitli paxtani mayda xas-cho'plardan tozalaydigan ketma-ket o'rnatilgan to'rtta gorizontal besh barabanli tozalagichlar sektsiyasidan yirik, iflosliklardan tozalaydigan to'rtta kolosnik-arrali tozalagichlar va bir dona RX markali regeneratordan iborat. Tozalagichlar orasida qo'shimcha oraliq transport uskunalarning yo'qligi chigitli paxtada nuqsonlar paydo bo'lishini kamaytiradi, aggregatning ishonchli ishlashini oshiradi va tozalash jarayonini avtomatashtirishni oddiylashtiradi. Tozalash sektsiyalarining gorizontal joylashtirilishi ularga xizmat ko'rsatishni osonlashtiradi va remont vaqtida ishchi organlarini almashtirishni engillashtiradi. Natijada xizmat qiluvchi ishchilar soni kamayadi va mehnat sharoitlari va xavfsizlik texnikasi yaxshilanadi.

Agregatda chigitli paxtani tozalash jarayoni quyidagi tartibda bajariladi. CHigitli paxta quritgichda quritilganidan keyin pnevmotrubaga orqali separatorga, undan keyin yig'uvchi shaxtaning

ta`minlovchi valiklaridan o'tib, bir tekis yoyilib mayda xas-cho'plardan tozalovchi mashinalarning birinchi sektsiyasiga uzatiladi. Bu sektsiyalarning har biri ostida kolosnik panjarasi bo'lgan beshta qoziqli barabanlardan iborat. SHuning uchun bu sektsiyalarda chigitli paxta barabanlarning aylanish tomoniga qarab ularning ostidan o'tib mayda xas-cho'plardan tozalanadi yoki mayda xas cho'plardan tozalanmay ustidan o'tib ketadi. Oxirgi beshinchi baraban chigitli paxtani yirik ifloslikdan tozalaydigan sektsiyaga uzatadi.

Yirik ifloslikdan tozalaydigan sektsiya quyidagicha ishlaydi. Mayda ifloslikdan tozalaydigan sektsiyaning oxirgi barabani, chap tomonga aylanayotgan bo'lsa, yo'naltiruvchi cho'tkali baraban ham chap tomonga aylanib, chigitli paxtani arrali barabanga uzatadi. Arrali baraban chigitli paxtani kolosniklarga urib, yirik ifloslikdan tozalaydi va cho'tkali barabanga uzatadi so'ngra sektsiyadan chiqarib keyingi sektsiyalarga uzatadi, tozalash jarayonlari boshqa sektsiyalarda yana qaytariladi.

Tozalash sektsiyalarida ajratilgan iflosliklar lentali transporterga tushib pnevmotruba orqali regeneratorga uzatiladi, regenerator iflosliklarga aralashib qolgan chigitli paxtani ajratib olib, separatorga qaytaradi.

LX-2 oqim liniyasining texnologik sxemasida chigitli paxta xas-cho'plardan tozalash sektsiyalaridan keyin qiya transporter orqali ta`minlagichli shaxtaga so'ng arrali jing atushib, tolasi chigitidan ajratiladi. Jindan chiqayotgan tola truba orqali tola tozalash mashinasiga uzatiladi. Bu oqim-liniyali sxemaning tozalash sektsiyalarining umumiyligi 15 m va balandligi 1,7 m bo'lgan joyni ishg`ol qilib, sinab ko'rilmaga keltirilgan texnologik ko'rsatkichlarni berdi.

4.2-jadval

Ko'rsatkichlar, %	Ish unumi, kg/soat		
	5000	8000	10000
CHigitli paxtaning iflosligi:			
boshlang'ich	11,3	10,2	8,6
tozalangandan keyin	0,56	0,57	0,77
Agregatning tozalash effekti	95,6	94,9	91,8
Butun texnologik jarayonning tozalash effekti	99,1	98,9	98,4
Tolaning iflosligi va nuqsonlar yig`indisi	2,13	2,11	1,98
SHu jumladan: ifloslik	0,34	0,44	0,49

### Nazorat savollari:

1. Paxta zavodlarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Zavodlarda qanday texnologik jarayon sxemasi qo'llaniladi?
3. Oqim liniyali texnologik jarayon sxemasi deganda nimaga tushinasiz?
4. Zavodda bir yilda ishlab chiqargan paxtasi hajmini hisoblash tenglamasi qanday yoziladi?
5. CHigitli paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi to'g`risida tushuncha bering?
6. CHigitli paxtani quritish texnologiyasini tushuntirib bering?
7. CHigitli paxtani tozalash texnologiyasini tushuntirib bering?
8. CHigitli paxtani jinlash texnologiyasini ayting?
9. Paxta chigitini linterlash texnologiyasini tushuntirib bering?
10. Paxta tolasi, chigit, paxta linti, tolali chiqindilarga xarakteristika bering?
11. Urug`lik paxtani qayta ishslashning xususiyatlarini ayting?

## 5-Ma`ruza. CHigitli paxtani quritish va tozalash texnologiyasi.

**Reja:**

- 5.1. CHigitli paxtani quritish haqida umumiy ma`lumot.
- 5.2. CHigitli paxtani quritish usullari.
- 5.3. CHigitli paxtani quritish tartibi..
- 5.4. CHigitli paxta quritgichlari.
- 5.5. Paxtani quritishning texnologik rejimlari.
- 5.6. CHigitli paxtaning iflosligi.
- 5.7. Paxta tozalash zavodining tozalash.
- 5.8. CHigitli paxta tozalash mashinalari.

**Adabiyotlar: 3,4,7,8,9,10**

**Tayanch iboralar:** quritgich, quritish agenti, quritish tartibi, quritish rejimi, barabanli quritgich, paxtaning iflosligi, mineral aralashmalar, organik aralashmalar, separator, tosh tutgich, paxta tozalagich, kolosnikli panjara, arrali baraban, qoziqchali baraban.

**5.1. CHigitli paxtani quritish haqida umumiy ma`lumot.** Paxta terish mashinalarvda terilgan chigitli paxtaning namligi 10-18%, ko'sak terish mashinalarida terilgan paxta namligi 18-27% bo'lishi mumkin. Bunday namlikdagi chigitli paxgani uzoq saqlash mumkin emas, chunki u 3-4 kun o'tgach o'z-o'zidan qiziy boshlab, tola va chigitining sifati buziladi.

Namligi 13-14% dan yuqori bo'lgai paxtani saqlaganda u o'z-o'zidan qizib, paxta temperaturasi 60-70°S gacha ko'tarilib, biologik jarayonlar natijasida tolaning to'qimachilik xususiyatlari, chigitlarning esa unib chiqish va moy berish xususiyatlari kamayib ketadi.

Namligi normadan yuqori bo'lgan chigitli paxtani zavodlarda ishlaganda texnologik mashinalarning ish unumi va tozalash effekti kamayib, tolaning sifati va tashqi ko'rinishi yomonlashib qoladi. Agar I sort chigitli paxtaning namligi 8% o'rniga 9% bo'lsa, bunday laxta ishlanganda tola tarkibida tola nuqsonlari 0,25-0,35% ga ko'payadi.

CHigitli paxtaning har bir sorti uchui uning uzoq saqlanishiga moslangan konditsion namlik belgilangan. Mashinada yoki qo'lida terilgan chigitli paxta namligi konditsion namlikdan yuqori bo'lsa, albatta quritib, konditsion namlikkacha keltiriladi.

**CHigitli paxtaning namligi.** CHigitli paxta ikki xil jismdan tola va chigitdan iborat. Tola asosan tsellyuloza va qisman uni qoplagan pektin va mum moddalardan iborat. CHigit esa shulxa bilan mag`izdan iborat; shulxa kam miqdorda tsellyuloza, lignin, oqsil modda va mineral moddalardan iborat; chigitning mag`izn asosan oqsil va moy moddalardan iborat. Tola chigitga qaraganda namlikni tezroq shimib oladi. CHigitli paxtaning tarkibidagi bu komponentlarning ximiyaviy tuzilishi har xil bo'lgani uchun ularning namlanishi va quritish jarayonlari ham turlicha bo'ladi.

CHigitli paxtaning namligi W undagi nam massasining absolyut quruq massaga iisbatli bilan protsent hisobida aniqlanadi.

$$W=100G_h/G_{a*q}$$

bunda:  $G_h$  - chigitli paxtada bulgan nam massasi.

$G_{a*q}$  - chigitli paxtaning absolyut quruq massasi.

Boshqa tolali materiallar singari chigitli paxtada ham namlik atrof havoning nisbiy namligiga qarab o'zgaradi (5.1-jadval).

5.1-jadval.

Temperatura 20°S bo'lganda tolali materiallarning namligi

Tolali material	Atrof muxitning nnsbiy namligi % bo'lganda tolali materialning iamligi, %					
	10	20	40	50	80	30

Ip gazlama	2,6	3,7	5,2	6,8	10,1	14,3
Paxta tolasi	2,5	4,0	6,0	7,3	10,6	14,1
CHigitli laxta	2,0	3,5	5,5	8,0	9,4	10,9
Gigroskopik paxta	4,8	9,0	15,7	20,8	24,3	25,8

CHigitli paxta tashkil qiluvchi ayrim komponentlarning namligi chigitli paxtaning umumiy namligiga bog`liq bo`lib, quyidagi empirik formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$W_T=0,7W$$

$$W_M=0,46W^{1,275}$$

$$W_n=(W-P_TW_T-P_FW_M)/P_n$$

Bunda:  $W$  - chigitli paxta namligi, %.  $W_T$  - tolaning namligi, %.  $W_M$  - mag`izning namligi, %/  
 $W_n$  - chigit po'chog`ining namligi, %.  $R_T$ —chigitli paxtadagi tola miqdori, g.  $R_n$  - paxtadagi chigit po'chog`i, g.  $R_M$  - chigitli paxtadagi mag`iz miqdori, g.

Paxtadagi chigit po'chog`i miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_n=1-P_T-P_M$$

**5.2. CHigitli paxtani quritish usullari.** Dalalarda teriladigan I sort chigitli paxtanipg namligi uni terish usuliga va vaqtiga qarab, quyidagi chegaralarda o'zgarishi mumkin.

5.2-jadval

Terish usuli	Namligi
Birinchi mashina terimi	13-16
Ikkinci mashina terimi	12-15
Mashinada terilgan ko'sak paxta	30 gacha
Qo'lida terilgan paxta	8-10

Ob-havo sharoitiga qarab, ayniqsa past eort chigitli paxta namligi keltirilgan chegaradan yuqori bo`lishi mumkin.

CHigitli paxta saqlanish davrida o'zining tabiiy xususiyatlarini yo'qotmasligi va undan chiqadigan tola va chigitning sifatini yaxshi holda olish uchun uni o'z vaqtida quritish va iflosliklardan tozalash kerak.

Hozir nam chigitli paxtani quritishning ikki usuli bor:

Tabiiy quritish - qo'l bilan terilgan chigitli paxtani dala sharoitida, ochiq maydonchalarda quyosh nurida (oftobda) quritish;

Sun`iy quritish - mashinada terilgan chigitli paxtaning hamma sortlarini va qo'lida terilgan paxtaning past sortlarini xar xil konstruktsiyali maxsus quritgichlarda quritish.


Oftobda quritish usuli chigitli paxtaning namligini 2-3% ga kamaytirish zarur bo`lganda keng qo'llanadi. Buning uchun dalada maxsus maydonchalar tekislab, ularning sirti somonli loy bilan suvaladi yoki asfaltlanadi. Quritiladigan chigitli paxta namligiga qarab 10-15 sm qalinlikda maydonchaga oftobda yoyib qo'yiladi va quritishni tezlatish uchun vaqt-vaqt bilan aralashtirib, ag`darib turiladi.

CHigitli paxtani sun`iy quritish uchun paxta tozalash zavodlariga va zavoddan tashqaridagi paxta tayyorlash punktlarida muxsus quritish tsexlari quriladi. Bunday tsexlarda namligi va iflosligi normadidan yuqori bo`lgan chigitli paxtalar quritib tozalanadi.

Quritish-tozalash tsexlarida o'rnatilgan quritgichlar chigitli paxtaga issiqlik berish usuliga qarab aerofontan, kamerali, shnekli va barabanli bo`lishi mumkin. Paxta tozalash sanoatida namlikni ko'p olish va quritilgan paxtani ko'p chiqarish jihatidan ish unumi yuqori hisoblangan har xil konstruktsiyadagi barabanli quritgichlar ishlataladi. Boshqa quritgichlarga qaraganda barabanli quritgichlarda quritish agentining temperaturasi yuqori va ularni ishlatalish oson.

Ikki batareyali paxta tozalash zavodiga mo'ljallangan quritish-tozalash tsexida separator, CHX-ZM arrali tozalagichlarni ta'minlovchi 2SB-10 markali ikkita quritgich barabanlari o'rnatiladi. Quritilgan chigitli paxta quritgich barabanlaridan pnevmotransport orqali shnekli tozalagichlarga uzatiladi. SHundan keyin chigitli paxta elevator bilai ko'tarilib arrali tozalagichlarning taqsimlovchi shnekiga uzatiladi. Arrali tozalagichlarda tozalanib chiqqan chigitli paxta elevator bilan ko'tarilib ikkinchi shnekli tozalagichlarga uzatiladi va oxirgi elevator bilan

ko'tarilib tsexdan chiqarib yuboriladi. Quritiladigan paxta mikdori quritish-tozalash tsexinnng 3 kunlik ishiga etarli bo'lishi lozim.



5.1-rasm. CHigitli paxta komponentlari namliginng uning o'rtacha namligiga bog`liqligi.

**5.3. CHigitli paxtani quritish tartibi.** CHigitli paxta komponentlari (tolu va chigit) namligining uning o'rtacha namligi bilan bog`lanishi 5.1-rasmda ko'rsatilgan. Bu rasmdan ko'rinish turibdiki, chigitli paxtaning o'rtacha namligi 10% bo'lganda tolani 7% chigitniki esa 18% bo'ladi. SHuning uchun chigitli paxta quritilganda uning talasi chigitiga qaraganda tezroq quriydi. CHigitli paxtani quritishda uning komponentlarining qizish temperaturasini katta ahamiyatga ega.

CHigitli paxtani quritganda tola va chigit sifatining buzilmasligi uchun uni necha gradusgacha qizdirish mumkinligi tajribada aniqlangan. CHigitli paxtani quritishda urug`lik chigitlarni 55°S, texnik chig`itlarni 70°S va tolani 105°S gacha qizdirish mumkin. Urug`lik chngit 55°S dan ortiq qizdirilsa uning unib chiqish xususiyati pasayadi, texnik chigitlardan moy chiqishi, tolanning esa pishiqligi, uzunligi va egilish qobiliyatini kamayadi. CHigitli paxta bir tekis qurishi lozim. Quritilgan paxta namligining bir tekis bo'lishi uning qabul vaqtidagi namligining bir tekis bo'lishiga bog`liq. Qabul qilish vaqtidagi namligi 3-4% dan ortiq o'zgarmasligi kerak. Quritilgan paxta namligi sortlar bo'yicha quyidagi chegarada bo'ladi: I-7-11%, II-8-12%, III-9-13%, IV-11-14%.

**5.4. CHigitli paxta quritgichlari.** Paxta tozalash zavodlari va paxta tayyorlash punktlarida chigitli paxtani quritish uchun SXN-ZM, 2SBS va 2SB-10 markali quritgichlar ishlataladi.

**2SB-10 markali quritgich** kutarish kuraklari bilan jihozlangan barabanli va to'g`ri oqimli bo'lib uning nam olish darajasi va ish unumi boshqa tipdagisi quritgichlarnikiga qaraganda ancha yuqori. Quritgichning asosiy qismlari qiya shnekli ta`minlagich, oldingi ichi bo'sh tsapfa va to'rtta stoykaga sharnirli birlashtirilgan po'lat roliklarga o'rnatilgan barabandan iborat. Paxta qiya o'rnatilgan shnek yordamida quritgich ichiga kiritiladi. SHnek ponasimon tasmali uzatma yordamida quvvati 2,4 kvt li elektrdvigateli bilan aylantiriladi. Quritish barabani qobiq ichiga joylashgan. Quritilgan paxta baraban ichida radius bo'yicha joylashgan kuraklar orqali teshikdan chiqib yig`uvchi shnekka tushadi. Ishlatilgan quritish agenti truba orqali tashqariga chiqadi.

Quritish agenti tsapfa orqali utayotganda qisman atrofdagi tortib ketgani uchun baraban ichiga shnek bilan kiritilayotgan paxtaning tukilishiga yo'l qo'ymaydi va paxta havo oqimida oldinga suriladi. Baraban vali elektromotor va reduktor bilan aylantiriladi. Bu quritgichda tola va chigitning ortiqcha qizish xavfi bo'limgani uchun quritish agentining temperaturasini 280°S gacha ko'tarish mumkin.

#### 2SB-10 quritgichsining texnik xarakteristikasi.

Nam paxta bo'yicha ish unumi, kg/soat	8000-10000
Nam olish bo'yicha ish unumi, kg/soat	600
Quritish agentining temperaturasni, °S	
Kirishda	250-280
CHiqishda	60
Baraban diametri, mm	3200
Baraban uzunligi, mm	10000
Barabanning aylanish chastotasi, min	10
Elektrodvigatel parametrlari:	
Quvvati, kVt	13

Aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	730
Quritgich massasi, kg	10268

Bu quritgichda nam paxta quritilganda barabanning dastlabki to'rt metr uzunasida quritish agentining temperaturasi 280° dan 125°S gacha pasayadi va shu qismida asosan chigitli paxta qiziydi va qizish sirti katta bo'lgan (250 m<sup>2</sup>/kg) toladagi namlik bug`lanib bo'ladi. Barabanning keyingi qismida quritish agentining temperaturasi 70-80°S gacha pasaygan va chigitning bug`lanish sirti ancha kam (1,0 m<sup>2</sup>/kg) bo'lib, chigitli paxtadagi namni chiqarish ancha sustlashadi.

**5.5. Paxtani quritishning texnologik rejimlari.** Qabul qilingan paxtani uzoq saqlashga tayyorlash uchun paxta tayyorlash punktlarining quritish-tozalash tsevida unga ishlov beriladi. Bunda I, II va III nav paxtalarning namligi 11% ga tushirilishga qadar, IY va Y navlar namligi 14% ga tushganga qadar quritiladi. Paxta quritish mashinalarining ish rejimlari paxta xom-ashyosining navi va dastlabki namligiga bog`liq holda tanlanadi (5.5-jadval). Paxtaning namligi 19% gacha bo'lsa bir marta, namligi 20-29% bo'lsa ikki marta quritiladi.

5.5-jadval

2SB-10 va SBO paxta quritgichlarining ish rejimlari.

Paxta xom ashysi		Paxta namligining kamayishi, %	Paxta bo'yicha mehnat unumdorligi, t/soat	Qizitilgan havo harorati, °S
Dastlabki namligi, %	Navi			
12	1 – 3	3 – 4	11,0	130 – 135
13	1 – 3	3 – 4	11,0	140 – 150
14	1 – 3	5	11,0	160 – 170
14	4 – 5	4	10,0	175
15	1 – 3	6	10,5	190 – 200
15	4 – 5	5	10,0	205
16	1 – 3	7	10,0	210 – 220
16	4 – 5	6	9,0	225
17	1 – 3	8	9,5	240
17	4 – 5	7	9,0	245
18	1 – 3	9	9,0	245
18	4 – 5	8	8,5	250

**5.6. CHigitli paxtaning iflosligi.** CHigitli paxtaning tolasini chigitidan ajratish jarayonida undagi ifloslik va chet qo'shilmalarning tola sifatiga zarar qilmasligi uchun ular quritish-tozalash va tozalash tsexlariiga o'rnatilgan mashinalarda dastlab ajratib tashlanadi.

G`o'za ko'saklarining etilish davrida barg va shoxchalar quriy boshlaydi, mo'rt bo'lib, oson sinib maydalaniadi va ochilgan paxtaga ilashib uni ifloslantiradi.

CHigitli paxtani qo'l bilan terganda uning ifloslanish darajasi asosan terimchining diqqatiga bog`liq, mashina bilan terishda g`o'za barglarini to'ktirish (defoliatsiya) ishlarining o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishnga bog`liq.

G`o'za bargini sun`iy to'ktirish chigitli paxtaning ifloslagini kamaytirish bilan cheklanmay, ko'saklarining etilishini ham tezlashtiradi va birinchi sort paxtalar ulushini oshiradi.

Paxtani mashina bilan terishda mashinalarni to'g`ri rostlash va ishlatish alohida ahamiyotga ega. Bunda ochilgan chigitli paxtani va xom ko'saklarni erga to'kmaslikka intilish kerak. Buiing uchun paxta terish mashinalarining ish qismlarini daladagi g`o'zalarning qalinligiga va rivojlanish darajasiga moslab sozlash kerak.

CHigitli paxtani har xil iflosliklardan tozalash uchun kerakli mashinalar xilini tanlashda ularning fizika-mexanikaviy xususiyatlarini (o'lchamlari, kelib chiqishi, paxtaga ilashish darajasi va hokazo) nazarga olish katta ahamiyatga ega.

Paxtada uchraydigan aralashmalar kelib chiqishi jihatidan organik va mineral jismlar bo'lishi mumkin. Organik jismlarga g`o'za tupining qismlari (barg, shoxchalar, chanoq pallalari, gul barglari, meva bandlari) va boshqa o'simlik qismlari (g`umay va boshqa begona o'tlar) kiradi. Mineral qo'shilmalarga tosh, qum, tuproq, kesak va hokazolar kiradi. CHigitli paxtada bo'ladigan

iflos qo'shilmalar o'lchami jihatidan shartli ravishda ikki gruppaga bo'linadi. Mayda aralashmalar gruppasiga teshiklari 10mm li to'rdan o'tadigan va yirik aralashmalar gruppasiga bunday to'rdan o'tmaydiganlari kiradi.

Aralashmalar paxtaga ilashishi jihatidan passiv yoki inertli va aktiv xillarga bo'linadi. Passiv yoki inertli aralashmalar paxta pallalarining sirtida bo'lab, engil silkitganda paxtadan oson ajraladi. Aktiv aralashmalarning paxtadan ajralishi qiyin bo'ladi. Aktiv aralashmalarni paxtadan ajratish uchun ularni avval passiv holatga keltirish kerak. SHuning uchun paxta tozalash mashinalarini tanlashda aralashmalarning xarakteriga va ularning chigitli paxtaga qanday yopishganligiga qarash kerak.

Paxtani xas-cho'plardan tozalash mashinalari qoziqli barabanlar sektsiyasi va arra barabanlar sektsiyasidan iborat bo'ladi. Mayda xas-cho'plar qoziqli barabanlar sektsiyasida yirik aralashmalar esa arrali barabanlar sektsiyasida yaxshi tozalanadi.

Paxta tozalash mashinalari ish unumi va tozalash effekti (chigitli paxtadan xas-cho'p, o'luk pa puch chigitlarni ajratish qobiliyati) bilan xarakterlanadi. Mashinaning tozalash effekti mashinaga tushgan paxtadan ajratilgan aralashma massasining paxtada bo'lgan barcha aralashma massasiga nisbati bilan protsent hisobida aniqlanadi.

Mashinalarning tozalash effektiga ularning ish unumi, chigitli paxtaning namligi va iflosligi katta ta'sir qiladi. Mashinalarning ish unumi eng yuqori tozalash effektiga moslab oshiriladi. CHigitli paxtaning namligini iormal darajagacha kamaytirilganda tozalash effekti ko'payib, iflos qo'shilmalarning paxtadan ajralishi osonlashadi va ko'payadi. Namligi normal darajadan yuqori bo'lgan chigitli paxtani tozalaganda mashinaning tozalash effekti kamayishidan tashqari shu paxtaning tolasida qo'shimcha nuqsonlar ham ko'payadi. Bunn TSNIIXProm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (5.1-jadval).

5.1-jadval.

Toladagi nuqson va iflosliknnng chigitli paxta namligiga qarab o'zgarishi

CHigitli paxtaning ishlanish shartlari	Namligi, %	Iflosligi, %	Tolalardagi nuqsonlar, %	
			ifloslik	nuqsonlar, %
Quritgichdan o'tkazilmagan	14,2	13,6	12,4	18,5
Quritgichdan o'tkazilgan	10,1	13,3	6,3	12,5

Mashinaning tozalash effekti chigitli paxtadagi iflos qo'shilmalarning miqdoriga qarab o'zgaradi: iflos qo'shilmalar qancha ko'p bo'lsa, tozalash vaqtida shuncha ko'p ajraladi. Agarda chigitli paxtada iflos aralashmalar miqdori 0,5 dan kam bo'lsa bunday chigitli paxtani zavodda ishlaganda tozalash tsevidagi mashinalarni ishlatmasa ham bo'ladi. CHunki paxtani qayta ishlaganda keraksiz mashinalar ham ishlatilsa, tolada qo'shimcha nuqsonlar paydo bo'ladi.

**5.7. Paxta tozalash zavodining tozalash.** Paxta tozalash zavodlarida chigitli paxtani dastlabki ishslash texnologik jarayoniga kiritilgan tozalash mashinalari o'rnatilgan tsexlar zavodning asosiy tsexlari qatoriga kiradi. Bu tsexlar quvvati jihatidan ikki tipga bo'linadi: bir batareyali zavodlarda tozalash tsexlari bir soatda 10-12t, ikki batareyali zavodlarda esa shundan ikki hissa ko'p paxta tozalaydi.

Agar chigitli paxta saqlanadigan ombor va maydonlar zavodning bosh binosiga 200m dan yaqin masofada joylashgan bo'lsa tozalash tsexi bosh binoga qo'shib quriladi, chigitli paxtani saqlash zonasi bosh binodan 200m dan uzoqda joylashgan bo'lsa, tozalash tsexi asasiy binodan 100-150 m narida quriladi. Bu holda tozalash tsexi operativ ombor bilan bosh korpus orasiga joylashadi.

CHigitli paxtaning ifloslik darajasiga va tozalash planiga qarab, tozalash tsexining mashinalarini har xil tartibda ishlatish mumkin:

1) mashinada terilgan, ifloslik darjasini yuqori paxtani qayta ishslash uzluksiz texnologik jarayoni - quritish-tozalash tsexi, tozalash tsexida qo'shimcha quritish va zavodning asosiy tsexlari (bosh korpus);

2) ifloslik darajasi va namligi unchalik yuqori bo'lмаган paxtani qayta ishlash uzlusiz texnologik jarayoni - quritish-tozalash tsexdagi mashinalarni ishlatmasdan tozalash tsexdagi mashinalarning hammasini ishlatib yoki faqat mayda iflosliklardan tozalash mashinalarini ishlatib, keyin bosh korpusdagi mashinalarni ishlatish.

Ikki batareyali paxta tozalash zavodi uchun mo'ljallangan tozalash tsexiga har batareyada oltita CHX-ZM-2 arrali barabanli tozalagichlar, ikkita 6A-12M shnekli tozalagich, bir dona SS-15M separatori, bir dona EX-15 elevatori o'rnatilgan.

Quritish-tozalash tsexdida quritilgan yoki omborda saqlanayotgan chigitli paxta pnevmotransport yordamida separatorga uzatiladi, shunda u UTP-15 tosh tutgichdan o'tadi va yirik iflosliklardan tozalanish uchun arrali barabanli tozalagichlarning taqsimlovchi shnekiga beriladi. Arrali barabanli tozalagichlardan chiqqan chigitli paxta nig`uvchi shnekda to'planib qiya shnek orqali mayda iflosliklardan tozalanish uchun shnekli tozalagichlarga uzatiladn. Agar chigitli paxtada yirik iflosliklar bo'lmasa uni arra barabanli tozalagichlardan o'tkazish shart emas.

**Separator va tosh tutgichlar.** Paxta tolsi va chigit sifatini yaxshilash hamda ularga aralashgan nflos jismlarni kamaytirish tozalash mashinalarini va jinlarni normal ishlatishga bevosita bog`liqdir. Jinlarniig to'xtovsiz va samarali ishlashi uchun chigitli paxtadagi og`ir jismlarni oldindan ajratib olish lozim. CHigitli paxtaga aralashgan og`ir jismlar (tosh, kesak, temir parchalari va h.k.) texnologik mashinalarning ish organlariga, ayniqsa jin, linterlarning arrali barabnlari tishlariga zarar etkazib, mahsulot sifatini va mashinalarning ish unumini pasaytiradi. CHet jismlar texnologik mashinalarga zarar etkazish bilan birga ish vaqtida yong`in chiqarish xavfini ham tug`diradi. SHuning uchun texnolog`ik jarayon sxemasiga og`ir jismlarni tutib oladigan moslamalarni qo'shib qo'yish shartdir, Og`ir jismlarni tutib oluvchi moslamalar texkologik jarayondagi o'rniga qarab ikki gruppaga bo'linadi: pnevmotransport trubasiga separatordan oldin liniyaga o'rnatiladigan moslamalar va separatordan keyin liniyadan tashqarida o'rnatiladigan moslamalar.

**2TCHL markali toshtutgich** oddiy tuzilgan bo'lib, uni tsex ichidagi pnevmotransportning paxta so'rvuchi trubasiga ulash qulay bo'ladi. Truba orqali havo oqimi bilan kelaetgan chigitli paxtadagi og`ir qo'shilmalar qo'zg`almas sirtga urilib tezligini yo'qotishi shuningdek trubaning kengaytirilgan qismida havo tezligining ancha kamayishi natijasida paxtadan ajraladi. Paxtadan ajralgan og`ir qo'shilmalar ajratnsh cho'ntaklariga tushib, trubadan chiqib ketadilar. Bir soatda 12-14t paxta o'tkazilganda toshtutgich shu paxtaga aralashgan toshlarnnng 70-80% ni tutib qoladi. Toshtutgich ichida xavoning tezligi 22 m/s bo'lganda uning bosimi 295 Pa ga kamayadi. Liniyadagi toshtutgichlar paxtadagi og`ir qo'shilmalarining hammasini ajrata olmaganlangi sababli separatordan keyin UTP-15 markali moslama ham o'rnatiladi.

UTP-15 toshtutgich shaxta, titish-ta`minlash barabani, kamera, ventilyator, vakuum-klapan va so'rish trubasidan iborat. CHigitli paxta qiya tekislik bo'ylab havo oqimi bilan ko'tarilib kameraga kiritiladi. Bunda havo tezligining ancha pasayishi natijasida paxta havodan ajralib pastga tushadi. Og`ir qo'shilmalar esa vakuum-klapan orqali moslamadan tashqariga chiqariladi. Havo so'rish trubasi orqali tashqariga chikarib yuboriladi.

CHigitli paxta bo'yicha ish unumi 12 t/soat, tosh tutish qobiliyati og`irligi 10 g dan ortiq bo'lgan toshlar uchun 100%, 10 g dan engil toshlar uchun 94%. Havo bosimi 1370 Pa bo'lganda sarfi 3,3 m/s ga teng. Og`ir qo'shilmalar miqdori I sort paxtada o'rtacha 0,2%, past sortlarida esa 0,3% bo'ladi.

**SS-15A qirg`ichli separator** to'rli to'siq bilan ikki xonaga: chigitli paxta bo'limi va havo bo'limiga ajratilgan kameradan iborat. CHigitli paxta bo'limida yo'naltirgich va to'rli sirtning ikki tomonidan sidirib vakuum-klapanga tashlaydigan qirg`ichlar joylashgan. Vakuum-klapan chigitli paxta separatordan chiqayotganda tashqi muhitdan ichkariga havo kirishiga yo'l qo'yaydi. Kameraning havo bo'limi bir tomonidan to'rli sirt, ikkinchi tomonidan esa konuslar bilan to'silib ventilyatorga boradigan trubaga aylangan. Havo oqimi bilan separator ichiga kirgan chigitli paxtaning bir qismi ikki tomonidan to'rli sirtlarga urilib yopishib qolishi iatijasida separator ichida havo tezligi ancha kamayadi va kelayotgan paxtaning asosiy qismi to'g'ridan-to'g`ri vakuum-

klapanga tushadi. To'rli sirtga yopishgan chigitli paxta esa qirg`ich bilan sidirilib, ular ham vakuum-klapanga uzatiladi.

Quvvati 7,5 kVt li elektromotor reduktor orqali vakuum-klapan valiga ulangan bo'lib, bu valning ikkinchidan tomonidan harakat qayishlar orqali qirg`ichli valga uzatiladi.

**5.8. CHigitli paxta tozalash mashinalari.** CHigitli paxtani iflosliklardan tozalash jarayoni ish qismlarining ishlash qobiliyatiga bog`liq. Tozalash mashinalari chigitli paxtani mayda iflosliklardan (barg, g`ul parchalari, chang va boshqalar) tozalaydigan va yirik iflosliklardan (g`o'za shoxchalari, g`o'za po'choklari va h.k.) tozalash mashinalariga bo'linadi. CHigitli paxtadan aralashmalarni ajratish jarayoni chigitli paxtaning selektsion sorti, sanoat sorti xususiyatlariga, uning namlik darajasiga, tolasining uzunligiga, aralashmaning paxtaga qo'shilish vaqtiga va tolalarga ilashish xarakteriga bog`liq.

CHigitli paxtatga iflosliklardan tozalash samaradorligi mashina ish organlarining chigitli paxtaga ta`sir etish usuliga: to'rli sirt yoki kolosnnk ustida chigitli paxtani silkitish, tozalash vaqtida havo oqimining aralashishi, qoziqchalar yoki plankalarning chigitli paxtaga dinamik ta`siri, arrali barabanlarning chigitli paxta bo'lakchalarining qanday titkilab, tarashiga bog`liq. Tozalash mashinalari ish organlarining chigitli paxtaga ta`siri o'z navbatida bir qator sabablarga: tozalash mashinasining ish unumiga, ish qismlariniig aylanish tezligiga, ish qismlari orasidagi texnologik zazorlarga, ularning konstruktsiyasiga, chigitli paxtaning nechanchi martaba tozalanishiga va hokazolarga bog`liq.

**Mayda iflosliklarni ajratish mashinalari.** CHigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun ishlatiladigan mashinalar zavodning quritish-tozalash tsexiga, tozalash tsexiga va har bir jinning ta`minlagichiga o'rnataladi. CHigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratish mashinalari pnevmatik, pnevmomexanik va mexanik sistemalarga bo'linadi.

Mayda iflosliklarni ajratish mashinalari texnologik liniyada o'rnatilish joyiga qarab individual va batyareyali ish organlarining chigitli paxtaga ta`siri jihatidan bir ta`sirli va qayta ta`sirli, ish organlarining soniga qarab bnr barabanli va ko'p barabanli, konstruktsiyasi bo'yicha esa barabanli va shnekli xillarga bo'linadi.

Mayda qo'shilmalar chigitli paxtadan barabanli va shnekli tozalagichlarda yaxshi ajraladi va ularni ajratish uchun tozalash jarayonida chigitli paxtani elash etarli hisoblanadi. SHu sababli chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun qoziqli-titkilash mashinalari ishlatiladi.

To'rli sirtlar po'lat simlardan to'qilgan, har xil shakldagi ko'zli yaxlit tunuka yoki turli shakldagi kolosniklardan yasalgan bo'lishi mumkin.

Mashinaning tozalash effekti qoziqli-titkilash barabani bilan to'rli sirtning bir-biriga nisbatan joylashishiga bog`liq. Mashina ishlaganda chigitli paxta bo'lakchalari to'rli sirt ustiga urilishi natijasida undagi iflos qo'shilmalar ajraladi va to'rli sirt teshiklari orqali tashqariga chiqib ketadi.

Ba'zi tozalagichlarning barabanlarida ikki qator qoziqlar o'rnatilgandan keyin uchinchi qatorga yaxlit planka o'rnatilgani uchun bunday tozalagichlar qoziq-plankali deb ataladi. Bunday tozlagichlarning tozalash effekti birmuncha yuqori bo'ladi, chunki bularda chigitli paxta qoziqchalar bilan titkilanadi, planka esa havo oqimini kuchaytirib, tozalashni zo'raytiradi.

**XCHE besh barabanli tozalagich** ingichka tolali paxtani ifloslikdan tozalashga mo'ljallangan. Bu tozalagichni boshqa turdag'i chigitli paxtani tozalash uchun ham ishlatish mumkin.

Tozalagich kanop tutg`ich, qoziqli titkilash barabanlari, kolosnikli panjara, korpus, paxta solish bunker, paxtani mashinadan chiqarish bunkeridan iborat. Bunkerga tushgan chigitli paxtani aylanib turgan kanop tutgich to'rli sirt yoki kolosnikli panjara ustidan sudrab o'tib, keyinti qoziqli-titkilash barabanga uzatadi. SHunda paxta tezligini bir oz yo'qotib, keyingi baraban qoziqlari bilan yana to'rli sirt ustidan sudrab olib o'tiladi. CHigitli paxta har gal to'rli sirtga nshqalanganda mayda qo'shilmalarning bir qismi ajralib to'rli sirt teshiklari orqali chiqib ketadi. Paxta barcha barabanlardan o'tib tozalanadi va bunkerdan chiqib ketadi.

Agar chigitli paxtaga tosh yoki temir parchasi kabi qattiq jismlar aralashgan bo'lsa, ular qoziqchalarni sindiradi, kolosniklar orasini kengaytiradi, chigitli paxta bo'lakchalari esa bu erdan-chiqib, nobud bo'ladi.

### XCHE tozalagichining texnik xarakternistikasi

Ish unumi, t/soat	10-12
Ishlatiladigan quvvati, kVt	5
Tozalash effekti, %	30
Barabanlarning aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	500
Qoziqchalar bilan turli sirt orasi, mm	14-18

**OXB-10 markali o'n barabanli tozalagich.** Ingichka tolali paxtani mayda iflosliklardan tozalzshga mo'ljallzngan bo'lib, korpus, qoziqcha-plankali barabanelar, to'rlar, ta`minlagich, rama, iflos qo'shilmalar bunkeridan iborat.

CHigitli paxta ta`minlash valiklari ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushiriladi. Bir-biriga qarshi aylanuvchi ta`minlash valiklari paxtani qoziqli barabanga uzatadi. Bu baraban chigitli paxtani titkilab to'rli sirt ustidan olib o'tadi va ikkinchi barabanga uzatadi. SHu tartibda chigitli paxta hamma barabanlardan o'tib mayda ifloslnklardan tozalanadi. Ajratilgan iflosliklar bunkerlarning qiya devorlari orqali pastga tushib, pnevmotransport bilan so'rib olinadi, tozalangan chigitli paxta esa mashinadan chiqarilib, keyingi mashinaga uzatiladi.

CHigitli paxtaning barabandan barabanga o'tishi, uning to'rli sirtga ishqalanish tartibi besh barabanli tozalagichda bajariladigai jarayonga o'xshaydi. Lekin OXB-10 tozalagnchning tozalash effekti besh barabanli tozalagichnikidan yuqori uni remont qilish va ishlatish ancha oddiy. Mashina barcha barabanelar o'ren almashganda ham kamchiliksiz ishlay beradi.

### OXV-10 tozalagichning texnik xarakteristikasi

Ish unumi, t/soat	12 gacha
Mayda iflosliklardan tozalash zffekti, %	60 gacha
Qoziqchalar bilan to'r orasi, mm	15-18
Qoziqcha-plankali baraban diametri, mm	400
Qoziqcha-plankali barabanning aylanishi chastotasi, min <sup>-1</sup>	520
Iste`mol quvvati, kVt	11
Gabaritlari, mm:	
bo'yi	4575
Eni	2690
Balandligi	1755
Massasi, kg	3667

**6A-12M shnekli tozalagich** o'rtalagi chigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratish uchun mo'ljallangan bo'lib tozalash tsexining texnologik jarayoniga arrali tozalagichlardan oldin yoki ulardan keyin o'rnatiladi.

Tozalanish uchun mashinaga tushayotgan chigitli paxta ikki alohida oqimga bo'linib, yuqoridagi aylanuvchi shneklar bilan ishlanadi. Har bir shnekli baraban diametri 400-560mm li vintli konveyerdan iborat bo'lib, vint qanoti ustiga balandligi 75mm li qoziqchalar payvandlangan.

Vint chiznq bo'ylab joylashgan qoziqchalar chigitli paxtani titkilab otadi va sekin-asta vint o'qi bo'ylab mashinaning ikkinchi tomoniga siljitali.

CHigitli paxta mashina ichida doimo titkilanishi va harakatlanishi natijasida iflos qo'shilmalar undan ajralib shnek novini tashkil qiluvchi kolosniklar orqali ajralib chiqadi. CHigitli paxta esa yuqoridagi ikki shnekda tozalanib, birlashtiruvchi vertikal shaxtalar orqali pastki ikki shnekka tushadi va ularda qayta titkilanib, orqa tomonga qaytariladi va chiqaruvchi shaxta orqali mashinadan tozalanib chiqadi. YUqorigi va pastki qoziqchali shneklarda ajratilgan iflos qo'shilmalar bunkerga o'rnatilgan konveyer yordamida tashqariga chiqarib yuboriladi.

CHigitli paxtaning har bir bo'lakchasi 6A-12M mashinasi ichida o'rtalagi hisobda 30-35 s turadi, shu vaqtida shnek qoziqchalari ularni qayta-qayta urib paxtadan mayda xas-cho'plarni ajratadi.

Bu tozalagich yonida turib ishlovchilarinnng mehnat sharoitini yaxshilash maqsadida har bir tozalagichdan 1,0-1,3 m<sup>3</sup>/s changli havo so'rish mo'ljallangan.

**Yirik xas-cho'plarni ajratish mashinalari.** Paxta tayyorlash punktlarining quritish-tozalash tsexlarida va paxta tozalash zavodlariniig tozalash tsexlarida ikki sektsiyali CHX-ZM kolosniklari tozalagichlardan foydalaniladi. Bu mashina qo'lida va mashinada terilgan chigitli paxtani yirik

va mayda xas-cho'plardan tozalash uchun mo'ljallangan bo'lib batareya shaklida o'rnatiladi. CHigitli paxta tozalagichga vintli konveyer bilan taqsimlanadi.

Taqsimlash konveyeridan paxta orqali qilayotgan chigitli paxta ta`minlash yulduzchalari yordamida qoziqli barabanga bir tskisda uzatiladi. Baraban o'z navbatida paxtani titkilab, to'rli sirt orqaln o'tkazib, mayda iflosliklardan tozalab birinchi arrali barabanga uzatadi. Arrali sirt ustida chigitli paxta qo'zg`almas cho'tka bilan tekislanadi va arralarnikg tishiga yopishtiriladi.

Arra tishlariga yopishgan chigitli paxta bo'lakchalari harakat vaqtida kolosnik qobirg`alariga uriladi, shunda xas-cho'plar bilan chigitli paxta orasidagi bog`lanish kamayadi. Aktiv xas-cho'plarning bir qismi passiv xas-cho'plarga aylanadi. Xas-cho'plar markazdan qochirma kuch va havo oqimi ta`sirida kolosniklar orasidan tushib ketadi. CHigitli paxta arra tishlaridan parrakli baraban bilan ajratib olinadi va tuzilishi jihatidan shunga o'xhash ikkinchi arrali barabanga va undan ajragandan keyin konveyerga uzatiladi.

CHX-ZM markali tozalagichda uchinchi arrali barabanli regeneratsiya sektsiyasi bor. Bu sektsiya iflos qo'shilmalar bilan ketayotgan chigitli paxtani qaytarib, konveyerga tashlaydi. Bu konveyer chigitli paxtani pnevmatik sistemaga uzatadi.

CHigitli paxtaki tozalash vaqtida ajratilgan iflos aralashmalar shnek bilan mashinadan chiqarilib maxsus pnevmotransportyor sistemasiga uzatiladi.

Tozalangan chigitli paxta quritgichdan o'tkazilib namligi konditsion normaga etkazilgandan keyin tozalagichga beriladi.

#### CHX-3M markali tozalagichning texnik xarakteristikasi

CHigitli paxta bo'yicha ish unumi, t/soat	2-3
Ish qismlarshing aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	
Ta`minlash valiklari	11 gacha
Qoziqcha-plankali baraban	640
Parrakli barabanlar	1000
Arrali barabanlar	340
Ish organlarining texnologik zazorlarn, mm:	
Qoziqchalar bilan to'r orasi	14-16
Arrali barabanlar uchi bilan kolosniklar orasi	10-12
Parrakli baraban bilan arrali barabanlar orasi	1 gacha

CHX-ZM-2 qoziqchali-arrali tozalagich mashinada terilgan paxtani yirik va mayda xas-cho'plardan tozalash uchun muljallangandir. Paxta zavodlarining quritish-tozalash va tozalash tsexlariga o'rnatiladi.

CHX-ZM-2 markali tozalagich ta`minlash valnkiali, titkilagich-tozalash barabani, uning tagidagi to'rli sirt, ikkita asosiy arrali baraban, chigitli paxtani arrali barabanlardan ajratib oluvchi cho'tkali barabanlar va paxta bo'lakchalarini arratishlariga bosish cho'tkalaridan iborat. Arrali barabanlar ostida qirqimi yumaloq shaklda bo'lgan kolosniklar o'rnatilgan. Iflos aralashmalarga qo'shib qolgan chigitli paxta bo'lakchalarini ajratib olish uchun konstruktsiyasi jihatidan arrali barabanlarga o'xhash rsgenerattion arrali baraban o'rnatilgan. Iflos aralashmalarni mashinadan chiqarish uchui umumiy shnek o'rnatilgan.

CHX-ZM-2 tozalagichi CHX-ZM tozalagichidan kolosniklar ko'ndalang qirqimining yumaloq yasalgan va ish organlari aylanishi chastotasining birmuncha kamaytirilgani bilan farq qiladi, tozalash jarayoni ancha ravonlashgan va erkin tolalar paydo bo'lismiga yo'l qo'yilmaydi. Bu tozalagichda ingichka tolali paxta tozalanganda ham tola sifatiga zarar etkazilmaydi.

#### CHX-ZM-2 markali tozalagichning texnik xarakteristikasi

CHigitli paxta bo'yicha ish unumi, t/soat	1-1,5
Tozalash effekti, %	70-80
Ish organlariniig aylapish chastotasi, min <sup>-1</sup> :	
Ta`minlash valiklari	0-20
Kolosnik-arrali barabanlar	300-400
CHo'tkali barabanlar	600-800
Ish organlariniig texnologik zazorlari, mm:	

Qoziqchalar bilan to'r orasi	14-16
Arrali baraban tishlari bilan kolosniklar orasi	10-12
Arrali baraban bilan cho'tkalar orasi	1 gacha

### Nazorat savollar:

1. CHigitli paxtani quritish texnologiyasini tushuntirib bering?
2. CHigitli paxtani quritish usullarini bilasizmi?
3. CHigitli paxtani quritish agenti xaroratini qanday?
4. CHigitli paxtani quritish tartibini tushuntiring?
5. CHigitli paxta quritgichlarini gapirib bering?
6. CHigitli paxta quritgichlarini turlarini aytинг?
7. Paxtani quritishning texnologik rejimlari qanday?
8. Quritish-tozalash tsexining o'txonasini bilasizmi?
9. Urug`lik paxtani quritishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
10. Urug`lik paxtani quritishda qanday xarorat rejimlari qo'llaniladi?
11. CHigitli paxtaning iflosligi to'g`risida nimalarni bilasiz?
12. Paxta tozalash zavodining tozalash tsexi tug`risida gapirib bering?
13. Paxta tozalash zavodining tozalash tsevida qanday uskunalar buladi?
14. Separatorlaning ishlash pritsipini gapirib bering?
15. Tosh tutgichlarning ishlash pritsipini gapirib bering?
16. CHigitli paxta tozalash mashinalarini bilasizmi?
17. Mayda iflosliklarni ajratish mashinalari tug`risida gapirib bering?
18. Mayda iflosliklarni tozalashda qanday mashinalardan foydalaniladi?
19. Yirik xas-cho'plarni ajratish mashinalarini gapirib bering?
20. Yirik iflosliklarni tozalashda qanday mashinalardan foydalaniladi?

### 6-Ma`ro'za. CHigitli paxtani jinlash va tolani tozalash texnologiyasi.

**Reja:**

- 6.1. Arrali jinlash.**
- 6.2. Ta`minlagichlar.**
- 6.3. Arrali jinlar.**
- 6.4. Arrali jinlarning texnologik jarayoni.**
- 6.5. Tola tozalagichlar.**

**Adabiyotlar:** 2,3,4,9,10,14

**Tayanch iboralar:** Arrali jin, ta`minlagich, ish kamerasi, kolosnikli panjara, arrali tsilindr, tola tozalagich, kondenser.

**6.1. Arrali jinlash.** Arrali jinga birinchi patent Amerika Qo'shma SHtatlarida o'qituvchi Eli Uitneyga berilgan edi. Uning ixtiro etgan mashinasi mixsimon tishlar qoqilgan yog`och barabandan iborat bo'lib, bu tishlar ro'paradagi taxtaning taroqsimon qismidan o'tkazilgan. U ishlayotgan vaqtda chigitli paxtaning tolalari shu taroq orqali tortib o'tkazilar, chigitlar esa o'tmay qolib jinlash jarayoni sodir bo'lar edi. CHigitdan ajratilgan tolalarni arra tishlaridan parrakli baraban ajratib olib, mashinadan tashqariga chiqarardi.

Arra tishlari bilan tolalarmi ilib olib, ularni chigitdan kolosnik panjalar orqali ajratish usuli hozirgacha saqlanib kelmoqda. CHigitli paxtani jinlashdan oldin iflosliklardan tozalaydigan mashinalar chergaralangan bo'lganligi uchun 1879 yilda «Eklips» markali ikki kamerali arrali jinga patent berilgan bo'lib, bu jinning ishlash asoslari AQSH da chiqariladigan jinlarda shu vaqtgacha saqlanib kelmoqda.

Ikki kamerali jinlarda chigitli paxtani iflosliklardan tozalash uchun mo'ljallangan birinchi kamera S.N.Nusratov ma'lumotlariga ko'ra, arrali jin ish unumini oshirishga to'sqinlik qiladi. SHuning uchun 1940 yildan boshlab O'zbekistonda bir kamerali arrali jin chikarila boshlandi.

**6.2. Ta`minlagichlar.** Ta`minlagich chigitli paxtani jinning ish kamerasiga yaxshi titkilab va oxirgi marta iflosliklardan tozalab bir tekisda tayyorlab beradi.

ZXAD markali to`rt barabanli ta`minlagich. CHigitli paxta ta`minlagich ustida joylashgan taqsimlovchi shnek yordamida shaxtaga, bundan esa ta`minlagichga tushiriladi. Bir-biriga qarshi aylanadigan ta`minlash valiklari chigitli paxtani shaxtadan olib, bir tekisda qoziqli barabanga uzatadi. Bu baraban chigitli paxtani titkilashni davom ettiradi va to`rli sirt ustidan o'tkazib mayda iflosliklardan tozalaydi. Oxirgi baraban diametri 50-70mm li valdan yasalib, uzun qoziqlari bo`lgani uchun chigitli paxta orasida bo`lgan kanop parchalarini o`ziga o`rab ajratib tashlaydi. Iflos aralashmalar to`rli sirt orqali o'tib, mashina ostiga tushirilib, shnek bilan mashinadan tashqariga olib ketiladi. Ta`minlagichning mayda iflosliklaridan tozalash samaradorligi 7-10% ni tashkil etadi.

Ta`minlagichning ish organlari harakatga quyidagicha keltiriladi; harakat jinning arrali validan tasmali uzatma orqali kanop tutish barabaniga uzatiladi. Bu baraban 350 min<sup>1</sup> chastota bilan aylanadi va uning ikkinchi tomonidan harakat umumiy tasma orqali boshqa barabanlarga shu tezlikda uzatiladi; qoziqchali-plankali barabanning ikkinchi uchiga ikki kirimli chervyak o`rnatilgan bo`lib, bu chervyak harakatni vertikal valikka uzatib, uni 23-24 min<sup>1</sup> chastota bilan aylantiradi (chervyak shesternysi tishlarining soni 29). Vertikal valikning uchiga to`qqiz tishli shesternya o`rnatilgan. Bu shesternyani vertikal valik bo`ylab dasta yordamida siljitib, uni ta`minlovchi diskning biror aylanasiagi chuqurchalar bilan tishlashtirish mumkin. Ta`minlash diskida aylana bor bo`lib, ularning har birida har xil sonli (66, 56, 46, 36, 27 tadan) teshiklar bor. Demak, ta`minlash valiklarining aylanish chastotasi vertikal valikdagi shesternyaning ta`minlash diskining qaysi aylanasi bilan tishlashishiga bog`liq.

PD markali bir barabanli ta`minlagich to`rt barabanli ta`minlagichdan o`zining oddiy tuzilganligi (ish organlari soni kam) va unga xizmat ko`rsatish hamda remont qilishning qulayligi bilan farq qiladi, ammo uning mayda xas-cho`plardan tozalash samaradorligi 5-6% ga kam. Ta`minlash valiklarining aylanish chastotasi ta`minlash valigining o`qiga o`rnatilgan IVA markali impulsli variator orqali rostlanadi.

PD markali ta`minlagich quyidagicha ishlaydi. CHigitli paxta ta`minlagich ustiga o`rnatilgan shaxtaga tushadi. Bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan ta`minlash valiklari chigitli paxtani shaxtadan bir tekisda olib qoziqli barabanga uzatadi, bu baraban paxtani titkilab to`rli sirt ustidan sudrab o`tib uni mayda xas-cho`plardan oxirgi marta tozalaydi. Tozalangan chigitli paxta qoziqli baraban yordamida novga uzatiladi va jinning ish kamerasiga tushadi.

Ta`minlagichlarning texnik xarakteristikasi

Ko`rsatkichlar	ZXAD	PD
Ish unumi, t/soat	3 gacha	4,5
Qoziqlar bilan to`r orasi, mm	15-18	15-18
Aylanish chastotasi, min <sup>1</sup> : ta`miilash valiklari	0-20	0-20
qoziqli plankali barabanlar	350	400
Tozalash samaradorligi, %	15 gacha	5-6

**6.3. Arrali jinlar.** Arrali jinlar vazifasiga qarab laboratoriya va ishlab chiqarish jinlariga bo`linadi. Arrali valdag'i arralar soniga qarab 10, 80, 90, 100 va undan ko`p arrali, arralarning tishlaridan tolalarni ajratib olish apparatining konstruktsiyasiga qarab, cho`tkali va havo oqimi bilan ishlaydigan, havo oqimi soplosining o`rnatilish joyiga qarab, yuqorida tola ajratadigan va pastdan tola ajratadigan jinlarga bo`linadi.

XDD-2M markali jinlar XDD markali jinlardan ish kamerasining shakli va konstruktsiyasi, ko`tarish mexanizmi hamda kolosniklarinn takomillashtirilganligi bilan farqlanadi.

Ikkala jinning umumiy va muhim qismlari: bruslarga boltlar bilan mahkamlangan o`ng va chap cho`yan devorlardan iborat stanina; ketingi brusga o`rnatilgan ta`minlagich; 80, 90, 100 arrali tsiliidr; peshtoq brusi, kolosnikli panjara, fartuk va chigit tarog`ili ish kamerasidan iborat. Ish kamerasi oldingi yuqori brusga kronshteyn bilan sharnirli osilgan. Arra tishlaridan tolani ajratadigan pnevmatik apparat, havo chiqadigan soplo va tola trubasiga ulanadigan bo`g`izlardan iborat.

Toladan o'lukni ajratish uchun koziryok, tozalash cho'tkasi va tashqariga chiqarish konveyeri xizmat qiladi.

Jinning ish unumini oshirish uchun jindan chiqayotgan chigitlarning tuklilagini puxta nazorat qilish lozim. Buning uchun valga o'rnatiladigan arrali disklar sonini val uzunligini o'zgartirmasdan 80 dan 90 ga etkazish kerak. Bu o'z navbatida tukli chigitlarning jindan chiqishiga to'sqinlik qilib, jinning ish unumini oshirishga olib keladi. Valdagi arralar soni 80 dan 90 gacha etkazilganda ularving orasi 19,46 mm dan 16,35 mm gacha kamaydi. Bu esa tukli chigitlarning jindan tozalanmay chiqishiga to'sqinlik qilib, tolada qisqa tolalarning ko'payishiga olib keladi.

Jinni chigitli paxta bilan ta`minlash avtomatlashtirilgan bo'lib, ish vaqtida arrali val talab qiladigan elektr quvvatiga qarab, o'zgartirib turiladi. Ish kamerasini ko'tarish va tushirish, shi vaqtida kamerani silkitish ham avtomatlashtirilgan.

So'nggi yillarda AQSHda valdagি arralar soni ko'paytirilgэн jinlar ishlatilmoqda. «Plattlyummus» firmasida arralar soni 128 gacha, «Murrey» firmasida esa 112 gacha ko'paytirilgan. Arra disklarining diametri «Moss Gordin» firmasida 406-457 mm gacha kattalashtirilgan.

Ish kamerasi uzunlashib, uning ichida chigitli paxta valigining aylanishi qiyinlashgani uchun harakatni tezlatuvchi turli moslamalar kiritila boshlandi.

XDD, XDD-2M, ZXDD va DP-130 markali arrali jinlarning texnik xarakteristikasi

Ko'reatkichlar	XDD	XDD-2M	3XDD	DP-130
Bir arraning ish unumi, kg/soat	10 gacha	10-12	12,5	10-16
Arrali tsilindrning aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	730	730	730	730
Valdagи arralar soni	80	100	80-90	130
Arra diametri, mm	320	320	320	320
Arradagi tishlar soni	280	280	280	280
Oraliq qistirmalar qalinligi, mm	18,45	16,35	18,45	18,45
Tozalash samaradorligi, %	25-30	25-30	25-30	10-15
Havo sarfi, m <sup>3</sup> /s	0,5-0,6	0,5-0,6	0,5-0,6	0,6-0,8
Havo bosimi, Pa	1570-1960	1570-1960	1570-1960	3795
Quvvati, kVt	40	45	55	79,5

**6.4. Arrali jinlarning texnologik jarayoni.** Paxta tozalash zavodining bosh korpusiga keltirilgan chigitli paxta separator va taqsimlovchi konveyer har bir jin ustiga o'rnatilgan ta`minlagich shaxtasiga so'ngra jinning ish kamerasiga bir tekisda kelib tushadi.

Jinning ish kamerasiga tushgan chigitli paxtani chigit tarog'ining yonida aylanayotgan arra tishlari ilib olib, yoy bo'ylab sudrab kolosnikga olib keladi. Tishlarga ilingan chigitli paxta bo'lakchalari boshqa paxta bo'lakchalariga ilashib, ularni ham tortadi, kameradagi hamma chigitli paxta aylanana boshlaydi. SHunday qilib, arraga qarshi tomonga aylanuvchi chigitli paxta valigi hosil bo'lib, u arra tishlarini paxta tolasi bilan uzlusiz ta`minlaydi.

Arra tishlariga ilingan tolalar kolosniklarning orasidan olib o'tiladi, chigitlar esa o'ta olmay to'xtab qoladi, shunda tolalar chigitdan ajraladi. Arra tishlaridagi tolalar soplidan chiqqan havo oqimi bilan ajratilib, umumiy tola tortish trubasiga uzatiladi. Kolosniklarning ish qismida tirqishlar kengligi 3,2 mm dan (eng kichik chigitning o'lchamlaridan) katta bo'limgani uchun chigit o'tib keta olmasdan, aylanib turgan chigitli paxta valigiga qo'shilib ketadi va hamma tolalari ajralmaguncha aylanishda davom etadi.

Hamma tolalaridan ajralgan chigitlar o'zining ilashish qobiliyatini yo'qotadi, chigitli paxta valigidan ajralib, kolosnik sirtiga so'ntra uning tirqishlaridan pastga tushadi. Jindan chiqayotgan chigitlarning tuklilik darajasi taroq bilan o'zgartirib turiladi.

Jinning ish kamerasiga chngitli paxtani to'xtovsiz berish, tola va tozalangan chigitlarni jindan to'xtovsiz olib ketish arrali jinning to'xtovsiz ishlashini ta'milaydi.

**6.5. Tola tozalagichlar.** Tolani jinlashdan keyin qoladigan o'luk va mayda iflosliklardan tozalash ularni presslab toylashdan oldin bajarilsa, samarali bo'ladi. Mashinada terilgan chigitli paxtani jinlaganda o'luk va mayda iflosliklar ba`zan standartda ko'rsatilgan normadan ortib ketadi. Agar bunday tolalar presslab toylangsas, to'qimachilik fabrikalari tayyorlov tsexlari mashinalarining ishini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, paxta tolalari ko'proq gajjalaklanib, to'qimachilik fabrikalarida ortiqcha nobud bo'ladi.

Jindan chiqqan tolalarning ayrim bo'lakchalari 15-20 mg bo'lib, ularning zichligi 0,15-0,25 kg/m<sup>3</sup> dan oshmaydi.

SHuning uchun tola tozalaydigan mashinalarni paxta tozalash zavodlariga ham o'rnatish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tola tozalash mashinalari tolani o'luk va mayda iflosliklardan tozalash usuliga qarab, mexanik, aerodinamik aa aeromexanik xillariga bo'linadi.

Bir mashinada tolani tozalash ishi necha marta bajarilishiga qarab bir bosqichli va ko'p bosqichli, jinlar batareyasiga o'rnatish joyiga qarab esa bir jindan chiqqan tolani tozalaydigan xususiy va bir batareya jindan chiqqan tolalarni tozalaydigan batareya tola tozalagichi deb ataladi.

Tolani tozalagichning nsh organiga berish usuliga qarab, tolani zichlab beradigan ta`minlash stolchali va jindan chiqqan tolalarni to'g`ridan-to'g`ri beradigan (to'g`ri oqimli) tozalagichlar bo'ladi.

Tolani mexanik usulda tozalaganda o'luk va mayda iflosliklar tarash va o'rish usulida toladan ajratiladi, bunda o'luk va mayda iflosliklarning tolaga ilashishi zaiflashib, to'rli sirt teshiklari yoki kolosniklar orqali ajralib chiqadi. TSNITI, IV-1, VOB-1, VCHB-2, GR-2 markali tola tozalagichlar shu usulda ishlaydi. Bulardan VCHB-2 (17-23%) va GR-2 (15-20%) mashinalarining tozalash samaradorligi eng yuqori bo'lsa ham, lekin ish unumi kichik va o'lchamlari katta bo'lgani uchun paxta sanoatida joriy etilmadi.

Tolani aerodinamik usulda tozalash tola oqimi uni transportirovka qiluvchi havo oqimi bilan birga egri chizikli yo'ldan o'tganda hosil bo'ladigan markazdan qochirma kuchdan foydalanishga asoslangan. Biroq aerodinamik tola tozalagichlarning tozalash samaradorlign yuqori bo'la olmaydi, chunki markazdan qochirma kuchlar tolaga yopishgan o'luk va mayda iflosliklarnigina ajrata oladi. O'luk bilan mayda iflosliklarning tolaga yopishish kuchi 0,98-1,47 N gacha etadi, vaholanki tola tozalagich hosil qiladigan markazdan qochirma kuch ko'pi bilan 0,09-0,11 N ni tashkil etadi. Mamlakatimizda chiqariladigan tola tozalagichlarning tozalash samaradorligi ancha yuqori. Bir bosqichli tola tozalagichlarning tozalash samaradorlig'i bиринчи sort tola uchun 20-23%, past sortlar uchun 25-28%, uch bosqichli tola tozalagichlarning tozalash samaradorligi esa 40% gacha boradi.

TSNIIXProm ishlab chiqargan ta`minlovchi stolchali-arrali tola tozalagich jindan kondenserga keladigan tola to'rli barabandan valiklar bilan yig`ib olinib, xolst shaklida yo'naltiruvchi tsilindrlerga uzatiladi. Ishlatilgan havo kondenser barabanining ikki chetidan ventilator bilan tortib olinadi. Yo'naltiruvchi tsilindrler tola xolstini zichlab ta`minlovchi tsilindrغا uzatadi, u o'z pavbatida xolstni ta`minlovchi stolchaga bosib, arrali (garnetli) barabanga tolalar uchini uzatadi. Arrali baraban tishlari stolchadan chiqib turgan tola uchlarini tarab, tolani o'ziga ilib olib, uni ketma-ket uchta qo'zg`almas pichoqqa uradi. Bunda o'luk, mayda iflosliklar va tola nuqsonlarining bir qismi toladan ajralib to'kiladi, tolaga mahkamroq yopishganlari esa pichoqlarga urilish natijasida toladan ajralib chiqitga qo'shib ketadi. Tozalangan tolalar arra tishlaridan cho'tkali baraban bilan ajratilib, tola tortuvchi truba orqali batareya kondenseriga uzatiladi.

Ta`minlovchi stolchasi bo'limgan arrali tola tozalagich faqat ikkita aylanuvchi ish organi: kondenser barabani va arrali tsilindrغا ega bo'lib, arrali tsilindr ostiga kolosnik panjara o'rnatilgan. Tolani arra tishlaridan ajratish uchun havo kamerasi xizmat qiladi. Ish vaqtida tolalarni yaxshilib tarash va shu usulda tola tozalash samaradorligini oshirish uchun arralar valga qiya o'rnatilgan bo'lib, arralar bir marta aylanganda arralar orasidagi masofani ham bosib o'tadi.

Hamma tipdag'i arrali tola tozalagichlar kokdenser barabanlari va ulardan tolani ajratib oluvchi ish organlari bilan ta`minlanadi. Bular asosiy ish organlariga nisbatan ko'p joy olsa ham, tola tozalashda bevosita qatnashmaydi. TSNIIXProm OVPA markali to'g`ri oqimli faqat bir aylanuvchi organ arrali tsilindrغا ega bo'lgan tola tozalagich yaratdi. Bunda jindan chiqadigan tola

mashinaning bor bo'yicha patrubok orqali arrali tsilindrga beriladi, so'ng kolosniklardan o'tkazilib patrubok orqali umumiy tola trubasiga uzatiladi. Toladan ajratilgan o'luk, mayda xas-cho'p va nuqsonlar lentali transporter orqali mashinadan tashqariga chiqariladi. CHiqindilar kamerasiga beriladigan havo miqdorini rostlash uchun mashinaning orqa devorida qopqoq bilan yopiladigan darcha bor. Arra tishlari kolosniklardan o'tgandan keyin, ularning egilish burchagi kichik ( $15^{\circ}$ ) bo'lganligi sababli tolalar markazdan qochirma kuch va havo oqimi ta'sirida tishlardan ajraladi.

OVPA tola tozalagichning tozalash samaradorligi birinchi sort tolalar uchun 18-20%, past sort tolalar uchun esa 28-32% ni tashkil qiladi.

Etishtirilgan paxta hosilining 75-90% mashinalar bilan terilmoqda. SHuning uchun jindan keyin ham tola tozalashni kuchaytirishni talab qilmoqda.

3OVP uch bosqichli to'g'ri oqimli tola tozalagich bir bosqichli tola tozalagich kabi ishlasa ham o'zining tuzilishi va texnologik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Jindan chiqqan tola mashinaning bor bo'yicha havo yordamida truba orqali tekis taqsimlanib, tozalagichning birinchi bosqichidagi arrali tsilindrga beriladi. CHutka tolalarni arra tishlariga yaxshi ilintiradi; arralar tolalarni kolosnik panjara orqali sudrab o'tganda yaxshi titkilaydi. Toladan ajratilgan xas-cho'plar kameraga tushib shnek yordamida tashqariga chiqariladi. Tola birinchi bosqichda tozalangandan keyin ikkinchi bosqichdagi arrali tsilindrga, so'ng uchinchi bosqichdagi arrali tsilindriga uzatilib, qayta-qayta tozalanadi.

Jindan havo oqimi bilan kelgan tolalar birinchi arrali tsilindrga ilinadi, havo esa truba orqali mashinan dan tashqariga chiqadi. Tozalagichda arrali tsilindrler ishida havo oqimi qatnashmaydi. Tolalar oqimi uchinchi tsilindr dan chiqqandan keyin yo'naltiruvchi shchit va ustki qopqoq orasndan o'tib havo oqimiga qo'shilib mashinan dan tashqariga chiqadi. Mashina ichida tola harakatini tartibga solish va aerodinamik rejimni rostlash uchun yo'naltiruvchi to'siqlar va jalyuzali panjaralar o'rnatilgan. Tola tozalagichning ish sifati chiqindilardagi toza tolalar miqdoriga va mashinaning tozalash effektiga qarab baholanadi.

Tola tozalagichlarning texnik xarakteristikasi

Ko'rsatkichlar	Bir bosqichln OVPA	Uch bosqichli 3OVP
Tola bo'yicha nsh unumi, kg/soat	1200	1200
Tozalash bosqichlari soni	1	3
1-sort tolalarda tozalash samaradorligi, %	25	40 gacha
CHiqindilardagi toza tola, %	50 gacha	40 gacha
Ish organining aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1420	960
Arra diametri, mm	320	310
Valdag'i arralar soni	231	231
Qistirma diametri, mm	130	I-190; II-250; III-280
Qistirma qalinligi, mm	6	6
Elektr dvigatelining quvvati, kVt	2,8	10,0

### Nazorat savollar:

1. Arrali jinlash tarixini bilasizmi?
2. Ta'minlagichlarning vazifasi nimadan iborat?
3. Arrali jinlar turlarini bilasizmi?
4. Arrali jinlarning texnologik jarayonini gapirib bering?
5. Arrali jin ish kamerasini tushuntiring?
6. Jin arrasining ishlashini tushuntiring?
7. Qolosnikli panjaraning vazifasi nima?
8. Arrali tsilindrning vazifasi nima?
9. Arra tishlaridan tola ajratish usullarini ayting?
10. Tola tozalagichlar tugrisida gapirib bering?

## 7-Ma`ruza. Linterlash texnologik jarayonlari.

**Reja:**

- 7.1. CHigitlarning iflosligi va ularni tozalashning ahamiyati.
- 7.2. CHigit tozalagichlar.
- 7.3. Linterlash jarayoni asoslari.
- 7.4. Linter xillari va konstruktsiyalari.
- 7.5. Linterlarning muhim uzel va detallari.
- 7.6. Linterning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.
- 7.7. Lint sifati va chigitni ko'p marotaba linterlash.
- 7.8. Linterlarni batareyaga o'rnatish.

**Adabiyotlar:** 2,3,4,9,10,14

**Tayanch iboralar:** Linter, ta`minlagich, momiq, lint, delint.

**7.1. CHigitlarning iflosligi va ularni tozalashning ahamiyati.** Paxta tozalash zavodida jinlashdan chiqqan chigitlarni ishlash davom ettiriladi: xas-cho'plardan tozalanadi, linterlanadi, delinterlanadi, sortlarga ajratiladi va dorilanadi {keyingi ikki ish urug`lik chigitlar uchun bajariladi).

Paxtada bo'lган xas-cho'plarning bir-qismi jinlash jarayonida tola o'luk bilan birga chiqib ketmasdan chngit bilan qo'shilib chiqib, uni ifloslantiradi.

Jindan chiqqan chigitlar yirik qum, xas-cho'plar, tasodifan tushgan metall parchalari va mayda toshlar bilan ifloslangan bo'ladi, Bulardan tashqari sog`lom bo'lмаган (puch va etilmagan) chigitlar ham bo'lib, bular vintli konveyerlar va elevatorlardan o'tkazilganda maydalaiib, ishlanayotgan lintning iflosligini ko'paytirishi mumkin. CHigitlarga ish vaqtida jin kamerasini ochganda to'kilgan paxta bo'lakchalari ham qo'shilgan bo'lishi mumkin.

Ayniqsa mashinada terilgan paxtani jinlashda chiqadigan chigitlar ko'proq ifloslangan bo'ladi. SHuning uchun chigitni linterlashdan oldin unn yaxshilab tozalash talab qilinadi.

Jinlashdan keyin chigit tozalansa, lint kam ifloslanadi, linterning arralari shikastlanmay ularning ishlash muddati uzayadi.

**7.2. CHigit tozalagichlar.** CHigitlarni xas-cho'plardan tozalash uchun har bir linterlar batareyasi oldiga SXA, CHSP yoki USM markali pnevmatik chigit tozalagichlar o'rnatiladi, chigit tashiydigan vintli konveyerlar esa yirik, ichi 3-5 mm ko'zli to'r novlar bilan jihozlanadi.

SXA-10 va SXA-3 markali pnevmatik chigit tozalagichlar bir-biridan o'lchamlari va ish unumi bilan farq qiladi. Ustanovka chigitli tozalagich ventilyator va tolali chigitlarni tutib qoluvchi tsiklondan iborat. Bir soatda ishlanadigan chigitning mikdori 4-5 t bo'lsa, SXA-3 markali va undan ortiq bo'lsa SXA-10 markali chigit tozalagich o'rnatiladi.

Jindan chiqayotgan chigitlar elevator yordamida tozalagichning ta`minlash konveyeriga beriladi. Konveyer vintining o'ramlari uzelgan joy bor bo'lib, bu erda chigitlar to'planib probka hosil qiladi. SHuning uchun bu erdag'i chigitlarni pastdan kelayotgan havo oqimi puflab konveyer boshiga qaytara olmaydi. SHunday probka konveyerde ham hosil bo'lib, chigitning chiqish yo'lini berkitib turadi.

CHigitlar to'plangan joydan pastga qiya tekislikga tushadi, so'ngra ventilyatordan truba bo'y lab kelayotgan havo oqimiga qo'shilib kanal orqali yuqoriga ko'tariladi va ajratuvchi kameraga chiqadi.

Hajmi kanalnikidan ancha katta bo'lган kamerada havo tezligi bir necha marta kamayadi, natijada to'liq normal chigitlardan engil xas-cho'plar ajralib havo bilan truba orqali tashqariga chiqib ketadi. Zichligi etarli darajada bo'lган sog`lom to'liq chigitlar pastga konveyerga tushadi va chigit tozalagichdan tashqariga chikariladilar.

Truba orqali havo bilan chiqayotgan mayda xas-cho'plar, chang, erkin tolalar, puch chigitlar maxsus tsiklonga yig`ilib, unda havodan ajratiladi.

CHigitlar havo oqimi bilan vertikal kanal bo'y lab yuqornga ko'tarilganda, ulardag'i og`ir qo'shilmalar (mayda toshlar, temir parchalari va h.k.) yuqoriga ko'tarilmay tosh tutgichga tushadi.

Bu tozalagichlarda chigit tozalash effekti to'siqlarning vaziyatini o'zgartirib rostlanadi. SHunda havo oqimining tezligi va yo'nalishini o'zgartirib, tozalash effektiga ta`sir etadi.

CHigit tozalagichning pnevmatik sistemasiga beriladigan havo miqdori, binobarin uning statik bosimi so'rish yoki haydash trubasida joylashgan to'siqning holatini o'zgartirib sozlanadi.

SXA-10 va SXA-3 markali chigit tozalagichlar xas-cho'planning 10-12%, puch chigitlarning 14-17% va og'ir qo'shilmalarining 70-80% ini chigitdan ajratadi.

CHigit tozalagichlar ish organlarining to'g'ri ishlashini, chigit tozalash darajasini, tosh tutgichga yig'ilgan toshlarni va tsiklon kameralariga to'plangan chiqindilarni o'z vaqtida olib turish va ish unumiga qarab tozalash darajasini tekshirib turish kerak.

Kamera chiqadigan havo miqdorini to'siq bilan o'zgartirish mumkin. CHigit tozalagichning normal ishlashi uchun bu tusiqni vertikalga nisbatan  $12^{\circ}$  ga burish uchun uiing dastasini 20 mm ga surish kerak.

Ajratish kamerasingning ko'ndalang qirqimini to'siq yordamida o'zgartirib tsiklonga ketadigan qo'shilmalar miqdorini rostlash mumkin.

Toshtutgichlarga yig'ilgan chiqindilarni ikki yassi to'r (yuqori to'r ko'zları 8X15 mm pastki to'r ko'zları esa bx15mm) bilan elab ulardan normal chigitlar va chigitli paxta bo'lakchalari ajratib olinadi.

CHSP chigit tozalagich SXA chigit tozalagichga o'xshash ishlaydi. Lekin chigit keltirish va olib ketish konveyerlari o'rniga vakuum-klapanlar o'rnatilgani uchun chigit tozalagichning aerodinamik sharoitlari ancha yaxshilangan, mayda xas-chuplar 90%, puch chigitlar esa 52% gacha ajratiladi.

CHPS chigit tozalagichga chigitlar vakuum-klapan orqali berilib, keyin qiya tekislik orqali o'tib truba orqali ventilyator beradigan havo oqimi ta'siriga duch kelib, tik kanal orqali yuqoriga ko'tarilib ajratish kamerasinga tushadi. CHigit va mayda iflosliklar vertikal kanal orqali yuqoriga ko'tarilganda og'ir qo'shilmalar pastga tushib vakuum-klapan orqali tashqariga chiqariladi. Engil ko'shilmalar, puch chigitlar va chang havo bilan truba orqali tsiklonga yuborilib, sog'lom tukli chigitlar va ulardan ajratilmagan iflos qo'shilmalar kameradan pastga tushib vakuum-klapan orqali tashqariga chiqarilib konveyer bilan olib ketiladi.

1968 yildan boshlab chigitlarni tozalash uchun USM markali pnsvmatik chigit tozalagich qo'llana boshlandi. Bu chigit tozalagich boshqalarga qaraganda ixcham tuzilgan, uni ishlatish oddiy va qulay.

CHigitlar linterlar batareyasiising yig'uvchi koiveyeri bilan berilib kurakli baraban orqali chigitni so'rvuchi trubadagi teshikga berilib, ajratish kamerasinga tushadi. Havo oqimi chigitlarni yuqoriga ko'targanda og'ir jismalar shaxtaning pastki qismiga tushib ajraladi. Tozalangan sog'lom chigitlar to'siqlar bilan vakuum-klapanga tushirilib konveysr orqali kerakli erga olib boriladi va erkin tuklar, mayda iflosliklar ham puch chigitlar havo oqimi bilan ventilyator orqali tsiklonga uzatiladi.

Qo'lida terilgan I va II sort paxtalar chigitini tozalaganda USM chignt tozalagichining tozalash effekti 25%, mashinada terilgan paxta chigitini tozalagalda esa 35% gacha etadi. Og'ir qo'shilmalarini ajratish effekti toshlarning massasi 1,5-2,5 g bo'lsa 91%, 2,5-3,5 g gacha bo'lsa 99% va massasi 3,5 g dan og'ir bo'lsa 100% ga etadi.

**7.3. Linterlash jarayoni asoslari.** Jinlash jarayonidan keyin chigitdan lint va delint (tuk) nomi bilan yurutiladigan qisqa tolalar qatlami qoladi. Qayta ishlanadigan chigitli paxtaning selektsion va sanoat sortiga qarab chigitlarda jinlashdan keyin har xil miqdorda (chigitlarning boshlang'ich massasiga nisbatan) o'rta tolali paxta chigitlarida 11-17% ingichka tolali paxta chigitlarida esa 2,4-5% gacha lint va delint qoladi.

Jinlardan keyin chigit sirtida qolgan lint va delint umumiyl massasining chigitning boshlang'ich massasiga nisbatan propent hisobidagi miqdori chigitning umumiyl tukliligi deb ataladi.

Paxta lintini chigitdan ajratish jarayoni linterlash shu jarayonni bajaradigan mashinalar esa linter deb ataladi.

Paxta tozalash sanoatining boshlang'ich davrlarida liitga xo'jalik uchun foydalanilmaydigan material deb hisoblangani uchun paxta tozalash zavodlariga linterlash jarayoni kiritilmagan edi. Paxta moyi chiqaradigan zavodlarda chngitdan moy chiqarishni kamaytirmaslik uchun chigitlarni

ikki yoki uch marta lingerlash jarayoni tashkil qilinar edi. Biroq, paxtani dastlabki ishslashni rivojlanrilishi natijasida 1869 yilda birinchi linter mashinaga va 1907 yilda birinchi delinter mashipaga patent berildi.

O'rta Osiyoda birinchi linter sifatida «Karver» firmasiining (AQSH) 106 arrali linter mashinasi Kattaqo'rg'on moy zavodida o'rnatilib, shundan keyin linter mashinalari paxta tozalash zavodlarida ham paydo bo'ladi. Bu mashinalar har biri bir kecha-kunduzda 5-6,5 t chigit ishlab chigitdan 0,5-1,5% lint ajratishga ediladi. SHundan keyip chigitlar moy zavodiga topshirilib yana ikkinchi martaba linterlanib 0,5-1,5% lint olinadigan bo'ldi. 1911 yildan boshlab ayrim moy zavodlarida chigitlarni uchinchi marotaba linterlab undan yana 1 % dan ortiq lint ola boshladilar.

Linter va delinter mashinalar konstruktsiyasini va linterlash jarayonini takomillashtirish natijasida lint ishlab chiqarishni anchagina ko'paytirishga erishildi. Ilgari lint kiyimlarga va ko'rpa-ko'rpachalarga va shunga o'xhash tiqiladigan buyumlarga solish uchun ishlatilar edi, hozir esa, ayniqsa nitrotsellyuloza sanoatining rivojlanishi (XX asr boshlaridan) natijasida lintga talab oshdi. Birinchi jahon urushi davrida lint nitrotsellyuloza ishlab chiqarish uchun ko'p ishlatildi. SHu davrdan boshlab lintni nitrotsellyuloza sifatida sun'iy ipak, plastmassa va shunga o'xhash materiallar ishlab chiqarish uchun talab qilinadi. So'nggi yillarda kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida paxta lintiga bo'lgan talab juda zo'raydi.

Linter mashinalari asosiy ish organlarining konstruktsiyasi va lintni chigitdai ajratish texnologik jarayoni jnhatidan arrali jnlarga o'xshaydi.

Arrali linterlarda, arrali jnlarga o'xshab asosiy ish organi sifatida tishlari bilan lintni chigitdan ajratadigan arrali tsilindr xizmat qiladi. Lipterlarda ham jinga o'xshab fartuk, chigit tarog'i, kolosnik panjara va peshtoq bruslar bilan chegaralangap (chigit) kamerasi bor. SHu kamerada chigitlarni liitsrlash jarayonn bajariladi. Arra tishlaridan lintni ajratish uchun, o'luk va iflosliklarni ajratishni rostlovchi moslamalar bilan jnhozlangai cho'tkali barabanli yoki havo oqimi beradigan sistema bor.

CHigit kamerasiga chigitlarni bir tekisda berib turish uchun linterlash davrida chigit valigining zichligiga qarab chigitni ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan mexanizmlari bo'lgan maxsus konstruktsiyadagi ta'minlagich xizmat qiladi.

**7.4. Linter xillari va konstruktsiyalari.** 1929 yilda XLO markali birinchi arrali linterlari ishlanib, shu liptelar paxta tozalash va moy chiqarish zavodlarning o'rnatila boshlandi.

1946 yilda TSNIIXProm ilmiy izlanishlari natijasida XLF markali linter yaratildi.

1951 yilda XLF markali linter takomillashtarnlib, 160 arrali PO-160, keyinchalik esa POM-160 markali linterlar paxta tozalash zavodlarida ishlatila boshlandi.

XLO, XLM, XLF, PO-160 va POM-160 markali linterlarning asosiy kamchiligi va ularning ishini aniqroq sozlab bo'lmaslik hamda linterlash jarayonining avtomillashtirish qiyinligidir. Bundan tashqari bu linterlarning ish organlari orasidagi zichlik yaxshi bo'Imagani natijasida linter xonasida chang ko'tarilishi sababli ishchi va xizmatchilar uchun normal sanitariya va gigiena sharoitlarini yaratib bo'lmaslidadir.

Bu kamchiliklarni nazarga olib TSNIIXProm va TGSKB konstrukturлari 1960 yilda chigit va lint bo'yicha ish unumi yuqori va lint sifati yaxshiroq bo'lgan PMP-160 markali yangi linter yaratdi. Bu linter zavodlarda ko'proq ishlatilmoxqda.

Bu linterning ish kamerasi yuqorida ta'riflangan linterlarning ish kameralaridan farq qiladi. Bu kameraning og`zi kengaytirilib, ichiga diametri kattaroq (130 mm) to'zitgich o'rnatilgan. Uning aylanish chastotasi 500 ayl/min gacha oshirilgan bo'lib, chigit valigi tezroq aylantiriladi, shu bilan birga chigit valigi muayyan shaklni kabul qiladi. PMP-160 markali lintsrga yangi konstruktsiyadagi ikki barabanli ta'minlagich-tozalagich o'rnatilgan. Bu linterda linterlash jarayoni quyidagicha bajariladi. CHigitlar linterning ish kamerasiga mashinaning uzunligi bo'yicha ta'minlagich novidan bir tskisda oqib tushadi. Ish kamerasida aylanayotgan arrali tsilindr to'zitgich ta'sirida chigitlar zichlangan aylanuvchi valik hosil qiladi. Arra tishlari aylanib turgan chigit valigiga sanchilib, chigit sirtidan lint va tuklarni ajratib ularni kolosnik panjarasidan tashqariga chiqaradi.

YUqorigi soplodan puflapayotgan havo oqimi arra tishlaridagi lintnn ajratib, truba bo'ylab batareya kondenseriga etkazib beriladi.

CHigitlar lenti ma`lum darajada olingandan keyin ular aylanayotgan valikdan ajralib, kolosnik ustiga tushadi, so`ngra pastga sirpanib, taroq va kolosniklar orasidan o'tib, yig`ish konveyeriga tushadi va navbatdagi ishlov berish mashinalariga yuboriladi.

Lintning arra tishlardan ajratish vaqtida ajralgan o'luk va mayda xas-cho'plar konveyer orqali mashinadan tashqariga chiqariladi.

Likterning ish organlari uchta asinxron elektromotor bilan harakatga keltiriladi.

Arrali tsilindr vali quvvati 10 kVt, aylanishi chastotasi  $1460 \text{ min}^{-1}$  bo`lgan AO2-52-4 tipidagi elektromotordan V-2240 ponasimon tasmalar orqali harakatga keltiriladi. To`zitgich esa quvvati 7,5 kVt, aylanish chastotasi  $1460 \text{ min}^{-1}$  bo`lgan AO2-51-4 tipidagi ikkinchi elektromotordan B-2800 ponasimon tasmalar orqali aylantiriladi. To`zitgich valining ikkinchi tomonidagi shkivdan harakat IVA markali impulsli variatorga, bundan esa ta`minlagichning valiga beriladi.

O'luk konveyeri quvvati 0,6 kVt, aylanish chastotasi  $1350 \text{ min}^{-1}$  bo`lgan AO2-P-4 tipidagi uchinchi elektromotordan reduktor orqali harakat oladi. Xas-cho'plar konveyeri esa harakatni A-2800 ponasimon tasma orqali o'luk konveyeridan oladi.

Linterning ish kamerasi elektropereklyuchatelli ikki tomonlama ishlaydigan pnevmotsilindr bilan ko'tariladi va tushiriladi. Mashinani boshqarish (dvigatellarni yurgizish va to'xtatish, ish kamerasini ko'tarish va tushirish) mashinaning o'zidagi yoki maxsus pultdan bajariladi.

1981 yilda TSNIIIXprom chigit va lint bo'yicha ish unumi oshirilgan va lint sifati yaxshilangan 5LP markali linterni yaratdi.

**7.8. Linterlarni batareyaga o'rnatish.** Paxta zavodlarida linterlar ham jinlar kabi har batareyaga 4-8 tadan o'rnatiladi. Linterlar batareyasi deb umumiy ta`minlash va taqsimlash hamda tayyor mahsulotni (lint va linterlangan chigitni) mashinalardan olib ketish uskunalarini bilan jihozlangan linterlar gruppasiga aytildi.

Literlarga berilayotgan chigitlarning nechanchi marta linterlanishiga qarab linterlar batareyasi birinchi linterlash, ikkinchi linterlash va uchinchi linterlash batareyasi deb ataladi. Hamma linterlash batareyalari bir xonaga joylashgan bo'lisi yoki birinchi linterlash batareyasi jin tsexida joylashgan bo'lib, ikkinchi va uchinchisi zavod sharoitiga qarab boshqa xonada joylashgan bo'lisi mumkin.

Agar linterlash uchun har qaysi soatiga 10-11 kg tola beradigan bir batareya jinlardan (to'rtta 80 arrali jin) kelayotgan chigitlar miqdori ishlab chiqarilayotgan toladan 1,7 marta ko'p deb hisoblasak, linterlash tsexiga har soatda keladigan chigitlar miqdori  $11*80*1,7=1500 \text{ kg}$  bo'ladi.

160 arrali linter soatiga 1000-1100 kg chigit ishlab beradi deb hisoblasak, birinchi va ikkinchi linterlash uchun bir batareya jinga har qaysisi olti mashinadan ikkita batareya linter o'rnatish kerak bo'ladi.

Uchinchi marta linterlash uchun har linter soatiga 800-900 kg chigit o'tkazishi nazarga olinsa, har bir jinga ikki linter, ya`ni batareyada sakkizta linter o'rnatish kerak.

SHunday qilib, to'rt jinlik bir batareyadan chiqayotgan chigitlarni birinchi marta linterlash uchun 6 linter, ikkinchi marta linterlash uchun 6 linter, uchinchi marta linterlash uchun esa 8 linter, hammasi bo'lib 20 linter urnatish kerak bo'ladi.

#### Nazorat savollar:

1. CHigitlarning iflosligi va ularni tozalashning ahamiyati?
2. CHigit tozalagichlar to'g`risida gapirib bering?
3. Linterlash jarayoni asoslari?
4. Linter xillarini bilasizmi?
5. Linterlarning konstruktсиyalari to'g`risida gapirib bering?
6. Linterlarning muhim uzel va detallarini tushuntiring?
7. Linterning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tugrisida gapirib bering?
8. Lint sifati nimaga bogliq?
9. CHigitni ko'p marotaba linterlash nimaga olib keladi?
10. Linterlarni batareyaga qanday o'rnatiladi?

## 8-Ma`ruza. Urug`lik chigit tayyorlash texnologiyasi.

**Reja:**

- 8.1. Uruglik chigitlarga kuyiladigan talablar.
- 8.2. CHigitni delinterlash.
- 8.3. Tukli va tuksizlantirilgan chigitlarni tayyorlash texnologiyasi.
- 8.4. Paxta zavodlarida urug`lik chigitlarni ishlash.
- 8.5. Uruglik chigitni tashish va saqlash.

**Adabiyotlar:** 2,3,4,9,10,14

**Tayanch iboralar:** Linter, ta`minlagich, momiq, lint, delint.

**8.1. Uruglik chigitlarga kuyiladigan talablar.** Mamlakatimizda urug`lik chigitni tayyorlashga alohida e`tibor beriladi. 2003 yilda 180 ming tonna urug`lik chigit tayyorlangan. Paxta etishtirishda ilg`or texnologiyani tatbiq etish, jumladan paxtachilikda chigitlarni aniq qadash mashinalarini joriy etish natijasida yildan-yilga urug`lik chigitning hektar boshiga kam sarf qilish imkoniyatini bermoqda. Natijada 2004 yilga kelib Respublikamizda 124 ming tonna atrofida urug`lik chigit tayyorlangan.

Uz RST 663-96 bo'yicha ekish uchun g`o'zaning rayonlashtirilgan yangi istiqbolli navlarining elita hamda birinchi (R1), ikkinchi (R2) va uchinchi (R3) avlodli chigitlari ishlatilishi kerak.

Urug`lik chigitning nav tozaligi 8.1-jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak. CHigitning unuvchanligi buyicha 8.2-jadvalda keltirilgan nav tozaligi buyicha sinfga bo'linadi.

Uruglik chigit ishlab chikaruvchi va talabgorlar (brigada, fermer xujaligi) uzaro kelishuviga muvofiq urug`lik chigit bo'yicha 8.3 – jadvalda keltirilgandek o'sib chiqish quvvati bo'yicha ham tavsiflanishi mumkin.

8.1 - jadval

CHigit avlod	Nav tozaligi, %
Elita	100
R1	99
R2	98
R3	96

8.2 - jadval

Sinf	Unuvchanlik, kamida %
I	95
II	90
III	85*

8.3- jadval

Kichik sinf	O'sib chiqish quvvati, kamida, %
A	90
B	80
V	70
G	70 dan kam

Urug`lik chigit ekishga tayyorlash buyicha quyidagilar bo'linadi:

- tukli (linterdan keyin);
- mexanik usulda tuksizlantirilgan;
- kimyo-mexanik usulda tuksizlantirilgan;

Namlik (namlikning massaviy ulushi), ifloslik (mineral va organik ifloslik aralashmalarining massaviy ulushi), tuklilik, mexanik shikastlanganlik va qoldiq tolalik ko'rsatkichlari buyicha urug`lik chigit 8.4-jadvalda keltirilgan me`yorlarga munosib bo'lishi kerak.

Tukliliqi bo'yicha tuksizlantirilgan chigitlar tegishli tartibda tasdiqlangan namunalarga mos kelishi lozim.

8.4 - jadval

Ko'rsatgichlar nomi	Me`yorlar, %					
	Tukli chigitlarga			Tuksiz chigitlarga		
	1 katego riya	2 katego riya	3 katego riya	1 katego riya	2 katego riya	3 katego riya
Namlik, ko'pi bilan	9,0	10,0	10,0	9,0	10,0	10,0
Ifloslik, ko'pi bilan	0,5	0,6	0,7	0,2	0,3	0,3
Tukliligi, ko'pi bilan	-	-	-	0,3	0,4	0,5
Mexanik shikastlan- ganligi, ko'pi bilan	5,0	6,0	7,0	6,0	7,0	8,0
Qoldiq tolaligi, ko'pi bilan:						
Tukli chigitlar uchun	0,8	0,8	0,8	-	-	-
Tabiiy tuksizlan- tirilgan chigitlar uchun	0,4	0,4	0,4	-	-	-

Tuksizlantirilmagan urug`lik chigitlarning ekish uchun muljallangan fraktsiyasi o'lchamlari bo'yicha bir tekisliligi 94 % kam bo'lmashigi, to'kilgan dori aralashmasining mavjudligi esa 0,5 % dan oshmasligi kerak.

**8.2. CHigitni delinterlash.** CHigitlarni uch marta linterlagandan keyin ham chigitlarda kalta tola va tuklar ko'p miqdorda (6-8% gacha) qoladi.

Urug`lik chigitlarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri ularning tuksizlik darajasi hisoblanadi, chunki tukli urug`lik chigitlarni diskli apparatlar bilan umuman ekib bo'lmaydi. Urug`lik chigitlarni uyalarga aniq miqdorda tashlab zkish uchun ularning qoldiq tukliligi 0,2% dan oshmasligi zarur.

Buning ustiga sun`iy tolalar ishlaydigan kimyo sanoatining lint va delintga talabi kundan-kunga o'sib borishi paxta tozalash sanoatidan lint va delintni ko'proq chiqarishni talab qilmoqda.

So'nggi vaqtargacha paxta zavodlarida chigitni tozalab tuksizlantirish protsessi linter arralari sonini 160 gacha ko'paytirash, shuningdek chigitlarni uch marta linterlash yo'li bilan amalga oshirilgan. Bunda bir jin hisobiga betta linter o'rnatilsa ham, chigitlarda 6-8% kalta tuklar qoladi.

SHuning uchun TSNIIXProm va paxta tozalash sohasidagi TGSKB va boshqa ilmiy muassasalar chigitni tuksizlantirishning yangi samarali usullarini topish ustida ishlamoqdalar.

CHigitlarda qoldiq tuklarni olish protsessi delinterlash, olingan kalta tuklar delint, mashinalar esa delinter deb ataladi.

Keyingi yillarda MPM-1, ZSOM, 4SOM, LKX, 2LO va boshqa markali delinterlar yaratildi. Urug`lik chigitlarni tuksizlantirish uchun 4SOM va texnik chigitlar uchun esa 2LO markali mashinalar yaxshi natija bermoqda.

4SOM chigit tuksizlantirish mashinasi ketma-ket ishlaydigap ikkita ish kamerasidan iborat. Har bir kamera ichida ikkita cho'tkala baraban qoplangan to'rli kojux bor. Kojuxning yuqori qismida uzunasiga joylashgan nov chigit kamerasa vazifasini bajaradi.

CHO'tkali barabanlarning xammasi bir tomoiga 1100 min<sup>1</sup> chastota bilan aylanadi.

Ishlangan chigitlarni yuqori kameradan pastki kamsraga o'tish yo'lida va pastki kameradan chiqish yo'lida zaslondalar o'rmatilgan bo'lib, ular kameralardan chiqayotgan chigitlarning qoldiq tuklilagini sozlash uchun mo'ljallangan.

Ishlanadigan chigitlar mashinaga truba orqali tushib chigit kamerasi va barabanlar bilan to'rli kojux orasini to'ldiradi. Barabanlar aylanganda ular bilan birga chigit valigi ham aylanib yaia kameraga qaytadi va sekin-asta barabanlar oxirigacha surilib pastki kameraga tushadi. SHu davrda chigitlardan lint va delint ajratiladi. CHO'tkali barabanlar ikkita elektromotor bilan aylantiriladi. CHigitlardan ajratilgan lint va delintlar to'rla kojuxdan markazdan qochirma kuch ta'sirida tashqariga havo kamerasiga tashlanadi, so'ngra havo oqimi bilan tsiklonga borib, havodan ajratiladi.

CHO'tkali barabanlar 80-100 soat ishlagandan keyin cho'tka simlarining uchi o'tmas bo'lib qolganligi uchun ularni teskari tomonga aylantirib ishlatilsa ham bo'ladi. SHunday qilib cho'tkali barabanlarniig ish qobiliyatini qaytadan tiklash mumkin.

Mashinadan lint va delintni konkret sharoitlarga qarab uning ikkala yon tomonidan havo bilan tortib olish mumkin.

YUqori sektsiyadan chiqadigan lint va delint iflosligi 7-9%. Pastki sektsiyadan chiqadigan lint va delintning iflosliligi 30-35% bo'lib, ular alohida to'planadi.

2LO o'qli linter. Bu mashina quyidagi asosiy qismlardan iborat; korpus, ish kamerasi, ikkita arrali tsilindr, ta`minlagich, cho'ktirish kamerasi, pnevmotransport va markaziy lint trubasi.

Ish kamerasida joylashgan 775 min<sup>1</sup> chastota bilan bir tomonga aylanadigan ikkita arrali tsilindr chigitlarni delinterlash protsessini bajaradi. Arrali tsilindrlar diametri 270 mm li arrali disklardan ularning oralariga eni 6-7 mm li po'lat lentadan gofrli qilib yasalgan qistirma qo'yib yig'ilgan. Arrali tsilindrlar ish qismining uzunligi 1900 mm.

PMP-160 markali linterlarda ikki marta linterlangan chigitlar USM markali chigit tozalagichda tozalangandan so'ng taqsimlovchi shnek yordamida ta`minlagichlar shaxtasiga tushiriladi. Ta`minlagichning valiklari chigitlarni mashinaga ma'lum miqdorda uzatib beradi.

Ta`minlagich chigitlarni mashinaning ish kamerasiga bir tomondan beradi. SHuning uchun chigitlar arraga ergashib, aylanadi va val bo'ylab suriladi. Lint trubasida siyraklanish natijasida paydo bo'ladigan havo oqimi aylanayotgan arrali tsilindrlar uloqtirib uzatadigan chigitlar orasidan o'tishi sababli ulardan ajralgan lint va delintni tortib olib kamera orqali o'tkazadi va pnevmo separatorlar kolosniklarida tozalab trubaga uzatib shinadan chiqaradi. CHigitlar arrali tsilindr o'qi bo'ylab surilib asta-sekin delintdan ajrab tuksizlanadi va truba orqali mashinadan tashqariga chiqib ketadi. Arrali tsilindrlar elektromotordan harakatga keltiriladi.

**8.3. Tukli va tuksizlantirilgan chigitlarni tayyorlash texnologiyasi.** Urug`lik tukli chigitlar tayyorlash texnologiyasi quyidagi etaplardan iborat: chigitni iflos aralashmalardan tozalash, sortirovka qilish, zararsizlantirish, qadoqlash va xaltalarga solish.

CHigitni iflos aralashmalardan tozalash USM-A rusumli pnevmatik chigit tozalagich qurilmasida va MS rusumli mexanik chigit tozalagichda amalga oshiriladi.

CHigitni sortirovka kilish SPS rusumli sortirovkalash mashinasini (mexnat unumidorligi – 4-6,5 t/soat) da, zararsizlantirish – SPS-3M (mexnat unumidorligi – 5 t/soat; zararsizlantiruvchi dori sarfi 7 kg/soat), 20SX yoki shunga uxshash boshka mashinalarda amalga oshiriladi. Qadoqlangan chigitli xaltalarni 33-EM rusumli tikuv mashinalari yordamida tikiladi.

Tuksizlantirilgan chigitni tayyorlash texnologik jarayoni quyidagi etaplarni o'z ichiga oladi: tukli chigitlarni tozalash va sortirovka qilish, mexanik tuksizlantirish, kalibrash (chigitning o'lchamlari bo'yicha guruxlarga ajratish), zararsizlantirish va qadoqlash.

CHigitni tozalash va sortirovka qilish yuqorida keltirilgan tozalash va sortirovkalash mashinalarda amalga oshiriladi. CHigit OS yoki 4SOM rusumli mashinalar (chigit buyicha mehnat unumidorligi 400 kg/soat) da tuksizlantiriladi. Tuksizlantirilgan chigitlarni o'lchamlar buyicha kalibrash uchun KSM-1-1,5 rusumli uskunasi qo'llaniladi.

Keyingi yillarda chigitlarni kimyoviy usul bilan tuksizlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. CHigitlarni kimyoviy tuksizlantirish ularni shikastlanishidan saqlaydi. Natijada qadalgan chigitlar bir tekisda nuqsonziz unib chiqadi.

**8.4. Paxta zavodlarida urug`lik chigitlarni ishlash.** Paxta tozalash sanoati har yili 350 ming tonna turli seleksion sortdagi urug`lik chigit tayyorlaydi. Urug`lik chigitlarni markazlashtirilgan ravishda taysrlash ishlariga quyidagi protsesslar kiradi: chigitlarni xas-cho'plardan, puch va ezilgan chigitlardan tozalash; to'liq tuksizlantirib, lint va delintdan ajratish; ma'lum o'lchamdagagi fraktsiyalarga ajratish, chigitlarni urug`likka yaraydigan xillarini gommoz va ildiz chirish kabi kasallinklardan, zararkunanda va bakteriyalardan saqlash uchun kimyoviy dorilar bilan ishslash.

1959 yildan boshlab paxta tozalash zavodlarida urug`lik chigitlarni qabul qilingan texnologiyada ishlab berish uchun maxsus tsexlar qurila boshlandi. Zavodlarda ishlangan urug`lik chigitlarni paxta ekuvchi xo'jaliklarga paxta tayyorlash pukktlari orqali tarqatish uchun maxsus qog'oz qoplarga joylab qo'yiladi.

Urug`lik chigitlar ishslash uchun tukliligi 8-9% bo'lgan holda ikkinchi linterlashdan keyin maxsus tsexga berilib, undan chiqqan chigitlar tukliligi 0,2%, shikastlangan chigitlar miqdori esa 4% dan oshmagani holda o'lchamlari bo'yicha sortlarga bo'lingan bo'lishi kerak.

Urug`lik chigitlar oddiy pnevmatik tozalagichlardan o'tkazib xas-cho'plardan tozalaladi, 4SOM markali delinterlash mashinasida tuksizlantiriladi, so'ngra KSM-1,5 kalibrlash mashinasida o'lchamlari bo'yicha fraktsiyalarga ajratiladi. Tuksizlantirilgan urug`lik chigitlarni aniq ekuvchi seyalkalarning diskli apparatlari bilan ekish mumkin bo'lsin uchun ular o'lcham fraktsiyalari bo'yicha saralanadi. Kalibrlash mashinasini ikki kismdan: tuksizlaptirilgan chigitlarni havo oqimida solishtirma og'irligi bo'yicha saralaydigan pnevmatik qismi (aspirator) va ikki xil urug`lik fraktsiya olish uchun chigitlarni qalinligi va eni bo'yicha saralovchi kalibratordan iborat. Mashinaning barcha ish organlari ramaga o'rnatilgan. Tuksizlantirilgan chigitlar bunkerdan ta'minlash valiklari yordamida havo kanaliga uzatiladi. Puch chigitlar va boshqa engil aralashmalar ventilyator tortayotgan havo oqimi bilan kanal bo'ylab yuqoriga ko'tariladi va kamera tubiga cho'kadi. SHnek puch chigit va engil aralashmalarni mashinadan tashqariga chiqarib tashlaydi, kameraga cho'kmagan chang, paxta momiqlari ventilyator orqali tsiklonga haydaladi. Kanaldan puch chigitlarni ajratib olish miqdori zaslonda yordamida o'zgartiriladi.

Etilgan to'q chigitlar yuqoriga tortilayotgan havo qarshilagini engib kanaldan pastga tushadi va bunker orqali yukorigi g'alviroga tushadi. Ta'minlash valigi ishqalash cho'tkasi bilan birgalikda ishlab, chigitlarni havo kanalining eniga tekis taqsimlaydi va uzatiladigan chigitlar miqdorini variator yordamida 2000 kg/soat gacha o'zgartirishga imkon beradi. YUqorigi g'alvirda ikki xil ko'zlar bor; yuqori qismidagi to'g'ri to'rt burchak shaklidagi cho'zinchoq teshiklar eni 3,75 mm; pastki yumoloq ko'zlar diametri b mm. Pastki g'alvir ko'zlarining diametri 5,25 mm. YUqorigi va pastki g'alvirlar va shutunli ekstsentrikli val yordamida ilgarilama-qaytma harakatga keltiriladi. G'alvirlar tagida g'alvir ko'zlarini tozalaydigan inertsion tozalagichlar bor. Yo'g'onligi 3,75 mm dan kichik bo'lган chigitlar yuqorigi g'alvir ko'zlaridan to'kilib, mayda chiqindiga ketadi. CHigitlar 3,75 mm ko'zli g'alvir sirtidan yumaloq 6 mm ko'zli g'alviroga o'tadi. 6 mm dan yirik chigitlar g'alvir sirtidan yirik chiqindilarga ketadi. Mayda va yirik urug`lik fraktsiyalar g'alvirning 6 mm li ko'zlaridan to'kilib, pastki diametri 5,25 mm ko'zli g'alviroga tushadi. Qalinligi 3,75 mm dan yo'g'onroq chigitlar galvir ko'zlaridan to'kilib, mayda urug`lik fraktsiyasiga ketadi. Yirik urug`lik fraktsiya (eni 5,25-6,50 mm) pastki galvir sirtidan pastga tushadi.

Paxtadan yaxshi hosil olish maqsadida urug`lik chigitlar qishloq xo'jalik zararkunandalari va kasalliklariga qarshi dorilar bilan ishlanadi.

G'o'zalar gommoz, ildiz chirish va tuproq ostida chigitlarni chirib ketishdan va zararkunandalardan saqlash uchun tubandagi dorilar bilan ishlanadi: misning uch xlorfenolyati (TXFM), terametil-tiuramdisulfid (TMTD), geksaxloran (GXTSG). kombinatsiyalangan dori — fantiuram bilan ishlanadi.

TXFM dorisi — 20% ta'sir qiluvchi modda va 80% to'ldiruvchi moddalardan iborat bo'lib to'q qizil rangdagi changsimon poroshokdan iboratdir. Uning hidi karboi kislota hidiga o'xshaydi, suvda erimaydi va uzoq vaqt o'zgarmasdan saqlanadi.

TMTD— ishlaydigan modda — tetrametiltiuramdisulfid 50% li, to'ldiruvchi modda — koalin 37%, sulfidli ishqor 10%, kazein 2% va ohak kukuni 1% ni tashkil qiladi. Keyingi vaqtarda chiqarilayotgan dorining 30% ini asosiy ta'sir qiluvchi modda va qolganini to'ldiruvchi va yopishtiruvchi moddalar tashkil qiladi.

Fentiuram — oldingi ikki zaharli moddalar asosida yaratilgan bo'lib, 40% tetrametiltiuramdisulfidi, 10% misning uchxlorfenolyati, 15% geksaxloran gamma-izomeri, 5% sulfit-spiriti bardasi va 0,5% OP-7 sirta aktiv modda va qolgani to'ldirgich, kaolin va aerosillardan iborat.

CHigitlarni bu dori bilan ishslash quruq yoki yarim ho'l usulda va chigit sirta ustiga shu dorilar quyuq eritmasini surish yo'li bilan ham bajarilishi mumkin. Urug`lik chigitlarni dorilar bilan ishslashni o'z vaqtida, ya`ni ekishga ikki haftadan ko'p vaqt qolganda bajarish kerak.

Tukli urug`lik chigitlarni dorilash uchun SP-ZM markali mashina ishlatiladi. Bu mashina urug`lik chigitlarni misning uchxlorfenolyati bilan quruq usulda dorilash uchun quyidagicha ishlatiladi: dorilanadigan chigitlar mexanik transportyor yordamida ta'minlash bunkeriga beriladi. Bunkerdag'i valiklar chigitlarni vintli konveyerga bir tekisda uzatadi. Bu konveyer oxirida dorini kerakli miqdorda o'lchab beradigan apparat o'rnatilgan. CHigitlar kerakli miqdordagi dori

qo'shilgan holda aralashtiruvchi barabanga tushib, uning vint chizig`i bo'ylab joylashgan kuraklarn bilan aralashtiriladi. Dori bilan aralashgan chigitlar bo'shatuvchi konveyerga tushib, so'ngra vertikal konaeyer 5 bilan qoplarga joylash uchun uzatiladi. Ventilyator mashinadan ifloslangan havoni tortib oladi.

O'rta tolali va ingichka tolali chigitlar tuksizlantirilgach, ularni ho'llab dorilash uchun 20SX mashinasi ishlataladi. Bu usulda chigitlarni dorilash uchun ularnn oldin suv bilan namlanib kukun dori sepi, yaxshilab aralapgtiriladi.

Mashina aralashtiruvchi shnek, purkagich, nov, chigit tozalagich, shaxta, emulsiya barabani, quruq dori bunker, dori dozatori, drajerator barabani, zichlovchi tayanch, quritish kamerasi va lentali transporterdan iborat.

**8.5. Uruglik chigitni tashish va saklash.** Urug`lik chigitni tashish va saqlashda O'zRST 663-96 standart talablariga rioya qilinishi shart. Qoplangan urug`lik chigitini tashish uchun turli xildagi usti yopiq, tegishli qoidalarga javob beruvchi transport vositalaridan foydalaniladi. Agar chigit ochiq transport vositalarida tashilsa qoplarning usti brizent bilan yopilishi kerak. Dorilanmagan R1, R2 avlodlarning chigitini uyulgan holda ham tashish mumkin.

CHigit dorilash tsexi paxta zavodi xududida joylashgan bo'lsa (bunda bu tsex zavod bosh korpusidan 100 m uzoqlikda joylashtirilgan bo'lishi kerak), hamma avlod chigitlarini bu tsexga uzatish uzlusiz ravishda yoki boshqa transport vositasida uyulgan holda amalga oshiriladi. Bu holda chigitlarning to'kilishiga va shikastlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Urug`lik chigit quruq va yaxshi shamollatib turiladigan omborlarda saqlanadi. Ochiq maydonchalarda urug`lik chigit saqlash man etiladi.

Urug`lik chigitning R2, R3 avlodini dorilashga qadar uyulgan holda atrofiga shu chigitdan qoplanib tusiq yasalgan holda saqlashga ruxsat etiladi.

Tuksizlantirilgan urug`lik chigitni qoplangan holda saqlash mumkin emas.

Urug`lik chigit joylashgan qoplar tudalarda alohida – alohida qilib yog`och tagliklar ustida taxlanib saqlanadi. Har bir urug`lik chigit tudasiga pasport osilgan bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatilgan bo'ladi:

- mahsulotning nomi;
- tuda tartib raqami;
- seleksiya navi;
- avlodi;
- chigit kategoriyasi;
- chigit sinfi;
- dala guruhi;
- tudaning haqiqiy va konditsion massasi, kg;
- hosil yili.

Taxlangan uyumlar ulchamlari bo'yicha quyidgilardan oshmasligi kerak (m):

	uzunligi	eni	balandligi
tukli chigitlarga	20	15	3
tuksiz chigitlarga	18	12	3

Uyumlar orasidagi masofa, hamda uyumlar va xona devorlari orasidagi masofa 1 m dan kam bo'lmasligi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Nima uchun chigitlar linterlanadi?
2. Linterlash natijasida qanday maxsulotlar olinadi?
3. Linterlash jarayoni qaysi mashinalarda amalga oshiriladi?
4. Nima uchun chigitlar regeneratsiya qilinadi?
5. Texnik chigitlar sanoatning qaysi sohasida ishlataladi?
6. Jinlar va linterlar konstruktivalar o'rtasidagi farklarni aytib bering.
7. Urug`lik chigitlarga quyiladigan talablar nimalardan iborat?
8. Urug`lik chigitni iflos aralashmalardan tozalash qanday mashinalarda amalga oshiriladi?

## **9-Ma`ruza: Kanopni tayyorlash va saqlash texnologiyasi.**

**Reja:**

- 9.1. Kanop haqida umumiy ma`lumotlar.**
- 9.2. Kanop tolalarini baxolash.**
- 9.3. Kanop xom ashynosini tayyorlash.**
- 9.4. Kanop xom ashynosini saqlash.**

**Adabiyotlar: 1,5,6,17**

**Tayanch iboralar:** kanop, kanop poyasi, lub tola, qop-qanor, arqon, brezent, g`aram.

**9.1. Kanop haqida umumiy ma`lumotlar.** Kanop poyasida 17-18% to`qishga yaroqli tola hosil qiladi. Kanopning tolesi rangsiz, tiniq, lekin dag`al bo`ladi. Bu tola qop-qanor, arqon, brezent, uy jihozlari uchun gazmollar, o`rash uchun ip va boshqa buyumlar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Kanop urug`i tarkibida 18-20% moy bo`ladi. Moy, lak-bo`yoq sanoatida,sovun tayyorlashda ishlatiladi. Hindistonda lampa moyi sifatida ishlatiladi.

Kanop yovvoyi holda Janubiy Afrikada uchraydi. Uning vatani Hindiston va Janubiy Afrika hisoblanadi. Kanop ko`proq Hindiston, Eron, Xitoy, YAvA va Sumatra orollarida, Afrikada, Amerikada (AQSH, Braziliya, Kuba va boshqalar) ekiladi.

Kanop 1915-1916 yillarda SHimoliy Kavkaz va Turkiston sinash stantsiyasida tajriba sifatida ekila boshlandi. O`zbekistonda 1927 yildan boshlab ekib kelinadi. Kanop hozirgi vaqtida O`zbekistonda, Qirg`izistonda, SHimoliy Kavkazda ekiladi.

Kanop o`rtacha bir gektar erdan 100-120 ts poya va 4-5 ts urug` beradi. Lekin yuqori agrotexnikani qo`llash natijasida kanopda 150-180 ts ko`k poya, 8-9 ts urug` olish mumkin.

Kanop gulxayridoshlar oilasiga mansub bir yillik o`simlikdir.

Kanop namga, haroratga va yorug`likka talabchan, qisqa kunli o`simlik hisoblanadi. Transpiratsion koeffitsienti 580-700 birlikka teng. Kanop o`simligi issiqsevar hisoblanib, urug`lari 10-12° issiqlikda unib chiqqa boshlaydi, lekin qulay harorat 20° hisoblanadi. Sovuqqa chidamsiz, 1,0-1,5° sovuq maysalarga kuchli ta`sir ko`rsatib, ularni nobud qiladi. Kanopning o`sishi va rivojlanishi uchun eng qulay harorat 23-25° hisoblanadi. Maysalar hosil bo`lgandan so`ng 35-40 kun davomida kanop juda sekin o`sadi. Bu davrda uning ildizi yaxshi rivojlanib shakllanadi va shundan so`ng kanop tez o`sgan holda sutkalik o`sishi 4-5 sm ni tashkil etadi. O`suv davri uning nav va agrotexnikasiga qarab 130-140 kunni tashkil qiladi. Kanop yorug`lik etishmagan erda past va nimjon bo`lib o`sadi.

Kanop tuproqqa talabchan o`simlik bo`lib, sizot suvlari 80-100 sm chuqurlikda joylashgan sho`rlanmagan chirindi moddalarga boy o`tloqi va o`tloqi-botqoq tuproqlarda yaxshi o`sadi.

O`zbekistonda kanopning «Kuban-338» va «3876» navlari ekiladi.

Bozor sharoitida respublikamizda kanop hom ashynosiga bo`lgan talab va takliflardan kelib chiqgan holda uni etishtirish, qayta ishslash va sotish miqdorlarini to`g`ri belgilash juda katta ahamiyat kasb etmokda. Hozirgi kunda faqat Toshkent viloyatining YUqori CHirchiq, O`rta CHirchiq va Quyi CHirchiq tumanlari xo`jaliklarida ekiladi. Ma`lumki, kanopning poyasi po`stlog`idan tola olinadi. Kanop tolesi oq rangli, yumshoq, juda toza va pishiq bo`ladi. SHuni ta`kidlash kerakki, kanop strategik ahamiyatga ega bo`lib, pishiqligi, nam tortmasligi bilan boshha texnik o`simliklardan ajralib turadi. SHuning uchun ham kanopdan tayyorlangan qoplarda un va un mahsulotlari, shakar, qand, kraxmal, bo`yoqlar tashiladi va saqlanadi. Bundan tashqari kanop tolasidan har xil iplar, yonginga chidamli qo`lqoplar hamda brezent tayyorlanadi. Uning yoqori sifatli tolesi mebel matolari, poyandoz, tortqichlar, parashutsozlik va mebel sanoatida, gidroliz, tamaki korxonalarida ishlatiladi. Kanop urug`idan texnik moy va spirt olinadi. Bu moy eng oliv navli moy bo`lib, undan og`ir sanoatda va bo`yoq olishda keng foydalaniladi, shuningdek kanop po`stlog`i shilib olingandan so`ng, chiqindiga chiqarib tashlanadigan o`zagi, bargi va ko`sakchalari engil sanoatda shakl berish, plita taxtachalar, mebel va kursilar hamda shkaf servantlar tayyorlashda ishlatiladi. CHiqindiga chiqgan tuponi esa qishloq xo`jaligida organik o`g`it sifatida qo`llaniladi. O`z navbatida kanop o`simligidan pektin moddasi olinib, oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi. Binobarin pektin moddasi boshqa o`simliklarda 1,0-1,5 foiz olinsa, kanop o`simligidan 3,0-4,0 foiz olinadi. Afsuski respublikamizda oziq-ovqat sanoati ehtiyojlari uchun pektin moddasi chetdan

valyuta hisobiga olinmoqda. Vaholankn jahon bozorida pektin moddasining 1 tonnasi 2 mln. AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. Kanop o'simligining xususiyatlaridan yana biri undan tsellyuloza olinishidir. Kanop poyasi tarkibida 50 foiz, tolasi tarkibida 60 foiz tsellyuloza mavjudligi tajribalarda isbotlangan. YA`ni bir gektar kanopzor hisobiga 15 tonna tsellyuloza olish imkoniyati mavjud. Umuman olganda esa kanop hom ashysi va tolasidan 23 turdag'i mahsulot tayyorlanadi.

Sobiq ittifoq davrida O'zbekiston nafaqat paxta, balki kanop xom ashysi manbai ham hisoblangan. Jumladan Toshkent viloyatida kanopni qayta ishlovchi 11 ta zavod 90-yillargacha to'la quvvat bilan ishlab, yiliga 33-37 ming tonna yuqori sifatlari uzun va qisqa tola chiqargan. Ishlab chiqargan tolaning 75 foizi chet mamlakatlarga eksport qilingan. Keyingi yillarda esa tarmoq taraqqiyotiga e'tiborning nihoyatda susayishi natijasida kanop etishtirishga ixtisoslangan xo'jaliklar soni va ekin maydonlari keskin kamayib ketdi. Masalan. 1990 yilda O'zbekiston Respublikasida 8 ming ga maydonda kanop etishtirilgan bo'lsa, 2001 yilda esa 1236 ga maydondagina kanop etishtirilgan halos. Ko'rinish turibdiki, kanopni qayta ishlash texnologayasini takomillashtirish, eng yangi texnikani joriy qilish, sermehnat ishlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish soxasida keng miqyosda ilmiy tadqiqot ishlar olib borilishi kerak.

**9.2. Kanop tolalarini baxolash.** Kanopni dastlabki qayta ishlash zavodlari hom ashyonini dehqon shirkat va fermer xo'jaliklaridan oladi. Birlamchi ishlov berilgan mahsulotlarni esa to'qimachilik sanoati korxonalariga yuboradi. Bunda har ikkala tomon ham davlat standartlari talablariga asoslanib barcha ishlarini amalga oshirishlari juda muxim hisoblanadi.

Har qanday hom ashyo yoki yarim fabrikatni baholashdagi kabi, tolali matolarni baholashda asosiy maqsad uning qiyamatligini aniqdash, ya'ni zamonaqiy yangi texnikadan foydalanilganda o'sha tolali matodan qancha va qanday sifatlari mahsulot olish mumkinligini aniqlashdir. Bu ish korxonalarning ishini rejalashtirish va shplab chiqarish jarayonlarini texnik nazorat qilishni, eng qulay, texnologayani tanlashni osonlashtiradi. Hom ashydandan tayyorlangan mahsulotning sifat xususiyatlarining majmuasiga qarab baholash, bajarilish usuliga qarab instrumental yoki organoleptik usulga bo'linadi. Hom ashydandan tayyorlangan mahsulotga qarab baholash texnologik baholash deb ataladi. Kanop poyasi va ko'k po'stloqni baholashda, asosan, undan olinadigan uzun tolaning sifati xamda miqdori e'tiborga olinadi. Bu esa juda ko'p omillarga bog'liq. Masalan, ekish va parvarish vaqtida turli joylarda joylashgan hamma maydondagi kanop o'simligiga sharoitlarni bir xilda yaratib bo'lmaydi. SHuning uchun kanop poyasi har xil morfologik belgilarga ega bo'ladi va uni baholashda asosiy poyaning uzunliga, yo'g'onligi va rangi e'tiborga olinadi. Uzun kanop poyasida tola to'plamlari eng zinch, pishiq va elementar tolalari uzun bo'ladi. SHuning uchun, odatda uzun poya yuqori baholanadi. Tola miqdori va sifatiga qarab poyaning yo'g'onligi uzunligiga teskari proporsional bog'langan bo'ladi. Juda yo'g'on poyalardan kam miqdorda, sifatsiz tola olinadi. O'rtacha ingichkalikdaga poyadan olinadigan sifatlari umumiy tola miqdori ko'p bo'ladi. Zavodga olib kelinadigan poya yoki ko'k po'stloqning texnologik bahosi ularni topshirishga tayyorlanishiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtida uzun tola sifatining pastligi va miqdorining kamligi hom ashyoning xar xilligi natijasida kelib chiqmoqda, chunki xar xil xususiyatlari poya va po'stloqlarga mos tushadigan texnologik rejimlar yaratish qiyin, shuning uchun kelajakda ilmiy-tekshirish tashkilotlari ushbu muammoni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Topshirilayotgan kanop poyalar qabul qilish vaqtida olingan namuna bog'larni organoleptik usulda standart namunaga solishtirib ko'rish yo'li bilan poyalarni navlari aniqlanadi. SHakllanmagan va zarpechak bilan zararlangan poyalar miqdori me'yordan oshib ketsa poyaning navi pasaytiriladi.

Ko'k po'stloqni sifatini baholashda asosan po'stloq pishiqligining tutam uzunligaga hamda qoldiq yog'ochlikning miqdori va uning zarpechak bilan zararlanganligi kabi ko'rsatkichlari inobatga olinib uchta (I,II,III) navga bo'linadi. Po'stloqning navi va namligi shu bilan birga undagi yog'ochliligi, begona narsalar va po'stloqning zarpechak bilan zararlanish miqdori laboratoriyada taxlil qilish yo'li bilan aniqlanadi. Uzun tolani baholashda asosan uning pishiqligi, egiluvchanligi va ingichkaliga kabi belgilarga qarab baholanadi. Kalta tolaning sifati uning tashqi alomatlariga, undan buralib yasalgan tolaning pishiqligi hamda tozaligaga qarab baholanadi. Tashqi alomatlariga qarab baholanganda tolaning rangi, bir xil sifatlari bo'lishi, kasallanmaganligi ko'zdan kechiriladi.

So'ngi yillarda kalta tolani saralash maxsus tsexlarda olib borilmasdan, balki kalta tola ajratadigan mashinadan chiqgan zahoti saralash usuli qo'llanilmoqda. Kalta tolani bu usulda saralash ancha oson bo'lib, iqtisodiy samaradorlik birmuncha yuqori bo'ladi.

**9.3. Kanop xom ashysini tayyorlash.** Kanop poyasi tola uchun texnik jihatdan etilganda yig`ishtiriladi. Bunda poyaning uch qismida lantsetsimon barg paydo bo'ladi. Kanop poyasi JK-2.1A o'rish mashinasida 7-8 sm balandlikda o'riladi. So'ngra po'stloqni shilish uchun LS rusumli mashina ishlataladi. Po'stloq (lub) poyadan shilib olingandan so'ng 2-3 kun davomida erga yupqa qilib yoyilib, quritiladi va uchlari tekislanib, har biri 8-10 kg dan bog` qilib bog`lanib, lub zavodiga topshiriladi. Bu usulda poya ko'k bo'ladi va po'stloq shilish qulay. Mahsulotni zavodga topshirish uchun ham kam xarajat sarf bo'ladi.

Ikkinchisi usulda kanop poyasi to'la etilib, sariq rangga kirganda o'riladi. Bu muddatda o'rilgan poyalar poya holicha zavodga topshiriladi va zavodda uni ivitib, so'ngra po'stloq (lub) shilib olinadi.

Urug`lik kanop pastdagi 3-4 ta ko'sak qoraya boshlashi bilan yig`ib olinadi va poyalar bog`-bog` qilib bog`lanib, yaxshi qurishi uchun boglar tik qilib taxlanadi va shu holda 4-5 kun quritlgandan so'ng MK-6 rusumli mashinada yanchiladi. Olingen urug`lar quritilib, don tozalagich mashinalarda tozalanib, qoplarda omborlarda saqlanadi. Urug`i olingen poyalar zavodga topshiriladi.

Zavod hom ashyo etkazib beruvchi dehqon, fermer shirkat xo'jaliklari bilan shartnoma tuzadi. SHartnomaga asosan xo'jalik ma'lum maydonga kanop ekish va xar bir gektardan ma'lum miqdorda hosil olishni o'z zimmasiga oladi. SHartnomada hom ashyo turi, sifati, miqdori, narxi, umumiyligi, qiymati, topshirish muddatlari va joylari ko'rsatiladi. Har bir xo'jalikga zavod tomonidan eng oldin o'rilgan kanop poya va po'stloqlardan standart namuna tayyorlab beriladi. Bundan tashqari kanop poyalarni pishganligini belgalashda, kanop poyadan po'stloqni ajratish, uni quritish va navlarga ajratish ishlarida xo'jalikparga yaqindan yordam beradilar. Zavodga poya va po'stloq odatda, avgust, sentyabr, oktyabr qisman iqlim sharoitiga qarab noyabr oylarida keltiriladi va ular bir qancha oylab, qayta ishslashga yuborilguncha maxsus tayyorlangan joylarda saqlanadi.

**9.4. Kanop xom ashysini saqlash.** Kanop zavodlarida poya yoki po'stloq asosan ikki usul bilan: usti yopiq shiyponlarda va ochiq joyda g`aram qilib saqlanadi. Hom ashyonini usti yopiq joyda saqlash uchun uzunligi 64 m, eni 16 m va balandligi 8 m bo'lgan atrofi ochiq lekin usti yopiq shiypondan foydalilanadi. Bunday shiyponda 400-500 tonnagacha po'stloq yoki poya saqlash mumkin. Undan tashqari, hozir zig`ir poya zavodlarida katta o'lchamli temir-beton shiyponlar keng qo'llanilmoqda. Masalan. 144x24x8,4 m o'lchamli shiyponga 2500 tonna, 90x30x6,5 m o'lchamli shiyponga esa 1500 tonna hom ashyo joylanadi. Usti yopiq shiyponlar ko'pga chidaydi, mahsulot sifatli saqlanadi va hom ashyo tashishni mexanizatsiyalashtirish imkonini tug'iladi. Usti ochiq joyda g`aram qilib saqlash usuli ko'p yillik tajribalar asosida mukammallashtirildi. Bu usul juda oddiy bo'lib, unga ko'p sarf harajat qilinmaydi. Hom ashyonini g`aramlashdan oldin har bir g`aram uchun mahsus maydoncha tayyorlash kerak. G`aramning ost qismidaga poyalarni namlanish va chirishdan saqlash uchun g`aramning supachasi erdan kamidan 30 sm ko'tarilib, atrofiga suv oqib ketadigan 20-30 sm kenglikdagi ariqchalar qilinadi. G`aramlarni joylashtirish o'lchamlari ilgarilari uzunligi 20 m, eni 8 m va balandligi 8 m li bo'lib, ularga 80-100 tonnagacha poya ketadi. Hozir g`aramning eni va uzunligi kattalashtirilgan (32x10x8m) natijada g`aramga ko'p xom ashyo ketadi. G`aramning eni janubdan shimolga qaratilib joylashtiriladi, shunda uning yon tomoni shamol esadigan tomoniga qaragan bo'lishi kerak. G`aramlarni eni tomonidan oraliga 15 m gacha, uzunligi tomonidan esa 30 m ga teng bo'lib, zavod xududi kamida balandligi 1,8 m li devor bilan o'ralgan bo'lishi kerak. Xom ashyo yaxshi saqlanishi uchun bog`larni g`aramga joylaganda bazi qoidalarga rioya qilish kerak bo'ladi.. G`aramning o'rta qismi chetiga qaraganda yuqoriroq bo'la borishi kerak. Poyaning pastki qismini g`aramning tashqi tomoniga qaratib qo'yib, yogoch kuraklar bilan urib g`aram devori tekislab boriladi. Poyalarni g`aramlashda bir qavat g`aram bo'yicha qo'yilib, so'nggisi eniga qarab qo'yiladi. G`aramlar noto'g`ri joylashgan bo'lsa, yogangarchiliqdada va shamoddha buzilib, suv tushib ketishi natijasida xom ashyonini chiritib yuborishi mumkin. Xom ashyonini sifatli saqlash uchun muntazam ravishda buzilgan joylari tuzatib boriladi, uning atrofidagi ariqchalar tozalanib, brezent

ustidagi qor kurab turilishi lozim. Xom ashyni saqlash vaqtidagi yuqotish 1 foizdan oshmasligi lozim.

**Nazorat savollar:**

1. Kanopning xalq xo'jaligidagi ahamiyati?
2. Kanopning tolasi tug`risida nimalarni bilasiz?
3. Kanop qanday sharoitlarda o'sadi?
4. Kanop ekinining istiqboli bormi?
5. Kanopning texnologik xususiyatlari baho bering?
6. Kanop xom ashynosining sifati haqida nimalarni bilasiz?
7. Kanop tolasining sifati nimalarga bog`liq?
8. Kanopni yig`ish texnologiyasi qanday?
9. Kanopni quritish va tayyorlashda nima ishlar qilinadi?
10. Kanop qanday saqlanadi?
11. Kanopni saqlash usullarini aytib bering?

**10-Ma`ruza. Kanopni dastlabki qayta ishlash texnologiyasi**

**Reja:**

**10.1. Kanopni dastlabki qayta ishlashning texnologik jarayonlari.**

**10.2. Poya va po'stloqni qayta ishlashga tayyorlash.**

**10.3. Kanopni ivitish.**

**10.4. Kanop mahsulotini quritish.**

**10.5. Kanop tola ishlab chiqarish.**

**Adabiyotlar: 1,5,6,17**

**Tayanch iboralar:** standart, konditsiya, organoleptik usul, qayd qilish usuli, sotsiologik usul, ekspert usuli, bioz, eubioz, gemibioz, anabioz, termoanabioz, kseroanabioz, osmoanabioz, atsedoanabioz, narkoanabioz, tsenoanabioz, atsedotsenoanabioz, alkogoletsenoanabioz, abioz, termosterilizatsiya, fotosterilizatsiya, kemyoviy sterilizatsiya, mexanik sterilizatsiya.


**10.1. Kanopni dastlabki qayta ishlashning texnologik jarayonlari.** Kanopni dastlabki qayta ishlash jarayoni ketma-ket bajariladigan bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, poya yoki po'st qayta ishlanishiga qarab o'zgarishi mumkin. Ma`lumki, kanop ekuvchi xo'jaliklar poyani urug`lik poya va ko'k poyalarga ajratib o'radir va yangi o'rilgan poyalarni po'stlog'i dalaning o'zida ajratiladi. Urug`lik poya, ko'k poya va ko'k po'stloq qayta ishlash zavodining xom ashysi hisoblanadi.

Keyingi yillarda kanop poyasini dastlabki qayta ishlashning yangi texnologik jarayonlarini yaratishda yaxshi natijalarga erishildi. Quyida kanop poyasi va po'stlog'idan tola ajratib olish texnologik jarayonlarning chizmasi keltirilgan.

**10.2. Poya va po'stloqni qayta ishlashga tayyorlash.** Poya va ko'k po'stloqni qayta ishlashga tayyorlash ularni navlarga ajratish hamda ivitish uchun katta bog`lamlarga bog`lashdan iborat. YAnchilmagan poyalar avval barg va chanoqlardan tozalanib, so'ngra navlarga ajratiladi va bog`lanadi. Turli ho'jaliklardan keltirilgan kanop poyalari turlicha xususiyatlari bo'ladi, chunki bir dalada, bir xil sharoitda o'stirilgan kanop poyasi rangi, uzunligi va yo'g'onligi jihatidan har-xil bo'ladi.; Bunga sabab dalalarda agrotexnik tadbirlarni sifatsiz o'tkazilishi va pishish muddatlarini har xilliliги hisoblanadi. Har xil xususiyatlari poyalar qayta ishlash jarayonlarida o'zini har xil tutadi. Masalan, yo'g'on poya ingichkasiga nisbatan kech iviydi. Har xil rangdagi poyalar ham turli vaqtida ivib tayyor bo'ladi. SHuning uchun poya va po'stloqlarni tashqi ko'rinishiga qarab, bir xil xususiyatlari navlarga ajratish kerak. Keyingi yillarda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlar shu narsani ko'rsatadiki, saralashga ketgan hamma xarajatlar olinadigan mahsulotlarni samaradorligi orqali qoplanib, rentabellik ortadi. Saralangan poya va ko'k po'stloq bog`lamlarining og`irligi poya uchun 50-80kg, ko'k po'stloq uchun 30-50kg. Katta bog` ikki joyidan po'lat sim yoki arqon bilan bog`lanadi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, zichlikning oshib ketishi mahsulotning ivib tayyor bo'lish vaqtiga va tola sifatiga ta`sir qilmas ekan. Kanop zavodlarida katta bog`lamlarni zich qilib

tayyorlaydigan GP-2 markali gidravlik zichlagich qo'llaniladi. Bu zichlagichda 40-60kg li bog`lamlar tayyorlanib, uning zichligi 120-140 kg/m<sup>3</sup> ga etadi.

10.1-rasm. Kanop poyasini va po'stloqdan tolash ajratib olish texnologik jarayonlarining sxemasi.



**10.3. Kanopni ivitish.** Kanop tolasi po'stloq ichida pektin, parenxima, kambiy, epidermis va boshqa to'qimalar bilan yopishib o'ralgan holda joylashgan. Tolani ajratshp uchun eng avval uni yopishtirib yotgan moddani ketkazish, keyin tolani tozalab yuvish kerak. Buning uchun kanop poyasini yoki po'stloq ma'lum usullar bilan ivitilganda tolalarni bir-biriga yopishtirib turgan moddalar erib ketadi va tola tutamlari ajraladi. Ivib tayyor bo'lgan poya yoki po'stloq maxsus titib yuviladigan mashinalardan o'tkazilib, ulardan toza texnikaviy tolalar ajratib olinadi. Biologik usulda ivitish poya va po'stloqni tabiiy suvga botirib yoki ivitilgandan chiqqan suyuqlikdan qayta foydalnish yo'li bilan o'tkaziladi.

Ivitish texnikasining bajarilishiga qarab ivitish bir qancha usullarga bo'linadi. Ivitishda foydalaniladigan suv suyuqliknинг issiqligiga qarab sovuq suvda ivitish va issiq suvda ivitish xillariga ajraladi. Sovuq suvda ivitilganda, odatda suvning harorati 2b-30°С dan oshmaydi. Isitilgan suvda ivitilganda esa ivish bir muncha tezlashadi. Hozir zavodlarda ivitishdan chiqqan suyuqlikdan qayta foydalanish usullari keng miqyosda qo'llanilmoqda. Ivitishni tezlatish maqsadida kimyoviy-mexanikaviy ishslash usuli ham ishlab chiqilgan bo'lib, bunda kimyoviy ishslash mexanikaviy jarayonlar (ezish, reaktivni jadal tsirkulyatsiya qilish) bilan birlashtirilgan. Kanopni ivitish jarayonining mohiyati har-xil pektin parchalovchi mikroorganizmlarning faoliyatiga asoslangan bo'lib, bunda poyaning po'st va parenxima to'qimalari parchalanadi. Ivitilgandan chiqqan suyuqliklarni tiklash uchun organik kislotalarni parchalovchi boshqa turdag'i mikroorganizmlarning

yashashidan foydalaniladi. Kanopni ivitish natijalari olinadigan uzun tola sifati va miqdoriga qarab, shuningdek ivib tayyor bo'lish muddatiga qarab baholanadi. Suvda ivitish jarayoniga ta'sir qiladigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi. 1. Suvning sifati va harorati; 2. Kanopni ivitishga tayyorlash hamda ivitish hovuz yoki katta sig`imlarga joylash usuli va zichligi; 3. Ivitish suyuqligining kislotalilik darajasi.

Hozirgi paytda ivitish jarayonini tezlatish uchun har-xil usullar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning asosiy pritsipi pektin moddalarni parchalovchi bakteriyalarni yashashi uchun yaxshi sharoit tug`dirish hamda ivitish suyuqshigining kislotalilik darajasini me`yorda tutib turishdan iborat. Ivitish ishlarini mexanizatsiyalashtirishda har-xil transportyorlar, ko'targichlar, bog`lam otgichlar va boshqa mexannzmlardan foydalaniladi. Ivitishdan chiqqan suvlarni tozalashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, kanop zavodlarida asosan mexanikaviy va biologik usullar qo'llaniladi.

**10.4. Kanop mahsulotini quritish.** Kanop zavodlarida kanop poyasi va po'stloqni qayta ishlash vaqtida yuqori namlikdagi uzun tola va tolali chiqindilar olinadi. Ularni keyingi jarayonlarda qayta ishlash uchun quritish kerak. SHuning uchun tola va tolali chiqindilarni quritish jarayoni kanopni qayta ishlash texnologik jarayonlaridan biri hisoblanadi. Uzun tola za tolali chiqindilar tabiiy va sun`iy usullarda quritiladi. Tabiiy usulda quritish asosan havoning tabiiy sharoitiga bog`liq bo'lib, mavsumiy hisoblanadi. Hozirgi paytda bu usul juda samarasiz bo'lganliga uchun deyarli foydalanilmaydi. Uning o'rniqa sun`iy usulda ishlaydigan yuqori ish unumli uzlusiz tizimda ishlaydigan SLG-210 rusumli quritish mashinalari muvaffaqiyatlari ishlatilmokda. Bundan tashqari SLG-210-L1 rusumli quritish mashinasi yaratilib kalta tola olish tizimiga o'rnatilgan. Ho'il uzun kanop quritilganda qoldiq parenxima va ust to'qimalari, mayda yog`och qismlari va boshqalar ayrim tolalarni bir-biriga yopishdirib uni dag`allashtirib qo'yadi. Bunday tolalarni navlarga ajratish qiyin bo'lganliga uchun ular yumshatiladi. SHu maqsadda ular MM-50 va PMG-1 rusumli ezib yumshatuvchi mashinalardan o'tkaziladi. Bunday mashinalardan o'tkazilgan tola yumshoq, etiluvchan bo'lib, navlarga ajratish osonlashadi.

**10.5. Kanop tola ishlab chiqarish.** Uzun tola olish texnologik jarayonida poya yoki po'stloq hamda tolali chiqindilar ajraladi. Uzun tola olish uchun poya yoki po'stloqni tayyorlash vaqtida chigal poyalar hosil bo'ladi. Bunday chiqindilar xom ashyni saqlash, navlarga ajratish, katta bog`lamlar qilish va ularni tashish vaqtida paydo bo'ladi. Ulardan uzun tola olib bo'lmaydi. Ivigan poya va po'stloklarni ezish-titish va yuvish vaqtida mashina tagaga kalta tolali chiqindilar tushadi. Bunday kalta tola olish uchun yuqoridagilardan tashqari, past (IV) navli poyalar ham ishlatiladi. Har-xil rangli, zamburug` kasali bilan zararlangan, shoxlagan IV-nav hamda chigal kalta poya va po'stloqlardan kalta tola olish uchun avval ular katta bog`lamlarga bog`lanib, ivitish hovuzlari yoki kameralarda ivitiladi. Odatda bunday poya va po'stloqlarning hammasi sovuq suvda ivitiladi. Ivib tayyor bo'lgan bunday poya va po'stloqlar hamda mashina tagiga tushgan tolali chiqindilar mashinalarda quritiladi, kalta tolasi ajratiladi. Kalta tola ishlab chiqarishning vazifasi yuqorida ko'rsatilgan xom ashylarni qayta ishlab, iloji boricha shikastlangan holda uni yog`ochlik va boshqa tolali bo'lмагan qo'shimchalardan tozalab, kalta tola olishdan iborat. Tolali chiqindilar umumiyligi ishlanadigan poyalarning 45-60 foizini, po'stloqlarning esa 30-34 foizini tashkil qiladi. Kanopni qayta ishlash zavodlarida olinadigan kalta tolalar to'qimachilik sanoatida to'qimalar, arzonlar, kanop ip va boshqa mahsulotlar tayyorlashda ishlatiladi.

#### Nazorat savollar:

1. Kanopning xalq xo'jaligidagi ahamiyati?
2. Kanopning tolesi tug'risida nimalarni bilasiz?
3. Kanopning texnologik xususiyatlariga baho bering?
4. Kanop xom ashysining sifati haqida nimalarni bilasiz?
5. Kanop tolasining sifati nimalarga bog`liq?
6. Kanopni dastlabki qayta ishlashning texnologik jarayonlarini bilasiz?
7. Poya va po'stloqni qayta ishlashga tayyorlashni aytib bering?
8. Kanopni nima uchun ivitiladi?
9. Kanop mahsulotini quritishni tushuntiring?
10. Kanop tola ishlab chiqarish texnologiyasini gapirib bering?

# LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

## 1-MASHG`ULOT

### MAVZU: PAXTA VA PAXTA TOLASI STANDARTLARI BILAN TANISHISH.

**Ishning maqsadi.** Paxta va paxta tolasi standartlari bilan tanishish va o'rganish.

**Kerakli material va jixozlar:** Davlat standartlari.

**Topshiriq:** Paxta va paxta tolasi standartlari bilan tanishish va o'rganib yozib olish.

Mustakil Uzbekistonimizda milliy iqtisodiyotni shakllantirish maboynda paxta va paxtani birlamchi kayta ishlashda olinadigan barcha mahsulotlar uchun Respublika standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi, jumladan quyidagilarni:

- Paxta xom-ashyosi uchun: O'z RST 615-94 «Paxta. Texnikaviy sharoit», O'zRST 643-95 «Paxta. Namuna olish usullari», O'zRST 593-92 «Paxta. Paxta tolasining xarakteristikalarini aniqlash usullari», O'zRST 592-92 «Paxta. Ifloslikni aniqlash usullari», O'zRST 644-95 «Paxta. Namlikning aniklash usullari»;

- Paxta tolasi bo'yicha: O'zRST 604-93 «Paxta tolasi. Texnikaviy sharoit», O'zRST 614-94 «Paxta tolasi. Namuna olish usullari», O'zRST 618-94 «Paxta tolasi. Pishib etilganlikni aniklash usullari», O'zRST 620-94 «Paxta tolasi. CHizikli va mikroneyr ko'rsatgichini aniqlash usullari», O'zRST 629-95 «Paxta tolasi. Rangi va tashqi ko'rinishini aniqlash usullari» va x.

- Paxta momig'i (lint) uchun: O'zRST 645-95 «Paxta momig'i. Texnik sharoit»; O'zRST 657-95 «Paxta momig'i. Namuna olish usullari», va x.

- Texnik va urug`lik chigitlar bo'yicha: O'zRST 598-93 «Texnik chigit. Namuna tanlash va namuna qismini ajratish usullari», O'zRST 597-93 «Nuqsondor chigitni aniqlash usuli», O'zRST 663-96 «Urug`lik chigit. Texnikaviy shartlar» va h.

O'zRST 615-94 zavodda qayta ishlagachga bulgan davrda tayyorlov punktlarda paxtani qabul qilish dastlabki klassifikatsiyasi, miqdorining hisobi va saqlash uchun muayyan sharoitni yaratish qismi talablarini belgilaydi.

Paxtaning yakuniy iste'mol xususiyatlari paxta tozalash zavodlarida qayta ishlagandan keyin O'zRST 604 ga muvofiq tolating sifat ko'rsatgichlari bo'yicha aniqlanadi.

Texnik sharoit standartlari turkumiga, asosan ishlab chikarilayotgan mahsulotlar qanday texik shartlarga javob berishi kerakligi bayon etilgan. Sinov usullari bo'yicha standartlarda mahsulotga qo'yilgan texnik shartlarda ko'rsatilgan parametrlarini o'lchash usullari keltirilgan.

Paxtaning sifat ko'rsatgichlarini yuqorida keltirilgan standartlar belgilaydi. Paxta tolasining fizik – mekanik kursatgichlari kuyidagilar xisoblanadi:

shtapel massa uzunligi, mm;

chiziqli zichlik, mteks.

Bundan tashqari solishtirma uzilish kuchiga (I va II nav) ko'ra tola quyidagi jadvaldagি me`yorlariga ko'ra to'qqizta tipga bo'linadi: 1a, 1b, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7.

1a, 1b, 1, 2 va 3 tipdagи tolalarga ega bo'lgan paxta uzun tolali paxta navlari hisoblanadi.

Kursatgichlar ning nomi	Paxtadagi tolaning tipiga oid me`yor								
	1a	1b	1	2	3	4	5	6	7
SHtapel massa uzunligi, mm,	40,2	39,2	38,2	37,2	35,2	33,2	31,2	30,2	29,2
CHizikli zichlik, mteks, kuchi bilan	125	135	144	150	165	180	190	200	200dan ort.

Solishtirma uzilish kuchi: I nav, asosiy: SN/teks (gs/ teks) (36,0- 37,0)	35,3- 36,3 (35,0- 37,0)	34,3- 35,3 (34,0- 36,0)	33,3- 34,3 (34,0- 35,0)	31,4- 32,4 (32,0- 33,0)	29,4- 30,4 (30,0- 31,0)	25,5- 26,5 (26,0- 27,0)	24,0 25,0 (24,5- 25,5)	23,5 24,5 (24,0- 25,0)	23,0 24,0 (23,5- 24,5)
II nav kamida: SN/teks g/teks	34,3 35,0	33,3 34,0	32,4 33,0	30,4 31,0	28,4 29,0	25,0 25,5	23,5 24,0	23,0 23,5	22,5 23,0

4, 5, 6, va 7 tipdagi tolalarga ega bulgan paxta o'rtta tolali paxta navlariga kiradi.

Har bir tipdagi paxta rangi, tashqi ko'rinishi, pishib etilganlik koeffitsienti buyicha quyidagi jadvaldagi talablarda belgilangan, tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshta navga bulinadi: I, II, III, IV, V.

Paxta navi	Tip buyicha Pishib etilganlik koeffi-tsienti, kamida	Paxtadagi tolanning tiplari buyicha rangi va tashqi ko'rinishlari							
	1a,1b, 1,2,3	4,5,6, 7	1a, 1b, 1, 2, 3				4, 5, 6, 7		
I	2,0	1,8	Oq yoki tabiiy oqsariq tusli yoki selektsiya navi etishtiril-gan joyiga bog`liq bo`lgan oq sariq tusli. Ko'rinishi yaltiroq va ipaksimon.				Oq yoki selektsion navi va ustirilgan tumaniga bog`liq tabiiy sarg`ish oq.		
			qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi to'lqinsimon, mashina terimidagi paxta esa alohida chigitlardan va qisman yoyilgan jingalak pallachalardan iborat. Ba`zan pallachalarda o'lik tola uchraydi.						
II	1,7	1,6	YAltiramaydigan oqdan oq-sariq tusli va kichik sariq dog`cha. YAltiroq va ipaksimonligi I navga nisbatan pastroq.				YAltiramaydigan oqdan oq sariq dog`li oq sariq tusgacha.		
			qo'l bilan ushlaganda 1 navga nisbatan kamroq egiluvchan va zichdir. Qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi alohida tolali chigitlardan iborat va yaltiroq kichik ko'rinishdagi plastik holda o'lik tolalar uchrashi mumkin.						
III	1,4	1,4	Sariq yoki oqish-sariq notekis kulrangroq va qo'ng`ir dog`li tusdagi. YAltiramaydigan.				Xira oqdan oqsariq, sarg`ishroq dog`li yaltiramaydigan kulrangroqgacha.		
			Qo'l terimidagi kichik to'lqinsimon paxta pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastikka utuvchi ko'rinishiga, mashina terimidagi esa alohida tolali chigitlardan va chuzilgan, qisman yoyilgan va alohida chuzilmagan va pishmagan aralashma pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastiklardan iborat.						
IV	1,2	1,2	Sariq yoki oqish-sariq notebs kul rangroq va qo'ng`ir dog`li tusdagi. YAltiramaydigan.				Xira oq va oqsariqdan sarg`ish-oqsariq kulrang va qo'ng`ir dog`li.		
			Qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich emas, asosiy qismi chuzilgan, qisman aralashgan pallachalar, shuningdek chuzil-magan pishmagan pallachalar, alohida tolali chigitlar guruhi har xil darajada yoyilgan, pallachalardan ko'pchilik qismi yaltiroq plastik ko'rinishidagi o'lik tolalardan iborat.						
V	1,2 dan kam	1,2 dan kam	Qo'ng`ir ranglidan sariqqacha. Kulrang.				Xira oq yoki xira oq sariqdan qo'ng`ir dog`li yaqqol sariqgacha. Kulrang		
			Qo'l bilan ushlanganda umuman egiluvchan va zich emas, paxta pallachalarining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi pishmagan va o'lik tolalar yaltiroq plastikni hosil qiladi.						

Paxta navi rangi va pishib etilganlik koeffitsientning eng yomon ko'rsatgichlari bo'yicha aniqlanadi. Paxta navi iflos aralashmalarining miqdori (iflos aralashmalarining massaviy nisbati) ga ko'ra jadvalda ko'rsatilgan talablarga muvofiq quyidagi sinflarga bulinadi:

- 1 – sinf – kulda terilgan paxta;
- 2 – sinf – mashinada terilgan paxta;
- 3 – sinf – erdan terib olingan paxta.

YUqorida ko'rsatilgan talablarni nazorat qilish uchun sinov usulari Respublika standartlari 643-95, 592-92, 644-95, 593-92 tomonidan muvofiqlashtirilgan.

Paxta tudasining konditsion massasini aniqlash uchun iflos aralashmalar hisob me`yoriy massaviy ulushi – 2,0 % va namlikning massaviy nisbati - 9,0 % deb olinadi.

Paxta navi	Paxtaning sinflari buyicha iflos aralashmalarining massaviy ulushi va namlikning massaviy nisbati me`yorlari, % kuchi bilan						
	1- sinf		2 – sinf			3 – sinf	
	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	
I	3,0	9,0	10,0	12,0	16,0	14,0	
II	5,0	10,0	10,0	13,0	16,0	16,0	
III	8,0	11,0	12,0	15,0	18,0	18,0	
IV	12,0	13,0	16,0	17,0	20,0	20,0	
V	-	-	-	-	22,0	22,0	

Paxta tolasi nuqson va iflos aralashmalarining miqdori bo'yicha jadvalda ko'rsatilgan me`yorlarga muvofiq: oliy, yaxshi, o'rta, oddiy va iflos sinflarga bo'linadi.

Sanoat navi	Nuksonlar va iflos aralashmalar me`yorlari, % kuchi bilan				
	oliy	yaxshi	o'rta	oddiy	iflos
1	2,0	2,5	3,0	4,0	5,5
2	2,5	3,5	4,5	5,5	7,0
3	-	4,0	5,5	7,5	10,0
4	-	6,0	8,5	10,5	14,0
5	-	-	10,5	12,5	16,0

Paxta tolasini eksportga jo'natishda quyida keltirilgan ikki tip ko'rsatgichlar qo'llaniladi:

1. Xalqaro standartlar va mikroneyer ko'rsatgichi bo'yicha tola sifatini klasser usulida baholash:

rangi va ifloslanishi bo'yicha navi va sinfi, jinlash bo'yicha sifati;

1/32 dyuymda shtapel uzunligi;

mikroneyer ko'rsatgichi.

2. Tola sifatini asbob yordamida NVI tipdag'i ulchov tizimlaridan foydalanib baholash:

rangi va ifloslanishi bo'yicha navi va sinfi;

yorug'lik qaytarish (oqim darajasi) koeffitsienti (Rd), % va sariqlik darajasi (+b);

mikroneyer ko'rsatgichi;

1/32 dyuymda taram uzunlik yoki oliy yarim urta uzunlik, mm (dyuymlar);

darajalangan HVI da kalibrланадиган paxtaning solishtirma uzulish kuchi, gk/teks (kN/teks);

notola materiallar va ifloslanishi, kod.

## 2-MASHG'ULOT

### MAVZU: PAXTANI BAHOLASH VA SIFATINI ANIQLASH UCHUN NAMUNALAR TANLASH

**Ishning maqsadi.** Paxtani baholash va sifatini aniqlash uchun namunalar tanlashni o'rganish.

**Kerakli material va jixozlar:** Paxta na'munalari.

**Topshiriq:** Paxtani baholash va sifatini aniqlash uchun namunalar tanlashni o'rganish va yozib olish.

Paxtani baholash va sifatini aniqlashdan asosiy maqsad uning namligini, ifloslik darajasini, sanoat navini va sinfini belgilashdir.

Ushbu sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun paxtadan namuna olinadi. Namunani olish tartibi va tanlab olish usullari O'z DSt 643-95 standartida aniq ko'rsatib berilgan. Ushbu standart qo'llanilish sohasi bo'yicha bajarilishi majburiydir.

Paxtani baholash va sifatini aniqlash uchun olinadigan namunalarni quyidagicha nomlanib, ta'riflash mumkin:

Namuna deb sinash uchun olingan paxtaga aytildi.

Nuqtadan olingan namuna deganda paxtaning ma'lum joylaridan bir paytda olingan paxta miqdori tushuniladi.

Umumlashtirilgan namuna deb nuqtadan olingan namunalar yig'indisiga aytildi.

O'rtacha kunlik namunani har bir topshirilgan to'da uchun alohida to'plangan, birlashtirilgan namuna yig'indisi, deb aytildi.

Paxtaning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bitta hujjat bilan rasmiy-lashtirilgan, bir xil seleksiya va sanoat navli, tip va sinfdagi paxta miqdori to'da deb hisoblanadi.

Jamlanayotgan paxtani joylanayotgan paxtaning asosiy belgilari bo'yicha bir xil paxta deb tushuniladi.

Paxta topshiruvchi - paxtani qabul qilish punktlariga topshiruvchi (jamoa xo'jaligi, brigada, fermer) hisoblanadi.

Ta'riflar O'z DSt 581 va O'z DSt 615 asosida tuzilgan.

Namuna olish. Paxta tayyorlash punktlarida namuna va nuqtaviy namunalar punkt klassifikatori tomonidan topshiruvchi ishtirokida paxtani tortishdan oldin qo'lda olinadi.

Nuqtaviy namunalarni to'kish joylarida olish ham mumkin.

Keltirilgan paxta to'dasining har 2 tonnasidan kamida uchta joyidan har xil qalinlikdagi joylaridan 100-150 g bo'lган namuna olinadi.

Sig'imi 1 kg bo'lган qopqog'i zinch berkitiladigan kichik bankalarga solingan nuqtaviy namunalar birlashgan namuna hosil qiladi. Olingan paxtaning namligini aniqlash mo'ljallanmagan bo'lsa, iflosligi to'kilmaydigan oddiy idishga solish mumkin.

Umumlashtirilgan namunalarni sig'imi 6-8 kg bo'lган zinch berkitiladigan idishlarga solinadi va bir kun davomida, har bir jamlangan to'dalar uchun alohida o'rtacha bir kunlik namuna to'planadi. O'rtacha bir kunlik namuna kamida 3-4 kg bo'lishi kerak.

Idishga quyidagi ko'rsatmalar yozib qo'yiladi:

- paxta topshiruvchi xo'jalik nomi;
- jamlanayotgan to'da nomeri;
- seleksion navi;
- sanoat navi va sinfi;
- namuna olingan kun.

Organoleptik yo'l bilan paxta navi, sinfi yoki gommoz kasalligi bor paxta miqdorini aniqlashda kelishmovchilik sodir bo'lsa, har 2 tonna paxtadan 15 ta joyidan nuqtaviy namuna olinib, birlashtirilgan namuna hosil qilinadi va tekshirish o'tkaziladi.

Nuqtaviy namunani tayyorlash punkti laboratoriya xodimi klassifikator va topshiruvchi ishtirokida oladi.

Jamlanayotgan paxta to'dasini qabul qilishni tekshirishda namuna tanlash. Paxta tayyorlash punktida kun bo'yи kelib turgan paxtaning sifatini aniqlash uchun namunalar yangi keltirilayotgan paxtani joylashtirishdan oldin olinadi.

Namunani paxta tayyorlash punkti xodimi paxtani qabul qilib olgan katta klassifikator yoki klassifikator ishtirokida tanlab oladi.

Umumlashtirilgan namunani hosil qilish uchun jamlanayotgan g'aramning har 10 kv metridan 2 ta nuqtaviy namuna olinadi.

Namunani zich berkitilgan kichik idishga solinadi.

Umumlashtirilgan namuna kamida 2 kg bo'lishi kerak.

Jamlash paytida g'aramlarda saqlanayotgan paxta sifatini aniqlash uchun namuna olish. Jamlanayotgan paxtadan olingan o'rtacha bir kunlik namunadan yana 10 t hisobidan 400 g namuna olinadi.

Namuna quyidagicha tanlab olinadi: nuqtaviy namuna olish bo'yicha olingan o'rtacha kunlik namuna stolda yaxshilab aralashtirilib, to'g'ri to'rtburchak ko'rinishda yoyiladi va teng to'rt qismga ajratiladi. Diagonal bo'yicha ikki qismi olib tashlanadi. Bunday bo'lish tayyorlangan paxtaning 10 t siga 400 g ga to'g'ri kelgunga qadar qaytariladi.

G'aramni jamlash tugatilganda (400-500 t) umumlashtirilgan namuna 15-20 kg bo'lishi kerak.

Bu umumlashtirilgan namuna stol ustida aralashtiriladi. Tekis qilib joylab 4 qismga ajratib har bir qismidan 3-4 kg dan olib bir joyga to'planadi. Hosil bo'lgan taxminan 14 kg namuna 2 ga ajratiladi. Paxta sifatini tekshirish uchun namunaning bir qismi paxta tozalash korxonasi laboratoriyasiga tekshirishga yuboriladi, ikkinchi qismi esa tayyorlash punktida nazorat uchun goldiriladi.

To'dani jamlash tugatilgandan so'ng namuna bilan birgalikda pasport-kartochka (paxta uchun pasport) ikki nusxada yuboriladi. Pasport-kartochkaning bir nusxasi korxona tekshiruv natijalari bilan tayyorlash punktiga qaytib beriladi.

Jamlangan g'aramdan namuna olish. G'aramni taxminan I-II nav uchun 50 tonna, III-IV navlar uchun 30 tonnadan chamalab qismlarga bo'linadi. Har bir qismidan 20 tadan 20—100 sm qalinlikda g'aram tashqi qismlaridan va tunnel ichlaridan nuqtaviy namunalar olinadi. Olingan umumlashtirilgan namuna ta'minan 1 kg bo'lishi kerak.

Nazorat qilish usuliga qarab agarda olingan umumlashtirilgan namunalar bir xil bo'lsa, bu umumlashtirilgan namuna alohida yoki g'aram uchun bitta qilib 5-10 kg holda tekshirilishi mumkin.

Paxtani paxta punktlariga jo'natish va paxta tozalash korxonalariga qabul qilishda namuna olish nuqtaviy namuna olishga asoslanib bajariladi.

Har bir transportdan olingan paxtaning birlashgan namunalari shu to'daning oxirgi mashinasi paxta korxonasi jo'natilishiga qadar to'planadi va sifatini tekshirish uchun o'rtacha kunlik namuna hosil qilinadi.

Umumlashtirilgan namunalar qabul qilish paytida paxta tozalash korxonasi bir kun davomida har bir tayyorlash punkti uchun qayta ishlagan to'dasiga qarab to'planadi.

Paxtaning namligini aniqlash uchun quritish-tozalash bo'limi va tozalash bo'limidan namuna olinadi.

To'dadan nuqtali namuna olish uchun paxtani quritish-tozalash bo'limi va tozalash bo'limi ish boshlaganiga 30 daqiqadan oshmasdan 15-20 daqqa ichida olish kerak. Olingan nuqtaviy namunalar sig'imi kamida 1 kg bo'lgan zich berkitilgan idishlarga solinib, umumlashtirilgan namunalar hosil qilinadi.

Keyingi tekshirishlar uchun umumlashtirilgan namunalar quritish-tozalash bo'limi va tozalash bo'limida har 2 soatda olinadi.

### 3-MASHG`ULOT

#### MAVZU: CHIGITLI PAXTANI TIPLARGA VA NAVLARGA AJRATISH

*Ishning maqsadi.* CHigitli paxtani tiplarga va navlarga ajratishni o'rganish.

*Kerakli material va jixozlar:* Standart (Etolon) lar, paxta na'munalari.

*Topshiriq:* CHigitli paxtani tiplarga va navlarga ajratishni o'rganish va yozib olish.

Paxtani tiplarga bo'lishdan maqsad - paxta tolasining fizik-mexanik ko'rsatkichlari: shtapel vazn uzunligi, chiziqli zichlik va solishtirma uzelish kuchi, paxta rangi, tashqi ko'rinishi, pishib yetilganlik koeffitsiyenti bo'yicha navlarga ajratishdan iborat.

Ushbu maqsadga muvofiq belgilangan talablarni bajarish O'zDSt 615-94 standartga asoslanib olib boriladi.

Korxonada qayta ishlangacha bo'lgan davrida tayyorlov punktlaridagi paxtani qabul qilish dastlabki klassifikatsiya, miqdorining hisobi va saqlash uchun muayyan sharoitlarini yaratish qismi talablarini belgilaydi.

Paxta yakuniy iste'mol xususiyatlari paxta tozalash korxonalarida qayta ishlangandan keyin O'z DSt 604 ga muvofiq tolanning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Standart talablari urug'lilik paxtaga joriy etilmaydi.

Paxta tozalash korxonalarida qayta ishlangaga mo'ljallangan paxtani quyidagi texnik talablarga asosan qabul qilinadi va qayta ishlanadi.

Paxta - tolasining fizik-mexanik ko'rsatkichlari: shtapel vazn uzunligi, chiziqli zichlik va solishtirma uzelish kuchiga (I va II nav) ko'ra 3.1-jadvaldagi me'yorlarga muvofiq to'qqizta: 1a, 1b, 1, 2, 3, 4, 5, 6 va 7-tipga bo'linadi. Bunda paxtadagi paxta tolasining tipi shtapel vazn uzunligi yoki chiziqli zichlikning eng yomon ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi.

1a, 1b, 1, 2 va 3 tipdagisi tolalarga ega bo'lgan paxta uzun tolali, 4, 5, 6 va 7-tipdagisi tolalarga ega bo'lgan paxta esa o'rta tolali paxta navlariga kiradi.

Har bir tipdagisi paxta rangi, tashqi ko'rinishi, pishib yetilganlik koeffitsiyenti bo'yicha 3.2-jadvaldagi talablarga va belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshta - I, II, III, IV, V navga bo'linadi.

Paxta navi rangi va pishib yetilganlik koeffitsiyentining eng yomon ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Paxta navi iflos aralashmalarining miqdori (iflos aralashmalarining vazniy ulushi) va namligi (namlikning vazniy nisbati)ga qarab 3.3-jadvalda ko'rsatilgan talablarga muvofiq quyidagi sinflarga bo'linadi: I (qo'lida terilgan), 2 (mashinada terilgan) va 3 (yerdan terib olingan).

3.1-jadval

Kursatgichlar ning nomi	Paxtadagi tolanning tipiga oid me'yor								
	1a	1b	1	2	3	4	5	6	7
SHTapel massa uzunligi, mm,	40,2	39,2	38,2	37,2	35,2	33,2	31,2	30,2	29,2
CHizikli zichlik, mteks, kipi bilan	125	135	144	150	165	180	190	200	200dan ort.
Solishtirma uzelish kuchi: I nav, asosiy: SN/teks (gs/ teks) (36,0- 37,0)	35,3- 36,3	34,3- 35,3	33,3- 34,3	31,4- 32,4	29,4- 30,4	25,5- 26,5	24,0 25,0	23,5 24,5	23,0 24,0
II nav kamida: SN/teks g/teks	34,3 35,0	33,3 34,0	32,4 33,0	30,4 31,0	28,4 29,0	25,0 25,5	23,5 24,0	23,0 23,5	22,5 23,0

Paxta to'dasining konditsion vaznnini aniqlash uchun iflos aralashmalar hisob me'yorining vazniy ulushi — 20,0% va namlikning vazniy nisbati — 9,0% deb olinadi.

Paxta navi	Tip buyicha Pishib etilganlik koeffi-tsienti, kamida		Paxtadagi tolanning tiplari buyicha rangi va tashqi ko'rinishlari	
	1a,1b, 1, 2,3	4,5,6, 7	1a, 1b, 1, 2, 3	4, 5, 6, 7
I	2,0	1,8	Oq yoki tabiiy oqsariq tusli yoki selektsiya navi etishtirilgan joyiga bog`liq bo`lgan oq sariq tusli. Ko'rinishi yaltiroq va ipaksimon.	Oq yoki selektsion navi va ustirilgan tumaniga bog`liq tabiiy sarg`ish oq.
			qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi to'lqinsimon, mashina terimidagi paxta esa alohida chigitlardan va qisman yoyilgan jingalak pallachalardan iborat. Ba`zan pallachalarda o'lik tola uchraydi.	qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi to'lqinsimon, mashina terimidagi paxta esa alohida chigitlardan va qisman yoyilgan jingalak pallachalardan iborat. Ba`zan pallachalarda o'lik tola uchraydi.
II	1,7	1,6	YAltiramaydigan oqdan oq-sariq tusli va kichik sariq dog`cha. YAltiroq va ipaksimonligi I navga nisbatan pastroq.	YAltiramaydigan oqdan oq sariq dog`li oq sariq tusgacha.
			qo'l bilan ushlaganda 1 navga nisbatan kamroq egiluvchan va zichdir. Qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi alohida tolali chigitlardan iborat va yaltiroq kichik ko'rinishdagi plastik holda o'lik tolalar uchrashi mumkin.	qo'l bilan ushlaganda 1 navga nisbatan kamroq egiluvchan va zichdir. Qo'l terimidagi paxta pallachalarining ustki qismi alohida tolali chigitlardan iborat va yaltiroq kichik ko'rinishdagi plastik holda o'lik tolalar uchrashi mumkin.
III	1,4	1,4	Sariq yoki oqish-sariq notejis kulrangroq va qo'ng`ir dog`li tusdagi. YAltiramaydigan.	Xira oqdan oqsariq, sarg`ishroq dog`li yaltiramaydigan kulrangroqgacha.
			Qo'l terimidagi kichik to'lqinsimon paxta pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastikka utuvchi ko'rinishiga, mashina terimidagi esa alohida tolali chigitlardan va chuzilgan, qisman yoyilgan va alohida chuzilmagan va pishmagan aralashma pallacha-lari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastiklardan iborat.	Qo'l terimidagi kichik to'lqinsimon paxta pallachalari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastikka utuvchi ko'rinishiga, mashina terimidagi esa alohida tolali chigitlardan va chuzilgan, qisman yoyilgan va alohida chuzilmagan va pishmagan aralashma pallacha-lari, har xil kattalikdagi yaltiroq plastiklardan iborat.
IV	1,2	1,2	Sariq yoki oqish-sariq notejis kul rangroq va qo'ng`ir dog`li tusdagi. YAltiramaydigan.	Xira oq va oqsariqdan sarg`ish-oqsariq kulrang va qo'ng`ir dog`li.
			Qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich emas, asosiy qismi chuzilgan, qisman aralashgan pallachalar, shuningdek chuzil-magan pishmagan pallachalar, alohida tolali chigitlar guruhi har xil darajada yoyilgan, pallachalardan ko'pchilik qismi yaltiroq plastik ko'rinishidagi o'lik tolalardan iborat.	Qo'l bilan ushlaganda egiluvchan va zich emas, asosiy qismi chuzilgan, qisman aralashgan pallachalar, shuningdek chuzil-magan pishmagan pallachalar, alohida tolali chigitlar guruhi har xil darajada yoyilgan, pallachalardan ko'pchilik qismi yaltiroq plastik ko'rinishidagi o'lik tolalardan iborat.
V	1,2 dan kam	1,2 dan kam	Qo'ng`ir ranglidan sariqqacha. Kulrang.	Xira oq yoki xira oq sariqdan qo'ng`ir dog`li yaqqol sariqgacha. Kulrang
			Qo'l bilan ushlanganda umuman egiluvchan va zich emas, paxta pallachalarining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi pishmagan va o'lik tolalar yaltiroq plastikni hosil qiladi.	Qo'l bilan ushlanganda umuman egiluvchan va zich emas, paxta pallachalarining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi pishmagan va o'lik tolalar yaltiroq plastikni hosil qiladi.

Paxtada tosh, gazlama qiyqimlari yoki brezent kesimlari, ko'sak yoki uning chanoqlari, yashil barglar (4 sm<sup>2</sup>) va hokazolarning bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Paxtada kuchli darajada zamburug' kasalligi bilan shikastlangan tolalar uchrashiga ruxsat etilmaydi.

Paxta chigitidagi pestitsid qoldiqlarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan, yo'l qo'yilgan eng katta darajadan oshmasligi kerak.

Chigitda pestitsid qoldiqlarining miqdorini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash va Qishloq xo'jalik vazirliklari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.3-jadval

Paxta navi	Paxtaning sinflari buyicha iflos aralashmalarning massaviy ulushi va namlikning massaviy nisbati me`yorlari, % kuchi bilan					
	1- sinf		2 – sinf		3 – sinf	
	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi	Iflos aralash. massaviy ulushi	Namlik-ning massaviy ulushi
I	3,0	9,0	10,0	12,0	16,0	14,0
II	5,0	10,0	10,0	13,0	16,0	16,0
III	8,0	11,0	12,0	15,0	18,0	18,0
IV	12,0	13,0	16,0	17,0	20,0	20,0
V	-	-	-	-	22,0	22,0

**Korxonalarda paxta quyidagi tartibda qabul qilib olinadi:**

Paxta to'dalar bo'yicha qabul qilib olinadi. Sifat ko'rsatkichi bo'yicha bitta hujjat bilan rasmiylashtirilgan, bir xil seleksiyadagi va sanoat navli, tip va sinfdagi paxta miqdori to'da deb hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi zararkunandalarini va turli kasalliklar (gommoz, zamburug' kasalligi, «shira») bilan zarar yetkazilgan paxta alohida to'dalarga ajratiladi.

Agar bir to'dada har xil seleksiya va sanoat navli, tip va sinfli paxtalar aralashdirilgan bo'lsa, ular shu to'dada eng past tip, nav yoki sinf bo'yicha qabul qilinadi.

Paxtani sifati bo'yicha paxta tayyorlash punktlarida soat 22 gacha qabul qilib olinadi. Paxta tashqi ko'rinishini aniqlashda yorug'lik kamida 300 luks bo'lishi kerak.

Aniq seleksiya navidagi paxta tolasining tipi qabul qilingan tartib normativ hujjat bilan belgilanadi.

Qabul qilib olishda paxtadagi tola tipning shtapel vazn uzunligi va chiziqli zichlik ko'rsatkichlari, kerak bo'lган taqdirda, paxta tozalash korxonasi laboratoriyasidagi istalgan namuna bo'yicha nazorat qilinadi.

Paxta tolasining tipi korxonada qayta ishlangan paxta to'dasidagi shtapel vazn uzunligi va chiziqli zichligi ko'rsatkichlari bo'yicha yakuniy baholanadi.

Paxtaning I va II navlari uchun solishtirma uzilish kuchining qiymatlari belgilangan me'yordan (3.1-jadval) past bo'lsa, narx pasaytiriladi. I nav uchun asosiy me'yordan oshsa, narx ko'tariladi.

Hisob-kitobni tayyorlash punktlarida klassifikator paxta to'dasi qayta ishlangandan so'ng, paxta navidan qo'llanilayotgan standart bo'yicha namuna tanlab olib, 3.2-jadvaldagi talablarga muvofiq birlashtirilgan namunaning tashqi ko'rinishini topshiruvchi ishtirokida belgilangan tartibda tasdiqlangan namunaning tashqi ko'rinishi bilan solishtirish orqali aniqlaydi.

Paxta topshiruvchi norozi bo'lган hollarda paxta navi tayyorlash punkti laboratoriyasida asboblar yordamida topshiruvchi ishtirokida qaytadan tanlab olingan birlashtirilgan namuna yordamida paxtaning rangi va pishib yetilganlik koeffitsiyenti bo'yicha aniqlanadi. Sinash natijasida olingan natija hal qiluvchi hisoblanadi.

Paxtaning iflosligi va namligi paxta tayyorlash punktlarining laboratoriyasida topshiruvchi ishtirokida to'dadan qo'llanilayotgan standart bo'yicha tanlab olingan o'rtacha kunlik yoki birlashtirilgan namuna yordamida aniqlanadi.

Kelishmovchilik sodir bo'lган hollarda xuddi shu o'rtacha kunlik yoki birlashtirilgan namuna yordamida paxtaning iflosligi va namligi bo'yicha qaytadan o'tkazilgan sinashlar natijasida hal qilinadi.

Agar paxtaning ifloslik me'yori 1- yoki 2-sinflar bo'yicha yuqori bo'lsa, iflosligi bo'yicha mos kelgan sinfga o'tkaziladi, agar namlik me'yordan yuqori bo'lsa, maxsus tartibida narxi pasaytiriladi.

I, II, III va IV navlar bo'yicha paxta 3-sinf uchun belgilangan ifloslik yoki namlik me'yorlaridan oshgan hollarda u topshiruvchiga qaytariladi yoki past nav bo'yicha qabul qilinadi.

Ifloslik yoki namlik me'yordi 22% oshib ketsa, topshiruvchiga qaytariladi yoki narxi pasaytirilib belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Agar paxta o'rta darajada zamburug' kasalligi bilan shikastlangan bo'lsa, bu paxta to'dasi past navga o'tkaziladi.

Agar kuchsiz darajada zamburug' kasalligi yoki har qanday darajadagi «shira» bo'lsa, narxi pasaytiriladi.

Paxtada yopishqoqlik moddalarining borligini aniqlash qabul qilib olish vaqtidan yoki terimdan oldin tanlab olingan namuna yordamida o'tkaziladi.

Agar yopishqoq moddalarning borligi aniqlansa, paxta alohida qabul qilinadi va jamlanadi. Bunday paxtaning navi korxonada qayta ishlangandan so'ng aniqlanadi.

Paxta to'dasida tugunak ko'rinishidagi chigallashgan pallachalar, shuningdek, 20 % dan ko'p mahsulot gommoz (sariq yoki qo'nig'ir tusli, juda kuchsiz darajada titilib, yopishib yig'ilgan tola bo'lakchalari) bilan kasallangan bo'lsa, paxta navi pasaytiriladi.

Agar to'dada yashillangan paxta bo'lsa, topshiruvchi tomonidan umumiyl vazn yoki to'dadan ajratiladi yoki bir navga pasaytirib qabul qilinadi.

Paxtachilik xo'jaligi chigitdagi pestitsid qoldiqlarining miqdori haqidagi hujjatga ega bo'lishi kerak.

Paxta chigitdagi pestitsid miqdori yo'l qo'yilgan me'yordan oshiq bo'lsa, paxta narxi belgilangan tartibda pasaytiriladi.

Paxtani miqdori bo'yicha qabul qilib olish. Paxta bir xil vazniy ulushi (20,1%) va namlikning vazniy nisbati (9,0 %) qabul qilinadi va hisobga olinadi.

Konditsion vazni ( $M_k$ ) kilogrammlarda quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$M_k = M_r \frac{100 + W_r}{100 + W_f}$$
$$M_r = M_f \frac{100 - Z_f}{100 - Z_r}$$

bunda:  $M_r$  - paxtaning iflos aralashmalari hisobiy me'yorga keltirilgandag vazni, kg;

$M_f$  - qabul qilib olingan paxtaning vazni, kg;

$W_r$  - namlikning 9,0 % ga teng bo'lgan vazniy nisbatining hisobiy me'yori;

$W_f$  - haqiqiy namlikning vazniy nisbati, %;

$Z_r$  - iflos aralashmalarning 2,0 % ga teng bo'lgan hisob vazni ulushi me'yori;

$Z_f$  - paxtadagi iflos aralashmalarning haqiqiy vazni ulushi, %.

Konditsion vaznni hisoblash dastlabki o'nlik belgisidagi aniqlik bilan amalga oshiriladi va butun songa yaxlitlanadi.

Paxtadagi tolanning hisobiy vazni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M_m = \frac{M_k * B}{100}$$

bunda:  $B$  — paxtaning seleksion va sanoat navlariga va sinfiga ko'ra, sanoatda qayta ishlanganda tolanning me'yoriy chiqishi, %.

Paxtadan tolanning me'yoriy chiqishi normativ-texnik hujjatlarga ko'ra belgilanadi.

Paxtani tashish va saqlash. Paxta maxsus tuzilgan, soni uchtadan ortiq bo'limgan telejkani o'z ichiga olgan transport vositalari yoki paxta tashuvchi avtomobilarda usti maxsus gazlama yoki brezent bilan yopilgan holda tashiladi.

Paxta transport vositalariga mexanizmlar yordamida ortiladi, bu mexanizmlardan paxtaning yog'lanishiga va iflos aralashmalar tushishiga va chigitlar jarohatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Paxta seleksion, sanoat navlari va sinflari bo'yicha, alohida to'dalar holida maxsus ochiq maydonchalarda usti brezent bilan yopilgan g'aramlarda, usti yopiq omborlarda maxsus tartibda saqlanadi.

Paxtani dala chetlarida va boshqa jihozlanmagan maydonchalarda saqlash man qilinadi.

## 4-MASHG`ULOT

### MAVZU: CHIGITLI PAXTA IFLOSLIGINI ANIQLASH USULLARI.

**Ishning maqsadi.** CHigitli paxta iflosligini aniqlashni o'rganish. iflos aralashmalar, har xil mineral va organik jismlarning va gommoz bilan kasallangan paxtaning vazniy usulini belgilashdir

**Kerakli material va jixozlar:** LKM (LKM-2), 2L-12 qurilmalar yoki ularning boshqa modifikatsiyalari; eng katta tortish chegarasi 1000 g bo'lgan 3 yoki 4 sinf aniqlikka ega laboratoriya tarozilari, analogik metrologik tavsifga ega boshqa tarozilar.

**Topshiriq:** 1. Qo'lida ajratish orqali chigitli paxta iflosligini aniqlash. 2. LKM (LKM-2) qurilmasi yordamida aniqlash. 3. 2L-12 qurilmasi yordamida aniqlash. 4. Arbitraj usuli yordamida aniqlash.

#### 1. Qo'lida ajratish orqali chigitli paxta iflosligini aniqlash

Na`munani sayqallangan yupqa taxta yoki karton ustiga joylashtirib, ketma ket uch etapda iflos aralashmalar pentsit bilan ajratiladi.

**Birinchi ajratish:** na`munadan pishmagan va maydalangan chigit, pishmalan tola plastigi va yirik iflosliklar ajratiladi va idishchalarga joylashtiriladi.

Ajratishda ajralgan mayda iflosliklar, yirik iflosliklar yig`ilgan idishchaga qo'shiladi.

Har turdag'i iflosliklarni massasini alohida  $\pm 1$  mg aniqlikda o'lchanadi va keyin massalar yig`indisi ( $m_c$ ) hisoblanadi. SHu bilan birga iflos aralashmalardan tozalangan paxta ham  $\pm 1$  mg aniqlikda tortiladi va massasi ( $m_b$ ) aniqlanadi.

**Ikkinci ajratish:** birinchi ajratish natijasida olingan toza paxtaning 10 joyidan iflos aralashmalarning massaviy ulushi 5% gacha bo'lganda  $0,05 * m_b$  ga teng qilib ikkinchi ajratish uchun ( $m_d$ ) tanlanadi.

$m_d$  massadan tola, qobiq va mayda iflosliklar ajratiladi va alohida  $\pm 0,1$  mg aniqlikda massasi o'lchanadi. SHu aniqlikda ikkinchi ajratish natijasida olingan toza tolaning massasi ( $m_b$ ) xam ulchanadi.

**Uchinchi ajratish :** ( $m_b$ ) massadagi paxtaning bir necha joyidan iflos aralashmalar massaviy ulushi 5% gacha bo'lganda  $0,2 * (m_b)$  ga, iflos aralashmalar massaviy ulushi 5% va undan yuqori bo'lganda  $0,5 * (m_b)$  ga teng qilib  $m_u$  massadagi miqdor ajratiladi.

$m_u$  massadan mayda iflosliklar ajratiladi keyin  $0,05$  mg aniqlikda massasi o'lchanadi.

Iflos aralashmalarning har bir turini ( $X_i$ ) foizlarda quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$X_i = \frac{m_i * k_i}{m_\eta} * 100$$

bu erda:  $m_i$  – namunani ajratish natijasida yig`ilgan iflos aralashmalar turining massasi, g;

$m_\eta$  – sinash uchun olingan namunanining 50g yoki 10g ga teng bo'lgan massasi;

$K_i$  – ikkinchi va uchinchi ajratishdan mununing massasini kamayishini hisobga oluvchi koeffitsient.

$K_i$  koefitsientining sinash uchun olingan namunanining massasi va ajratish etapiga bog'liq kattaliklari 4.1-jadvalda keltiriladi

4.1-jadval

Namunani ajratish	Sinash uchun olingan namunanining g lardagi massasida namunanining massasining kamayish koefitsienti $K_i$	
	50	10
Birinchi	1	1
Ikkinci	20	10
Uchinchi	100	20

CHigitli paxta iflos aralashmalarning yakuniy massaviy ulushi (P) hamma  $X_i$  qiymatlarni jamlab foizlarda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$P = \sum_{i=1}^n X_i$$

## **2. LKM (LKM-2) qurilmasi yordamida aniqlash.**

Iflos aralashmalarining massasini o'lchash paxtadan iflos aralashmalarни mexanik ajratishga asoslangan usullar yordamida bajariladi.

Massaviy-vazniy ulush miqdori quruq iflos aralashmalar vaznining quruq paxta vazniy nisbati bilan aniqlanadi.

Iflos aralashmalarga quyidagilar kiritiladi:

- mineral aralashmalar (toshchalar, tuproq, qum, chang);
- organik aralashmalar (barg, guldon, gul, kovochog va shox qismlari, shuningdek, mustahkamlikka ega bo'lмаган, qurigan, chirigan va bo'линган paxta qismlari).

ommoz bilan kasallangan paxtaning vazniy ulushi, gommoz bilan kasallangan paxta qismlari qo'lда tanlash bilan o'lchanadi.

O'lchashni bajarishga tayyorlashda paxta iflosligini va gommoz bilan kasallangan paxta miqdorini aniqlash uchun o'rtacha kunlik (birlashtirilgan namuna) olinadi.

Paxta namligi 12 % dan oshmagan holatda sinash o'tkaziladi. Agar namlik yuqori bo'lsa, paxta SXL—3 yoki USS—1 laboratoriya quritgichi yordamida quritiladi.

Quritish paxtada yashil barg, yashil ko'sak, yashil shox va boshqalar bo'lgandagi namlikka qaramay o'tkaziladi.

Quritilgan paxta sinash oldidan sovitilishi lozim.

O'lchashni arbitraj usuli bilan o'tkazishda O'z DSt 644—95 standarti bo'yicha paxta namligining vazniy nisbati aniqlanadi.

Namlik vazniy nisbati 12 % gacha bo'lganda paxtani qabul qilishda olingan o'rtacha kunlik (birlashtirilgan) namunaning sinash natija-larini ishlatish mumkin, namlik 12 % dan yuqori bo'lganda esa, o'rtacha kunlik (birlashtirilgan) namuna namligi u quritilgandan keyin alohida aniqlanadi.

O'rtach a kun lik (birlashti ril gan) paxta n am u nasi sil liq yuzaga joylashtiriladi va to'g'riburchak shaklida tekis qatlama taxlanadi. Agar toshchalar, yer va loy kesaklari topilsa, u holda ular terib olinadi, maydalanimiladi va o'rtacha kunlik (birlashtirilgan) namuna usti bo'yicha tekis sepib chiqiladi.

So'ngra namuna taxminan bir xil bo'lgan to'rtta qismga bo'linadi. Ikkita diagonal bo'yicha qarama-qarshi qismlar, ulardan tug'ilgan chang va ifloslar bilan birgalikda olib tashlanadi, qolgan paxta yana to'rburchak shaklida yoyiladi va bu holat namuna 1 kg qolguncha davom ettiriladi. Bu vazndan sinash uchun vazni 300 g bo'lgan uchta namuna olinadi, ulardan biri zaxira uchun.

Paxtani iflosligini uskuna bilan aniqlashda keltirilgan har bir to'dadan bitta 300 g namuna olinadi.

Gommoz bilan kasallangan paxta miqdorini aniqlash uchun vazni 500 g bo'lgan namuna tanlanadi.

O'lchashni bajarish. LKM qurilmasi va uning modifikatsiyasi yordamida o'lchash usuli qo'llaniladi. Vazni 300 g bo'lgan har bir paxta namunasidan iflos aralashmalarga kiradigan, chirigan, singan va qurigan pallachalar olib tashlanadi.

So'ngra namuna LKM qurilmasida 3 daqiqa davomida iflos aralashmalardan tozalanadi (4.1-rasm).

LKM rusumli asbob bilan ishlanganda 300 g li kichik namuna olib, ta'minlovchi bunker (1) ga joylanadi, «yurgizish» tugmachasi bosiladi. Asbob ishlashi bilan bunkerning qopqog'i (2) ni tortib ochganda paxta qoziqli bo'limiga o'tadi va tezlik bilan qopqoq qayta yopiladi. Chigitli paxta bo'limida 120 soniya tozalanadi va bu vaqtga «1-bo'lim» lampasi yonib turadi. 120 soniya vaqt o'tgach, maxsus elektrmagnit ishlab «1-bo'lim» lampasi o'chib «2-bo'lim» lampasi yonadi va qopqoq (6) avtomatik ravishda ochilib, chigitli paxta ikkinchi seksiyaga o'tadi, bunda yana 45 soniya tozalanadi. Shu vaqt o'tgach «sikl tamom» degan signal lampasi yonib («2-seksiya» lampasi o'chadi), chigitli paxta 15 soniya ichida yashik (14)ga o'tadi va «sikl tamom» lampasi o'chib, asbob avtomatik ravishda to'xtab qoladi.


Asbob to'xtagandan keyin hamma kamera devorlaridagi changlarni artib, idishlar olinadi va chigitli paxta namunasining iflosligi (%) quyidagicha aniqlanadi.

Tozalash to'xtatilgandan keyin kameraning devorlaridagi chang qurilma tarnoviga supirib tashlanishi kerak.

Qurilma tarnoviga tushgan yirik iflos aralashmalardan iflos aralashmalarga kirmaydigan tolali chigit terib olinadi. Tozalangan paxtada qolgan yirik iflosliklar terilib, ajralib chiqqan iflosga qo'shiladi.

Qurilma tarnovidan terilgan yirik va mayda iflosliklar qisman ajralib o'lik va chang bilan, paxta namunasidan qo'lida terib olingan chirigan, singan va qurigan pallachalar bilan birgalikda tarozilarda tortiladi.

Gardga chiqqan o'lik va erkin tolalar tozalangan paxtada qolgan mayda ifloslik bilan kompensatsiya qilinadi. Bu kompensatsiyaga ega bo'limgan ba'zi qiyin tozalanadigan paxta navlariga qo'shimcha koeffitsiyentlar belgilangan.



4.1-rasm. LKM rusumli asbob chizmasi: 1 — ta'minlovchi bunker; 2 — qopqoq; 3 — uzatuvchi qoziqchali baraban; 4 — qoziqchali barabanlar; 5 — chiviqlardan yasalgan kolosnikli panjara; 6 — qopqoq; 7 — uzatuvchi kurakchali baraban; 8 — arrali baraban; 9 — qo'zg'almas cho'tka; 10 — kolosnikli panjara; 11 — olinadigan kurakchali baraban; 12 — yirik xas-cho'plar tushadigan nov; 13 — klapan; 14 — tozalangan paxta yashigi; 15 — mayda xas-cho'plar tushadigan nov; 16 — vaqt relesi; 17 — elektr dvigateli.

### 3. 2L-12 qurilmasi yordamida aniqlash.

2L—12M qurilmasi yordamida o'lchash usuli. Vazni 300 g bo'lgan har bir paxta namunasidan, kolosniklar orasidan o'ta olmaydigan va iflos aralashmalar, yig'uvchiga tusha olmaydigan yirik iflosliklar, shuningdek, iflos aralashmalar tarkibiga kiradigan chirigan, singan va qurigan pallachalar yaxshilab terib olinadi.

Yirik aralashmalardan tozalangan paxta namunasi yig'uvchi bunkerga joylashtiriladi. Shundan so'ng ishga tushirish tugmasini bosish bilan elektr dvigatel yurgiziladi. Paxtani qurilmaga joylash ishchi organlar tezligini tiklash bilan, ya'ni qurilma ishga tushgandan 30 soniya o'tgandan keyin boshlanadi.

Paxta namunasining I va II navlari qurilmada 3 daqiqa, III, IV va V navlari 5 daqiqa tozalanadi. Shu vaqt o'tishi bilan qurilmani ishdan to'xtatmasdan, qopqog'i ko'tariladi va baraban toza paxtani tozalangan paxta uchun mo'ljallangan yashikka ag'daradi.

Yig'uvchining ostidagi chang paxta namunasidan qo'l bilan terib olingan qurigan, chirigan va singan pallachalarga qo'shiladi va birga tortiladi.

#### 4. Arbitraj usuli yordamida aniqlash.

Bu usul esa aniq o'lchamlar uchun ishlataladi. Tozalash qurilmasida ajratilgan ifloslik tortilib, termovlagomerda yoki qurituvchi shkafda belgilangan tartibda uning namligi aniqlanadi.

Gommoz bilan kasallangan paxta miqdorini aniqlashda, namunada gommoz bilan kasallangan qismlari ajratib olinadi va tortiladi.

O'lhash natijalarini hisoblash va to'ldirish. Paxtaning iflos aralashmalar (ifloslik) vazniy ulushi (3) foizlarda quyidagi ifoda bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$Z = \frac{m_c * 100 * k_1 * k_2}{m_p}$$

bu yerda:  $m_c$  - ajratilgan ifloslik (yirik va mayda)ning vazni, g;

$m_p$  — paxta namunasining ifloslik bilan birga tortilgan vazni, g;

$K_1$  — tozalangan namunada qolgan ifloslikni hisobga oluvchi, koefitsiyenti;

$K_1=1,00$  - hamma seleksiya navlari uchun;

$K_1=1,15$  - Ashxabod — 25 seleksiya navi uchun;

$K_1=1,09$  - 133 seleksiya navi uchun iflos aralashmalarning vazniy ulushi 7,99 % va undan ko'p bo'lganda.

Standart kiritilguncha,  $K_1$  koefitsiyentning «Paxta sanoat» IICHBda ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqa qiymatlarini vaqtincha ishlatalishga yo'l qo'yiladi.

$K_2$  - ifloslikdagi namlikni hisobga oluvchi koefitsiyent;

$K_2 = 0,98$  - agar namuna tozalash oldidan laboratoriya kiritgichda quritilmasa (paxta namligi 12 % va undan kam);

$K_2=1,00$  — agar namuna tozalash oldidan quritgichda quritilgan bo'lsa (Pa K  $_i$  o'o + w J" % dan oshsa);

$$K_2 = \frac{100 + W_f}{100 + W_c} \quad - \text{Arbitraj usuli bilan aniqlashda};$$

$W_f$  - iflos aralashmalardan tozalashda oldingi (quritgichdan keyin), paxta namligining vazniy nisbati, %;

$W_c$  - ajratilgan iflos aralashmalar namligining vazniy nisbati, %.

Hisoblash ikkinchi o'nlikkacha bajariladi, keyin bir o'nlikka yaxlitlanadi.

Yo'l qo'yilgan tafovutlardan oshgan hollarda uchinchi sinash o'tkaziladi. Bu holda sinashning natijasi qilib uchta parallel aniqlashlarning o'rta arifmetik natijalari olinadi.

Gommoz bilan kasallangan paxtaning vazniy ulushi foizlarda quyidagi ifoda bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$X = \frac{m_1 * 100}{m_h}$$

bu yerda:  $m_1$  — gommoz bilan kasallangan paxtaning vazni, g.

Hisoblash ikkinchi o'nlikkacha bajariladi, keyin bir o'nlikkacha yaxlitlanadi.

Agar ikkala o'rtacha namunaning ifloslik darajasi ko'rsatkichlari orasidagi farq iflosligi 10 % gacha bo'lgan paxta uchun 0,6 % ortiq va iflosligi 10 % dan ortiq bo'lgan paxta uchun 1 % dan ortiq bo'lmasa, paxtaning haqiqiy iflosligini topish uchun shu ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati olinadi. Agar bu farq ko'rsatilgan chegaradan yuqori bo'lsa, ehtiyyot uchun belgilangan uchinchi kichik namunani ham tekshirib, uchala ko'rsatkichning o'rtacha qiymati aniqlanadi.

## **5-MASHIG`ULOT.**

### **MAVZU: CHIGITLI PAXTANING NAMLIGINI ANIQLASH USULLARI.**

**Ishning maqsadi.** Quritish shkaflari va tezkor aniqlovchi o'lhash qurilmalarini qo'llash yo'li bilan paxta namligining massaviy nisbatini belgilashdir.

**Kerakli material va jixozlar:** Tarozi, paxta na`munalari, metall byukslar, shkala bo'limi  $2^{\circ}\text{C}$  bo'lgan kontaktli termometr, shkala bo'limi  $0,5^{\circ}\text{C}$  dan oshmagan nazorat termometri, UZ-7M tipidagi yoki majburiy havo almashtirgichli SHXS tipidagi quritish shkafi, termoregulatorli UZ-8 tipidagi qurilma, USX-1, VXS-1 va VXS-M1 o'lhash qurilmalari byukslar bilan.

**Topshiriq:** 1. Paxtaning namligini USX-1, VXS-1, VXS-M1 o'lhash moslamalarida aniqlash. Quritish shkaflari yordamida ulhash usuli.

#### **1. Paxtaning namligini USX-1, VXS-1, VXS-M1 o'lhash moslamalarida aniqlash.**

O'lhashni bajarishga tayyorgarlik. Namlikni tezkor aniqlovchi qurilmalar sinov natijalarini tasdiqlangan tekshirish qo'llanma bilan vaqt-i-vaqt bilan quritish shkaflari sinov natijalariga solishtirish yo'li orqali tekshirib turilishi lozim.

O'lhash bajarilishidan oldin o'lhash moslamalari va quritish shkaflari quyidagicha qizdirib turilishi lozim: USX-1, VXS-1, VXS-M1 -  $(195\pm2)^{\circ}\text{C}$ ; quritish shkaflari -  $(110\pm1,5)^{\circ}\text{C}$ .

Paxta partiyasidan namunalar tanlash O'z DSt 643 ga muvofiq bajariladi.

USX-1, VXS-1, VXS-M1 o'lhash moslamalarida namlikni aniqlash uchun namunalar tanlashda sinov uchun namunalar bankaga solingan yoki stolga yoyib qo'yilgan birlashtirilgan (o'rta kunlik) namunadan tanlab olinadi. Birlashtirilgan namuna stolga yoyib qo'yilgan bo'lsa, namuna yoyib qo'yilgandan keyin darhol tanlab olinadi. Birlashtirilgan (o'rta kunlik) namunaning har yeridan 10-13 g bo'lgan paxta tanlab olinadi. Tanlash 3-4 marta qaytariladi. Tanlab olingan paxta qo'shiladi va shu zahoti massasi  $(40,00\pm0,02)$  g ga yetkazib tortiladi.

Har bir o'rta kunlik yoki birlashtirilgan namunadan paxtaning namligi 20 % % gacha bo'lsa - bir namuna va namlik 20 % % dan ortiq bo'lsa - ikki namuna tanlab olinadi.

Har bir keltirilgan paxta to'dasi namligini aniqlash uchun birlashtirilgan namunadan, uning namligidan qat'i nazar, bir namuna olinadi.

Paxta qabul qilish punktlarida namlikni aniqlashning to'g'riligini nazorat qilish uchun uch namuna tanlab olinadi.


Quritish shkaflarida namlikni aniqlash uchun namunalar tanlashda sinov uchun namunalar birlashtirilgan (o'rta kunlik) namunadan USX-1, VSX-1 o'lhash moslamalariga qo'yilgan talablarga mos quyidagi o'zgartirishlar bilan tanlab olinadi. Massasi 10-13 g bo'lgan paxta oldindan og'irligi tortilgan 4 byuksiga bir xilda qilib solinadi. 3-4 marta tanlangandan keyin har bir byuksdagি paxtaning massasi  $(10,00\pm0,01)$  g ga yetkaziladi.

Bir byuksdagи namunani tortib ko'rishga ham ruxsat etiladi, bunda tortilgan namuna bo'sh byuksiga olib qo'yiladi. Namuna solib o'lchanadigan byuks massasi bir kunda 2—3 marta tekshirilib turilishi kerak.

O'lhashni bajarish. Namlikni tezkor usulda USX-1, VXS-1 va VXS-M1 rusumli asboblarda aniqlanadi.

USX-1 tipidagi termonamo'lchagich (5.1-rasm) quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan.

Karkas (10), qizdirish moslamasi (4), asos (12), prujina (11) dan iborat. Termonamo'lchagichning oldi tomonidagi yuqori paneliga «quritish» (6), tayyor (7) signal chiroqchalari, yurgizish (5) va to'xtash (8) tugmalari, tumbler (1), chiroqcha (2) va saqlagich (3) lar joylashgan. Ulardan pastroqda ustki va ostki qizdirish moslamalarining haroratini belgilangan darajada ( $195^{\circ}\text{C}$ ) saqlaydigan KVM-503 tipidagi ikkita potensiometr (9) joylashgan.



5.1-rasm. USX-1 rusumli termonamo'lchagich


Quritish kamerasi aluminiy qotishmasidan yasalgan ikkita plitadan iborat bo'lib, ularning ichiga qizdirish uchun elektr spirallari va termojuftlar o'rnatilgan. Yuqoridagi va pastki plitalar o'zaro sharnir orqali birlashtirilgan bo'lib, yopilganda balandligi 3,7-0,2 mm ni tashkil qiladi, quritish kamerasining yuzasi 450-454,5 sm<sup>2</sup>.

«Tayyor» lampasi yongandan keyin asbob qopqog'ini ochib, tayyorlangan chigitli paxta namunasini (40 g) pastki plita ustiga tekis yoyib, qopqoq esa yopib qo'yiladi. «Yurgizish» tugmasini bosganda «Quritish» lampasi (6) yonishi kerak. 4 daqiqa 15 soniya o'tgandan keyin qurish vaqtini tugayotganidan darak beruvchi tovush signali chalinadi. 5 daqiqa bo'lgandan so'ng «Quritish» lampasi (6) uchadi. Shundan so'ng kamerani ochib paxta namunasini to'kilgan iflosliklar bilan birga olinadi va byuksga solinadi. Keyin tarozida tortib, qurigandan keyingi og'irligi va formula yordamida uning namligi anilanadi.

VXS-M1 turidagi termonamo'lchagich (5.2-rasm) quyidagi qismlardan tashkil topgan: quritish kamerasi (2) ikkita plitadan iborat bo'lib, ularning ichiga qizdirish uchun elektr spirallar va termojuftlar joylashtirilgan, yuqori va pastki plitani o'zaro sharnir bilan birlashtirilgan. Plitaning yuzasiga aylana shaklida disk mahkamlangan bo'lib, u paxta tolasini plitaga tushishdan saqlaydi. Plitaning ichiga maxsus teshik orqali issiqlik qarshiligi o'rnatilgan, u issiqlik datchigi bo'lib xizmat qiladi. Mahkamlangan sharnirning qarama-qarshi tomonida plitalar o'zaro qulf orqali berkitilgan, ular richag orqali amalga oshiriladi.

Plita berk holda olingan namuna uchun ma'lum bir balandlikka ega bo'lgan oraliq qoladi. Moslamani boshqarish uchun u o'ziga quyidagi qismlarni biriktirgan. Taymer va haroratni sozlash uchun ikkita paneldan iborat (1).

Taymerning vazifasi quritish vaqtini (3, 4, 5 min) hisoblash uchun xizmat qiladi, qurish jarayonining tugashi 8-15 sek qolganida avtomatik ravishda signal chalinadi.



5.2-rasm. VXS-M1 turidagi termonamo'lchagich chizmasi.

### **Tajriba o'tkazish usuli**

1. USX-1 va VXS-M1 belgili termonamo'lchagichlar yordami bilan chigitli paxta, chigit va toladan namunalar olinadi. Olingan namunalarni aniqligi 0,01 g gacha aniqlikda o'lchanadi. VXS-M1 termonamo'lchagich uchun olinadigan namunalar og'irligi quyidagi 5.1-jadvalda berilgan.

USX-1 va VXS-M1 belgili termonamo'lchagichlar yordami bilan chigitli paxta, chigit va toladan namunalar olinadi. Olingan namunalarning aniqligi 0,01 gacha aniqlikda o'lchanadi.

5.1-jadval

	Namuna	Olingan namuna og'irligi, g	Quritish vaqtidaqiqasi, daqiqasi
1	Chigitli paxta	40,00±0,03	5
2	Paxta tolasi va momiq	20,00 ±0,02	3
3	Chigit	50,00 ±0.02	4

Chigitli paxtaning, tolaning va chigitning haqiqiy namligini quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi.

$$\text{Paxtaning namligini aniqlash: } W_p = \frac{m_H - m_c}{m_c} 100 - 0.6\%$$

$$\text{Tolaning namligini aniqlash: } W_t = \frac{m_H - m_c}{m_c} 100 - 0.4\%$$

$$\text{Chigitning namligini aniqlash: } W_{ch} = \frac{m_H - m_c}{m_c} 100 - 0.5\%$$

Bu yerda:  $m_H$  - namunaning quritishgacha bo'lgan vazni, g;

$m_c$  - namunaning quritishdan keyingi vazni, g;

0,6; 0,5; 0,4 - termonamo'lchagichda namlik aniqlashning natijalariga kiritiladigan tuzatish koeffitsiyenti.

Tanlab olingan namunani o'lchashga tayyor bo'lgan asbobning quritish zonasida bir tekis qilib yoyiladi va qopqoq yopilib, vaqt relesi ishga tushiriladi.

Quritish boshlangandan 5 daqiqadan so'ng quritish kamerasi qopqog'i ochilib namuna chiqarib olinadi, to'kilgan iflos aralashma kurakcha va cho'tka yordamida yig'ishtiriladi. Namuna bilan iflos aralashma byuksga joylanadi, qopqog'i berkitiladi va darhol massasi o'lchanadi. So'ngra bo'shagan byuks qopqog'i ochilgan holda o'lchanadi. O'lchashning xatoligi ±0,02 g.


O'lchashlar soni ko'p bo'lganda va birinchi ikki-uch o'lchashlarda bo'sh byuksning massasi 0,01 g dan ortiq farq qilmasa, bo'sh byuks massasi o'lchanmasa ham bo'ladi. Keyinchalik bo'sh byuksning massasi har 10 o'lchashdan keyin tortib turiladi.

### **2. Quritish shkaflari yordamida o'lchash usuli**

Tanlab olingan har bir namunani chigit maydalaydigan qurilmadan o'tkazib, bo'sh byuksiga (qopqog'i yo'q) solib, quritish shkafiga joylashtiriladi va 4 soat davomida UZ-7M quritish shkafida quritiladi (5.3-rasm). Keyin byukslar chiqariladi, qopqoqlari yopilib sovitish uchun eksikatorda 30 daqiqa saqlanadi. Sovitilgan byukslar namuna bilan birga tortiladi, keyin bo'shatilgan byukslar tortiladi.

Paxtaning namligi 12 % dan yuqori bo'lsa, massasi tortilgan har bir namuna quritish shkafida  $(110 \pm 1,5)^\circ\text{C}$  haroratda bir soat davomida quritiladi, keyin chigit maydalaydigan qurilmadan o'tkaziladi. Namunalar maydalangach quritish shkafida 4 soat davomida quritiladi.

Namlikni tezkor usulda aniqlovchi o'lchash qurilmalarida namu-nalar quritilganda paxtaning rangi och jigarranggacha o'zgarishi ko'zda tutiladi.



5.3-rasm. UZ-7M rusumli quritish shkafi.

#### **O'lchash natijalarini hisoblash:**

Paxta namligining massaviy nisbatini ( $W$ ) foizlarda formulalar orqali hisoblanadi:

- USX-1, VXS-1, VXS-M1 o'lchash asboblari qo'llanilganda:

$$W = \frac{m_H - m_c}{m_c} 100 - 0.6\%;$$

- quritish shkaflari qo'llanilganda:

$$W = \frac{m_H - m_C}{m_C} * 100$$

bu erda:  $m_H$  - paxta namunasining quritishgacha bulgan massasi - g;

$m_C$  - paxta namunasining quritishdan keyingi massasa, g;

0,6 - o'lchash asboblari natijalariga kiritiladigan tuzatish.

Hisoblash to ikkinchi o'nlik belgisigacha bo'lgan aniqlik bilan amalga oshiriladi va birinchi o'nlik belgisigacha yaxlitlanadi.

Agarda o'lchashlar bir nechta namunalarda olib borilgan bo'lsa, o'lchash natijasi sifatida ularning o'rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi.

#### **O'lchashlarning ruxsat etilgan xatoligi.**

Ikki har xil laboratoriyyada olingan ikki namunani sinash (usulning kelishuvchanligi) natijalari orasidagi yoki bir laboratoriyyada har xil sharoitda olingan ikki sinov (usulning qaytariluvchanligi) orasidagi farqlanish namlikning massaviy nisbatini aniqlashning to'g'riligini tekshiruvchi nazorati ostida olingan natjalarning ruxsat etilgan farqlanishidan, paxtaning namligi 10 % gacha bo'lganda  $\pm 0,5$  abs. % dan va USX-1, o'lchash moslamasi qo'llanilganda va namlik 10 % dan yuqori bo'lganda  $\pm 5$  nisb. % dan oshmasligi kerak.

Paxtaning namligi 10 % gacha bo'lganda USX-1, VXS-1, VXS-M1 o'lchash qurilmalarida namlikni aniqlashning xatoligi quritish shkafida aniqlanganiga nisbatan  $\pm 0,5$  abs. % dan oshmasligi va namlik 10 % dan yuqori bo'lganda  $\pm 5$  nisb. % dan oshmasligi lozim.

3. Quritish shkafida namlikni aniqlashning hisobga olingan sistematik xatoligi  $\pm 0,2\%$  dan oshmasligi kerak.

## **6-MASHIG`ULOT.**

### **MAVZU: CHIGITLI PAXTADAN TOLA CHIQISHI VA TOLALIK DARAJASINI ANIQLASH.**

*Ishning maqsadi.* CHigitli paxtadan tola chiqishi va tolalik darajasini aniqlashni o'rganish.

*Kerakli material va jixozlar:* Tarozi, paxta na`munalar.

*Topshiriq:* 1. CHigitli paxtadan tola chiqishi va tolalik darajasini aniqlash. 2. 1000 dona chigit vaznini aniqlash

#### **1. CHigitli paxtadan tola chiqishi va tolalik darajasini aniqlash.**

CHigitli paxtadan olinadigan asosiy mahsulot paxta tolsi hisoblanadi. Tola massasi  $G_T$  ning chigitli paxta massasi  $G_{ch}$  ga nisbatli tolanning chiqishi V deb ataladi (%):

$$B = \frac{G_T}{G_{ch}} * 100$$

Laboratoriya sharoitida har bir partiya chigitli paxtadan qancha tola chiqishini shu partiya paxta namunasini 10 arrali jinda ishlab chiqib topiladi. Ishlab chiqarish sharoitida esa berilgan partiya paxtasining kontrol partiyaesini ishlab tola chiqishi aniqlanadi.

Nazorat partiya paxtalarini zavodda ishlashdan avval paxta tarozida tortiladi, tozalanadi va texnologik mashinalar sozlanadi. Paxta ishlangandan keyin tayyor mahsulotlarni va iflosliklarni alohida yig'ib tarozida tortib tola, chigit, lint va tolali chiqindilar hamda iflosliklarni alohida o'lchab, ularning chiqishi aniqlanadi.

**Misol:** 1-namunadagi chigitli paxta og'irligi 100,0 g. Tolanning sof og'irligi 37,0 g, chigit og'irligi esa 63,0 g ga teng.

2-namunadagi chigitli paxta og'irligi ham 100,0 g bo'lib, undagi tolasining og'irligi 36,5 g ga, chigit esa 63,5 g ga teng.

Tola chiqishini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida chigitli paxtaning tolalik darjasini tolalik indeksi xizmat qiladi. CHigitli paxtaning tolalik darjasini deb 100 dona chigitdan ajratib olingan tolanning g hisobidagi massasiga aytildi.

Tolanning indeksi  $I_v$  bilan tolanning chiqishi orasida ma'lum bog`lanish bo'lib, uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$U_B = \frac{GB}{100 - B},$$

bunda G - 100 dona chigit massasi, g; V - tolanning chiqishi, %

#### **2. 1000 dona chigit vaznini aniqlash.**

Namunalar o'rtasidagi mumkin bo'lgan farq 0,5 %. Har birida 1000 dona chigit bo'lgan, ma'lum g'o'za naviga xos chigit partiyasi umumiylaridan 2 ta katta namuna tayyorlanadi. Bu 2 ta namunaning har qaysisidan 100 tadan chigit namunasi ajratib olinadi. Olingan 100 talik namunalar alohida tortiladi. So'ngra bu namunalar ikkalasi qo'shilib, 10 soniga ko'paytiriladi.

Masalan: 1-namunadagi chigitning og'irligi 12,0 g;

2-namunadagi chigit og'irligi esa 12,5 g.

Bularning o'rtacha og'irligi 12,25 g. Tahlil natijalariga ko'ra shu ikkala namunalar o'rtasidagi farq 0,5 g bo'ldi. Bu namunalar to'g'ri olingan. 12,25 g og'irlilik o'rtacha 100 ta chigitning og'irligini bildiradi. 1000 ta chigitning og'irligi  $12,25 \times 10 = 122,5$  g bo'ldi. Demak, shu navga xos bo'lgan partiyadagi 1000 ta chigitning og'irligi 122,5 g ekanligi aniqlandi.

## 7-MASHG`ULOT

### MAVZU: PAXTA TOLASINING PISHIB YETILGANLIGINI ANIQLASH.

**Ishning maqsadi.** Paxta tolasining pishib etilganlik ko'rsatkichini qutblangan yorug'lik va namunaning havo o'tkazuvchanligini aniqlashni o'rganish.

**Kerakli material va jixozlar:** Mikroskop, qutblantirgich, tarozi, paxta tolasi na`munalari, LPS-4 qurilmasi.

**Topshiriq:** 1. Tolaning pishib yetilganligini qutblangan yorug'lik orqali aniqlash; 2. Pishib yetilganlikni namunaning havo o'tkazuvchanligi bo'yicha aniqlash.

#### **O'lchash usullari**

Paxta tolasining pishib yetilganligi — devor to'qimalari qalinligining o'zgarishida ro'yobga chiqadigan selluloza to'planishi va g'o'zaning o'sish davrida tola ichki strukturasining o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Pishib yetilganlikni qutblangan yorug'likda aniqlash usuli, qutblangan yorug'likda kesishgan qutblantirgichlarda interferension tuslanishi tolaning ichki tuzilishi va qalinligiga bog'liqligiga asoslanadi.

Pishib yetilganlikni havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli tola qalinligining uni havo o'tkazuvchanligiga bog'liqligiga asoslangan.

LPS-4 qurilmasida sinashdan avval namunalar O'z DSt 618-94 bo'yicha klimatik sharoitda kamida 2 soat saqlanadi.

Agar paxta tolasining namligi 6 dan 10 foizgacha bo'lsa, shuningdek, namlik 6 foizdan kam 10 foizdan ko'p bo'lgan hollarda LPS—4 qurilmasida o'lchash uchun tasdiqlangan qo'llanmagan muvofiq tuzatma kiritilsa, klimatik sharoitda saqlamasdan tajriba o'tkazishga ruxsat etiladi.

Tolaning pishib yetilganlik koeffitsiyentini qutblangan yorug'likda aniqlash laboratoriyada, klimatik sharoitga bog'liq bo'limgan holda o'tkaziladi.

Paxta tolasidan namuna tanlab olish, namuna piltasini sinashga tayyorlash O'z DSt 604 va O'z DSt 618 ga muvofiq bajariladi.


#### **1. Tolaning pishib yetilganligini qutblangan yorug'lik orqali aniqlash**

Paxta tolasining pishib yetilish davrida uning kanalining ichki devorlariga selluloza qatlamlari yig'ilishi natijasida o'sish halqalari paydo bo'lib, kanali toraya boshlaydi. Pishmagan tolaning yigirilish xususiyatlari past bo'lib, bo'yoqni ham yaxshi qabul qilmaydi. Pishib yetilgan tolaning xususiyatlari, undan ishlangan ip va to'qimalarning sifati yaxshi bo'ladi.

Tola piltasi kengligining uning kanali kengligiga nisbati tolaning pishganligini ifodalaydi. Shartli ravishda paxta tolasining pishganlik darajasini belgilash uchun uni 2-guruhga (7.1-rasm) bo'lish qabul qilingan. O'ta pishgan tolada selluloza ko'p yig'ilishi natijasida shakli ham silindrga o'xshab qolgan, buralishi yo'qolganligi uchun uning pishganlik koeffitsiyenti 5,0 deb qabul qilingan va butunlay pishmay qolgan tolada selluloza deyarli bo'limganligi uchun devorlari juda yupqa bo'lganligidan uning pishganlik koeffitsiyenti 0,0 deb qabul qilingan.

Tolaning pishganligini aniqlash uchun 250 dona paxta tolasi 300-400 marta kattalashtiradigan mikroskopda qarab chiqiladi, etalon rasmida ko'rsatilganlarga taqqoslab ularning pishganlik koeffitsiyentlari aniqlanadi, so'ng shu koeffitsiyentlarning o'rtachasini hisoblab tekshirilayotgan holat guruhining o'rtacha pishganlik koeffitsiyenti topiladi.

Paxta tolasining pishganligini mikroskopda qutblangan yorug'lik orqali qarab, tezroq topish mumkin. Bu usul to'qimachilik tolalari orqali yorug'lik o'tkazilganda qutblanib interferensiyanish xususiyati paydo bo'lishiga asoslangan. Buning uchun polyaroid deb ataladigan maxsus moslama bilan har qanday mikroskopni ishlatish mumkin.



7.1-rasm. Tolaning pishganlik koeffitsiyentlari.

Namuna uchun olingan tola piltasidan 25—30 mg ni ajratib, qo'lda shtapel yasaladi va undan 4 ta oynaga preparat yasab, har bir preparatni mikroskopda 80...120 marta kattalashtirib qaralganda ko'zga 35—50 dona tola ko'rindigan bo'lishi kerak. Tolaning pishganligini aniqlash uchun hammasi bo'lib 300—400 dona tolani ko'rib chiqib, har xil pishganlik guruhidagi tolalar foizini hisoblash kerak.

Tolalar polyaroid orqali qutblangan yorug'likda qaralganda umumiy qizil rang ichida ular pishganlik darajasiga qarab turli rangda ko'rindi. Bu ranglar quyidagi to'rt guruhga bo'lingan (7.1-jadval).

7.1-jadval

Tola qutblangan yorug'lik orqali qaralganda uning pishganlik darajasiga qarab ko'rinish rangi

Pishib etilganlik guruhi	Paxta tolasining pishib etilganlik darajasi	Paxta tolasining bo'yalishi	Paxta tolasining tuzilishi va uning kanali
1	Pishgan	To'q sariq va pushtiroq, gunafsharang qismli tillarang sariq, shu bilan birga yashil va zangori qismli yashilroq sariq	Tola tsilindr ko'rinishda, tor kanalli
2	Pishib etmagan	Ko'k va zangori, sariq va zangori, ko'k qismli yashil	Tola piltasimon tuzilishda keng kanalli
3	Pishmagan	Gunafsharang va gunafsharang qismli ko'k	shuningdek
4	Umuman pishmagan	Tiniq qizil qismli gunafsharang va tiniq qizil	shuningdek

## 2. Pishib yetilganlikni namunaning havo o'tkazuvchanligi bo'yicha aniqlash usuli

Paxta tolasining birlashtirilgan namunasining har joyidan massasi 50 g dan kam bo'limgan tola ajratib olinadi va analizatordan o'tkaziladi.

Tozalangan va titilgan paxta tolasidan to'rtta namuna ajratiladi. Har bir namunani sinash uchun turli joydan olingan alohida to'plamlar bilan emas, balki bir joydan butun olinadi. Namuna tanlab olishda va o'lchashda tolani qo'l bilan zichlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'lchash uchun har bir namunaning massasi tasdiqlangan qo'llanmaga muvofiq g'o'zaning seleksion naviga qarab belgilanadi.

Namuna massasini o'lchash xatoligi 10 g dan ko'p bo'lmasligi kerak.

LPS qurilmasida o'lhash bajarilayotganda tayyorlangan tola ketma-ket asbobning ishchi kamerasi ichida bir xil tekis joylashtiriladi. Kamera qopqog'i zich qilib berkitiladi, ventilator ishga tushiriladi va drosselni tutqichi yordamida asbobga o'ng manometrning (100 mm suv ustuni) bo'yicha kerakli miqdorda havo beriladi.

O'ng manometrning shkala ko'rsatkichlari kerakli qiymatlarga yetganda berilgan tola namunasi uchun asbobjagi havoning siyraklashish kattaligini aniqlaydigan chap manometr shkala ko'rsatkichi yozib olinadi (mm suv ustunida). Shkala bo'limlarining hisobi o'ng va chap manometrlar naychalaridagi suv ustunining pastdagi meniskasi bo'yicha olinadi. Shunday tartibda qolgan namunalar o'lchanadi.

### *O'lhash natijalarini hisoblash.*

Qutblangan yorug'likda pishib yetilganlikni aniqlash usuli. Har bir ko'rinish qismida 1, 2, 3 va 4 pishib yetilganlik guruhlariga tegishli paxta tolalari soni sanaladi. So'ng umumiyligi yig'indi 100 foiz deb hisoblanib, har bir guruhning pishib yetilganligi (A) necha foizligi hisoblanadi.

Har bir guruh pishib yetilganlik koeffitsiyenti K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub>, K<sub>3</sub>, va K<sub>4</sub> 7.2-jadval bo'yicha tolaning 1-guruh pishib yetilganligi foiz miqdoriga ko'ra aniqlanadi.

7.2-jadval

1-pishib etilganlik guruhining foiz miqdori		Paxta tolasining pishib etilganlik guruhi bo'yicha pishib etilganlik koeffitsientlari				
		1	2	3	4	
O'rta tolali paxta navlari	Ingichka tolali paxta navlari	O'rta tolali navlar	Ingichka tolali navlar	O'rta tolali va ingichka tolali paxta navlari		
77,5 va undan ortiq	73,5 va undan ortiq	2,40	2,45	1,30	1,00	0,50
69,1-77,4	65,1-73,4	2,35	2,40	1,30	1,00	0,50
43,5-69,0	40,5-65,0	2,30	2,30	1,30	1,00	0,50
35,5-43,4	35,5-40,4	2,00	2,00	1,30	1,00	0,50
35,4 dan kam bo'lgan	35,4 dan kam bo'lgan	2,00	2,00	1,00	1,00	0,50

Pishib etilganlik koeffitsienti o'rtacha ulushlik qiymati (K) quyidagi formulada hisoblanadi:

$$K = \frac{A_1 K_1 + A_2 K_2 + A_3 K_3 + A_4 K_4}{100}$$

bu erda A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub>, A<sub>3</sub>, A<sub>4</sub> – to'rtta pishib etilganlik guruhining foiz miqdori;

K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub>, K<sub>3</sub>, K<sub>4</sub> – 1-pishib etilganlik guruhining foiz miqdoriga muvofiq, to'rtta guruh tolalarinig pishib etilganlik koeffitsienti;

Hisoblash va dastlabki ikkinchi o'nlik belgisigacha anqlik bilan amalga oshiriladi va birinchi o'nlikkacha yaxlitlanadi.

### *O'lhashning xatolik me'yori*

Pishib yetilganlik koeffitsiyenti bo'yicha parallel namunalarning orasidagi ruxsat etilgan tafovut (usulning yaqinligi) quyidagilardan oshmasligi kerak:

- qutblangan yorug'likda ikkita namuna orasida ko'pi bilan - 0,1;
- to'rtta namuna, maksimum va minimum qiymatlari o'rtasida havo o'tkazuvchanlik bo'yicha, ko'pi bilan 0,03 yoki LPS-4 shkalasiga nisbatan Pa (mm suv ustuni) da 2,5 %.

Pishab yetilganlik koeffitsiyentining sinash natijalari orasidagi ikki turli laboratoriya yoki bir laboratoriyyada har xil sharoitda (usulning tiklanishi) olingan ikkita sinash orasidagi ruxsat etilgan tafovut 0,1 dan oshmasligi kerak.

## 8-MASHIG`ULOT.

### **MAVZU: PAXTA TOLASI CHIZIQLI ZICHЛИGI VA MIKRONEYR KO'RSATKICHINI ANIQLASH.**

**Ishning maqsadi.** Paxta tolasi chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlashni o'rghanish.

**Kerakli material va jixozlar:** Mikroneyr chizmasi, paxta tolasi na'munalari.

**Topshiriq:** Paxta tolasi chiziqli zichligi va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash.

Paxta tolasi — mikroneyr ko'rsatkichini namuna havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usul O'z DSt 620—94 ga muvofiq bajariladi. Paxta tolasini qabul qilish-yetkazib berishda sinash usuli namuna chiziqli zichligini havo o'tkazuvchanligi bo'yicha aniqlash usuli, deb hisoblanadi.

Mikroneyr ko'rsatkichini havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli — namunaning havo o'tkazuvchanligini aniqlaydigan mikroneyr qurilmasi, mikroneyr shkalasiga ega bo'lgan asbobning modeliga bog'liq tortish xatoligi namuna massasining 0,2 foizdan oshiq bo'limgan tarozidir.

Mikroneyr ko'rsatkichini HVI o'lchash sistemasi tarkibiga kiradigan asbob yoki LPS-4 qurilmasi bo'yicha aniqlash mumkin.

Mikroneyr - bu paxta tolasining pishganligini va ingichkaligini aniqlash laboratoriya asbobi.

Mikroneyrning 2 xili mavjud: statsionar va ko'chirma. Ko'chirma mikroneyrlar klasserlar bilan faqat paxta zavodlarida ishlataladi.

Tarozili va tarozisiz ko'chirma mikroneyrlar mavjud.

Quyida tarozili ko'chirma mikroneyrlar bilan tanishamiz.

Mikroneyr o'z ichiga: elektr kompressor, porshenli havo kamerasi, tarozi, mikroneyr ko'rsatkich shkalasi, ishchi kamera, 8 gr tosh va kolibr shaybasi (6,5-0 mic ko'rsatkichi bilan)ni oladi. Ish uchun kolibr tolasi kerakdir.

Elektr kompressor - mikroneyr tizimiga havo berish uchun xizmat qiladi.

Porshenli stabilizatsiya havo kamerasi — mikroneyr tizimida bosimni teng taqsimlash uchun kerakdir.

Tarozi - ma'lum miqdorda paxta tolasini o'lchash uchun (8 gr) xizmat qiladi.

Mikroneyr ko'rsatkich shkalasi — mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun xizmat qiladi, mikroneyr ko'rsatkichi bosim shkalasidan va ko'rsatish strelkasidan iborat.

Ishchi kamerasi - temirli stakan va richag orqali harakatlanuvchi plunjerdan iborat.

8 kg tosh - tarozining kolibrovkasi uchun xizmat qiladi.

Kolibrovkali shayba - yuqori va pastki mikroneyr ko'rsatkichining (6,5-0 mic) kolibrovkasi uchun xizmat qiladi, u temir metall bochkasi va klapandan iborat.


Kolibrovkali tola — bular mikroneyrda o'z ko'rsatkichiga xos bo'lib, ular AQSHning qishloq xo'jaligi vazirligi etalon laboratoriyasida standartlar bo'yicha yaratilgandir.

**Mikroneyrning ishlashi.** Ishni boshlashdan oldin — elektr kompressor elektr tarmoqqa (220 volt) ulanadi. Kompressordan havo rezinali shlangdan havo kamerasiga ko'tariladi, so'ng porshen kameraning eng yuqori nuqtasiga ko'tariladi (8.1-rasm).

**Mikroneyrni ishg'a tayyorlash.** Birinchi navbatda tarozining kolibrovkasi qilinadi. Buning uchun mikroneyr ko'rsatkich shkalasida romb shaklida bo'linma bor. Taroziga tosh (8 gr) qo'yiladi, ammo ko'rsatkichning strelkasi rombning o'rtasida turish kerak, buni taroz va havo kamerasining orasidagi uzatma vint bilan to'g'rilanadi. Tarozning kolibrovkasidan so'ng yuqori va pastki mikroneyr ko'rsatkichining kolibrovkasiga o'tiladi. Ishchi kamerasiga kolibrovkali shaybani joylashtiriladi, plunjerni ko'tarib (richagni tushirib), ishchi kameraning tepasida joylashgan o'ng vint bilan mikroneyrning yuqori nuqtasi kolibrlanadi. So'ng klapan yordamida ishchi kamerasidan havo chiqariladi va mikroneyrning nol ko'rsatkichi kolibrlanadi. Bundan keyin plunjerni tushirib (richagni ko'tarib), kolibrovkali shaybani chiqariladi.

Mikroneyrni aniq kolibrovka qilish uchun kolibrovkali toladan foydalaniladi. Kolibrovkali tola paxtaning navi bo'yicha aniq bo'linmaydi, ammo mikroneyrni past ko'rsatkichi bilan kolibrovkali tola paxtaning past navlari uchun, yuqori ko'rsatkichi bilan kolibrovkali tola paxtaning

yuqori navlari uchun ishlatiladi. Mikroneyrning ko'rsatkichlarida kolibrovkali tola 2,1 mic.dan 6,0 mic.gacha bo'ladi. Kolibrovka uchun mikroneyr tarozida yoki elektron tarozida, 8 gr kolibrovkali tolani o'lchab va keyin ishchi kamerasinga joylashtiriladi, so'ng ishchi kamerasinging qopqog'i yopilib va plunjер ishslash holatiga ko'tariladi (richagni tushirib).



8.1-rasm. Mikroneyr chizmasi: 1-tarozi; 2-mikroprotsessor; 3-kamera; 4-richag; 5-shkala; 6-strelka; 7-vakuum-klapan.

Paxta tolasining partiyasidan 10 % namunasidan mikroneyr ko'rsatkichi yoziladi.

Sinash usullarini nazorat qilish uchun maxsus tartibda tasdiqlangan paxta tolasining standart (etalon) namunalari qo'llaniladi.

Paxta tolasining chiziqli zichligi - tola massasini uning uzunligiga nisbatli aniqlaydigan kattalikdir. Bu ko'rsatkich tolanning qalinligini aniqlaydi.

Mikroneyr ko'rsatkichi namunadagi tola qalinligining havo o'tkazuvchanlik bo'yicha xarakteristikasidir.

Ba'zi bir seleksiya navlari uchun mikroneyr ko'rsatkichi mikrogrammni duymga nisbatida bo'lgan chiziqli zichlik bilan to'g'ri kelishi mumkin.

Xalqaro kelishuvlarga binoan bu ko'rsatkich paxta tolasining har xil seleksiya navlari uchun shartli mikroneyr shkalasi birligida qo'llaniladi.

Sinalgan namunalarning massasi shu tipdagи asbob uchun o'zgarmas va u g'o'zaning seleksiya naviga bog'liq emas.

Namunalarni sinashdan avval iqlim sharoitda, harakatdagi havo oqimi ostida kamida 4 soat, yoki harakatsiz havo oqimi ostida 12 soat davomida, yoki namuna vaznining o'zgarishi 2 soat davomida 0,25 foizdan oshmagan hollarda undan kam vaqt davomida ushlab turiladi.

Mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun LPS-4 qurilmasi qo'llanilganda sinash uchun namuna massasi  $9,0 \pm 0,02$  g. Sinash uchun namuna kichik-kichik qismlarda qurilmaning kamerasinga tolalarning to'p-to'p bo'lib yig'ilib qolishiga yo'l qo'yilmaydigan qilib joylashtiriladi. Zichlashgan va yig'ilib qolgan tolalar albatta qo'l bilan titiladi. Namuna orqali qurilmaning konstruksiyasiga bog'liq bo'lgan ma'lum bosim (yoki oqim) ostida havo oqimi yuboriladi. Asbob shkalasi bo'yicha hisob  $\pm 1$  foiz aniqlikda bajariladi.

Mikroneyr va LPS-4 asboblarida mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun ishlatilayotgan namuna sinash oldidan paxta analizatoridan o'tkazilmaydi.

### *O'lchash natijalarini hisoblash*

Mikroneyr ko'rsatkichini havo o'tkazuvchanlik bo'yicha aniqlash usuli. Mikroneyr kattaligidagi graduirovka qilingan shkalali asboblarda sinaladigan namuna uchun o'rtacha qiymat dastlabki ikkinchi o'nlik belgisigacha aniqlikda hisoblanadi va so'ngra o'nlik belgisigacha yaxlitlanadi. Natija 0,2 dan oshib ketsa, sinashlar qaytariladi. Agar shunda ham qiymatlar me'yordan oshsa, hamma sinalgan namunalar bo'yicha o'rtacha arifmetika qiymati hisoblanadi.

Boshqa kattaliklarda graduirovka qilingan shkalali asboblar nisbatlar yoki jadvallar yordamida ko'rsatkichlar to'g'ridan-to'g'ri mikroneyr kattaligiga aylantiriladi

## 9-MASHG`ULOT

### MAVZU: PAXTA TOLASINING NUQSONLARI VA IFLOS ARALASHMALAR MIQDORINI ANIQLASH.

*Ishning maqsadi.* Paxta tolasining nuqsonlari va iflos aralashmalar miqdorini aniqlash.

*Kerakli material va jixozlar:* Paxta tolasi na`munalari, karton, pentsit, tarozi, AX yoki FM-30 tipidagi paxta analizatori.

*Topshiriq:* 1. Qo'lda ajritish orqali paxta tolasi nuqsonlar va iflos aralashma miqdorini aniqlash; 2. Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini paxta analizatori yordamida aniqlash

#### *Tola tarkibidagi ifloslik va nuqsonlar*

Paxtaning asosiy xossalari undan olinadigan mahsulotlarning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Agar paxta butunlay pishmagan - o'lik bo'lsa, chigit puch, yetilmagan, tola devorlari juda yupqa, uzun naychaga o'xshaydi. Uning tolasi juda notejis va bo'sh bo'lib, undan sifatli ip olib bo'lmaydi, bo'yoqni yaxshi olmaydi. Bunday tolaning devori faqat bir qavat kutikuladan iborat, xolos, kutikulada esa moy mumli moddalar juda ko'p, hujayra selluloza juda kam bo'ladi. O'lik tolalar bir-biriga yopishgan yaltiroq, nafis qatlamlardan iborat. Paxta tolasi yetilishi chanoq ochilgandan keyin tola quriydi, uning devorlari bir-biriga yopishgan lentasimon shaklni oladi hamda unda jingalakklik hosil bo'ladi. Paxta tolasi pishgan sari uning tashqi diametri ichki diametriga nisbatan oshadi va u pishganlik koeffitsiyenti deb ataladi. Paxta tolasi uzunligi, tolaning bir tekisligi, yo'g'onligi, tolaning pishiqligi va cho'ziluvchanlik xossalari va paxta tolasining namligi bilan belgilanadi. Paxta namroq bo'lsa, uni qayta ishlaganda mashina qismlariga yopishib qoladi, juda quruq bo'lsa, tolalar sinib, chiqindi ko'payadi.

Paxtadagi xas-cho'plar, iflosliklar - bu tolaning nuqsonlari. Agar paxtadan namuna olib qarasak, unda normal pishib yetilgan tolalardan tashqari xas-cho'p aralashgan va nuqsonli tolalar borligini ko'ramiz. Bunday nuqsonlar biologik va mexanikaviy bo'lib, ular g'o'zaning o'sib rivojlanishida, paxta zavodlarida paxtani dastlabki ishlashda va ba'zan ip-yigiruv fabrikasida paxtadan ip olishda paydo bo'ladi. Bunday nuqsonlar ko'p bo'lsa, paxtaning qiymati pasayadi, ishlab chiqarish jarayonida chiqindilar ko'payadi, ipning chiqishi kamayadi va uninig sifati pasayib, yigirish va to'qish jarayonlarida ko'proq uzeladi, natijada mashinalarning ish unumi pasayadi. Paxtadagi xas-cho'plar va nuqsonlar (9.1-rasm):

Iflosliklar - maydalangan barglar, chanoqlar, g'o'za shoxlari va h.k. Bular tolalarga yopishgan holda bo'lib, ularni yo'qotish ancha qiyin.

Tolali o'lik - paxtani tozalashda paydo bo'lgan uzun tolalar, maydalangan xas-cho'plar va yetilib pishmagan, tolalari turlichayotgan chigitlardan iborat aralashma.

Kasallangan va zararlangan tolalar - g'o'za o'simligi kasallangan bo'lsa (biologik nuqson) va paxtani paxta tozalash korxonasida hamda ip-yigiruv korxonalarida ishlashda (mexanikaviy nuqson) hosil bo'lishi mumkin.

Maydalangan chigit (chigit bo'lakchalari) - paxtani dastlabki ishlashda hosil bo'ladi. ular yana maydalaniib, tolalar yopishgan po'stchalarga aylanishi mumkin. Bunday nuqson yigiruv korxonalarini uchun eng zararli nuqson bo'lib, yigirilgan ipda ham uchrashi mumkin.

Tuk va tolali chigit qobig'i - zararli nuqsonlardan hisoblanib, paxtani dastlabki ishlashdan chigitlarning maydalanishi natijasida, titish va savash mashinalarda hosil bo'ladi. Bular tolaga mahkam yopishib qoladi va ularni ajratish qiyin. Shuning uchun bunday nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini aniqlab, ularni kamaytirish zarur.

Tugunchalar - chigallanib qolgan tolalarning kichik guruhi; paxtani dastlabki ishlashda va savash-tarash jarayonida hosil bo'ladi. Bunday nuqsonlar yigiruv jarayonlarida ham tamoman yo'q bo'lmaydi.

Gajaklar - bo'shgina o'ralashib qolgan tolalar guruhi. Bunday nuqsonlar tarash mashinasida taralganda yozilib ketishi mumkin.



a) gejaklı



b) murakkab gejaklı




d) pishmagan tolaniň  
yaltırıq parchası



f)ruk va tolali chigli  
qabilg'ı



e) xom va maydalengan  
chigitler



g) ugunkaklar



h) illosliklar

9.1-rasm. Paxtadagi ifloslik va nuqsonlar.

Murakkab gajaklar - bir-biriga mahkam o'ralashib qolgan bir necha gajaklilar ajralmaydigan bo'lib, ular ip yigirishda ancha qiyinchiliklar tug'diradi va ularning bir qismi chiqindiga aylanadi, natijada ipning chiqishi kamayadi.

Bunday nuqsonlarning ko'pchiligi, asosan, paxtani dastlabki ishlashda hosil bo'ladi, shuning uchun paxta tozalash zavodlarining ishini yaxshilash tola yetkazib berishda katta ahamiyatga ega.

Paxta tozalash korxonalarida paxtani qayta ishlashda asosiy mahsulotlardan tashqari ko'p miqdorda tolali chiqindilar ham olinadi. Ular tegishli qayta ishlashdan so'ng xomashyo sifatida to'qimachilik, kimyo sanoatlarida va xo'jalikning boshqa tarmoqlarida foydalilanadi.

Tola va momiq ajratkichlarning ishi jarayonida ajratib olingan o'liklar, chang tutgich va chang kameralaridan olingan momiq, tola tozalagichlar va arrali barabanli tozalagichlardan olingan chiqindilar tolali chiqindilarni tashkil qiladi.

Paxta tozalash korxonalarining tolali chiqindilari uch turga ajratiladi: tolali o'lik, regeneratsiyalangan (qayta ajratilgan) paxta tosasi, paxta momig'iga bo'linadi.

Tola ajratgich, tola tozalagich, birinchi qator momiq ajratgichgacha o'rnatilgan chigit tozalagich, regeneratorlardan chiqqan va iflosliklardan tozalangan tolali chiqindilar tolali o'lik deb ataladi. Uning tarkibi har xil bo'lib, o'smay qolgan kasal chigitlar (o'lik), ularga ilashgan tola, erkin tolalar, tolali chiqindilar va har xil xas-cho'plar bo'ladi.

Tola ajratgich qobirg'alari orasidagi oraliq belgilangan o'lchamda bo'lib, o'lik ayvonchasi kerakli holatda rostlanib turilsa, tola ajratgichdan ajratiladigan o'liklarning miqdori ishlanayotgan paxtaning naviq bog'liq bo'ladi. I va II nav paxta ishlanganda paxta og'irligiga nisbatan 0,2—0,3 %, III, IV va V nav paxta ishlanganda 0,5—0,6 % va ayrim hollarda 15 % o'lik ajratiladi.

Tola ajratgich qobirg'alari o'rtasidagi oraliq belgilangan o'lchamdan kengroq bo'lgan taqdirda chiqindilarga yirik chigitlar ham aralashishi mumkin. Paxta navi tolalik darajasiga iflosligiga, namligiga qarab tolali o'lik miqdori turlicha bo'ladi.

Tola nuqsonlari va iflos aralashmalarini aniqlash uchun namunani tanlash, AX—2 va FM—30 paxta tozalash analizatorlarida va qo'lda ajratib ko'rish (arbitraj) usullarini qo'llash O'z DSt 632—95 standartda keltirilgan.

Ushbu standart qo'llanilish sohasi bo'yicha bajarilishi majburiydir.

## **1. Qo'lda ajritish orqali paxta tosasi nuqsonlar va iflos aralashma miqdorini aniqlash**

Na`munani sayqallangan yupqa taxta yoki karton ustiga joylashtirib, ketma ket uch etapda iflos aralashmalar pentsit bilan ajratiladi.

*Birinchi ajratish:* na`munadan tugunchaklar, kombinatsiyalashgan tugunchaklar, pishmagan va maydalangan chigit, pishmalan tola plastigi va yirik iflosliklar ajratiladi va idishchalarga joylashtiriladi.

Ajratishda ajralgan mayda iflosliklar, yirik iflosliklar yig`ilgan idishchaga qo'shiladi.

Har turdag'i iflosliklarni massasini alohida  $\pm 1$  mg aniqlikda o'lchanadi va keyin massalar yig`indisi ( $m_c$ ) hisoblanadi.

SHu bilan birga nuqson va iflos aralashmalardan tozalangan tola ham  $\pm 1$  mg aniqlikda tortiladi va massasi ( $m_b$ ) aniqlanadi.

*Ikkinci ajratish:* birinchi ajratish natijasida olingan toza tolaning 10 joyidan nuqson va iflos aralashmalarining massaviy ulushi 5% gacha bo'lganda  $0,05*m_b$  ga teng qilib ikkinchi ajratish uchun ( $m_d$ ) tanlanadi.

$m_d$  massadan tola qobiq va mayda iflosliklar ajratiladi va alohida  $\pm 0,1$  mg aniqlikda massasi ulchanadi. SHu aniqlikda ikkinchi ajratish natijasida olingan toza tolaning massasi ( $m_b$ ) xam ulchanadi.

*Uchinchi ajratish :* ( $m_b$ ) massadagi paxta tolasining bir necha joyidan nuqson va iflos aralashmalar massaviy ulushi 5% gacha bo'lganda  $0,2*(m_b)$  ga, nuqson va iflos aralashmalar massaviy ulushi 5% va undan yuqori bo'lganda  $0,5*(m_b)$  ga teng qilib  $m_u$  massadagi miqdor ajratiladi.

$m_u$  massadan tugunchalar ajratiladi keyin 0,05 mg aniqlikda massasi o'lchanadi.

Nuqson va iflos aralashmalarining har bir turini ( $X_i$ ) foizlarda quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$X_i = \frac{m_i * k_i}{m_\eta} * 100$$

bu erda:  $m_i$  – namunani ajratish natijasida yig`ilgan nuqson va iflos aralashmalar turining massasi, g;

$m_\eta$  - sinash uchun olingan namunanining 50g yoki 10g ga teng bo'lган massasi;

$K_i$  – ikkinchi va uchinchi ajratishdanamunanining massasini kamayishini hisobga oluvchi koeffitsient.

$K_i$  koeffitsientining sinash uchun olingan namunanining massasi va ajratish etapiga bog`liq kattaliklari 9.1-jadvalda keltiriladi

9.1-jadval

Namunani ajratish	Sinash uchun olingan namunanining g lardagi massasida namunanining massasining kamayish koeffitsienti $K_i$	
	50	10
Birinchi	1	1
Ikkinci	20	10
Uchinchi	100	20

Paxta tolesi namunasidagi nuqson va iflos aralashmalarining yakuniy massaviy ulushi ( $P$ ) hamma  $X_i$  qiymatlarni jamlab foizlarda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\Pi = \sum_{i=1}^n X_i$$

## 2. Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini paxta analizatori yordamida aniqlash

Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini paxta analizatori yordamida aniqlash uchun vositalar

AX yoki FM-30 tipidagi paxta analizatori yoki o'xshash tipdagi boshqa rusumli paxta analizatorlari;

4-sinfga mansub yuqori tortish chegarasi 500 g gacha bo'lган umumiyl foydalanish uchun mo'ljallangan laboratoriya tarozilar;

2-sinfga mansub yuqori tortish chegarasi 200 g gacha bo'lган laboratoriya tarozilar;

iflos aralashmalarni yig'ishtirish uchun cho'tkacha;

iflos aralashmalarni yig'ishtirish uchun karton qog'oz.

Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini qo'lда ajratib aniqlash uchun vositalar

- 2-sinf aniqligidagi yuqori tortish chegarasi 20 g va 200 g bo'lган laboratoriya tarozilar;

- VT—20 yoki o'xshash tipdagi boshqa rusumli torsion tarozilar;

- karton varag'i yoki ustki qismi sayqallangan o'lchamlari 501/250 sm bo'lган yupqa taxta; plastmass idishchalar;

- pinset.

Paxta tolasining nuqsonlari va iflos aralashmalari miqdoriga attestatsiya xatoligi 0,3 % abs. ko'p bo'limgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan standart (etalon) namunalari olinadi.

### O'lchash usullari

Paxta tolasining nuqsonlari — paxta tolasining yigirilish xossalariini yomonlashtiruvchi har xil nuqson turlari: tugunchalar, kombinatsiyalashgan tugunchalar, pishmagan tolalar plastigi, tolali chigit qobig'i, pishmagan chigit (o'lilik), tolali maydalangan chigitlar, tugunchalar.

Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini aniqlash usullari ularni qo'lда yoki mexanik qurilmalar — paxta analizatorlari yordamida ajratib, so'ngra foiz miqdorini aniqlashga asoslangan.

Sinashdan oldin namunalar 4 soat davomida iqlim sharoitda yoki namuna massasining o'zgarishi 2 soat davomida 0,25 % dan oshmagan hollarda undan kam vaqt davomida ushlab turiladi.

### ***O'lchashni bajarishga tayyorgarlik***

Har bir paxta analizatori (etalon) standart namunalar bilan tekshirilib, shaxsiy (individual) tuzatish koeffitsiyenti aniqlangan bo'lishi kerak.

Tuzatish koeffitsiyenti tasdiqlangan qo'llanma bo'yicha tekshiriladi va o'rnatiladi.

Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini aniqlash uchun birlash-gan namuna tanlash O'z DSt 604 va O'z DSt 614 standartlariga muvofiq bajariladi.

Sinovlarni bajarishdan avval paxta analizatorini tola va iflosliklardan yaxshilab tozalanadi va bo'sh holatda ishlataladi:

AX tipidagi paxta analizatorlari barqaror tezlikka yetishguncha 2 daqiqa, FM—30 tipdagilarga esa 3 daqiqa vaqt sarf bo'ladi.

### ***Paxta tolasidagi nuqson va iflos aralashmalarni aniqlash***

Paxta tolasiga organik va mineral ko'rinishdagi iflos jismlar aralashgan bo'ladi. Bulardan tashqari, paxta tolalarida tabiiy paydo bo'lgan — gajakli, murakkab gajakli, pishmagan tolating yaltiroq parchasi, pishmagan va maydalangan tukli chigit ham bo'ladi.

Paxta tozalash korxonalar laboratoriyalarida tolating nuqsonlar va ifloslik yig'indisini aniqlashda qo'l bilan ajratish va mexanizatsiyalashtirilgan usulda tahlil qilish usullari qo'llaniladi.

Tolaning nuqsonlari iflosligini qo'l bilan aniqlanganda I va II navlar uchun 50 g va III, IV va V navlar uchun 10 g og'irlikda uch marta analiz qilinadi. Birinchi tekshirishda yirik iflosliklar, gajaklar, murakkab gajaklar, o'lik, maydalangan chigitlar va pishmagan tolating yaltiroq parchasi ajratib olinadi. Ikkinci tekshirishda qolgan toza toladan yuqori navlar uchun 1/20 qismini va past navlar uchun 1/10 qismini ajratib, bu namunadan tolali chigit qobig'i va mayda ifloslik ajratiladi. Uchinchi marta tekshirishda ikkinchi tekshirishdan chiqqan toza tolating yuqori navlari uchun 1/15 qismini va past navlar uchun 1/2 qismini ajratib, bu namunadan faqat tugunaklar ajratiladi.

Shundan keyin ajratilgan iflosliklar va nuqsonlar alohida tarozida tortilib, boshlang'ich namunaning og'irligiga (50 g yoki 10 g) nisbatan foizi aniqlanadi:

$$P = \frac{G_m}{G_H} * 100, \%$$

bunda:  $G_H$  - boshlang'ich namuna og'irligi;

$G_m$  - ajratilgan iflosliklar va nuqsonlar og'irligi.

Paxta tolasidagi nuqson va iflos aralashmalarning yig'indisini aniqlashda AX-2 tola analizatoridan foydalaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, paxta tolesi tarkibidagi nuqson va iflos aralashmalarni mexanikaviy ajratib, boshlang'ich namunaning og'irligiga nisbatan foizi aniqlanadi. AX-2 belgili analizatorida ishslash uchun keltirilgan tola namunasidan har birining og'irligi 100 g bo'lgan ikkita kichik namuna olib, ularning har biri 8 daqiqa davomida analizatorдан o'tkaziladi.

AX-2 tola analizatorining chizmasi 9.2-rasmida berilgan.

Bundan ta'minlash stoli (1) ustida taram-taram tishli valik (2) uchun tola tekis yoyib qo'yiladi. Arrali baraban (3) tolani tishlari bilan tarab, pichoq (4) ga, so'ngra teshiklari 1,3 mm bo'lgan to'rli baraban (6) ga uzatadi. To'rli baraban sirtiga kelayotgan tola qattiq yopishib qolmasligi uchun barabanning ichida to'siq baraban (7) bor. To'rli baraban ustiga selluloiddan yasalgan qobiq (14) yopib qo'yilganligi uchun asbobning qanday ishlayotganini kuzatib turish mumkin.

Arrali baraban va ta'minlash mexanizmi ostida chiqindi kamerasi joylashgan bo'lib, uning tubida chiqindi qutisi (13) o'rnatilgan. Ana-lizatorning pastki qismiga havo oqimi paydo qiladigan ventilator (8) o'rnatilgan. Tozalangan tolani to'rli baraban sirtidan pichoq (9) qirib oladi va toza kamera (12)ga yo'naltiradi.

O'rtacha namuna analizatoridan o'tkazib bo'lingach, uni to'xtatib, chiqindi kamerasining eshikchasi ochiladi va yig'ilgan iflosliklarni kamera devorlaridan ajratib olib, tarozida 0,01 g aniqlikda tortiladi. Toza tola va o'rtacha namuna olishda to'kilgan iflosliklar ham shunday aniqlikda

tortiladi. Tola tarkibidagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori (P) quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$P = \left( \frac{G_o}{G} * 100 + X \right) * K, \%$$

bunda:  $G_o$  - chiqindi kamerasiga yig'ilgan chiqindilar og'irligi, g;


$G$  - o'rtacha namuna og'irligi, g (to'kilgan iflosliklar hisobiga tuzatilganligi)  $G = 100 (1 - 0,01 X)$ ;

K - analizatorni tuzatish koeffitsiyenti;

X - o'rtacha namuna olishda to'kilgan iflosliklar miqdori, %.

Agarda ikki namuna ko'rsatkichlari orasidagi farq I, II va III navlar uchun 0,4 % dan va IV, V navlar uchun 0,8 % dan oshmasa, ko'rsatkich sifatida ikki namunaning o'rtacha ko'rsatkichi qabul qilinadi.

Aks holda uchinchi namuna tekshirilib, uchala namuna ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymati olinadi.



9.2-rasm. AX-2 analizatorning chizmasi: 1-ta'minlash stoli; 2-tishli valik; 3-arrali baraban; 4, 9 - pichoq; 5 - qopqoq; 6 - to'rli baraban; 7 - to'siq baraban; 8 - ventilator; 10 - to'siq; 11, 17 - to'siq; 12 -toza tola kamerasi; 13 -chiqindi qutisi; 14 – selluloidli qobiq; 15-asos; 16-quvur.

### *O'lchashning xatolik me'yori*

Ikki namunaning sinov natijalari orasidagi ruxsat etilgan tafovut (usulning o'xshashligi) paxta analizatorlarida quyidagilardan oshmasligi kerak:

nuqsonlar va iflos aralashmalarning massaviy ulushi 5,5 % dan kam bo'lganda - 0,4 %;

nuqsonlar va iflos aralashmalarning massaviy ulushi 5,5 % va undan oshiq bo'lganda - 0,8%.

Iste'molchi va ta'minlovchi laboratoriya sinovlari orasidagi tafovut hamda bir laboratoriya da ikki operator tomonidan qilingan sinov (usulning tiklanishi) orasidagi tafovut 9.2-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan oshmasligi kerak.

9.2-jadval

Nuqson va iflos aralashmalaming massaviy ulushi, %	Paxta analiiatori, %	Qulda ajratish, %
2,5 dan kam	0,4	0,2
2,5 dan 5,5 gacha	0,4	0,4
5,6 dan katta	0,8	0,8

**10-MASHG`ULOT**  
**MAVZU: PAXTA TOZALASH ZAVODINING ISHLAB CHIQIRISH QUVVATINI**  
**ANIQLASH.**

*Ishning maqsadi.* Paxta tozalash zavodining ishlab chiqirish quvvatini aniqlashni o'rganish.

Ishlab chiqarish dasturini hisoblashdan maqsad paxta tozalash zavodini bir yilda qancha mahsulot ishlab chikarish mikdorini aniklashdan iborat.

1. *Zavodning bir yilda ishlash vaqtini hisoblash.*

Zavodning bir yil ishlash vakti kuyidagicha aniklanadi.

$$T = [N - (N_o + N_\delta + N_k)] * N_c * t_c * \phi$$

bu erda:

N-bir yildagi kunlar soni

N<sub>d</sub>-dam olish kunlari soni

N<sub>b</sub>-bayram kunlari soni

N<sub>k</sub>-zavodning kapital ta'mirlashga sarf kilinadigan kunlari soni

N<sub>s</sub>-bir sutkadagi smenalar soni

t<sub>s</sub>-bir smenadagi soatlar soni

f-uskunalaridan foydalanish koefitsenti

$$T = [365 - (52 + 9 + 32)] * 3 * 8 * 0,92 = 6005,76 \text{ coam}$$

2. *Zavodning yil davomida ishlab chikaradigan tola mikdorini xisoblash.*

$$Q_T = (K_m * K_A * \Pi_{yp} * T) : 1000, \text{ monna}$$

bu erda:

K<sub>m</sub>- zavodda urnatilgan jinlar soni, dona

K<sub>A</sub>-bitta jindagi arralar soni

P<sub>ur</sub>-jinning ish unumi, kg.arra.soat

$$Q_T = (4 * 90 * 12,5 * 6005,76) : 1000 = 27025,92$$

3. *Zavodning doimiy ishlashi uchun kerak buladigan paxta xom ashyosi mikdori xisoblash.*

$$Q_n = \frac{Q_t * 100}{B_t} = \frac{27025,92 * 100}{33,6} = 80434,28$$

4. *Zavodda ishlab chikariladigan paxta va tola xajmi xisobi*

10.1-jadval

Tola navlari bo'yicha paxta assortimenti

Pax-ta navi	Paxta xajmi	Tola navlari bilyicha paxta hajmi										Sanoat navlari bo'yicha tola chiqishi va hajmi		
		1		2		3		4		5				
		%	t	%	t	%	t	%	t	%	t			
I	80	64348,2	80	64348,2								35,0	22521,8	
II	7,2	5791,3			7,2	5791,3						32,4	1876,3	
III	4,4	3539,1					4,4	3539,1				29,6	1047,5	
IV	7,5	6032,6							7,5	6032,6		22,9	1381,4	
V	0,9	723,9									0,9	723,9	27,4	198,3
jami	100	80435,2	80	64348,2	7,2	5791,3	4,4	3539,1	7,5	6032,6	0,9	723,9	33,6	27025,9

### 5. Tola navlarining sifati buyicha assortimenti

10.2-jadval

Paxta tolasining sinflari bo'yicha assortimenti

Pax- ta navi	Tola hajmi		Davlat standarti bylyicha tola sifati									
			A`lo		YAxshi		O'rta		Oddiy		Iflos	
	t	%	t	%	t	%	t	%	t	%	t	%
I	22521,8	35,0	20720,0	92	1801,8	8						
II	1876,3	32,4	112,5	6	1763,8	94						
III	1047,5	29,6			52,3	5	995,2	95				
IV	1381,4	22,9					41,4	3	1340,0	97		
V	198,3	27,4									198,3	100
Jami	27025,9	33,6	20832,5		3617,9		1036,6		1340,0		198,3	

### 6. Xom ashyo va tayyor maxsulot balansi

- a). 1-jadvaldan paxta assortimenti buyicha hajmi olinadi
- b). 2 jadvaldan paxta navlari sifati buyicha tola chikishi va mikdori olinadi
- v). paxtaning navlari buyicha uluk, momik, tolali chikindilar va ugarning chikishi zavod kursatkichlaridan olinadi
- g). uluk, momik, tolali chikindilar va ugarning mikdori kuyidagi formula orkali topiladi

$$q_{yn} = \frac{Q_m}{100} * B_{yn} \quad q_m = \frac{Q_m}{100} * B_m \quad q_{m_y} = \frac{Q_m}{100} * B_{m_y} \quad q_{y_2} = \frac{Q_m}{100} * B_{y_2}$$

- d). uluk, momik, tolali chikindilar va ugarning urtacha chikishi kuyidagi formula orkali topiladi

$$B_{yp} = \frac{q_I + q_{II} + q_{III} + q_{IV} + q_V}{Q_n} * 100\%$$

- e). CHigitning chikishi paxta navi buyicha kuyidagi formula orkali topiladi

$$V_{ch}=100-(V_t+V_{ul}+V_{tch}+V_{ug}), \%$$

- J). Paxtaning xar bir navidan olinadigan chigit mikdori kuyidagicha topiladi

$$q_x=Q_n * V_{ch}/100, \text{tonna}$$

10.3-jadval

Ishlab chikarishda paxdan olinadigan maxsulotlar balansi

Paxta navi	Paxta		Tola		CHigit momik bilan		O'luk		Tolali chikindi		Ugar	
	%	t	%	t	%	T	%	t	%	t	%	t
I	80	64348,2	35,0	22521,8	55,9	20782,7	0,7	260,3	3,8	1412,8	4,6	1710,2
II	7,2	5791,3	32,4	1876,3	55,6	1859,8	0,9	30,1	7,0	234,2	4,1	137,2
III	4,4	3539,1	29,6	1047,5	53,7	1077,7	1,0	33,4	11,0	224,9	4,7	96,1
IV	7,5	6032,6	22,9	1381,4	30,1	1049,2	1,4	48,8	4,6	160,3	41,0	1429
V	0,9	723,9	27,4	198,3	48,8	204,4	1,3	5,5	7,8	32,6	14,7	61,5
	100	80435,2	33,6	27025,9	53,6	24973,5	0,8	378,1	4,4	2064,8	7,3	3434

### 7. PTZ bosh binosidagi asosiy texnologik mashinalarning ish rejasi

Tola mikdori 1 jadvaldan olinadi – 27025,9

Jinlar soni – 4 ta

Jinlaring ish unumi (P), urtacha paxta navlari buyicha kuyidagicha takchimlanadi

I-nav paxta uchun,  $P_1=P_{ur}+1=10+1=11$

II-nav paxta uchun,  $P_{II}=P_{ur}=10$

III-nav paxta uchun,  $P_{III}=P_{ur}-1=10-1=9$

IV-nav paxta uchun,  $P_{IV}=P_{ur}-2=10-2=8$

V-nav paxta uchun,  $P_V=P_{ur}-3=10-3=7 \text{ kg/arra.sotat}$

10.4-jadval

Arrali jin urnatilgan tsexning ishlab chikarish dasturi

Kursatkichlar	Ulchov birligi	Paxtaning navi					Jami
		1	2	3	4	5	
Paxta hajmi	T	64348,2	5791,3	3539,1	6032,6	723,9	80435,28
Jinlar soni	Dona	4	4	4	4	4	4
Arralar soni	Dona	360	360	360	360	360	360
Jinlarning ish unumdorligi	Kg/arra. Soat	11	10	9	8	7	9
Ajratilgan tola mikdori	T	13012,5	1084,3	605,5	798,2	114,5	15614,97
